



@buxdu_uz



@buxdu1



@buxdu1



www.buxdu.uz



E-ISSN 2181-1466

9 772181 146004



ISSN 2181-6875


9 772181 687004

12(4)/2025

Научный вестник Бухарского государственного университета
Scientific reports of Bukhara State University



BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI ILMIY AXBOROTI



12(4)/2025

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI ILMIY AXBOROTI
SCIENTIFIC REPORTS OF BUKHARA STATE UNIVERSITY
НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК БУХАРСКОГО ГОСУДАРСТВЕННОГО УНИВЕРСИТЕТА

Ilmiy-nazariy jurnal
2025, № 12, dekabr

Jurnal 2003-yildan boshlab **filologiya** fanlari bo'yicha, 2015-yildan boshlab **fizika-matematika** fanlari bo'yicha, 2018-yildan boshlab **siyosiy** fanlar bo'yicha, **tarix** fanlari bo'yicha 2023-yil 29-avgustdan boshlab O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar Vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasining dissertatsiya ishlari natijalari yuzasidan ilmiy maqolalar chop etilishi lozim bo'lgan zaruriy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

Jurnal 2000-yilda tashkil etilgan.

Jurnal 1 yilda 12 marta chiqadi.

Jurnal O'zbekiston matbuot va axborot agentligi Buxoro viloyat matbuot va axborot boshqarmasi tomonidan 2020-yil 24-avgust № 1103-sonli guvohnoma bilan ro'yxatga olingan.

Muassis: Buxoro davlat universiteti

Tahririyat manzili: 200117, O'zbekiston Respublikasi, Buxoro shahri Muhammad Iqbol ko'chasi, 11-uy.
Elektron manzil: nashriyot_buxdu@buxdu.uz

TAHRIR HAY'ATI:

Bosh muharrir: Xamidov Obidjon Xafizovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bosh muharrir o'rinbosari: Samiyev Kamoliddin A'zamovich, texnika fanlari doktori (DSc), dotsent

Mas'ul kotib: Shirinova Mexrigiyo Shokirovna, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Kuzmichev Nikolay Dmitriyevich, fizika-matematika fanlari doktori (DSc), professor (N.P. Ogaryov nomidagi Moldova milliy tadqiqot davlat universiteti, Rossiya)

Danova M., filologiya fanlari doktori, professor (Bolgariya)

Margianti S.E., iqtisodiyot fanlari doktori, professor (Indoneziya)

Minin V.V., kimyo fanlari doktori (Rossiya)

Tashqarayev R.A., texnika fanlari doktori (Qozog'iston)

Mo'minov M.E., fizika-matematika fanlari nomzodi (Malayziya)

Mengliyev Baxtiyor Rajabovich, filologiya fanlari doktori, professor

Adizov Baxtiyor Rahmonovich, pedagogika fanlari doktori, professor

Rasulov To'liqin Husenovich, fizika-matematika fanlari doktori (DSc), professor

Abuzalova Mexriniso Kadirovna, filologiya fanlari doktori, professor

Amonov Muxtor Raxmatovich, texnika fanlari doktori, professor

Barotov Sharif Ramazonovich, psixologiya fanlari doktori, professor, xalqaro psixologiya fanlari akademiasining haqiqiy a'zosi (akademigi)

Baqoyeva Muhabbat Qayumovna, filologiya fanlari doktori, professor

Bo'riyev Sulaymon Bo'riyevich, biologiya fanlari doktori, professor

Jumayev Rustam G'aniyevich, siyosiy fanlar nomzodi, dotsent

Djurayev Davron Raxmonovich, fizika-matematika fanlari doktori, professor

Durdiyev Durdimurod Qalandarovich, fizika-matematika fanlari doktori, professor

Olimov Shirinboy Sharofovich, pedagogika fanlari doktori, professor

Qahhorov Siddiq Qahhorovich, pedagogika fanlari doktori, professor

Umarov Baqo Bafoyevich, kimyo fanlari doktori, professor

Murodov G'ayrat Nekovich, filologiya fanlari doktori, professor

O'rayeva Darmonoy Saidjonovna, filologiya fanlari doktori, professor

Navro'z-zoda Baxtiyor Nigmatovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Hayitov Shodmon Ahmadovich, tarix fanlari doktori, professor

To'rayev Halim Hojiyevich, tarix fanlari doktori, professor

Rasulov Baxtiyor Mamajonovich, tarix fanlari doktori, professor

Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Quvvatova Dilrabo Habibovna, filologiya fanlari doktori, professor

Axmedova Shoiri Nematovna, filologiya fanlari doktori, professor

Bekova Nazora Jo'rayevna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor

Amonova Zilola Qodirovna, filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

Hamroyeva Shahlo Mirjonovna, filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

Nigmatova Lola Xamidovna, filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

Boboyev Feruz Sayfullayevich, tarix fanlari doktori

Jo'rayev Narzulla Qosimovich, siyosiy fanlar doktori, professor

Xolliyev Askar Ergashovich, biologiya fanlari doktori, professor

Artikova Hafiza To'ymurodovna, biologiya fanlari doktori, professor

Norboyeva Umida Toshtemirovna, biologiya fanlari doktori, professor

Hayitov Shavkat Ahmadovich, filologiya fanlari doktori, professor

Qurbonova Gulnoz Negmatovna, pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

Ixtiyarova Gulnora Akmalovna, kimyo fanlari doktori, professor

Rasulov Zubaydullo Izomovich, filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

Mirzayev Shavkat Mustaqimovich, texnika fanlari doktori, professor

Esanov Husniddin Qurbonovich, biologiya fanlari doktori, dotsent

Raupov Soyib Saidovich, tarix fanlari nomzodi, professor

Zaripov Gulmurot Toxirovich, texnika fanlari nomzodi, professor

Jumayev Jura, fizika-matematika fanlari nomzodi, professor

Qurbonova Manzila Bakiyevna, tarix fanlari nomzodi, professor

Ochilov Alisher To'lis o'g'li, tarix fanlari doktori, dotsent

Klichev Qybek Abdurasulovich, tarix fanlari doktori, dotsent

G'aybulayeva Nafisa Izattullayevna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor

SERIYA: ADABIYOTSHUNOSLIK

MUNDARIJA *** СОДЕРЖАНИЕ *** CONTENTS		
ADABIYOTSHUNOSLIK *** LITERARY CRITICISM ***		
ЛИТЕРАТУРОВЕДЕНИЕ		
Aliqulova D., Umarova M.Sh.	Alisher Navoiy va Uilyam Shekspir ijodining badiiy hamohangligi	3
Hayitov Sh.A., Barotova X.J.	“O‘tkan kunlar” genezisi haqida	8
Hamrayev I.A., Halilova S.U.	Abdulla Qodiriyning “Uloqda” hikoyasi va undagi evfimizmlar tahlili	16
Hayotova D.Z.	Hafiza Qo‘chqarovaning “Makon istab” asari va Jenni Erpenbekning “Heimsuchung” romanida “vatan” konseptining madaniy-semantik tahlili	20
Jalilova L.J., Inoyatova Z.S.	The analysis of George Bernard Shaw’s social satire in “Heartbreak house”	28
Ishankulova D.A.	Umar Xayyom hayoti, yashagan davri va adabiy muhitga doir mulohazalar	33
Kalonova I.T.	Ashuro marosimi: Buxoro eroniylarining madaniy merosi va zamonaviy transformatsiya jarayonlari	39
Nurdinova F.X.	Tarjimada milliy xususiyatlar	43
Rasulova N.K.	Maxmur ijodida mulamma’ muxammas va uning poetik tahlili	48
Razzakov B.A.	Mario Vargas Llosaning romanlarida narrativ murakkablik va polifoniya nazariyalari	52
Sharipova P.Sh.	The role of memory and trauma in Ian McEwan’s “Atonement”	57
Narzullaeva F.O., Shodieva M.Sh.	A comparative analysis of denotative and connotative meanings of somatisms in Khaled Hosseini’s “The kite runner” and its Uzbek translation	61
Narzullaeva F.O., Tuymuradova R.R.	The emotional landscape of folk wisdom through somatic symbols	67
Alikulova D., Khurramova Kh.Sh.	The concept of happiness and fate in Uzbek and English proverbs	72
Yakhshieva Z.R., Rashidova S.A.	Criteria for the representation of the Timurid princesses in Uzbek and English literature	78
Kurbonova N.R., Sharipova K.U.	Origin and themes of “Mary Poppins”	82
Niyazova M.Kh., Akramova M.S.	Harmony of family, school, and upbringing in the works of Lucy Maud Montgomery	87
Jo‘rayeva F.Sh.	“Milliy ashulalar uchun milliy she‘rlar” majmuasining yaratilish tarixi, tuzilishi va xususiyatlari	91
Niyazova M.J.	Nemis sentimental nasrini qiyosiy-tarixiy kontekstda o‘rganish	95
Norqulova M.G‘.	“Bu kunning davomi” qissasida detal-ramznig o‘rni	100
Jalilova L.J., Oromova M.U.	Magic, morality, and mind: Roald Dahl’s use of fantasy to shape children’s cognitive development	104

Rajabov D.Z., Safarova Z.Z.	Badiiy makonda zamonning harakati: syujet dinamikasidagi roli	110
Sharipova D.Sh.	The role of symbols in modern literature and novels	114
Sobirova Sh.F.	Alisher Navoiyning “Hayrat ul-abror” dostonidagi paradigmatic munosabatlar	123
Usmonov M.I.	Maxtumluli “Saylanma”si 45-sahifa “Oxirzamon ichinda...”	127
Xalimova G.Sh.	Jahon va o‘zbek adabiyotida bolalik mavzusi	132
Курбонов П.А.	Проблемы бунта, свободы, справедливости и человеческого сознания в трёх произведениях	140
Набиева Р.Р.	Мифологические коды и аллюзии в современном художественном тексте	144
Ganieva O.Kh., Akhmadova S.D.	Cultural interpretations of motherhood in American and Uzbek literary contexts	149
Муродова Д.А.	Современная женская проза в XXI - веке (на материале произведений Маши Трауб и Зульфии Куролбой кизи)	153
Abdullayev O.O.	Bayon ilmida istioraning ro‘li	157
Jo‘rayeva D.O.	Epik va dramatik turning asosiy unsurlari va ularning badiy–estetik funksiyasi	163
Khamdamova S.B.	Critical approaches and literary trends in the irish literary revival	167
Komilova Z.Y.	Turk dramaturgi turgut o‘zakman va behbudiy dramaturgiyasining qiyosiy tahlil	171
Xamdullayeva M.O.	Alisher Navoiy lirikasida lab timsoli badiiyati	177
Khayrullaeva N.N.	A comparative analysis of ernest hemingway and barbara kingsolver’s works: ecological consciousness and environmental themes	182
Mamanova D.U.	Badiiy asar kompozitsiyasida epigrafning tutgan o‘rni va poetikasi	188
Normamatov F.K.	Stylistic complexity and intertextual references in modern english prose	192
Sodiqova Sh.S., Choriyeva F.T.	Uilyam Shekspirning “Romeo va Julietta” hamda Alisher Navoiyning “Farhod va Shirin” syujetlarining qiyosiy tahlili	196
Sohibova Z.N.	She’riyatda tabiat manzarasi orqali ijtimoiy-siyosiy mavzularning ifodalanishi (Cho‘lpon va Rauf Parfi ijodi misolida)	200
NAVOIY GULSHANI		
Jumayeva N.N.	Tiyra kulbamg’a kirib, jono, o’lumdin ber najot	205

ALISHER NAVOIY VA UILYAM SHEKSPIR IJODINING BADIY HAMOHANGLIGI

Aliqulova Dildora,

Turon universiteti dotsenti v.b.,
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Umarova Marjona Shavkatovna,

Turon Universiteti talabasi

Annotatsiya. Mazkur maqolada Sharqning buyuk mutafakkiri va shoirlar sultoni Alisher Navoiy hamda G'arb adabiyotining dahosi Uilyam Shekspir ijodiga taqqosiy nazar tashlanadi. Ularning asarlarida insonparvarlik, muhabbat, adolat, vatanparvarlik, do'stlik, ma'naviyat va hayot falsafasi kabi umumiy g'oyalar tahlil qilinadi. Tadqiqot davomida Navoiyning lirikasidagi ruhiy poklik, tasavvufiy mazmun va Shekspir dramaturgiyasidagi inson ruhiyatining dramatik talqini o'rganiladi. Har ikki ijodkor asarlarida tilning badiiy qudrati, ma'no chuqurligi va falsafiy teranlik o'zaro uyg'unlashgani, shuningdek, ularning insoniyat madaniyatiga qo'shgan hissasi ulkan ahamiyat kasb etishi yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: taqqosiy tahlil, adabiy meros, insonparvarlik, falsafa, muhabbat, adolat, ruhiyat, tasavvuf, dramaturgiya, badiiy til.

ХУДОЖЕСТВЕННАЯ ГАРМОНИЯ ПРОИЗВЕДЕНИЙ АЛИШЕРА НАВОИ И УИЛЬЯМА ШЕКСПИРА

Аннотация. В данной статье проводится сравнительный анализ творчества великого мыслителя Востока и султана поэтов Алишера Навои и гения западной литературы Уильяма Шекспира. В их произведениях рассматриваются такие общечеловеческие идеи, как гуманизм, любовь, справедливость, патриотизм, дружба, духовность и философия жизни. В ходе исследования изучаются духовная чистота и суфийское содержание в лирике Навои, а также драматическая интерпретация человеческой психики в драматургии Шекспира. Освещается, как в произведениях обоих авторов гармонично сочетаются художественная сила языка, глубина смысла и философская пронизательность, а также подчёркивается огромное значение их вклада в культуру человечества.

Ключевые слова: сравнительный анализ, литературное наследие, гуманизм, философия, любовь, справедливость, психология, суфизм, драматургия, художественный язык.

THE ARTISTIC HARMONY OF THE WORKS OF ALISHER NAVOIY AND WILLIAM SHAKESPEARE

Abstract. This article presents a comparative analysis of the works of the great Eastern poet and thinker Alisher Navoi and the Western literary genius William Shakespeare. It explores their shared humanistic ideas, the philosophy of love, justice, spirituality, patriotism, and the artistic portrayal of human nature. The study highlights Navoi's poetic depth, Sufi-inspired themes, and Shakespeare's dramatic insight into the human soul. Both writers are united by their profound wisdom, rich artistic language, and their timeless contribution to world literature and culture.

Key words: comparative analysis, literary heritage, humanism, philosophy, love, justice, spirituality, Sufism, poetry, drama, artistic language.

Kirish. Jahon adabiyoti tarixida Alisher Navoiy va Uilyam Shekspir nomlari badiiy tafakkurning eng yuksak cho'qqilaridan biri sifatida e'tirof etiladi. Ikkala ijodkor turli geografik hududlarda, bir-biridan mutlaqo uzoq tarixiy-madaniy muhitlarda yashab ijod qilgan bo'lsalar-da, ularning asarlarida umuminsoniy g'oyalar, ruhiy kechinmalar, muhabbat, sadoqat, adolat va insonlik mohiyati kabi mavzularning talqini hayratlanarli darajada yaqinlik kasb etadi. Adabiyotshunoslikda bunday holat "badiiy hamohanglik", "ruhan mushtaraklik" yoki "adabiy konvergensiya" hodisasi sifatida talqin qilinadi.

Navoiy asarlarida Sharq mumtoz poetikasiga xos ramzlar, tasavvuf falsafasi, ishqning ma'naviy-ma'rifiy yo'nalishi asosiy o'rinni egallasa, Shekspir dramaturgiyasida insonning ichki ziddiyatlari, ijtimoiy munosabatlarning murakkabligi hamda shaxsning irodaviy tanlovi markazda turadi. Shunga qaramay, ikkala ijodkorning badiiy dunyoqarashida inson tabiatining teran va ziddiyatli mohiyatini ochib berish, ruhiy

kechinmalarni psixologik noziklik bilan tasvirlash, hayot va taqdir masalasiga falsafiy yondashuv singari umumiyliklar ko'zga tashlanadi.

Mavzuga doir adabiyotlar tahlili. Nazariy manbalarda qayd etilishicha, har ikki adib ijodi "umumbashariy poetik tafakkurning uyg'unlashuvi"ning yorqin namunasi bo'lib, ularning asarlari milliy adabiy an'analar doirasidan keng o'tib, jahon madaniyatining umumiy merosiga aylangan. Navoiyda lirik tafakkur, timsollar tizimi va tasavvufiy ma'naviyat qanday markaziy o'rin tutsa, Shekspirda dramatik konflikt, xarakterlar psixologiyasi va hayotiylik birdek kuchli san'atkorlik mezoniga aylanadi. Shu ma'noda ularning asarlari o'rtasidagi badiiy hamohanglik masalasi nafaqat tarixiy-qiyosiy yondashuv uchun, balki adabiyotning universal tabiatini tadqiq etish nuqtayi nazaridan ham dolzarb ilmiy ahamiyat kasb etadi.

Mazkur maqolada Alisher Navoiy va Uilyam Shekspir ijodining badiiy uyg'unlik jihatlari qiyosiy tahlil asosida yoritiladi, ular ijodidagi obrazlar tizimi, estetik qarashlar, inson ruhiyatini talqin etish tamoyillari hamda umuminsoniy g'oyalarning badiiy ifodasi nazariy manbalar va zamonaviy ilmiy yondashuvlar asosida tahlil qilinadi. Sharq va G'arb adabiyoti insoniyat tafakkurining ikki yirik yo'nalishini ifodalaydi. Sharq adabiyoti, asosan, falsafiy mazmun, ruhiy poklanish, ma'naviy qadriyatlar va insonning ichki dunyosini yoritishga qaratilgan. Unda muhabbat, sabr, mehr va adolat kabi ilohiy tushunchalar ustuvor o'rin egallaydi. G'arb adabiyoti esa ko'proq realizm, individualizm va inson irodasining kuchini tasvirlash bilan ajralib turadi. U hayotiylik, ijtimoiy muammolar va inson erkinligini yoritadi. Har ikkisi o'z davrining madaniy, siyosiy hamda ma'naviy manzarasini ifoda etgan holda, bugungi jahon adabiyotining shakllanishida muhim o'rin tutadi. Jahon adabiyoti tarixida har bir xalqning ma'naviy yuksalishida alohida o'rin tutgan siymolar bor. Sharqda Alisher Navoiy, G'arbda esa Uilyam Shekspir ana shunday buyuk ijodkorlardandir. Ularning ijodi, qarashlari, insoniyat haqidagi falsafasi turli madaniyat, til va davr farqlariga qaramay, bir nuqtada — inson ruhiyati va ma'naviyatining cheksiz olamida tutashadi. Bu ikki ulug' zot asarlari bugungi kunda ham inson tafakkurini uyg'otadi, hayot va muhabbat, adolat va vijdon, ezgulik va yovuzlik o'rtasidagi kurashni yoritib beradi.

Ushbu tadqiqot Alisher Navoiy va Uilyam Shekspir ijodidagi badiiy hamohanglikni aniqlashga qaratilgan bo'lib, IMRAD talablariga muvofiq metodologik yondashuvlar majmuasi asosida amalga oshirildi. Tadqiqotning nazariy poydevorini komparativ adabiyotshunoslik prinsiplari tashkil etadi. Xususan, R. Wellek, H. Remak, A. Veselovskiy, V. Jirmunskiy, J. Tynyanov kabi olimlarning adabiyotlararo aloqalar, tipologik mushtaraklik, poetik parallelizm haqidagi ilmiy qarashlari asos sifatida olingan.

Tadqiqot metodologiyasi. Metodologiya quyidagi asosiy bosqich va metodlarni o'z ichiga oladi:

1. Qiyosiy-tarixiy metod

Navoiy (XV asr) va Shekspir (XVI–XVII asrlar) yashab ijod qilgan tarixiy-madaniy muhitlar taqqoslandi. Sharq mumtoz adabiyotining tasavvufiy-estetik an'analari bilan G'arb Uyg'onish davri dramaturgiyasi o'rtasidagi farq va o'xshashliklar tarixiy kontekstda tahlil qilindi. Bu metod ikki adib poetikasining shakllanish omillarini aniqlashga xizmat qildi.

2. Struktur-semantik tahlil

Har ikki ijodkor asarlarida uchraydigan markaziy semantik maydonlar – muhabbat, ezgulik, adolat, taqdir, ruhiy iztirob, ma'naviy kamolot – struktur jihatdan o'rganildi. Obrazlar tizimi, ularning g'oyaviy yuklamasi hamda mazmuniy qatlamlardagi mushtaraklik aniqlab borildi.

3. Poetik-analitik yondashuv

Shekspir tragediyalaridagi dramatik konflikt, monologlar poetikasi, xarakterlar psixologiyasi Navoiy g'azallari va dostonlaridagi lirizm, ramziy obrazlar, tasavvufiy ma'no qatlamlari bilan solishtirildi. Ushbu metod ikki ijodkorning badiiy til va estetik ifoda imkoniyatlarini qiyosiy o'rganish imkonini berdi.

4. Tipologik yondashuv

Navoiy va Shekspir ijodidagi umumiyliklar genealogik (bevosita ta'sir) emas, balki tipologik o'xshashlik sifatida talqin qilindi. Bu yondashuv "adabiy hamohanglik"ning milliy yoki regional adabiy maktabdan ustun turgan umuminsoniy tamoyillar asosida shakllanishini ko'rsatadi.

5. Kontekstual tahlil

Adabiyotning ijtimoiy-madaniy omillarga bog'liqligini e'tiborga olgan holda, har ikki adib yashagan siyosiy, diniy, falsafiy muhit va ularning asarlardagi aks-sadosi o'rganildi. Bu yondashuv Navoiy va Shekspir asarlarining g'oyaviy ildizlarini aniqlashga imkon berdi.

Mavzuga doir adabiyotlarni o'rganish shuni ko'rsatadiki, Navoiyshunoslik va Shekspirshunoslik bo'yicha keng ilmiy baza mavjud bo'lsa-da, ularning ijodini to'g'ridan-to'g'ri qiyosiy tahlil qilishga bag'ishlangan maxsus tadqiqotlar nisbatan kamdir. Shu bois ushbu ishga asos bo'luvchi manbalar bir necha turkumga ajratildi.

1. Navoiyshunoslik manbalari

Olingan natijalar va ularning tahlili. Navoiy asarlarining estetik mohiyati, tasavvufiy ma'naviyati, g'azal poetikasi, ishq falsafasini tadqiq etishga bag'ishlangan ilmiy ishlar – A. Hayitmetov, N. Komilov, E. Rustamov, S. G'aniyeva, H. Boltaboyev kabi olimlar tomonidan keng yoritilgan. Ularning izlanishlari Navoiyning badiiy tafakkuri, ramzlar tizimi va poetik mahoratini tushunishda asosiy nazariy manba bo'lib xizmat qildi.

2. Shekspirshunoslik manbalari

Shekspir ijodi, uning dramatik poetikasi, obraz yaratish mahorati haqida A.C. Bradley, Harold Bloom, Jan Kott, G. Wilson Knight, Northrop Frye kabi tadqiqotchilarning qarashlari asosiy ilmiy manbalar sifatida o'rganildi. Bloomning Shekspirni "inson tabiatining yaratuvchisi" deb atashi, Bradley ning Shekspir tragediyalari tahlili mazkur tadqiqot uchun alohida nazariy ahamiyatga ega.

3. Komparativ adabiyotshunoslik bo'yicha manbalar

Adabiyotlararo tipologik hamohanglik nazariyasi Wellek, Remak, Guillén kabi olimlar tomonidan atroflicha ishlab chiqilgan. Ularning ishlarida badiiy mushtaraklikning mintaqalararo yoki madaniyatlararo tabiati asoslab berilgan bo'lib, mazkur maqola uchun metodologik tayanch vazifasini bajardi.

4. Sharq va G'arb poetik tafakkurining umumiy nazariy asoslari

Sharq mumtoz adabiyoti (aruz nazariyasi, tasavvuf poetikasi, ishq konsepsiyasi) bo'yicha Fitrat, Bertels, Bobur va zamonaviy o'zbek tadqiqotchilarining ishlari; G'arb Uyg'onish davri poetik tafakkuri bo'yicha Burckhardt, Greenblatt kabi olimlarning tadqiqotlari ikki sivilizatsiya poetikasining asosiy farqlari va o'xshashliklarini tahlil qilish imkonini beradi.

5. Zamonaviy komparativ tadqiqotlar

Navoiy va Shekspir ijodini qiyosiy o'rganishga bag'ishlangan maqolalar, talabalik dissertatsiyalari, ilmiy risolalar oxirgi yillarda tobora ko'payib borayotgani mavzuning dolzarbligini tasdiqlaydi. Ularning aksariyatida adabiy tafakkurdagi universalizm, ruhiy mushtaraklik, estetik uyg'unlik masalalari yoritilgan.

Alisher Navoiy (1441–1501) Temuriylar davrida yashab, turkiy tilda adabiyotning yuksak namunalarini yaratdi. U o'z davrida fors-tojik tilining adabiy ustunligini sindirib, turkiy tilda ham ulug' asarlar yaratish mumkinligini isbotladi. Navoiy nafaqat shoir, balki mutafakkir, davlat arbobi va xalqparvar inson edi. Uning "Xamsa" dostonlari, "Mahbub ul-qulub", "Nasoyim ul-muhabbat", "Lison ut-Tayr" kabi asarlari inson ma'naviyatini yuksaltirishga xizmat qilgan.

Uilyam Shekspir (1564–1616) esa Yevropaning Uyg'onish davrida yashab, ingliz tilidagi dramaturgiya va she'riyatni yangi bosqichga olib chiqqan. Uning "Gamlet", "Otello", "Qirol Lir", "Makbet", "Romeo va Julietta" asarlari inson ruhiyatidagi ziddiyatlarni chuqur ochib beradi. Shekspir ijodi orqali G'arb falsafasi va insonshunosligi yanada boyidi.

Alisher Navoiy asarlarida insonning eng oliy fazilati — adolat, sabr, sadoqat va muhabbat sifatida ko'rsatiladi. U "Hayrat ul-abror" dostonida axloqiy mukammallikni, "Farhod va Shirin"da esa fidokorlik va muhabbatni ulug'laydi. Navoiy uchun inson – bu ruhiy poklikka intiluvchi mavjudotdir.

Shekspir esa o'z asarlarida insonni ichki kurashlar girdobida tasvirlaydi. Masalan, "Gamlet"dagi mashhur "Bo'lish yoki bo'lmaslik" monologi insonning hayot va o'lim orasidagi falsafiy qarorini ifodalaydi. Shekspir qahramonlari orqali inson tafakkurining murakkabligini, ruhiy iztirob va vijdon azobini ko'rsatadi.

Shunday qilib, Navoiy insonni komillikka, Shekspir esa haqiqat izlab qiynalayotgan ruh sifatida tasvirlaydi.

"Layli va Majnun" – Sharq adabiyotining eng mashhur ishqiy dostonlaridan biri bo'lib, uning eng go'zal talqinini Alisher Navoiy yaratgan. Asarda ikki pokiza qalb – Qays (Majnun) va Laylining bir-biriga sadoqatli muhabbati, ammo jamiyat to'siqlari sabab ularning sevgi yo'lida azob chekishi tasvirlanadi. Navoiy bu doston orqali insoniy muhabbatni ilohiy muhabbat darajasiga ko'targan. Majnun obrazi orqali muallif ishq yo'lida fidoyilik, sabr va ruhiy kamolotni ifodalagan. Uning nazarida haqiqiy sevgi insonni Allohga yaqinlashtiradi:

"Kim sevdi, u Haqni bildi" – bu Navoiy falsafasining mohiyatidir.

"Romeo va Julietta" esa G'arb adabiyotining durdonasi bo'lib, Uilyam Shekspir qalamiga mansub. Asarda ikki dushman oilaning farzandlari – Romeo va Julietta o'rtasidagi fojiali muhabbat hikoya qilinadi. Ularning sevgisi nafaqat shaxsiy his-tuyg'ular, balki jamiyatdagi adovat va adolatsizlikka qarshi isyon ramzidir.

Taqqoslaganda, har ikki asarda sevgi poklik, sadoqat va insoniy qadriyatlar timsoli sifatida yoritilgan. "Layli va Majnun"da muhabbat ruhiy-irodiy sinov orqali ilohiylikka yuksalsa, "Romeo va Julietta"da u hayotiy fojia orqali insonning erkinlik va baxtga intilishini aks ettiradi. Shu tariqa, Navoiy va Shekspir ikki xil madaniyatda bir xil tuyg'u – sof muhabbatni badiiy yuksaklikda tasvirlashga muvaffaq bo'lganlar.

Alisher Navoiyning “Saddi Iskandariy” dostoni – “Xamsa” turkumining beshinchi va yakuniy asaridir. Unda buyuk sarkarda Iskandar (Aleksandr Makedonskiy) obrazi orqali adolatli hukmdor, ilm va donolikni qadrllovchi inson timsoli yaratiladi. Navoiy bu asarda Iskandarning moddiy qudratidan ko‘ra, uning ma‘naviy yetukligini, xalq farovonligi yo‘lida qilgan ishlari va adolatli boshqaruvini ulug‘laydi. Asar nafaqat tarixiy qahramon haqida, balki insonning mukammallikka intilishi, ilm va adolatning yuksak qadri haqida ham falsafiy mulohazalarni o‘z ichiga oladi.

Uilyam Shekspirning “Qirol Lir” tragediyasi esa insoniy fojia, nafs va xiyonat mavzularini chuqur ochib beradi. Asarda Lir ismli podsho o‘z shohligini qizlariga bo‘lib beradi, biroq mehrsiz va manfaatsiz muhabbatni ajrata olmay, so‘ngra o‘z xatolarini kech anglaydi. Asarda insonning g‘urur va manmanlik tufayli o‘z qadriyatlaridan uzoqlashuvi, oilaviy mehrning qadrsizlanishi va kechikkan tavba orqali ruhiy tozalikka erishish g‘oyasi yoritilgan.

“Yuliy Sezar” esa siyosiy fojiaga asoslangan asar bo‘lib, hokimiyat, sadoqat va xiyonatning o‘zaro kurashini ko‘rsatadi. Shekspir bu tragediyada insoniyat tarixidagi muhim savol – “hokimiyat insonni buzadimi yoki inson hokimiyatni?” degan masalani yoritadi. Brutusning Sezarga qilgan xiyonati orqali adolat va vijdon o‘rtasidagi murakkab kurash badiiy ifoda topadi.

Har ikki ijodkor uchun adolat – insoniyatning mavjudlik asosi. Ushbu uch asarda – “Saddi Iskandariy”da adolat va donolik, “Qirol Lir”da insoniy mehr va saboq, “Yuliy Sezar”da esa siyosiy ong va axloqiy tanlov asosiy falsafiy g‘oya sifatida ilgari surilgan. Navoiy va Shekspir o‘z davrining turli madaniy muhitida yashagan bo‘lsalar-da, har ikkisi inson mohiyatini, ruhiy tozalikka intilish va adolat izlash yo‘lini chuqur badiiy ifoda etganlar.

Adabiyotshunoslar, jumladan, Abdurauf Fitrat va Abdulla Qayumovlar Alisher Navoiy tilining musiqiyligi, obrazliligi hamda ma‘nodagi chuqurligini alohida ta’kidlaydilar. Navoiy o‘z asarlarida turkiy tilda inson ruhiyatini, falsafiy fikrlarni va ilohiy tuyg‘ularni nihoyatda nafis va ohangdor tarzda ifodalagan. U so‘z orqali ruhning nozik kechinmalarini tasvirlab, badiiy tilni san‘at darajasiga ko‘targan. Aynan shu jihati bilan Navoiy turkiy tilni “adabiyot tili” darajasiga olib chiqqan va uni jahon madaniyati miqyosiga olib chiqqan buyuk tilshunos ijodkor sifatida tarixda qolgan.

Uilyam Shekspir ham ingliz adabiyotida til va badiiy tafakkur rivojiga beqiyos hissa qo‘shgan. Uning asarlarida so‘z o‘yini, metaforalar, monologlar va tazodlar g‘oyaviy yuk tashuvchi asosiy vositadir. Shekspir o‘z asarlarida inson nutqining boy imkoniyatlarini namoyon etib, so‘z orqali chuqur falsafiy ma‘nolarni ifodalashning yangi bosqichini yaratgan. Olimlarning fikriga ko‘ra, u 2000 dan ortiq yangi so‘zni ingliz tiliga kiritgan va shu orqali tilni zamonaviy shaklga keltirgan.

Demak, Navoiy va Shekspir – ikki xil davr, ikki xil madaniyat vakili bo‘lsalar-da, ularni birlashtiruvchi eng muhim jihat – tilni san‘at darajasiga olib chiqqan ijodiy qudratdir. Har ikkalasi ham o‘z milliy tilining badiiy imkoniyatlarini ochib bergan, uni jahon adabiy tafakkuri darajasiga ko‘targan buyuk so‘z san‘atkorlaridir.

Muhokama. Yuqoridagi tahlillar shuni ko‘rsatadiki, Alisher Navoiy va Uilyam Shekspir ijodi har xil tarixiy makon, estetik an‘ana va madaniy muhitda shakllangan bo‘lsa-da, ularning asarlarida inson ruhiyati, hayot mazmuni, ezgulik va adolat tushunchalarining badiiy talqini jihatdan chuqur mushtaraklik mavjud. Har ikki adib o‘ziga xos poetik dunyoqarashga ega bo‘lib, ularning badiiy tafakkuri umuminsoniy qadriyatlarni yuksak darajada ifoda etishi bilan ajralib turadi. Navoiy ijodida tasavvufiy-ma‘rifiy g‘oyalar markaziy o‘rinda turib, insonning ruhiy poklanishi, komillikka erishishi va ilohiy muhabbat sari intilishi asosiy ma‘naviy mezon sifatida talqin etiladi. Shekspir esa o‘z dramatik asarlarida inson tabiatining murakkab ziddiyatlari, ijtimoiy munosabatlardagi to‘qnashuvlar hamda shaxsning ichki kurashini realistik va psixologik chuqurlikda yoritadi.

Shunga qaramay, ikki buyuk mutafakkirning maqsadi bitta nuqtada – insonni anglash va uni ezgulik sari yo‘naltirish g‘oyasida uyg‘unlashadi. Navoiy o‘z qahramonlari orqali insonning ruhiy yuksalish bosqichlarini ko‘rsatsa, Shekspir hayot sinovlari orqali komillikka eltuvchi insoniy xususiyatlarni namoyon etadi. Demak, biri Sharqning ruhiy-ma‘naviy olamini, ikkinchisi G‘arbning hayotiy-psixologik tajribasini ifodalasa-da, ularning asarlarida insoniyatning abadiy qadriyatlari, muhabbatning yuksak qadr-qimmati, adolatning ustuvorligi va haqiqatning mutlaq zaruriyati badiiy jihatdan bir nuqtaga borib qo‘shiladi.

Xulosa. Shu asosda aytish mumkinki, Navoiy va Shekspir ijodining badiiy hamohangligi adabiyotning milliy chegaralardan ustun turuvchi universal tabiatini yana bir bor tasdiqlaydi. Har ikki ijodkor asrlardan buyon o‘zining falsafiy teranligi, badiiy mukammalligi va umuminsoniy qarashlari bilan jahon adabiy tafakkuriga beqiyos hissa qo‘shib kelmoqda. Ularning asarlari bugun ham zamonaviy inson uchun ibrat manbai bo‘lib xizmat qilmoqda; insoniyatni ma‘naviy yetuklik, mehr-oqibat, adolat va haqiqat sari undayotgan badiiy kuch sifatida o‘z ahamiyatini yo‘qotgani yo‘q. Shu ma‘noda Navoiy va Shekspir ijodining

qiyosiy o'rganilishi nafaqat ilmiy-amaliy jihatdan, balki ma'naviy-ma'rifiy nuqtayi nazardan ham dolzarb va zarurdir.

ADABIYOTLAR:

1. Navoiy, A. Xamsa. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1983.
2. Navoiy, A. Muhokamat ul-lug'atayn. – Toshkent: Fan nashriyoti, 1989.
3. Shekspir, U. Romeo va Julietta. – Toshkent: Yozuvchi nashriyoti, 1982.
4. Shekspir, U. Qirol Lir. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1985.
5. Shekspir, U. Yuliy Sezar. – Moskva: Progress Publishers, 1987.
6. Fitrat, A. Adabiyot qoidalari. – Toshkent: Ma'naviyat, 1999.
7. Qayumov, A. Alisher Navoiy dahosi. – Toshkent: Fan nashriyoti, 1970.
8. Karimov, N. Navoiy va jahon adabiyoti. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2004.
9. Alimova, Z. Shekspir fenomeni va ingliz renessansi adabiyoti. – Toshkent: Universitet nashriyoti, 2012.
10. To'xtasinov, M. Sharq va G'arb adabiy tafakkuri: qiyosiy tahlil. – Toshkent: O'zbekiston Milliy universiteti nashriyoti, 2018.
11. Bloom, H. Shakespeare: The Invention of the Human. – New York: Riverhead Books, 1998.
12. Nurnazarov, D. Alisher Navoiy va G'arb adabiyoti o'rtasidagi badiiy mushtaraklik. – Toshkent: Fan, 2020.

Hayitov Shavkat Ahmadovich,

Buxoro davlat universiteti

O‘zbek tili va adabiyoti kafedrası professori,

filologiya fanlari doktori (DSc)

ORCID 0000-0002-4290-6071

Barotova Xurshida Jalolovna,

Toshkent iqtisodiyot va texnologiyalar universiteti

Ijtimoiy fanlar kafedrası katta o‘qituvchisi,

filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

baratovaxurshida375@gmail.com

Annotatsiya. Maqolada Abdulla Qodiriy qalamiga mansub “O‘tkan kunlar” romanining genetik-shajaraviy manbalari, adibning epik tasvir mahorati tarixiy romanning aloqa-bog‘lanishlari badiiy strukturasi, rivojlanish yo‘llari haqida adabiyotshunos G‘. Murodov tomonidan amalga oshirilgan tadqiqotlarning ilmiy qimmatini haqida mulohaza yuritilgan. Professor G‘ayrat Murodov tadqiqotlarining mag‘zida turgan buyuk Abdulla Qodiriy asos solgan yangi romanchilik maktabining yuzaga kelishi va adabiy-badiiy an‘analarini dastlab o‘zbek, keyin Markaziy Osiyo romanchiligi taraqqiyot yo‘lini belgilab berganini ilmiy-nazariy, qiyosiy-tipologik asosda yoritgan olim Abdulla Qodiriy romanchilik maktabining boshqa milliy adabiyotlar doirasiga kirib borishi va ularga ko‘rsatgan ta‘sirini ilmda ilk marta rad qilib bo‘lmas dalillar bilan isbotlab berganligi to‘g‘risida bir qancha asosli fikrlar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: Abdulla Qodiriy, “O‘tkan kunlar”, Zahriddin Muhammad Bobur, “Boburnoma”, “Xamsa”, “Farhod va Shirin”, Farhod, Otabek, Xisrav Parviz, Musulmonqul.

О ГЕНЕЗИСЕ РОМАНА «МИНУВШИЕ ДНИ»

Аннотация. В статье рассматриваются генетико-родовые источники романа Абдуллы Кадыри «Минувшие дни», мастерство писателя в создании эпического изображения, художественная структура, взаимосвязи и пути развития исторического романа. Также анализируется научная ценность исследований, проведённых литературоведом Г. Муродовым по данным вопросам. В своём исследовании профессор Гайрат Муродов излагает ряд обоснованных идей о возникновении новой школы романа, основоположником которой является великий Абдулла Кадыри, который находится в центре его исследований, о научном и неопровержимом подтверждении литературно-художественных традиций учёного, определившего пути развития сначала узбекской, а затем и среднеазиатской романной литературы, о проникновении школы романа Абдуллы Кадыри в другие национальные литературы и её влияния на них.

Ключевые слова: Абдулла Кадырий, «Минувшие дни», Захириддин Мухаммад Бабур, «Бабурнаме», «Хамса», «Фархад и Ширин», Фархад, Отабек, Хосров Парвиз, Мусулмонкул.

ABOUT THE GENESIS OF NOVEL “DAYS GONE BY”

Abstract. The article examines the genetic and genealogical sources of Abdulla Qodiriy’s novel “Days Gone By”, the writer’s mastery of epic depiction, the artistic structure, interrelations, and developmental paths of the historical novel. It also reflects on the scientific significance of the research conducted by the literary scholar G‘. Murodov on these aspects. In his research, Professor Gayrat Murodov presents a series of well-founded ideas concerning the emergence of a new school of the novel, whose founder is the great Abdulla Qodiriy. Qodiriy occupies a central place in his studies, which provide scientific and irrefutable confirmation of the literary and artistic traditions established by this scholar-traditions that defined the developmental trajectory first of Uzbek, and later of Central Asian, novelistic literature. The research also examines the penetration of Abdulla Qodiriy’s novelistic school into other national literatures and its profound influence upon them.

Keywords: Abdulla Kodiriy, “Days Gone By”, Zahiriddin Muhammad Babur, “Baburnama”, “Khamsa”, “Farhod and Shirin”, Farhod, Otabek, Khosrow Parviz, Musulmonkul.

Kirish. Ulug' alloma Y.E.Bertels tomonidan jahon adabiyotida "O'zbek romanchilik maktabi" deb baholangan noyob adabiy-estetik hodisa – Abdulla Qodiriy badiiy dahosi, epik tasvir sohasidagi mahorati qirralarini oydinlashtirish, ulkan adibning milliy-tarixiy romanchilikka xos ustuvor tamoyil va badiiy-estetik xususiyatlarini aniqlash, adabiy-badiiy jarayon bosqichlari hamda so'z san'ati olamida yorqin iz qoldirgan yetuk badiiy yaratmalar orasidagi mushtaraklik va o'ziga xosliklar uyg'unligi muammolarini tadqiq qilish, shu zaminda tarixiy roman rivoji, estetik-poetik xususiyatlari, tarixiy va badiiy haqiqat o'rtasidagi uyg'unlik va farqlar, tarixiy roman shakllari haqidagi talqinlarni yangi, tarxi toza nazariy qarashlar bilan boyitish filologiya fanlari doktori, professor G'ayrat Murodov tadqiqotlarining mag'zida turadi. Buyuk Abdulla Qodiriy asos solgan yangi romanchilik maktabining yuzaga kelishi va adabiy-badiiy an'analari dastlab o'zbek, keyin Markaziy Osiyo romanchiligi taraqqiyot yo'lini belgilab berganini ilmiy-nazariy, qiyosiy-tipologik asosda yoritgan olim Abdulla Qodiriy romanchilik maktabining boshqa milliy adabiyotlar doirasiga kirib borishi va ularga ko'rsatgan ta'sirini ilmda ilk marta rad qilib bo'lmas dalillar bilan isbotlab berdi.

Tadqiqot metodi. Tarixiy romanning genetik-shajaraviy tadriji, o'zbek epik poeziyasida roman, shuningdek, tarixiy romanning bir qator muhim unsurlari qadimdan mavjud bo'lganligi haqidagi olim mulohazalari chuqur ilmiy asosga ega.

O'zbek, kengroq miqyosda olib qaralganda, Markaziy Osiyo adabiyotida Yevropa tipidagi roman tarixi badiiy-poetik jihatdan mukammal roman "O'tgan kunlar" bilan boshlanishining chuqur adabiy-estetik, madaniy-ma'rifiy ildizlari, asoslari mavjudligini qiyosiy-tipologik tahlil oynasida ko'rsatgan filologiya fanlari doktori, professor G'ayrat Murodov o'z fikrlarini ustoz-olimlarning fikrlari bilan quvvatlantiradi: "Markaziy Osiyo adabiyotlarida roman tarixi Abdulla Qodiriyning "O'tkan kunlar" asari bilan boshlandi, degan qarash adabiyotshunoslikda mustahkam o'rin olgan. Bu umuman olganda, to'g'ri fikr. Chunki yevropacha tipdagi, o'ziga xos janriy xususiyatlarga ega bo'lgan nasriy shakldagi roman chindan ham "O'tkan kunlar" bilan boshlanadi. Lekin o'zbek romanining ildizi juda chuqur. Adabiyotshunoslar Navoiy "Xamsa"ga kirgan dostonlarning har birini she'riy roman, deb hisoblaydilar.

E. Karimov va B. Nazarov bunday yozadilar: "O'zbek romanining tug'ilishini "Boburnoma"dan boshlasa, to'g'ri bo'ladiganga o'xshaydi. Bu olimlarning fikricha, "Boburnoma"ni XVI asr "o'zbek eposi", o'zbek roman-xronikasi, solnoma-epopeyasi deb atasa ham bo'ladi" [6,16].

Vohid Zohidov, Homil Yoqubov, Aziz Qayumov, Vahobjon Rahmonov, Hasan Quدراتillayev kabi yirik olimlarning tadqiqotlarida ham "Boburnoma" o'zbek badiiy nasrining nodir namunasi sifatida tadqiq qilinadi. O'ziga xos adabiy-estetik hodisa bo'lgan, markazida millat va xalq o'tmishida alohida o'rin tutgan aniq shaxs obrazi turgan, temuriylar tarixining ulkan ahamiyatga molik bosqichi (XV asr oxiri - XVI asr boshlari) tasvirlangan "Vaqoe" dagi badiiy tasvirga xos talqinlar, adabiy-poetik xususiyatlar ulkan matnshunos va adabiyotshunos olim V.Rahmonov tomonidan quyidagicha ta'kidlangan: "Boburnoma" kitobxon uchun go'yo ko'p seriyali film. Bu ulug' ko'zguda deyarli ellik yillik Movarounnahr, Xuroson, Hindiston va ularga yondosh mamlakatlarda kechgan voqea-hodisalar tizilishib, kitobxon ko'z o'ngida namoyish etiladi. Shu ma'noda "Boburnoma"ni ajoyib voqeiy-tarixiy roman deyish mumkin" [4,17].

Ustoz olim haq. "Boburnoma"da tarixiy voqealar tarixiy asarlardagi kabi axborot, bayon tarzida emas, balki badiiy asarga xos o'nlab shaxslarning o'ziga xos qiyofasi, ma'naviy-ruhiy olami, fe'l-atvori tasviri orqali yoritilgan. Tarixiy jarayonga xos xususiyatlar qahramon shaxsi, qismati, shaxsiy va oilaviy ahvoli (muvaffaqiyati yoki fojiasi) tasviri orqali ochib berilgan. Voqealar bayonida axborot tarzi yetakchilik qilmaydi, aksincha, tarixiy voqealar xarakter yaratish uchun, obrazlar talqini uchun xizmat qiladi. Professor G'ayrat Murodov ayni mohiyatni teran anglagan. Olimning doktorlik dissertatsiyasi mazmuni yuzasidan e'lon qilingan monografiyasidan o'qiymiz: "Boburnoma"ning murakkab, ko'p qirrali badiiy-kompozitsion vujudida, voqea tizimida roman janrining, romanga xos tafakkurning asosiy alomatlar, belgilari mavjud. Asarda asosiy qahramon (muallif)ning sarguzashtlari, qalb kechinmalari muayyan izchillikda, yaxlit badiiy sistema hududida berilgan, tarixiy epik tasvir markazida jangchi, ijodkor, donishmand shaxs (qahramon) obrazi turadi, bu obraz roman-xronikada ifoda etilgan barcha tarixiy hodisa va shaxslarni uyg'unlashtiradi, kompozitsion butunlik, syujet tugalligini yuzaga keltiradi". [6;16]. Odatda, jahonshumul adabiy-nazariy konsepsiyalar shunday yuksak san'at namunalarining tahlili natijasida paydo bo'ladi. "O'tkan kunlar", "Mehrobdan chayon", "Qullar", "Doxunda", "Kecha va kunduz" romanlari matni ustida uzoq yillar davomidagi mashaqqatli izlanishlar G'ayrat Murodov tadqiqotlarining mukammal nazariy-poetik asosini ta'minlagan eng muhim omildir.

Muhokama. "Boburnoma"ga bag'ishlab yigirmaga yaqin filologik yo'nalishda (turli fan tarmoqlariga doir o'ttizdan ortiq) dissertatsiyalar yozib himoya qilingani, asar badiiyati va undagi badiiy obrazga Homil Yoqubov, Aziz Qayumov, Hasan Quدراتillayev, Vahobjon Rahmonov, Erik Karimov, Baxtiyor Nazarov, G'ayrat Murodov kabi taniqli olimlarning fundamental tadqiqotlarida quyma mulohazalar bildirilganiga

qaramay, “Boburnoma” tarixiy-adabiy asar-ku! Unda obraz bormi? yo‘nalishidagi munozarali savollar hozirga qadar ham uchrab turadi. Biz xuddi shu kabi shubha va gumon tumani ichida qiynalayotgan tadqiqotchilarga G‘ayrat Murodovning tarixiy roman genezisi tadqiqiga bag‘ishlangan maqola, risola va monografiyalarini mutolaa qilishni tavsiya qilar edik. Shu o‘rinda “Vaqoe” badiiyati va undagi badiiy obraz muammosiga doir ayrim mulohazalarimizni muxtasar aytish bilan iste’dodli olimga fikrdoshlik qilishni ma’qul ko‘rdik:

1. Tarixiy jarayon talqinida tarixiy dalillardan me’yorida ustalik bilan foydalanish mahorati, boburona samimiyat, rangin tuyg‘ular talqini tarixiy-adabiy asar badiiyatini ta’min etgan ustuvor yo‘nalishlardan biridir. Muallifning har qanday mubolag‘a va pardalashlardan xoli, oddiy va mardona uslubi hamda yorqin xarakteri memuar asarda qalamga olingan har bir tarixiy shaxsga obraz maqomida badiiy-estetik joziba bag‘ishlagan.

2. “Har ishning zimnida yuz ming mulohaza vojib va lozimdir”, “Do‘stlar bilan o‘lim to‘ydir”, - kabi nasriy matnlar talqin qilingan voqealarga mushtarak bo‘lib ketgan, sodda va ravon jumlarlar qatiga san’atkorlik bilan singdirilgan hikmatlar “Boburnoma” badiiyatini va umrboqiyiligini ta’minlagan omillardan biridir.

3. Sof tarixiy asarda axborot va bayon yetakchilik qilsa, “Boburnoma”da tasvir, tarixiy shaxslarni (obrazlarni) harakatda ko‘rsatish mayli ustuvor.

4. Sof tarixiy asarda tarixiy shaxslar faoliyati raqam qilinsa, “Boburnoma”da qahramon ma’naviyatiga xos jihatga urg‘u beriladi. Bu esa tasvir maromiga tabiiylik bag‘ishlaydi, obraz shaxsiyatini teranroq ko‘rsatishga xizmat qiladi.

5. Favqulodda iste’dod sohiblarigina badiiy asarlarida kuzatiladigan qahramonning ruhiy dialektikasi, unda ro‘y beradigan ruhiy holat almashishlari tasviri “Vaqoe”da yuksak badiiy san’atkorlik bilan qalamga olingan. Shuning uchun ham o‘zbek adabiyotshunosligida mazkur dolzarb muammo alohida fundamental tadqiqot uchun asos bo‘ldi [12,2].

6. Ulug‘ mutafakkirning (Zahiriddin Muhammad Boburning) umr kitobi sahifasiga bitilgan har bir kalimani hassos shoir va ulkan adibning o‘tkir aql-idroki, noyob iste’dodi, ma’nan butun va o‘ziga xos ravishdagi shaxsiyati yoritib turadi. Voqealar bayoniga toza ruh va teran mazmun bag‘ishlaydi. Shuning uchun ham “Boburnoma”dagi bayon va talqin boshqa asarlardan g‘oyatda hayotiyiligi bilan ajralib turadi.

7. “Boburnoma” – tarixiy-adabiy asar. Sof badiiy asar emas. Aksariyat mumtoz adabiyot namunalari qahramon hayoti muhabbat fonida tasvirlanadi va shu muammoga nisbatan obraz xarakteri keng ko‘lamda ochiladi. Tarixiy-adabiy asarda muhabbat haqida yozish badiiy asarga qaraganda bir necha marta qiyin va murakkab. Chunki tarixiy-adabiy, memuar yoki manoqib asar muallifi aniq dalillarga tayanib ish ko‘radi. Badiiy to‘qimaga erk bera olmaydi. Bunda tarixiy dalillardan zarracha chekinish oqibatida real voqealar, hayotiy lavhalar afsonaviy tus oladi. Ishonchliligini yo‘qotadi. Manqabaviy ma’lumotlarga aylanib qoladi. Shunday asarlarga tayanib tadqiqotchi o‘tmishdagi biror shaxsning hayotini o‘rganmoqchi bo‘lsa, ko‘p ishlashga, ko‘p izlanishga majbur bo‘ladi. Aniq xulosaga kelish uchun mavzuga aloqador o‘nlab qo‘shimcha manbalarni qiyosiy o‘rganib chiqishga to‘g‘ri keladi.

Ustoz Sadridin Ayniy “Odina” qissasini yozib tugatganlaridan so‘ng o‘qib, asar haqida o‘z fikrlarini aytish uchun atoqli so‘z san’atkori Abdulla Qodiriyga beradilar. “Asaringiz yaxshi domla, biroq ozgina o‘t berish kerak. (ya’ni asarga muhabbat aralashtirish kerak), o‘qishli bo‘ladi”, - deb maslahat beradilar Abdulla Qodiriy [15,179].

“Vaqoe”da “muhabbat aralashtirilgan” sahifalar, lavhalar kam. Bor lavhalar esa asar badiiyatini ko‘tarishga tarixiy voqealarni hayotiy, ta’sirchan ifodalashga, epik timsollarni yorqin gavdalandirishga xizmat qiladi.

Adibning “Vaqoe”dagi talqinlaridan ayon bo‘ladiki, muallifning amakisi Sulton Ahmad Mirzo o‘zining birinchi xotini Toshkent hokimi Yunusxonning qiziga ota-ona istagi bilan uylangan. Kelinni Jahongir Amir Temurdan keyin Xuroson va Movorounnahrni qaytadan birlashtirib, temuriylar davlatida markaziy hokimiyatni tiklagan qattiqqo‘l hukmdor Sulton Abusa‘id Mirzo tanlagan. Va to‘yning boshida o‘zi turgan: “Sulton Abusa‘id Mirzo ulug‘ o‘g‘li Sulton Ahmad Mirzog‘a qo‘lub edi” [3;13]. “Boburnoma” muallifining xolasi Mehr Nigorxonimdan keyin Samarqand hukmdori Tarxonbegimni o‘z nikohiga olgan. Sulton Ahmad Mirzo uchinchi taalluqqa, Tarxonbegimning asli begona bo‘lsa-da, bir onani emib qarindoshlashgan ko‘kaldoshiga (“Ushbu Tarxonbegimning ko‘kaltoshi erdi”) seviz uylangan. Z.M. Bobur sodda va pok mazhab Sulton Ahmad Mirzodagi kuchli muhabbatni – insoniy go‘zallikni ixcham ifodalarda, rangin jilolarda tasvirlaydi. “...oshiqliklar bila olub edi, asru ko‘p suyuklik edi”. Sulton Ahmad Mirzo Qutluq Begimga o‘zi yoqtirib uylangach, nikohidagi boshqa xotinlarini butunlay unutib qo‘ygan. Qutluq Begimga bo‘lgan sevgisidan ko‘z uza olmagan. “Ani (Qutluq Begimni) tirikligida Sulton Ahmad Mirzo

o'zga haramga bormas erdi" [3,21]. Iste'dodli adib qisqa, ammo ta'sirchan o'ziga xos ifodalarda Sulton Ahmad Mirzoning Qutluq Begimga bo'lgan muhabbatini tasvirlaydi. "Avvallari bu oqko'ngil, xushmuhorava, asru ko'p hayosi bor" (Bobur) temuriyzoda Qutluq Begimga qattiq ishonadi. Ayolning asl ichki qiyofasini anglagach, unga bo'lgan ishonchi ham, sevgisi ham parchalanadi...

Olingan natijalar va ularning tahlili. "Boburnoma"da tilga olingan Poyanda Sultonbegim mashhur temuriyzoda Abusa'id Mirzoning qizi bo'lgan. Uning Husayn Boyqaro bilan tuzilgan nikohidan besh farzand tug'ilgan. To'rt qiz va bir o'g'il. Bu haqda "Boburnoma"dan o'qiyimiz: "Haydar Mirzo o'g'li edi. Onasi Poyanda Sultonbegim erdi. Sulton Abusa'id Mirzoning qizi erdi" [5,281]. Haydar Mirzo Mashhad va Balxda hokimlik qilgan. U otasining noibi sifatida Sulton Mahmud ustiga qo'shin tortib, Hisorni qamal qiladi. Sulton Mahmudning Xonzodabegim deb atalgan xotinidan dunyoga kelgan qiziga uylanadi va ikki o'rtada yarash sulhi tuziladi. Poyanda Sultonbegim qizlarining nomi "Vaqoe"da bir-bir zikr qilinib, ularning taqdiri haqida aniq ma'lumotlar bilan berilgan.

1. Oqbegim
2. Kichikbegim
3. Bikabegim
4. Og'abegim.

Poyanda Sultonbegim to'ng'ich qizini Xuroson podshosi Abulqosim Boburning (1452-1457) singli Bekabegimning nabirasi Muhammad Qosim Arlotga turmushga chiqargan. Ana shu nikohdan dunyoga kelgan Qorako'zbegim ismlik qizga Zahiriddin Muhammad Boburning ukasi, G'azna hukmdori Nosir Mirzo uylangan [5,282]. Sulton Abusa'id Mirzoning nabirasi, Sulton Husayn va Poyanda Sultonbegimning ikkinchi qizi **Kichikbegim** taqdiri achchiq kechgan. Muhabbat – ikki jinsni bir-biriga mustahkam bog'laydigan, oilalarni bir-biriga yaqin qiladigan pokiza tuyg'u. Shuning uchun ham bu foniy dunyoda undan suyuqliroq, undan yoqimliroq narsa yo'qdir. Shunday oliy his temuriy shahzodalar va malikalar hayotida ham kuzatiladi. Haqni botildan, oqni qoradan, yaxshini yomondan nozik ajrata oladigan ma'naviy qudrat sohibi Zahiriddin Muhammad Bobur temuriy avlodlari o'rtasida kechgan ishqiy munosabatlarni ham e'tibordan soqit qoldirmagan.

"Vaqoe"dagi ishoralarga ko'ra, Samarqand podshosi Sulton Mahmud Mirzoning to'ng'ich o'g'li Sulton Ma'sud Mirzo ammasi Poyanda Sultonbegimning ikkinchi qizi **Kichikbegimga** qattiq ko'ngil qo'ygan. "Boburnoma"dan o'qiyimiz: "Ikkinchi qizi Kichikbegim edi. Sulton Ma'sud Mirzo bisyor moyil erdi" [5, 282]. Muhabbat – azaliy va abadiy mavzu. Shuning uchun asrlardan asrlarga, zurriyotlardan zurriyotlarga, avlodlardan avlodlarga o'tgan sayin "Vaqoe"dagi bunday lavhalar yanada salmoq va teran mazmun kashf etadi. "Vaqoe" muallifi Sulton Ma'sud va **Kichikbegim** haqida ma'lumot berib qo'ya qolmay, balki ayni masala bilan aloqador Husayn Boyqaro haramidagi boshqa ayollar, muhim tarixiy voqealar haqida ham so'z yuritadi. "Boburnoma"da talqin qilinishicha, Sulton Ma'sud Mirzo muhabbat bobida o'zini qat'iy tutadi. Kichikbegimga erishish umidida ko'p sa'y va g'ayrat ko'rsatadi. Ammo uning xatti-harakatlari Poyanda Sultonbegimning qattiq qarshiligiga uchraydi. Poyanda Sultonbegim o'z qizini temuriy jiyaniga emas, sayyid ota (Xoja Ahmad Yassaviy) avlodidan bo'lgan Mullo Xojaga uzatadi. "Har necha sa'y qildi (Sulton Ma'sud Mirzo), **Poyanda Sultonbegim qisqa mulohaza qilib bermadi**. So'ngra Sayyid otaning nasli Mullo Xojaga chiqorib erdi" [5:282]. Bobur Mirzo har bir temuriy avlodini jonidan ortiq sevgan. Temuriylarga bo'lgan ehtiromini hamisha qalbining to'rida ardoqlagan. Uning amakivachchasi Sulton Ma'sud Mirzo hissiyotlariga bo'lgan ehtiromi "Vaqoe"dan ko'chirilgan iqtibosning ajratib ko'rsatilgan qismidan yorqin nazarga tashlanadi. Latif ruh, odamiylik kabi oliy tuyg'u bilan ziynatlangan Bobur Mirzo shaxsiyati ma'naviy saltanatning chinakam timsoli bo'lgan. Uning ammasi Poyanda Sultonbegimga nisbatan aytgan **"qisqa mulohaza qilib bermadi"** tarzidagi mulohazasi beiz ketmagan. Kichikbegim Mullo Xoja bilan bor-yo'g'i olti oy yashab, hayotdan ko'z yumgan. Kichikbegim va Sulton Ma'sud Mirzoning bir-birlariga ko'ngil qo'yganliklari, temuriyzodaning o'z muhabbatiga erishish yo'lidagi barcha sa'y-harakatlari natijasiz ketganligi, Poyanda Sultonbegimning o'z qizini sayyidlar avlodiga turmushga berganligi, Kichikbegim Mullo Xoja bilan atigi yarim yilcha yashab, juda erta vafot etganligi to'g'risidagi ma'lumotlar boshqa tarixiy manbalarda ham uchraydi. "Tarixi Rashidiy" muallifi Mirzo Haydar esa **"o'z-o'zini zaharlashi vajidan boqiy dunyodan rixlat qildi"**, –deya Kichikbegimning ayanchli, fojiali qismatidan xabar beradi [9, 119-124].

Temuriy Sulton Ma'sud Mirzo (1475-1507) iste'dodli shoir bo'lgan. Turkiy tilda "Shohiy", fors-tojik tilida "Orifiy" taxallusi bilan she'r yozgan. Ikki tilda devon tuzgan. Hazrat Alisher Navoiy "Majolis un-nafois"ning temuriy ijodkorlarga bag'ishlangan yettinchi majlisida (21-maqola) yozadi: "Sulton Mas'ud Mirzo – ravshan zehnlilik va mustahsan tab'liq va pokiza hisol va mahmud faol yigitdur. Vafo va diljo'yluq aning shiori, saxo va darveshxo'yluq aning atvori. Mulk ravnaq va intizomida axtari mas'ud, nazm zeb va

ziynat itmomida abnoi jinsqa maqsud" [11,171]. Alisher Navoiydek buyuk tarixiy shaxs tomonidan ravshan zehnlilik, go'zal tab'lik, pokiza xulqlilik, yaxshi xislatlik, vafodor va ko'ngilchan, saxiy va darveshsifat, saodatbaxsh, she'r bitishida tengqurlarining maqsudi hosil, deya ta'riflangan Sulton Ma'sud Mirzoni Kichikbegim ham yoqtirib qolganligi hech qanday shubha uyg'otmaydi. Onasi tomonidan ko'ngil istagining rad etilishi Kichikbegim uchun xo'rlik, o'zi sevmagan Mullo Xojaga uzatilishi uni tahqirlash bo'lib, ma'suma qiz bunday kamsitilishni ko'tara olmagan. Odatdan tashqari siqilish, zerikish oqibatida hayotdan erta ko'z yumgan...

"Boburnoma"dagi inson shaxsi va muhabbati qismatiga doir bunday lavhalar markaziy-g'oyaviy yo'nalishlaridan biri erkin muhabbat bo'lgan "O'tkan kunlar" romani bilan qiyosiy-tipologik yo'nalishda o'rganilsa, muhim ilmiy-nazariy xulosalarga kelish uchun asos bo'ladi, deb o'ylaymiz.

Professor G'ayrat Murodovning qat'i xulosasiga ko'ra, Zahiriddin Muhammad Bobur obrazi "Vaqoe"da tasvir etilgan barcha tarixiy hodisa va shaxslarni uyg'unlashtiradi, kompozitsion butunlik, syujet tugalligini yuzaga keltiradi. Olimning tarixiy romanning o'zbek adabiyotiga yuzaga kelishi, shakllanishi, taraqqiyoti va kamoloti haqida ma'lumot berishdan oldin "Boburnoma"dagi kompozitsion butunlik, syujet tugalligi haqida mulohaza yuritishi bejiz emas. Chunki epik asar mohiyati, badiiy mazmuni va mundariyasi, g'oyaviy estetik konsepsiyasini yuzaga keltiruvchi asosiy vositalardan biri syujetdir. O'zbek adabiyotshunosligida bu istiloh birinchi marta yirik alloma Abdurauf Fitratning "Adabiyot qoidalari"da izohlaganini ta'kidlagan tadqiqotchi yozadi: "Syujetning yuzaga chiqishida badiiy xronotopning o'rni va ahamiyati katta. Xronotop yunoncha so'z bo'lib, badiiy asardagi muayyan zamon va makon tasviridir. Tabiiyki, syujet o'z-o'zicha yuzaga kelmaydi, u badiiy vaqt va joyning uyg'unligi ifodasi o'laroq namoyon bo'ladi" [7,6]. "Boburnoma"da Mirzo Bobur tug'ilib voyaga yetgan Movarounnahr, so'ngroq o'zi davlat qurgan Xuroson (Badaxshon va Qunduz, Kobul va Kandahor) va Hindistonda yuz bergan voqealar XV asrning so'ngi, XVI asrning birinchi choragida mazkur uch mintaqada kechgan tarixiy, ijtimoiy-siyosiy hodisalar o'z badiiy ifodasini topgan. Abdulla Qodiriyning "O'tkan kunlar" romani 1274 (1847)-yilning badiiy manzarasi tasviri bilan boshlanib, 1277 (1862)-yil voqeasi tasviri bilan yakunlangan. Asar "Boburnoma" kabi aniq sana bilan boshlanib, aniq sanani keltirish bilan tugallangan. Olim talqinicha, ana shu ikki sana oralig'idagi muddat ichida kechgan voqealar tasviri roman syujeti asosini tashkil etadi. Tarixiy raqamlarning roman ibtidosi va intihosida aniq keltirilishi, roman tarixiylikini hamda uning tarixiy roman janriga mansubligini ta'kidlovchi belgilardan biridir. Bu raqamlar "O'tkan kunlar"da tasvirlangan davrni aniqlab, ajratib ko'rsatishga, uning moziy oqimidagi alohida o'rnini ta'kidlashga xizmat qilgan. Badiiy xronotopning muhim qismi bo'lgan zamon tasviri qomusiy asar "Boburnoma"da muhim o'rin tutadi. "Vaqoe"ning dastlabki jumlasida 12 yoshli Z.M.Bobur taxtga o'tirgan sanasi (yil, oy, kun) aniq qayd etish bilan boshlangan. "Tengri taoloning inoyati bilan va hazrati on Sarvari koinotning shifoati bilan va chahoryori bosafolarning himmati bilan seshanba kuni ramazon oyining beshida tarix sakkiz yuz to'qson to'qquzda Farg'ona viloyatida o'n ikki yoshda podshoh bo'ldum" [3,5].

Tasvir asosida turgan obraz, bayon etilayotgan voqea-hodisaga aloqadorligi, xarakter xususiyatlari, faoliyati hamda yetakchi obrazlarning ijobiy yoki salbiy xususiyatlarini ochish maqsadida muallif epizodik obrazlardan ustalik bilan foydalangan. Jumladan, onasi Qutlug'nigor Xonim shaxsiyatidagi samimiylikni, chingiziy sanamning barchaga birdek muomalada bo'lishi, aqliligi va tadbirkorligini yanada yorqinroq sathda ko'rsatish maqsadida Otinbibi obrazini keltirgan. Farzandi taqdirini har narsadan ustun qo'ygan Qutlug'nigor Xonim xarakteridagi fatiylik xususiyatlari talqinida Oysha Sulton Begim, Zaynab Sulton Begim yordamchi obrazlari harakatga keladi.

Asosiy va yordamchi syujet shaxobchalarini birlashtirish, ular orasidagi aloqalarni ta'minlashda "Boburnoma" saboqlari muhim ahamiyat kasb etadi. Zahmatkash olim G'ayrat Murodovning tarixiy romanning badiiy-tarixiy manbasi sifatida, roman strukturasining o'ziga xosligi, rivojlanish yo'llari, omillari kabi masalalarni oydinlashtirishda jahon so'z san'ati olamida yorqin iz qoldirgan "Boburnoma" kabi yetuk badiiy yaratmalarni o'z nazaridan uzoqlashtirmasligi olimning muhim ilmiy-nazariy xulosalariga kelishi uchun oydin yo'l ochgan.

Professor G'ayrat Murodov talqinicha, xalqchil ruh va xalqchilik asosida yuzaga kelgan badiiy konversiya birinchi o'zbek romani bosh qahramoni Otabekning asar syujetidagi markaziy o'rnini ham, uning badiiy obraz sifatidagi strukturasini ham, tarixiy jarayondagi ishtirokini ham, qahramonona mohiyatini ham belgilab bergan. Qahramondagi ham jisman, ham aqlan, ham ma'naviy mukammallik uni xalq og'zaki ijodi va mumtoz adabiyotdagi obrazlar bilan yaqinlashtirib, birlashtirib turadi. Ellin eposidagi Gerakl, Yazon; turk, fors, bahodirlik dostonlari va afsonalarning Alp Erto'nga (Afrosiyob), Rustam Manas, Alpomish, Go'ro'g'li, "Xamsa" qahramonlari bilan Otabek obrazi o'rtasida o'ziga xos uyg'unlik, mutanosiblik mavjud.

“O‘tkan kunlar” bosh qahramonining Farhod, Majnun, Vomiq singari oshiqlariga monand ishq-muhabbati ham; yurt obodligi uchun fidoyiligi, vatan va mamlakat birligi haqidagi orzulari, qahramonligi folklor va mumtoz adabiyotdagi ajdodlarining xalqchilik tamoyillari mohiyatidan kelib chiqadi. Olimning “Qaysona, Farhodona ishqni o‘z qalbiga oshno etgan Otabekning sevgi bobidagi sof ehtirolari, sobitligi va jasoratining ildizlarini faqat jahon adabiyoti xazinasidangina emas, u mansub bo‘lgan xalq ruhiy-ma’naviy arsenal, psixologiyasi, urf-odatlar, tarixi, axloqidan izlash lozim. Xalqning eng komil, eng oliyjanob, eng insonparvar vakillariga xos toza ziynat, o‘zbekona andisha, sog‘lom aql Otabekning “qiz qiyofasidagi malak” Kumushga bo‘lgan muhabbatini yuksak bir pog‘onaga ko‘tarib turadi”, - kabi quyma mulohazalari g‘oyatda teran ma’naviy-ma’rifiy, axloqiy- ta’limiy, ilmiy-amaliy ahamiyatga egadir.

Buyuk Navoiy “Xamsa”sining ikkinchi dostonida Farhod ta’rifida quyidagi satrlar bitilgan:

Kim etsa darddin oz-oz rivoyat,
Qilib ul dard anga ko‘p-ko‘p siroyat.
Kishi ko‘nglin bilib afgor yig‘lab,
Ne ko‘zda ashk ko‘rgach zor yig‘lab...[10,70].

O‘z xalqi va Vatanining barkamol farzandi bo‘lgan Otabek ham xuddi shunday xalqchilik tamoyillari asosida yaratilgan Otabek obraziga xos xalqchil ruh, xalqchil psixologiya “O‘tkan kunlar” bosh qahramonining tarix dialektikasidagi o‘rni va mavqeyi, ishtiroki G‘ayrat Murodovning doktorlik dissertatsiyasida teran yoritilgan. Otabekning asar syujetidagi markaziy o‘rni, badiiy obraz sifatidagi strukturasi Abdulla Qodiriyning tarix, hayot, inson, vatan haqidagi qarashlari, g‘oyalari mohiyatidan kelib chiqib chuqur asoslangan.

Hayotni yovuzlikdan asrash, inson sharaf-g‘ururini, erk-huquqini, yuksak insoniy fazilatlarini himoya qilish, zulm va zo‘ravonlikni inkor etish kabi xususiyatlar Farhod va Otabek obrazlarini uyg‘unlashtiradi. Oqillik va sofdillik, jisman, ma’nan va ruhan barkamollik, inson haqida o‘z idealiga va chin ma’noda insoniy xislatlarga ega bo‘lishi bu ikki obrazni bir-biriga yaqinlashtiradi. Alisher Navoiy va Abdulla Qodiriy qahramoni tabiatiga xos mushtaraklik “Farhod va Shirin” va “O‘tkan kunlar” syujet chiziqlaridagi o‘xshashliklarni nozikdid olim G‘ayrat Murodov tadqiqotlarida aniq va tiniq ko‘rsatgan. Olim talqinicha, “Farhod va Shirin”da to‘qima qahramon bo‘lgan Farhod, tarixiy shaxs timsoli Xisrav Parvez (590-628) qo‘liga makr-hiyla sababli asir tushib, u bilan yuzma-yuz munozaraga kirishadi. Munozara davomida Farhodning ruhan boy va oliyjanobligi, Xisravning tuban ma’naviy-axloqiy olami, zulmkorligi va zo‘ravonligi ma’lum bo‘ladi.

“O‘tkan kunlar”dagi to‘qima qahramon Otabek, Homid ig‘vosi tufayli bandi bo‘ladi va tarixiy shaxs Musolmonqul bilan yuzma-yuz keladi. Ana shu bahsda Otabekning beg‘ubor ma’naviy dunyosi, Musolmonqulning odamiylikdan yiroq shafqatsiz kimsa ekanligi namoyon bo‘ladi.

“Farhod va Shirin”da boshdan-oyoq qora bo‘yoqlarda chizilgan shoh Xisrav odam sifatida qay darajada tuban, har qanday razillik va pastkashlikka tayyor bo‘lsa, “xon yonidagi xoqon” yirtqich Musolmonqul ham shu darajada shafqatsiz, zo‘ravon, hiylakor.

“O‘limga tik qarash, shirin jondan odamiylik va or-nomusni ustun qo‘yish” (G‘ayrat Murodov) Farhodga ham, Otabekka ham xos mushtarak xususiyatdir.

Farhod faqat Shirinni emas, uning xalqini, vatanini qullikdan himoya qilish uchun bosqinchi Xisrav Parvez qo‘shiniga qarshi chiqib, dushmani to‘xtatib qoladi. Yangi davr qahramoni Otabek esa Chor istilosiga qarshi kurashchilarning oldingi safida turadi.

Yangi davr qahramoni Otabekning muhabbat yo‘lidagi jasoratlari, bosqinchi-istilochilarga qarshi kurashini Sharq epik poeziyasining romantik qahramoni Farhod obraziga qiyosan o‘rgangan olim quyidagi muhim nazariy xulosaga kelgan: “Ikki shoh asar syujeti, qahramonlari xarakteridagi bu kabi o‘xshashliklar adabiyotning insonni tasvirlashdagi xalqchilik prinsipi ustuvorligi, badiiy timsolning genetik-shajaraviy tadriji, bir adabiyot doirasidagi adabiy ta’sir va an’anaga misol bo‘lishi bilan birga, o‘zbek epik poeziyasida roman, tarixiy romanning bir talay muhim unsurlari qadimdan mavjud bo‘lganini ko‘rsata oladi” [6,24].

Alisher Navoiyning davlat va jamoat arbobi sifatidagi serqirra faoliyati, dunyoqarashi, ijodkor sifatidagi g‘oyaviy pozitsiyasi, adabiy-estetik prinsiplari mohiyatan to‘la xalqchil shaklda Farhod obrazlarida va Navoiy “Xamsa”sining boshqa ijobiy timsollarida o‘z in’ikosini topgan. G‘ayrat Murodov talqinicha, Otabek obrazining badiiy-estetik vazifasi va mohiyatini “O‘tkan kunlar” romanining yetakchi falsafiy-adabiy konsepsiyasini tushunishda qahramonning otasi, muallif g‘oyaviy, hayotiy qarashlarining ifodachisi Yusufbek hoji muhim o‘rin tutadi. Yusufbek hojining ham, Otabekning ham dunyoga, ijtimoiy tuzumga munosabati roman muallifi Abdulla Qodiriyning dunyoqarashini, g‘oyaviy-falsafiy e’tiqodini aks ettiradi. Otabekning davlat tuzumi, oila haqidagi qarashlari ham Yusufbek hojining Turkiston mustaqilligi haqidagi fikrlari ham Abdulla Qodiriyning dunyoqarashi va g‘oyasini badiiy ifoda qiladi. Professor G‘ayrat

Murodovning qat'iy xulosasiga ko'ra, Yusufbek hoji tilidan o'g'li Otabekka aytilgan quyidagi so'zlar "O'tkan kunlar" muallifining chor istilosiga "yagona nuqtayi nazari", romannavis g'oyasining "bevosita, masofasiz" ifodasidir. Chunki Abdulla Qodiriy chor mustamlaka siyosatining dahshatli manzaralari, ayanchli oqibatlarini o'z ko'zi bilan ko'rgan ijodkor edi: "Biz shu holda ketadigan, bir-birimizni tegimizga suv quyadigan bo'lsak, yaqindirki, chor istibdodi Turkistonimizni egallar va biz bo'lsak o'z qo'limiz bilan kelgusimizni o'ris qo'lga qoldirgan bo'lamiz. O'z nafsini kofir qo'lga tutqin qilib topshiruvchi biz - ko'r va aqlsiz otalarga Xudoning la'nati, albatta, tushar, o'g'lim!" [13, 294-295].

G'ayrat Murodov talqinicha, Yusufbek hoji Turkistonning milliy mustaqilligini saqlab qolishga harakat qilgan, jahongir Amir Temur asos solgan davlatchilik poydevorini himoya qiluvchi favqulodda kuchli shaxs. Uning qudrati tafakkurida, teran aql-idrokida namoyon bo'ladi. U o'quvchi ko'zi o'ngida Turkistonning buyuk tarixini barpo etgan valiy va mutafakkir shaxslarning umumlashma timsoli sifatida gavdalanadi.

Abdulla Qodiriy Yusufbek hojining ijtimoiy faoliyati, gap-so'zlari orqali romanning bosh g'oyaviy-falsafiy konsepsiyasini aks ettirgan.

Pok ko'ngil va pok niyat bilan Allohning uyi Ka'batullohni ziyorat qilish Parvardigorga muhabbat, imonga sadoqat ramzidir. Oliy insoniy sifatlar bilan ziynatlangan, Yusufbek hoji shaxsiyatidagi ana shunday oliyjanoblik, imon-e'tiqod butunligi haqida professor G'ayrat Murodov yozadi: "Hoji - Olloh yo'lida pok tilaklar bilan hajga borgan, islomiy va mutasavvufiy qarashlarni o'z shaxsida mujassam etgan yetuk inson obrazi!" [8:24]. Zahmatkash olim haq. Pok tilak bilan Ka'bani va Rasuli Akram (s.a.v) qabrini tavof qilgan kishigina toatdan halovat tuyadi. Ammo dunyoviy manfaatlarni ko'zlab, nafs-u xirs tuzog'idan ozod bo'lmagan; tama', ochko'zlik, molparastlik iskanjasidagi xasta qalb bilan hajga borish ibodatni uvol qilish bilan tengdir. Bunday harakat o'z-o'zini aldashdir. Niyati va istagi pok bo'lmagan qalb sohibi ibodatdan, muqaddas Ka'batulloh tavofidan ruhoniylar madad olib bilmaydi. Yusufbek hoji kabi nafsoniy huzur-halovotdan kechgan, shaxsiy g'arazlar qolibini sindirib, el-ulus ishi uchun yashayotgan ("Bu soqol el xizmatida oqardi"), tafakkuri va orzu-istaklari millat-u mamlakat taqdiri bilan bog'langan insongina haj ibodatidan farog'at tuyadi. Ka'batulloh tavofidan ruhoniylar zavq oladi.

Professor G'ayrat Murodov ulkan nazariyotchi olim M. Baxtinning "Monologik badiiy olam tasvir sifatida yot fikr, yot g'oyani tan olmaydi. Barcha ideologik qarashlar bunday olamda ikki kategoriyaga bo'linadi. Bir xil fikrlar – haqqoniy, ahamiyatli... boshqa fikr va g'oyalar esa muallif nuqtayi nazariga ko'ra to'g'ri bo'lmagan, ahamiyatsizdir" kabi mulohazalariga tayanib, "O'tkan kunlar"ni "monologik badiiy olam"ga mansub asarlar sirasiga kiritadi. Olim talqinicha, aynan mana shu tarixiy jarayonni "monologik tasvirlash usuli" favqulodda iste'dod sohibi Abdulla Qodiriyga o'z davrining olamshumul tafakkurini, insonparvarlik g'oyalarini yuksak badiiy saviyada tasvirlashga mustahkam zamin yaratgan. Bunday usul Abdulla Qodiriy ijodini monologik tasvirining buyuk namoyandasi Lev Tolstoy asarlari bilan bir qatarga qo'yadi. Qahramonlar nuqtayi nazarining xolisligi, voqealar va obrazlarning ijodkor dunyoqarashi doirasida tasvir etilishi, hodisalarning ijodkor pozitsiyasidagi bahosi va badiiy inkishofi har ikkala ulkan san'atkorga ham o'z davrining dolzarb muammolarini badiiy talqin qilish uchun oydin yo'l ochgan.

Abdulla Qodiriy monologik tasvir usuliga tayanib "O'tkan kunlar"ning syujet oqimiga Xudoyorxon, Azizbek va Musulmonqul kabi tarixiy shaxslarni olib kirgan. Xudoyorxonga: "taxt ustiga qo'ndirilgan jonliq haykal", Musulmonqulga "yirtqich", "cho'ltoq, supurgi", - deya obyektiv va ochiq baho bergan.

Ustoz G'ayrat Murodov Xudoyorxon va Musulmonqul obrazlarining satirik bo'yoqlarda yaratilishining sababini aniqlash uchun Turkiston va Qo'qon tarixiga oid manbalarni "O'tkan kunlar" romani matni bilan qiyoslab uzoq muddat sinchiklab o'rgangan va roman mantiqidan kelib chiqib quyidagi asosiy xulosalarga kelgan:

"Abdulla Qodiriy tasviridagi Xudoyorxon - ma'lum bir ijtimoiy muhit yuzaga keltirgan o'ziga xos qiyofa va tabiatga ega bo'lgan obraz. Shaxssizlikning fojiasi, tanazzulga yuz burgan davlat qurilmasining dahshatlari bu obraz vositasida realistik asosda ko'rsatib berilgan. Abdulla Qodiriy insonni tasvirlashda xalqchilik prinsipidan kelib chiqib Turkiston, Qo'qon tarixida mash'um rol o'ynagan xonlikdagi elat va urug'larni bir-biriga qarshi qo'yib, davlat inqirozini tezlashtirgan Musulmonqul obrazi tasvirida salbiy bo'yoqlarni yanada quyuqroq, keskinroq qo'llagan" [6, 27].

Ezgulik ziddida yovuzlik, yaxshilik ziddida yomonlik, oqillik ziddida johillik, oliyjanoblik ziddida pastkashlik turishi Abdulla Qodiriyning ijobiy va salbiy qahramonlar portretini chizishidayoq nazarga tashlanadi va "O'tkan kunlar" romaniga chuqur ijtimoiylik bag'ishlaydi. Romandagi salbiy timsollarning tashqi ko'rinishi ichki qiyofasiga mos bo'lib, o'quvchida ular haqida aniq salbiy munosabatni shakllantiradi:

Musulmonqul: "basharasidagi burni yuzi bilan bir qatorda deyarli tekis yaratilgan "bir kimsa";

Homid xotinboz: "qora cho'tir yuzli, chag'ir ko'zli, chuvoq soqol... ko'rimsiz bir kishi";

Yollanma qotil Sodiq: “ukkining ko‘zidek chaqchayib o‘ynab va yonib turgan qizil ko‘zli, yuziga parchinlangandek, yuza(puchuq) burunli, manglayi qancha tashqariga o‘tib chiqqan bo‘lsa, yuzi o‘shancha ichkariga ketgan, qisqasi, vaxtsizroq yaratilib qolgan bir maxluq”;

Sodiqning onasi Jannat opa: “yerdan bichib olgandek pak-pakana, burni yuzi bilan baravar, deyarli tep-tekis, ko‘zi qoqqan qoziq o‘rnidek chup-chuqur, og‘zi qulog‘i bilan qoshiq solishar darajada juda katta dahshatli, mudhish bir xotin”.

Ko‘rinadiki, “O‘tkan kunlar” muallifi salbiy personajlarning razil qilmishlarini portret tasviri orqali xalq va mamlakat manfaatlari, adolat va ezgulik pozitsiyasida turib fosh etadi. Portret tasvirlari shu qadar hayotiy va ishonarliki, muallif talqinlari realistik va aniq xarakter egallaydi, o‘quvchiga zolim va adolatsiz, zo‘ravon va shavqatsiz kimsalarga qarshi nafrat tuyg‘usini shakllantiradi, salbiy munosabatni yuzaga keltiradi.

Professor G‘. Murodovning doktorlik dissertatsiyasi mazmuni yuzasidan chop etilgan monografiyasidan o‘qiymiz: “Abdulla Qodiriy o‘z qahramon va personajlarining tashqi qiyofasi, portretiga juda katta va jiddiy vazifa yuklaydi: sevimli qahramon va personajlar portretdayoq ijobiylashtiriladi, qahramonlashadi, salbiy personajlar surati esa ularning yovuz va badkirdor kishilar ekanini ta’kidlab turadi. Shu tariqa adabiy qahramonlar fe’l-tiynati, psixologiyasi, xatti-harakatlarigina emas, portretlari aro tafovut va ziddiyatlar tazod san’ati vositasida badiiy aks topadi” [6, 27].

Xulosa. Abdulla Qodiriy o‘zigacha yaratilgan turkiy, arab va fors tilidagi adabiyotni yaxshi va puxta o‘rgangani kabi o‘zbek xalq og‘aki ijodini, shuningdek, boshqa xalqlar folklorida qadimdan mavjud bo‘lgan tasvirlash usullaridan yetarli xabardor bo‘lgan. Iste’dodli ijodkor uchun o‘z qahramon va personajlarining tashqi qiyofasi, portretini yaratishda xalq og‘aki ijodining mif, doston kabi namunalari muhim bir maktab bo‘lgan. G‘. Murodovning qat’i xulosasiga ko‘ra, Abdulla Qodiriy salbiy timsollarning ichki va tashqi tomonlarini bir-biriga uyg‘un tasvirlashda hindlarning “Mahobxorat” asari, qadimgi yunonlarning Gerakl, Yazdon haqidagi miflari, o‘zbek qahramonlik eposi “Alpomish”dagi salbiy obrazlar tasvirlaridan ijodiy foydalangan.

Sinchkov olim jahon folklori va uning epik janrlari tarkibida qadimdan mavjud bo‘lgan ichki va tashqi tomonlar tanosibiyati tasvirining aniq ilmiy va hayotiy manbalari bilan qiziqadi. Sharqda “ilmi qiyofa”, G‘arbda fiziognomika nomi bilan ma’lum bo‘lgan fan sohasi mavjud bo‘lganligini aniqlab, muallifi noma’lum “Qiyofat-ul bashar”, turk olimi Ibrohim Haqqiyning “Ma’rifatnoma” asarlari shu fan sohasiga daxldor ekanligini qayd qiladi.

ADABIYOTLAR:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning “Qadimiy yozma manbalarni saqlash, tadqiq va targ‘ib qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 2017-yil 24-maydagi PQ-2995-son Farmoni // www.lex.uz.
2. Mirziyoyev Sh. *Adabiyot, san’at va madaniyat yashasa, millat va xalq bezavol yashaydi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining ijodkorlar bilan uchrashuvidagi ma’ruzasi* // *Xalq so‘zi*, 2019, 9 fevral.
3. Bobur Z.M. *Boburnoma*. – Toshkent: Yulduzcha, 1990. – 368 b.
4. Bobur Z.M. *Boburnoma*. – Toshkent: O‘qituvchi, 2017. – 366 b.
5. Bobur. Z. M. *Boburnoma*. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2015. – 455 b.
6. Murodov G‘. *Tarixiy roman: genezisi, keying taraqqiyoti*. – Toshkent: Fan, 2005. – 168 b.
7. Murodov G‘. *Temirova D. Tarixiy romanda syujet muammosi*. Toshkent: Fan, 2008.- 40 b.
8. Murodov G‘. *Tarixiy romanning mushtaraklik va o‘ziga xosliklar uyg‘unligi muammolari. Filologiya fanlari bo‘yicha doktorlik (DSc) dissertatsiyasi*. – Toshkent: 2018. – 248 b.
9. Muhammad Haydar Mirzo. *Tarixiy Rashidiy*. – Toshkent: Sharq NMAK, 2010. – 119-124 b.
10. Navoiy A. *Mukammal asarlar to‘plami. 20 jildlik, 8 jild*. – Toshkent: Fan , 1991. – 542 b.
11. Navoiy A. *Mukammal asarlar to‘plami. 20 jildlik, 13 jild*. – Toshkent: Fan , 1997. – 282 b.
12. Sulaymonov I.I. “Boburnoma”da g‘olib va mag‘lub shaxs ruhiy holatining badiiy tasviri. “*Filol.fan.dok. ...diss.-Samarqand*, 2020.-B.274 b.
13. Qodiriy A. *O‘tkan kunlar. Mehrobdan chayon*. – Toshkent: Adabiyot va san’at, 1994. – 450 b.
14. Qodiriy A. *O‘tkan kunlar*. –Toshkent: Adabiyot uchqunlari,2018. – 488 b.
15. Qodiriy. H. *Otam haqida*. – Toshkent: Ma’naviyat, 1998.- 215 b.

ABDULLA QODIRIYNING “ULOQDA” HIKOYASI VA UNDAGI EVFIMIZMLAR TAHLILI

*Hamrayev Ilg'or Aktamovich,
Sharof Rashidov nomidagi
Samarqand davlat universiteti
Urgut filiali Pedagogika va tillarni
o'qitish metodikasi kafedrasida assistenti
ilgarhamrayevi@gmail.com*

*Halilova Sevinch Uktamovna,
Sharof Rashidov nomidagi
Samarqand davlat universiteti
Urgut filiali Pedagogika va tillarni
o'qitish metodikasi O'zbek tili va adabiyoti
yo'nalishi 2-kurs 206-guruh talabasi
sevinchhalilova179@gmail.com*

Annotatsiya. Ushbu maqolada yoshligidanoq qadimgi sharq madaniyati va adabiyoti ruhida tarbiya topgan, barchaga keng ma'lum shoir va yozuvchi, O'zbek adabiyotida roman janri asoschisi, XX asr O'zbek adabiyotining ulkan namayondalaridan biri Abdulla Qodiriyning “Uloqda” nomli eng yaxshi relistik hikoyasi lingvistik va badiiy jihatdan tahlil etilgan. Asarda qo'llangan evfemizmlar – ya'ni noqulay yoki og'ir ma'noli so'zlarning yumshoq, odob doirasidagi ifodalar bilan almashtirilishi – yozuvchining uslubiga, asarning ijtimoiy va ma'naviy mazmuniga qanday xizmat qilishi yoritilgan. Maqolada evfemizmlar badiiy nutqni bezash, qahramonlarning nutq madaniyatini ochish, hamda milliy tafakkur va axloqiy qadriyatlarni aks ettirish vositasi sifatida tahlil qilinadi. Tadqiqot davomida hikoyadagi ayrim misollar orqali Qodiriyning til mahorati, xalqona iboralarni badiiy maqsadga muvofiq qo'llash uslubi ochib beriladi.

Kalit so'zlar: Abdulla Qodiriy, “Uloqda”, evfemizm, жанр.

АНАЛИЗ РАССКАЗА АБДУЛЛЫ КАДЫРИ «УЛОКДА» И ЕЁ ЭВФИМИЗМОВ

Аннотация. В статье анализируется лучшая реалистическая повесть «Улокда» Абдуллы Кадыри – известного поэта и писателя, с юных лет воспитанного в духе древневосточной культуры и литературы, основоположника жанра романа в узбекской литературе, одного из крупнейших деятелей узбекской литературы XX века. Показывается, как эвфемизмы, используемые в произведении, то есть замена слов с неудобным или тяжёлым смыслом мягкими, вежливыми выражениями, служат стилю писателя и социально-духовному содержанию произведения. В статье анализируются эвфемизмы как средство украшения художественной речи, раскрытия речевой культуры персонажей, отражения национального мышления и нравственных ценностей. В ходе исследования на примерах из повести раскрывается языковое мастерство Кадыри и метод использования народных выражений в художественных целях.

Ключевые слова: Абдулла Кадыри, «Улокда», эвфемизм, жанр.

ANALYSIS OF ABDULLA QADIRI'S STORY «ULOKDA» AND ITS EUPHIMISMS

Abstract. Abstract: This article analyzes the best realistic story “Uloqda” by Abdulla Qodiriy, a well-known poet and writer who was brought up in the spirit of ancient Eastern culture and literature from a young age, the founder of the novel genre in Uzbek literature, and one of the great figures of 20th-century Uzbek literature. It highlights how the euphemisms used in the work – that is, the replacement of words with an uncomfortable or heavy meaning with soft, polite expressions – serve the writer's style and the social and spiritual content of the work. The article analyzes euphemisms as a means of decorating artistic speech, revealing the speech culture of the characters, and reflecting national thinking and moral values. During the study, some examples from the story reveal Qodiriy's linguistic skills and the method of using folk expressions for artistic purposes.

Keywords: Abdullah Qodiri, «Ulokda», euphemism.

Kirish. XX asr yangi O'zbek romanchilik adabiyotining zabardast namoyondasi, iste'dodli, qalbi butun va o'ziga xos uslubga ega bo'lgan Abdulla Qodiriyning "Uloqda" hikoyasi dunyo adabiyotidagi nazariy mezonlarga mos keladigan O'zbek realistik hikoyachilikning boshlanishi bo'lgan. Bu hikoya avvalgi asarlar bilan tenglashtirib bo'lmaydigan darajada yuqori bo'lib, XX asr tongidagi O'zbek realistik adabiyotining cho'qqisi, realistik hikoyaning eng yaxshi namunasi hisoblanadi.

Abdulla Qodiriyning prozasi birinchi navbatda g'oyatda hayotiyli bilan ajralib turadi. Adibning tilidan uning xalqning boy va ajoyib tilini g'oyatda yaxshi bilgani yaqqol seziladi. U tug'ma epik yozuvchi keng ko'lamdagi master, yuksak ma'nodagi realist yozuvchi bo'lib, uning adabiy merosi O'zbek adabiy tilining tarixida alohida bosqich sifatida qaralishga munosibdir. Chunki adibning qo'llagan so'zlari, xalq ichidan tanlab, topib olgan ta'birlari – bularning bari hozirga qadar O'zbek xalqining fikrini tiniq ifodalashga xizmat qilib kelmoqda.

Mavzuga doir adabiyotlar tahlili. Abdulla Qodiriy asarlari maktab, oliy o'quv yurti darsliklari mazmunmundarijasiga alohida ko'rk, salobat bag'ishlab turadi. Chunki bu ulug' adibning ijodi, mana, bir asrdirk, ijtimoiy-madaniy turmushimizning o'ziga xos ko'zgusi bo'lib keladi. "O'tkan kunlar", "Mehrobdan chayon" romanlarisiz nafaqat adabiyotimiz, balki butun madaniy hayotimiz rangsiz, tussiz, juda g'arib bo'lib qoladi. Ushbu romanlar o'zbek xalqi tarixi, Markaziy Osiyo mintaqasi tabiati, ijtimoiy hayoti, urf-odat va an'analari, oila munosabatlari, odamlarning dunyoqarashi, fe'l-atvori va yana ko'p narsalar to'g'risida yorqin tasavvur beradi. Ishonch bilan aytish mumkinki, adabiyotning milliyli va umuminsoniy qadriyatlarga asoslanishi, Abdulla Qodiriy singari ijodkorlar asarlarida aniq aks etadi. Adib barcha asarlari mavzusini turmushning naq o'zidan oladi va undagi hodisalarni adabiyot tarozisiga tortib, taqdim qiladi. "O'tkan kunlar", "Mehrobdan chayon", "Obid ketmon", "Juvonboz", "Baxtsiz kuyov", "Kalvak maxzumning xotira daftaridan", "Toshpo'lat tajang nima deydi?"ni o'qiganlar ijtimoiy turmushdagi yaxshi va yomon jihatlarni aniq ajratib oladi. Yozuvchining "Uloqda" hikoyasi ham shunday salmoqqa ega. Abdulla Qodiriy ushbu asarining keyingi nashriga: "Bu hikoya 1915-yilda yozilg'on edi. Bolalik davrimning yodgori bo'lg'ani uchun ortiqcha o'zgarishlar kiritmadim" deb izoh yozgan.

Abdulla Qodiriyning "Uloqda" hikoyasi 1915-yilda yozilgan bo'lib realistik ruhda yozilganligi bilan birga avvalo voqeaning haqqoniy aks etishi personajlarning ruhiyatining kishi hayajonini bosolmas darajada va ishonarli ko'rsatib berishi bilan realistik adabiyot mezonlariga to'liq javob beradi.

Olingan natijalar va ularning tahlili. "Uloqda" hikoyasi realistik hikoya deyilishiga sabab o'sha davr muhiti, sho'rolar tazyiqi davrida ochiqdan- ochiq qilingan tanqid har qanday yozuvchining jonini xatarga qo'ygan va arzimagan sabablar bilan adabiyotimizning buyuk chinorlari birma-bir qulatilgan. Biroq, haqiqatni baralla aytishdan qo'rqmaydigan, qat'iyatli xalqni uyg'otish va o'zligini anglashga, milliy urf-odatlari va qadriyatlarini unutmaslikka chaqirgan Abdulla Qodiriy ta'qib va tazyiqlar davrida ham yozishni, ijod qilishni to'xtatmagan. Jumladan, "Uloqda" hikoyasida voqelikning aslicha hech qanday bo'rttirishsiz tasvirlashi va hikoya qahramonlarini ruhiyatini ishonarli tasvirlab berishi bilan realistik adabiyot me'yorlariga to'la javob beradi. Hikoyada yozuvchi kontrast ya'ni quvonch bilan o'limni yonmayon tasvirlash usulidan foydalanadi va bu orqali adib kitobxonni aql bilan ish tutishga, umrini ilm olishga, rivojlanishga, behuda narsalarga umrini sarflamay, ma'rifatga, ma'naviyatga, ma'naviy yuksalish va madaniy turmushga intilib yashash g'oyasini ilgari suradi.

Tilning hayratlanarli jihatlatidan biri evfemizmlardan foydalanish imkoniyati kengligidir, bu bizga nozik yoki noqulay mavzular haqida noziklik va nafislik bilan gapirishga imkon beradigan aqlli lingvistik vositalardan biridir. O'zbek tilshunosligida bu atama 1963-1964-yillarda N. Ismatullayevning "Hozirgi O'zbek tilida evfemizmlar" nomli dissertatsiyasi orqali o'rnatilgan bo'lib, olim o'sha yillarda chop etilgan maqollalarida mavjud hodisa haqidagi mulohazalarini bayon qiladi. Leksikografiya O.S. Axmanova tahriri ostida nashr qilingan lingvistik lug'atda evfemizmg "so'zlovchiga beadab, qo'pol, nazokatsiz ko'ringan, o'z sinonimi o'rnida qo'llanila oluvchi hissiy bo'yoqsiz so'z va ibora "degan izoh keltirilgan [1].

D.N. Shmelev ham shu mazmunga hamohang "evfemizmlar – so'zlovchiga ma'lum sharoitda noma'qul ko'ringan, nihoyatda o'tkir, aytilishi odobdan sanalmagan, ayni bir ma'noni ifodalashga xizmat qiladigan, nomunosib so'zdan saqlanish maqsadida yumshatilgan ifoda" deb izohlaydi [2].

Evfemizmlar ilmiy va rasmiy usullarda keng qo'llanilib, evfemizmlarni badiiy adabiyot orqali o'rgansak, stilistik vosita sifatida katta ahamiyat kasb etishini ko'rishimiz mumkin. Insoniyatning madaniy taraqqiyoti til rivojiga ta'sir qilib, madaniyat yuksalgani sayin evfemizmlar ham sayqallanib boradi. Evfemizmlar nafaqat adabiy-badiiy asarlarda ishlatiladi, balki ularni qo'llash so'zlovchidan katta san'atni talab qiladi.

Umuman olganda, evfemizmlar salbiy voqelikni atashdan qochish, shunday voqelikni salbiy ta'sirini yumshatish uchun xizmat qilib, kishining izzat nafsigaga tegadigan, unga malol keladigan, hurmatsizlik

ifodalaydigan, axloqiy me'yorlarga zid keladigan holatlarning yoki to'g'ridan – to'g'ri aytish mumkin bo'lmagan maxfiy voqeliklarning salbiy ta'sirini kamaytirish, Bu hodisa til madaniyatining muhim unsurlaridan biri sanaladi. Har bir yozuvchi evfemizmlarni o'zining badiiy uslubi, davr ruhiyati va obrazlar dunyosiga mos holda qo'llaydi. Abdulla Qodiriy ijodi, xususan, "Uloqda" hikoyasi tilida ham evfemik ifodalar orqali xalqona yumor, oilaviy mehr, bolalik samimiyati, kamtarlik va odob kabi hissiyotlar badiiy vosita sifatida berilgan.

Adib: "Yozuvchilikda bir qonun bor hammadan ilgari ma'no, undan so'ng shu ma'noni ifoda qilish uchun so'z qurish so'zgina emas, san'atkorona ya'ni shundoq so'zki aytmoqchi bo'lgan fikringizning ifodasi uchungina maxsus yaratilgan bo'lib, yasama bo'lmasin. Mana shu shartni bajarib, bu jihatdan ta'min etilgach boshqa masalalarga o'tishga haq olgan bo'lasan.. "deb o'z kasbi haqida to'xtalib o'tar ekan, o'zi ham har bir asarlarida so'zning ichki ma'no qatlamiga, uning ruhiy va estetik ta'sir kuchiga alohida e'tibor qaratgan. Jumladan," Uloqda" hikoyasida qo'llanilgan xalqona iboralar so'z o'yinlari tilimizda yangi evfemik ma'noning payda bo'lishi uchun zamin yaratgan. Biz ularning ayrimlarini tahlil qilib o'tamiz:

– Quyushqoni ham o'rnida, egar ham yaxshi qo'ngan, qorinbog'i ham jips, yugan ham to'ralarnikidek! Lekin umuldirig'ining yo'qligi biroq ko'nglimni g'ash qildi **Ko'ngilni g'ash qilmoq**- bu so'z matn ichida xafa qilmoq, yoqtirmaslik kabi so'zlar o'rnida yoqimsiz holatni yumshoq shaklda ifodalash uchun qo'llanilgan. Kiyimlaringni kir qilma, toyingni qattiq choptirma, ulochilar orasiga kirib, biror hodisaga yo'liqma, o'rtoqlaring bilan bir chetda turib tomosha qil! – deb javrab qoldi.

Biror hodisaga yo'liqma- bu so'z matn ichida yoqimsiz, og'ir yoki noxush voqealarni yumshoq, noaniq tarzsa ifodalash uchun qo'llanilgan. Asosiy vazifasi nutqni yumshatish, odob saqlash, tinglovchiga noxush ta'sir bermaslik.

Har kim har narsadan bahs qiladi, orada menga ham so'z qotib qo'yadilar. Men uyalaman. **So'z qotib qo'ymoq** - bu so'z matn ichida suhmatga tortmoq, gap otmoq murojaat qilmoq so'zlari o'rnida qo'llanilib, adabiy yoki xalq og'zaki nutqida odobni saqlab gapirish uchun ishlatiladi. Yigit bilan birgalashib ketdik. Biroz borgach, bizning otimizning oyog'i bilan chavandoz yigitning sabri tugadi shekilli, otiga birdan shartillatib qamchi berdi va qushdek uchib ketdi.

Qushdek uchib ketdi - bu so'z matn ichida uzoqlashib ketdi, yo'q bo'lib ketdi, g'oyib bo'ldi kabi so'zlar o'rnida keskin yoki salbiy so'zlarni yumshatib ifodalashda ishlatilgan. Ularga yana birisi qarshi turib: "Ot bosgan, doktorxonada o'lgan!" – deydi, so'firoq bir odam: "Birovga yomon nafas qilmanglar!" – degan edi.

Ot bosgan - bu so'z matn ichida o'lmoq, joni chiqmoq, joni uzilmoq so'zlari o'rnida o'lim haqidagi so'zni yumshatib, odobliroq tarzda ifodalash uchun qo'llanilgan. So'firoq bir odam: "Birovga yomon nafas qilmanglar!" - degan edi. **yomon nafas qilmoq** – bu so'z matn ichida yomon niyat qilmoq, noto'g'ri fikrga bormoq, o'ldi deb o'ylamoq kabi so'zlar o'rnida yomonlikni to'g'ridan to'g'ri aytmalik, vaziyatni yumshatib ifodalash uchun qo'llanilgan. Bular kelgandan keyin xalq chidamsizlanib qoldi. **Chidamsizlanmoq** - bu so'z matn ichida asabiylashmoq, g'azablanmoq, jahli chiqmoq kabi so'zlar o'rnida holatni yumshatib ifodalash uchun qo'llanilgan. Men ham shu to'g'rida o'ylab, ularning aytgan nishonlarini qora qashqamdan qidirib topsam suyunib, topmasam kuyunib turaman.

Kuyinib turmoq - bu so'z matn ichida alam qilmoq, g'azabini ichiga yutmoq, dard chekmoq kabi so'zlar o'rnida g'azab yoki qayg'uni yumshatib ifodalash uchun qo'llanilgan.

Shundan beri qamchi bilan yuz ming ursang ham jonivor qulog'ini chimirib, hurkib tura beradi.

Hurkib turmoq - bu so'z matn ichida qo'rqmoq, cho'chimoq, hadiksirammoq kabi so'zlar o'rnida holatni yumshoq tasvirlash uchun ishlatilgan.

Yem-hashakni o'zing ber, xizmatkorga ishonsang otingni buzib qo'yadi, o'rtoq, men senga bir aytib qo'ydim», – deydi.

Buzib qo'ymoq - bu so'z matn ichida nobud qilmoq, o'ldirmoq, halok qilmoq kabi so'zlar o'rnida vaziyat bilan bog'liq holatni yumshiqroq ifodalash maqsadida qo'llanilgan.

Bola-chaqalarni chetga chiqaringlar, **ot oyog'ida qolgudek** bo'lmasin, o'zlaring ham ehtiyotroq joyda turinglar, hayvon bilan bo'lgan ish qiyin! » – deb aytdi.

Ot oyog'ida qolmoq- bu so'z matn ichida qattiq jarohat olmoq, halok bo'lmoq, o'lmoq so'zlari o'rnida og'ir, baxtsiz hodisalarni yumshoq va madaniyroq shaklda ifodalash uchun qo'llanilgan.

Xulosa. Xulosa o'rnida shuni aytish joizki O'zbek adabiyotining zabardast vakili, xalq ruhiyatini chuqur ifoda eta olgan so'z san'atkori Abdulla Qodiriy "Uloqda" hikoyasida qo'llagan evfemizmlar xalq og'zaki nutqining nozik jihatlarini, madaniy va axloqiy qadriyatlarini yaqqol ifodalaydi. Muallif ularni to'g'ridan-to'g'ri, qo'pol yoki og'riqli so'zlarni yumshatish, obrazli ifodani kuchaytirish, nutqqa tabiiylik berish maqsadida ishlatadi. Masalan, o'lim, urish, hayvonlarga nisbatan yoki nojoiz harakatlarni to'g'ridan-

to'g'ri aytish o'rniga evfemistik shakllar bilan berish orqali hikoya tili xalqona, samimiy va estetik jihatdan yoqimli tus oladi. Shuningdek, bu evfemizmlar orqali yozuvchi o'z asaridagi qahramonlarning ruhiy holatini, ijtimoiy muhitdagi axloq me'yorlarini ham yoritadi. Demak, "Uloqda"dagi evfemizmlar nafaqat so'z go'zalligini ta'minlaydi, balki xalq tafakkuri, odob-axloqi va madaniyatining ko'zgusi sifatida ham katta badiiy ahamiyat kasb etadi.

ADABIYOTLAR:

1. Лингвистический энциклопедический словарь / О.С.Ахмановой. -2-е изд.,стер. – М : УРСС : Едиториал УРСС, 2004. – 571 с.;
2. Шмелёв Д. Н. Эвфемизмы // Русский язык: энциклопедия / под ред. Ф.П. Филина, - М.: Советская энциклопедическая, 1979.
3. Ibragimova So'g'diyona. "Evfemizm faol til birligi sifatida".
4. Jo'rayeva N.Sh. Evfemizmlarning lingvomadaniy xususiyatlari.
5. Abdulla Qodiriy. Uloqda. G'afur G'ulom nomidagi mashriyot- matbaa ijodiy uyi. Toshkent-2017.
6. Radjabkulov Otaxon Rustam O'g'li. Evfemizmlarning muloqotdagi o'rni va zamonaviy evfemizmlar.
7. A.Qodiriy. Diyori bakr: she'rlar, hikoyalar, sahna asarlari, hangoma, felyeton va maqolalar. – Toshkent: "Yangi asr avlodi", 2007. –472-b. –418-bet 2. Sobirova Salomat Saxatjonovna, Adabiyot darslarida badiiy asar tahlili, Международныйнаучныйжурнал №10(100), часть2 «Научный импульс» Мая, 2023.

HAFIZA QO'CHQAROVANING "MAKON ISTAB" ASARI VA JENNI ERPENBEKNING "HEIMSUCHUNG" ROMANIDA "VATAN" KONSEPTINING MADANIY-SEMANTIK TAHLILI

Hayotova Dilafro'z Zoyirovna,

Buxoro davlat universiteti

Nemis filologiyasi kafedrası katta o'qituvchisi

d.z.hayotova@buxdu.uz

Annotatsiya. Mazkur maqolada zamonaviy nemis yozuvchisi Jenni Erpenbekning *Heimsuchung* ("Makon istab") romanida "vatan" konseptining lingvokulturologik talqini tahlil qilinadi. Asarda "vatan" tushunchasining nemis (*Heimat*) va o'zbek (*vatan, yurt, makon, uy, zamin, o'lka*) tillaridagi ekvivalentlari semantik, madaniy va psixo-emotsional qirralar nuqtai nazaridan qiyosiy o'rganilgan. Tadqiqot jarayonida original matn va o'zbekcha tarjima variantida konseptning qo'llanish chastotasi aniqlanib, leksik birliklarning madaniy konnotatsiyasi, semantik kengayishi va hissiy bo'yloqlari tahlil qilingan. Maqolada "vatan" ning nafaqat geografik hudud, balki shaxsiy makon, bolalik xotiralari, milliy identitet, oilaviy qadriyatlar va ruhiy qo'nim timsoli sifatidagi talqinlari ochib berilgan. Tadqiqot natijalari "vatan" konseptining ikki madaniyat va til kontekstida turlicha semantik yuk va madaniy mazmun kasb etishini, tarjimada esa milliy madaniyatga moslashtirish jarayoni sodir bo'lishini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: vatan, yurt, uy, makon, zamin, o'lka, lingvokulturologiya, madaniy konnotatsiya, milliy identitet, tarjima nazariyasi, qiyosiy tahlil, semantik maydon, psixo-emotsional makon, bolalik xotiralari, metafora, ramz, badiiy obraz, madaniyatlararo kommunikatsiya, tarjimada moslashtirish, madaniy xotira.

КУЛЬТУРНО-СЕМАНТИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ КОНЦЕПТА «РОДИНА» В ПРОИЗВЕДЕНИИ ХАФИЗЫ КУЧКАРОВОЙ «В ПОИСКАХ ПРИСТАНИЩА» И РОМАНЕ ДЖЕННИ ЭРПЕНБЕК «HEIMSUCHUNG»

Аннотация. В данной статье анализируется лингвокультурологическая интерпретация концепта «родина» в романе современной немецкой писательницы Дженни Эрпенбек «Heimsuchung» («В поисках пристанища»). В работе в сравнительном аспекте изучены эквиваленты понятия «родина» в немецком (*Heimat*) и узбекском (*ватан, юрт, макон, уй, замин, ўлка*) языках с точки зрения семантических, культурных и психоэмоциональных аспектов. В ходе исследования была определена частота употребления концепта в оригинальном тексте и варианте узбекского перевода, проанализированы культурная коннотация, семантическое расширение и эмоциональная окраска лексических единиц. В статье раскрываются интерпретации «родины» не только как географического региона, но и как личного пространства, детских воспоминаний, национальной идентичности, семейных ценностей и символа духовного пристанища. Результаты исследования показывают, что концепт «родина» приобретает различную семантическую нагрузку и культурное содержание в контексте двух культур и языков, а в процессе перевода происходит адаптация к национальной культуре.

Ключевые слова: родина, страна, дом, место, земля, край, лингвокультурология, культурная коннотация, национальная идентичность, теория перевода, сравнительный анализ, семантическое поле, психоэмоциональное пространство, детские воспоминания, метафора, символ, художественный образ, межкультурная коммуникация, адаптация в переводе, культурная память.

CULTURAL-SEMANTIC ANALYSIS OF THE CONCEPT OF «HOMELAND» IN HAFIZA KUCHKAROVA'S WORK «MAKON ISTAB» AND JENNY ERPENBEK'S NOVEL «HEIMSUCHUNG»

Abstract. This article analyzes the linguocultural interpretation of the concept of «homeland» in the novel *Heimsuchung* («Seeking a Place») by contemporary German writer Jenny Erpenbeck. The work comparatively studies the equivalents of the concept «homeland» in German (*Heimat*) and Uzbek (*vatan, yurt, makon, uy, zamin, o'lka*) from semantic, cultural, and psycho-emotional perspectives. The research process determined the frequency of the concept's usage in the original text and its Uzbek translation, analyzing the cultural connotations, semantic expansions, and emotional nuances of lexical units. The article

reveals interpretations of «homeland» not only as a geographical territory but also as a symbol of personal space, childhood memories, national identity, family values, and spiritual settlement. The study results demonstrate that the concept of «homeland» acquires different semantic loads and cultural content in the context of two cultures and languages, and that the translation process involves adaptation to the national culture.

Keywords: homeland, country, home, place, land, region, linguoculturology, cultural connotation, national identity, translation theory, comparative analysis, semantic field, psycho-emotional space, childhood memories, metaphor, symbol, artistic image, intercultural communication, adaptation in translation, cultural memory.

Kirish. Germaniyaning poytaxti Berlin shahrida tugʻilgan nemis yozuvchisi va dramaturgi Jenni Erpenbekning “Heimsuchung” (*Makon istab*) romanida “vatan” konseptining oʻziga xos badiiy ifodasi tahlil qilinadi. Jenni Erpenbek tomonidan yozilgan “Heimsuchung” (*Makon istab*, 2008), “*Visitation*” (*Tashrif*, 2021), “*The End of Days*” (*Soʻnggi kunlar*, 2014) kabi asarlar xalqaro adabiy hamjamiyatda, xususan, kitobxonlar va tarjimonlar orasida keng eʼtibor qozongan.


Zamonaviy yozuvchi sifatida Jenni Erpenbekning barcha asarlari inson hayoti, tarixiy jarayonlar, shaxslararo munosabatlar, shuningdek, inson psixologiyasi va mavjudlik masalalarini chuqur tahlil etishga qaratilgan. U asarlarida psixologik, tarixiy va falsafiy yoʻnalishlarni oʻzaro uygʻunlashtirib, insonning hayotiy tajribalari va ichki ziddiyatlarini badiiy talqin etadi. Adiba oʻz asarlarida inson xarakteri, hayoti va ruhiy holatlari, yashashdagi qiyinchiliklar, shuningdek, jamiyat va shaxs oʻrtasidagi murakkab munosabatlarni tahliliy va badiiy jihatdan yoritishga alohida eʼtibor qaratadi.


Tadqiqot materiallari va metodologiyasi. Jenni Erpenbekning eng mashhur asarlaridan biri – “Heimsuchung” (*Makon istab*) boʻlib, unda tarixiy jarayonlar, shaxsning ichki dunyosi, yashashdagi izlanishlari hamda yashashni muayyan joy va vaqt bilan bogʻlashga intilishlari haqida soʻz boradi. Yozuvchining mazkur romanida shaxs va millat oʻrtasidagi bogʻliqliklar, shaxsning oilaga boʻlgan munosabatlari yoritilganligini koʻrish mumkin. Ushbu “Heimsuchung” (*Makon istab*) romanida “vatan” konseptining ikki noqardosh til – nemis va oʻzbek tillarida ifodalanish xususiyatlarini tahlil qilar ekanmiz, 2011-yilda oʻzbek tarjimoni Hafiza Qoʻchqorova tomonidan Jenni Erpenbekning “Heimsuchung” (*Makon istab*) asarining oʻzbek tilidagi tarjimasidan foydalandik. Shu bilan birga, asarda konseptning oʻta murakkab va koʻp qirrali bir tushuncha sifatida qoʻllanilganligi, shuningdek, “vatan” maʼnosining nafaqat geografik nuqtai nazardan, balki shaxsiy va psixo-emotsional jihatlari ham tasvirlanganligi aniqlandi.

Biz romanning asl nemis tili varianti hamda oʻzbek tili tarjima variantida qator “vatan” konseptining turli maʼnolar bilan ifodalanganligini tahlilga tortdik.

Masalan, Jenni Erpenbekning “Heimsuchung (*Makon istab*)” asarida Haus yaʼni uy soʻzi 267 marta, original nemis tilidagi asarda esa Haus 192 marta, Heimat soʻzi 20 marta, tarjima variantida Vatan soʻzi 23 marta, makon soʻzi 33 marotaba, tarjima asarda esa Ort soʻzi 8 marta ishlatilganligi, shuningdek, tarjima asarda yurt soʻzi 20 marta kelgan boʻlsa, original asarda Daheim (uyda Vatanida) 12 marta berilganligini guvohi boʻldik. Shu bilan birga original asarda Dorf (qishloq) soʻzi 52 marta, tarjima asarda qishloq soʻzi 47 marta, Zamin soʻzi tarjima asarda 7 marta kelgan, original asarda bu soʻz Scholle soʻzi bilan 5 marta ona yer maʼnosini kelganligini aytish mumkin. Bundan tashqari Hudud soʻzi tarjima asarda 16 marta berilgan boʻlsa, original asarda hudud maʼnosi Gebiet soʻzi bilan 3 marta, Zone maʼnosida esa 2 marta (Region va Territorium soʻzlari ishlatilmagan) qoʻllanilgan.

Tadqiqot natijalari va muhokama. “Heimsuchung (*Makon istab*)” asarida “vatan” konseptining turli maʼnolarda bilan ifodalanganligini tahlil qilganda, maʼnolari oʻzgarib, madaniy, emotsional va tarixiy yoʻnalishlarda ifodalangan boʻlsada mazmun saqlanganligini hamda mohiyatan Vatan semasini takrorlanganligini aytish mumkin:





№		Nemischa	O'zbekcha
1.	“Vatan” konseptining asl matn hamda tarjima matnidagi o'zga xosliklari	Heimat planen, das ist sein Beruf. Vier Wände um ein Stück Luft, ein Stück Luft sich mit steinerner Krallen aus allem, was wächst und wabert, herausreißen, und dingfest machen. Heimat. Ein Haus die dritte Haut, nach der Haut aus Fleisch und der Kleidung. Heimstatt. Ein Haus maßschneidern nach den Bedürfnissen seines Herrn. (Jenny Erpenbeck <i>Heimsuchung</i>. – S.28)	Uning kasbi – Vatanni rejalashtirish. Vatan – aslida uy, uning kasbi shu – ikkalasi. Bir hovuch havo girdida to'rt devor tikkalash, bir hovuchgina havoni toshdek mustahkam to'sinlar bilan, ichida nima bo'lsa, hamma narsasi bilan to'sish, o'rab qo'yish, bir so'z bilan aytganda o'ziniki qilish, o'z makoniga aylantirish, bir hovuch havoni tuproqqa qo'shib, MAKON yaratish, o'sha makonga o'zini qo'shish, o'zi ishtirokida atrofida olam yaratish – uning kasbi. (“Makon istab” Roman, 2011, Verlag „Nihol“-33 B)

Ushbu mikro tekstda “Heimat” (vatan) konsepti insonning shaxsiy va ichki dunyosi bilan bog'liq bo'lgan ramz sifatida talqin qilinadi. “Heimat” (vatan) faqat geografik yoki davlat tushunchasi sifatida emas, balki shaxsiy *makon* va *uy* ma'nosida tasvirlanadi. Shuningdek, ushbu talqinda bir nechta asosiy g'oyalar o'z aksini topgan:

Vatan uy kabi shaxsiy va qulay *makon* sifatida tasvirlangan;

Uy insonning “uchinchi tanasi” bo'lib, go'sht va kiyimdan keyingi o'rinda kelgan;

Vatanda yashashni rejalashtirish va uni shakllantirish jarayoni uy qurilishi bilan chambarchas bog'liq holda bo'lishi ta'kidlangan.

Natijada, vatan insonning shaxsiy ehtiyojlari va dunyoqarashi bilan ajralmas, birlashgan joyga aylanib, matnda makonni yaratish jarayonida insonning roli alohida ta'kidlanadi. Insonning “bir hovuch havo”ni tuproq va moddiy vositalar yordamida uyga aylantirishi, uni “o'ziga moslashtirishi” va atrof-muhitni o'z ehtiyojlariga moslashtirish qobiliyati ta'kidlanadi. Shu tariqa, vatan moddiy va ma'naviy makonning uyg'unlashuv ramziga aylanadi.

Vatanning shaxsiy makon sifatida talqin qilinishi insonning unga bo'lgan individual munosabatini yoritadi. Vatan keng va umumiy tushuncha bo'lishiga qaramay, har bir inson uni o'zicha his qiladi va shakllantiradi. Shu bilan birga, bu shaxsiy makon ijtimoiy hayotning bir qismi sifatida tasvirlanadi, chunki inson uyida nafaqat o'zi uchun, balki oila, mehmonlar va jamiyat uchun ham makon yaratadi.

Matnda yog'och, tosh va somon kabi moddiy materiallar tilga olinsa-da, qurilish jarayoni ma'naviy jihatdan ham tasvirlanadi. Uy qurilishi faqat moddiy emas, balki makonni shakllantirishga qaratilgan ruhiy akt sifatida ham qaraladi. Shu ma'noda, vatan moddiy va ma'naviy elementlarning uyg'un garmoniyasi sifatida talqin qilinadi.

Matnda “Heimat” (vatan) tushunchasi shaxsiy makon sifatida, uy timsolida talqin etilgan. Vatan shakllantirish jarayoni insonning moddiy va ma'naviy ehtiyojlarini integratsiyalash hamda uning individual makonini konstruksiya qilish jarayoni sifatida taqdim etiladi. Shu bilan birga, vatan shaxsiy makon va jamiyatning umumiy kontseptsiyasi o'rtasidagi o'zaro aloqani aks ettiruvchi ko'zgudek namoyon bo'ladi.

Xuddi shunga o'xshash navbatdagi misolga e'tiborni qaratsak: “Mana shu bir parcha yer, uy va dengiz uning MAKONi bo'lmaganida edi, uni hech narsa, hech qachon sharq (sharqiy Berlin)da ushlab turmasdi. Endi esa uning vatani, Makoni uni halokatga olib keldi: u urush so'ngida Berlinda ruslar bilan besh kun ertadan kechgacha hunarmandchilik ustaxonasidagi uskunalarini shu yerda olib qolish uchun muzokara olib borib, mayxo'rlik qilgandi.”

“Wären die Scholle, das Haus und der See nicht seine Heimat, hätte es ihn niemals in der Ostzone gehalten. [1.30]. Jetzt wurde ihm die Heimat zur Falle. Er hatte am Ende des Krieges mit den Russen in Berlin fünf Nächte lang verhandelt und gesoffen, um den Abtransport der Maschinen aus seinem Tischlerbetrieb in Berlin zu verhindern”.

№		Nemischa	O'zbekcha
	“Vatan” konseptining asl matn hamda tarjima matnidagi o'zga xosliklari	Wären die Scholle , das Haus und der See nicht seine Heimat , hätte es ihn niemals in der Ostzone gehalten. Jetzt wurde ihm die Heimat zur Falle..... Jenny Erpenbeck Heimsuchung. – S.28)	Mana shu bir parcha yer, uy va dengiz uning MAKONI bo'lmaganida edi, uni hech narsa, hech qachon sharq (sharqiy Berlin)da ushlab turmasdi. Endi esa uning Vatani , ... ("Makon istab" Roman, 2011, Verlag „Nihol“-33 B)



“Heimat” so‘zi o‘zining asosiy ma‘nosida “Vatan”, “tug‘ilgan joy” yoki “ona yer”ni anglatadi. Bu so‘z nemis tilida xuddi o‘zbek tilidagidek kuchli hissiy bo‘yoqqa ega bo‘lib, uning semantikasi xavfsizlik, doimiylik va tegishlilik kabi tushunchalar bilan bog‘liq. Matnda “Scholle” (“yer”; “qadrli yer”), “Haus” (“uy”) va “See” (“ko‘l”) kabi so‘zlar “Heimat”ni konkretlashtiradi va uni shaxsning hayotiy makoni sifatida tasvirlaydi. Nemis madaniyatida “Heimat” faqat geografik joy emas, balki insonning ichki dunyosi, oilaviy qadriyatlar va milliy identitetni ifodalovchi tushuncha sifatida qaraladi. Shu bilan birga, “Heimat” ning madaniy konnotatsiyasi qahramonning o‘z mulkini saqlab qolish uchun qilgan harakatlarida namoyon bo‘lmoqda. Bu madaniy jihatdan o‘z vataniga, o‘z yeriga va ajdodlariga sodiqlik hamda o‘zini jamiyatning bir qismi sifatida his qilayotganini ko‘rsatadi.

Nemis tilidagi “Heimat” tushunchasi boshqa tillardagi “vatan” tushunchalaridan (masalan, o‘zbek tilidagi “vatan” yoki “ona yer”) farqlanadi. Nemis madaniyatida “Heimat” ko‘pincha individual hayot makoni va shaxsiy tarix bilan bog‘liq bo‘lgan aniq joyni anglatadi. O‘zbek tilida esa “vatan” ko‘proq umumiy, milliy darajadagi tushunchani ifodalaydi, bu esa milliy birlik va g‘urur bilan chambarchas bog‘liqdir.

Bu mikromatndan ko‘rinadiki, “Heimat” – bu shunchaki joy emas, balki milliy-madaniy, tarixiy va individual identitetning ajralmas qismidir. Uning tildagi ifodalanishi va konnotatsiyalari insonning madaniy qarashlari, hissiy dunyosi va ijtimoiy tajribasi bilan chambarchas bog‘liq. Bundan tashqari, ushbu tushuncha nemis tilida alohida o‘ringa ega bo‘lib, xalqning madaniy xotirasi va o‘zligini anglashini ifodalaydi.

“Ja und Nein. Hoffentlich waren die Wüsten in Afrika, die Urwälder in China groß genug, damit sein Nein dort verhungerte, verdurstete, von den wilden Tieren gefressen wurde. Sind Sie arischer Abstammung? Ja. Aber warum muß er denn dann jetzt gehen? Baron Münchhausen hat sich am eigenen Zopf aus dem Sumpf gezogen. Aber der Sumpf war ja nicht seine Heimat. Viel weniger weiß der Architekt, als er einmal wußte [2,95].

Mazkur jumla qisqa bo‘lsa-da, “vatan” tushunchasi atrofida chuqur falsafiy, madaniy va psixologik mulohazalarni yuzaga keltirib, bu iborani ilmiy nuqtai nazardan tahlil qilishda lingvistik, madaniy, psixologik, ijtimoiy va falsafiy aspektlarni ko‘rib chiqish zaruratini keltirib chiqarmoqda.

Asl matn: "To embark on the biography of a man of whom next to nothing is known may appear at first sight abold undertaking. Nevertheless, the interest that has been aroused in the personality of Omar Khayyam in the West through the medium of his verses in translation, and also the summary treatment which his biography has hit her to received at the hands of Western writers, has emboldened me to collect and place before the English-reading public all the available material for a life of the Astronomer-Poet of Nishapur".

Donishmand shoir insoniyatni mangu hayot sari yetaklagan, ruboiylar mazmunini ilmiy dalillar bilan ta'minlagan. Shoir nomi insonlarning yuksak, yorqin fikrlari bilan bog'liq, chunki odamlarning turmush tarzi va yashash tarzidan qat'iy nazar, ruboiylar bu dunyo ahlining ko'ngil dardidir.

Umar Xayyom shoir va olim bo'lishdan tashqari, "Sharq faylasufi" sifatida ham mashhur. Shu munosabat bilan E. Fisdjerald shunday dedi: "Insoniyat eng qadimgi davrlardan beri, ehtimol, ijtimoiy va siyosiy vahshiylik davridan boshlab yashashning falsafiy jihatlari haqida o'ylaydi. Von Hammer (Sprengerning Sharqiy katalogi bo'yicha) fikricha, dunyoni bo'lishi kerak bo'lgan ikki yuz yetmishta din o'z maqsadiga erisha olmadi. Umar Xayyom "erkin fikrli va buyuk so'fiy arbobi" sifatida tilga olinadi, ehtimol u ularning ko'plab ta'limotlarini o'zlashtirgani uchun hech qanday noo'rin axloqiy harakat ko'rsatmagan.

Bu ruboiy yuqoridagi fikrlarning dalilidir:

Онон, ки муҳити фазлу одоб шуданд,

Дар чамъ камол шамъ асҳоб шуданд.

Раҳ з-ин шаби торик набурданд бурун,

Гуфтанд фасонаиву дар хоб шуданд.

G'arbda ilmiy fikr xurofiy g'oyalardan ko'ra ko'proq ta'sir qiladi, ingliz tilidagi tarjimasi quyidagicha keltirilgan:

Those who were surrounded by virtue and decency,

In the company of the perfect candle, they became companions.

They did not leave this dark night,

They spoke in a dream and fell asleep.

Shoir umrining oxiri Saljuqiylar davriga to'g'ri kelganligi sababli shoirni ayblash, unga malomat qilish ko'paygan. Bularning barchasiga qaramay, Umar Xayyom inson hayotini yaxshilash uchun "bu falakni" yo'q qilish va yangi olam yaratishni, xalqni yangi muvaffaqiyat yo'liga olib borishni namoyish etdi:

Эй дуст биё то ғами фардо нахӯрем,
В-ин як дами умрро ғанимат шумарем.
Фардо, ки аз ин дайри куҳан даргузарем,
Бо ҳафтҳазорсолагон сарбасарем!

Umar Xayyomning buyukligi ruboiylari orqali ma'lum, chunki ular Sharqda ham, G'arbda ham "insoniyat inqilobi" sifatida ko'riladi. G'arbda, xususan, Angliyada odamlar yangi va munosib hayotga yuzlandilar va Umar Xayyom tarjimalari ular uchun muhim qo'llanma bo'ldi:

O friend, for the morrow let us not worry
This moment we have now, let us not hurry
When our time comes, we shall not tarry
With seven thousand-year-olds, our burden carry.

Xuddi shunday ingliz olimi va sharqshunosi Reynold Alleyen Nikolson ham jahonga mashhur Umar Xayyom nomi va ruboiylari shuhratiga ishora qilib, "Umar Xayyom ruboiylari" kitobining muqaddimasida shunday deydi: "Muqaddimada keltirgan tahlillarimga uch omil sabab bo'lgan: birinchisi, Xayomning hayoti va dunyoqarashi; ikkinchisi, bizning davrimizgacha yetib kelgan ruboiylar; va nihoyat, uchinchisi, Fisdjerald she'riyati, unda u asl forsizabon shoir ijodining tarqoq iplarini birlashtirib, to'liq va boy durdona asarga aylantiradi".

Asl matn: "What I say in the introduction falls under three heads: firstly, the life and character of Omari Khayyam; secondly, the *Rubaiyat* as they have come down to us; and lastly, FitzGerald's poem, in which he has woven the scattered threads of the Persian origin into one complete and impressive masterpiece".

Darhaqiqat, ingliz tadqiqotchisi Reynold Alen Nikolson tomonidan tilga olingan uchta omil Umar Xayyomning jahon miqyosida shuhratini shu kungacha saqlab kelmoqda. Tarjimalar ichida E. Fisdjeraldning tarjimasi nisbatan to'liq. Uning tarjimalarining mukammalligi fors-tojik xalqlarining ma'naviy-ma'rifiy va axloqiy qadriyatlarini saqlaganligi bilan ham bog'liqdir.

Masalan:

Iram indeed is gone with all its
Rose,
And *Jamshyd's sev'n-ring'd Cup*
where no one knows:
But still the Vine her ancient
Ruby yields,
And still a *Garden* by the *Water* blows.

Bog'i Iram sharq ahli uchun muqaddas bog', Umar Xayyom esa umid va istak urug'i, ishq va muhabbatga to'la, shoirlar, ulamolar, allomalar maskanidir.

Xulosa va takliflar. So'nggi paytlarda Umar Xayyom ruboiylari yuzasidan turli fikrlar, jiddiy to'siqlar paydo bo'lib, shoir matnlarining haqqoniyligini tasdiqlashga to'sqinlik qilmoqda. Bu bayonot biroz ilmiy xarakterga ega va quyidagi faktlarga asoslanadi. Zamonaviy adabiyotshunoslik, xususan, matnshunoslik sohasidagi ilmiy tahlillardan biri matnlarni tasniflashda qiyosiy va statistik usullarga tayanadi. Shu maqsadda qiyosiy matnlarning maxsus lug'atlari va izohli lug'atlar tuzilib, matnlardagi tayanch so'zlar, iboralar, ko'chma iboralarning ma'nosi o'rnatildi. Ammo bularning barchasi, hajmi ancha katta bo'lishiga qaramay, ko'proq asl matnga tegishli. Bu usul Umar Xayyomga nisbat berilgan ruboiylarning muallifligini aniqlashda qo'llangan, chunki ruboiylarning hajmi shoirning alohida ruboiy to'plamini tuzishda muhim ahamiyatga ega.

Aytish joizki, Umar Xayyom aynan o'zining ruboiylari orqali olamni razillik va jaholat qa'ridan abadiy qutqarib qoldi. Uning g'oyalari ularni to'liq anglab, amal qilgandan keyingina amalga oshadi.

ADABIYOTLAR:

1. *Farhangi zaboni to'yiki. Ҷ.2. 45000 kalima va ibora. / Tartibdihandagon T.N.Zehni, V.A.Kapranov, S.X.Arzumanov, V. Mahmudov, R.Hoshimov va digaron. – Moskva, 1969. – 532 s.*
2. *Umari Xayyom. Ruboiyot. Tartibdihanda M. Zand. – Stalinobod, 1955. – 82 s.*
3. *Umari Xayyom. Ruboiyot. Tartibdihanda M. Zand. – Stalinobod, 1955. – 113 s.*

4. Rubaiyat of Omar Khayyam (with a commentary by H.M. Batson. – London: Strand, 1912. – 96 p.
5. Joseph von Hammer Purgstall. Die Rubajat des Omar Chajjam und die deutsche Literatur. Berlin, 1973. – 117 p.
6. Said Edward. Orientalism. -New York: Vintage Books, 1979. – 73 p.
7. Said Edward. Orientalism. -New York: Vintage Books, 1979. – 193 p.
8. Umari Xayyom. Ruboiyot. Tartibdihanda M. Zand. – Stalinobod, 1955. – 117 s.
9. Yuqoridagi manba. – B.87.
- 10.Said Edward. Orientalism. -New York: Vintage Books, 1979. – 206 p.
- 11.Rubaiyat of Omar Khayyam (with a commentary by H.M. Batson. – London: Strand, 1912. – 14 p.
- 12.Said Edward. Orientalism. -New York: Vintage Books, 1979. – 206 p.
- 13.Rubaiyat of Omar Khayyam (with a commentary by H.M. Batson. – London: Strand, 1912. – 14 p.
- 14.Umari Xayyom. Ruboiyot. Tartibdihanda M. Zand. – Stalinobod, 1955. – 118 s.
- 15.Said Edward. Orientalism. -New York: Vintage Books, 1979. - 47 p.
- 16.Umari Xayyom. Ruboiyot. Tartibdihanda M. Zand. – Stalinobod, 1955. – 119 s.
- 17.Said Edward. Orientalism. -New York: Vintage Books, 1979. – 114 p.
- 18.Rubaiyat Omar Khayyam. Translated by Edward Fitzgerald». – London: Soho Square, 1961, - 5 p.
- 19.Ирам – вожаи асотирӣ буда, маънояш биҳишти заминӣ ё боғи афсонавие, ки шоҳи афсонавӣ Шаддод офаридааст.
- 20.Rubaiyat of Omar Khayyam (with a commentary by H.M. Batson. – London: Strand, 1912. – 5 p.

ASHURO MAROSIMI: BUXORO ERONIYLARINING MADANIY MEROSI VA ZAMONAVIY TRANSFORMATSIYA JARAYONLARI

Kalonova Iroda Turgunovna,

Buxoro innovatsion ta'lim va tibbiyot universiteti

<https://orcid.org/0009-0007-7048-3190>

kalonovairoda89@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqola Buxoro eroniylari “Ashuro” azadorlik marosimini o‘rganish uchun olib borilgan tadqiqotlar asosida yozilgan. Unda marosimning o‘tkazilish tartibi, joyi, marosim uchun tayyorlaniladigan maxsus taomlar, marosim jarayonidagi o‘ziga xos urf-odatlar etnografik tahlil qilinadi. Tadqiqotda shunchaki marosimni tavsiflash emas, balki uning ijtimoiy, ma'naviy va tarbiyaviy jihatlari o‘rni ochib berilgan.

Kalit so‘zlar: Imomlar ichimligi (toj.No‘shi Imomxo), oyamullo, vakila, ilon (toj. mor), aqrab, chayon(toj. gajdum), gulob, Hazrati Abbosiya kulchasi.

ASHURA CEREMONY: THE CULTURAL HERITAGE AND MODERN TRANSFORMATION PROCESSES OF THE IRANIANS OF BUKHARA

Abstract. This article is based on research conducted to study the mourning ceremony of Ashura among the Bukhara Iranians. It provides an ethnographic analysis of the procedure and location of the ceremony, the special dishes prepared for the event, and the unique customs observed during the ritual. The study focuses not only on describing the ceremony itself but also on revealing its social, spiritual, and educational significance.

Keywords: drink of the Imams (Tajik: Nushi Imomkho), oyamullo, vakila, snake (Tajik: mor), akraab, scorpion (Tajik: gajdum), gulob, Hazrati Abbosiya flatbread.

ОБРЯД АШУРА: КУЛЬТУРНОЕ НАСЛЕДИЕ И СОВРЕМЕННЫЕ ПРОЦЕССЫ ТРАНСФОРМАЦИИ ИРАНЦЕВ БУХАРЫ

Аннотация. Данная статья основана на исследованиях, проведённых для изучения траурного обряда «Ашура» у иранцев Бухары. В статье представлен этнографический анализ порядка проведения обряда, места его совершения, специальных блюд, приготовляемых для церемонии, а также уникальных обычаев, сопровождающих процесс ритуала. Исследование направлено не только на описание самого обряда, но и на раскрытие его социального, духовного и воспитательного значения.

Ключевые слова: напиток имамов (Тадж.: Нӯши Имомхо), оямулло, вакила, змея (Тадж.: мор), акраб, скорпион (Тадж.: гаждум), гулоб, лепёшка Хазрати Аббасия.

Kirish. Ashuro arabcha “Ashira”- “xotirlash” ma’nosini anglatib. Shia musulmonlari orasida ashuro kuni 680-yilda Karbalo jangida boshi judo qilingan Husayn ibn Alining (Muhammadning s.a.v nabirasi) vafoti munosabati bilan keng miqyosli motam namoyishlari orqali nishonlanadi[1; b-39].

Ushbu marosim, dunyoning shialar istiqomat qiladigan maskanlari: Eron, Ozarbayjon, Iroq, Quvayt, Pokiston, Livan bilan bir qatorda, Samarqand va Buxoroda o‘tkaziladi.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqot ma’lumotlari tajriba (eksperiment) orqali aniqlangan. Kuzatilgan natijalar esa umumlashtirish, qiyoslash usullaridan foydalanib, tarixiylik tamoyili, xronologik, xolislik nuqtayi nazaridan tahlil etilgan. Tadqiqotda shunchaki marosimni tavsiflash emas, balki uning ijtimoiy, ma’naviy va tarbiyaviy jihatlari ochib beriladi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Ashuro arabcha o‘n kunlik degan ma’noni anglatib,[2; b.944.] bu motam marosimi sanaladi.

Buxoro vohasi bilimdoni O. A. Suxareva[3; c. 85-86], Buxoro vohasi tojiklari turmush tarzini tarixiy etnografik jihatdan o‘rgangan olim F. D. Lyushkeyevich ushbu marosim oqsoqollar xonadonlarida hamda “xusayniyaxona”larda o‘tkazilishini takidlaydi[4;c.210.]. Etnograf M. B Qurbonova ham Buxoro eroniylarining ushbu marosimini etnografik nuqtayi nazardan tahlil etgan.[5;b.-50.]

Diniy marosimni tashkil qilish uchun Buxoro eroniyarlari alohida tayyorgarlik ko'rgan. Marosim asosan barcha hududdagi xusayniyaxonalarda tashkil etilgan. Buxorodagi eng qadimiy husayniyaxona XIX asr boshlariga tegishli Tor-tor mahallasida joylashgan.[6;b.175.]

Tahlil va natijalar. Buxoro vohasida Muhammad (s.a.v) nabirasi, Hazrat Ali va Fotimai "Zaxro" (fayzli, nurli)ning o'g'li shahidlar saidi Imom Husayn xotirasiga bag'ishlab o'tkaziladigan maxsus azodorlik qirq kun davom etadi. Buxoro eroniyarlari o'rtasida bu marosim "Oshuro", "Ashurilik", "Ta'ziya", "Qatli Imomo", "Qatl" nomlari bilan ataladi. Muxarram oyi boshlanishidan bir kun oldin, "Xusayniyaxona"lardagi ustunlar maxsus qora mato bilan o'rab chiqiladi, to'y va shunga o'xshash xursadchilik (tug'ilgan kun, gap gashtak, nikox, sunnat to'yi kabilar) tadbirlari to'xtatiladi, ta'ziyadorlar (Imom Xusayn xotirasi uchun) to'liq qirq kun davomida asosan qora rangli, aynan sariq, qizil, pushti, yorqin rangli guli bo'lmagan matodan tikilgan liboslarni kiyishadi. Bundan maqsad azodorlikni ifoda qilish sanaladi.

Shialarning masjidlarida, xohish va imkoniyatga qarab niyatdorlar tomonidan o'z uylarida ham o'tkaziladi. Agar marosim masjidda o'tkazilsa aniq vaqt oralig'i belgilangan. Ayollar uchun soat 8:30da boshlanib soat 11:30 da o'z nihoyasiga etadi. Bundan maqsad peshin namoziga qadar ayollar marosimni yakunlab, erkaklarga namoz o'qish uchun masjidni tark etishlari shart. Erkaklar uchun marosim soat 19:00 da boshlanib, 23:30 da yakunlanadi. [7.] Agar uyda Ashuro o'tkazilsa uni o'tkazilish vaqti imom yoki oyamullo bilan oldindan kelishib, belgilanadi. Marosimni olib borish tartibi imom va otin oyilarning kelishuvi asosida tashkil etiladi.

Xalq orasida ashuroni uyda o'tkazish oilaga xayr-baraka olib kelishiga ishonilgan. Chunki marosimga tashrif buyuruvchilar maxsus alohida taklif qilinmaydi. Ya'ni marosimda "Axli baytga" [8;c. 101.] azodorlik izhor qilib kelgan istagan inson (U shia, yoki boshqa millat vakili bo'lishi shart emas) ishtirok etishi mumkin. Marosimga kelgan har bir mehmon ochiq chehra bilan kutib olinadi. Xonadon sohibi chaqirilmagan mehmonlarni "Atoyi xudo", ular etaklarida xonadon egalari uchun rizq barakani keltiradi deb qabul qiladi. Bundan tashqari, marosim tugab mehmonlar xonadonni tark etayotganda esa o'zlari bilan mor, gajdummi olib ketar emish, singari tushunchalar xalq orasida keng tarqalgan. Ilon va chayon timsolida shu uyda mavjud bo'lgan- fisq-u fasod, g'am, balo-qazolar nazarda tutilgan va bulardan xonadon tozalanadi deb tasavvur qilingan. Mehmonning mavqeyi, ijtimoiy kelib chiqishi, yaqin yoki uzoq qarindoshligiga hatto qo'lidagi sovg'asiga qarab emas, avvalo inson sifatida qadrlash lozimligi ruhida yoshlarni tarbiyalash marosimning o'ziga xos etiketi deb qabul qilinadi.

Marosim o'tkazilishiga xos tartib- qoidalar tarbiyaga yo'taltirilgan. Masalan, qaynonalar ashuroni uyda o'tkazish odati keksa ajdodlardan meros qolganini takidlashadi. Ular o'zlari ham bu odatning davom ettirayotganlarini faxr bilan aytib, e'tiqodi mustahkam kelinlariga marosimni doimiy o'tkazishlarini uqtirib, vasiyat qilib keladilar. O'g'il-qizlar esa, agar otasi yoki onasi vafot etgan bo'lsa, imkoniyati doirasida hatto ota-onasi nomidan ham ashuro marosimini bugungi kunda o'tkazishga harakat qilishadi.[9.]

Kuzatishlarimizga asoslanib ashuro marosimi mavsumi jamoada nafaqat azodorlik, balki mehr, silayi-rahimni mustahkamlash oyi deb ham qabul qilingan. Dasturxon yozilib, boy-kambag'al bir dasturxonga jam bo'ladi. Marosimni maxsus taomnomasi yo'q. Biroq dasturxonga quydagi yeguliklar: Hazrati Abbos kulchasi, xalvoyi jiq-jiq, is-(bo'y) doimiy yegulik sifatida tortilgan.

Husayniyaxonaga kirish yo'lagida ayollar uchun qizlar, erkaklar uchun esa o'smir yigitlar, shirin ichimlik - qand choy quyib uzatishadi. Tashrif buyurgan mehmonlar yaxshi niyatlari ijobatini so'rab yigit qizlarni haqiga duolar qilib qand choyni ichishadi. Bu shirin ichimlik qand choy ("No'shi imomho")- qora choyga dolchin, xel, shakar va gulobni qo'shib, qaynatib tayyorlanadi. [10.] Marosim egalari imkoniyati va xohish-istagiga ko'ra sofi oshi, halisa yoki kabob singari taomlardan birini tanlab, dasturxonga tortishgan. Bugungi kunda marosimda har safar ham dasturxon tuzatilmaydi, ayrim xollarda eguliklar bir martalik idishlarga solib, har bir ishtirokchiga tarqatiladi. Marosimga niyat qilib keluvchi mehmonlar ham imkoniyatidan kelib chiqib, tog'oralarda is, har xil somsalar, tuxum barak, halvoyi jiq-jiq, Hazrati Abbos kulchasi kabilarni pishirib, dasturxonchi (vakilaga) beradilar. Xalqda marosim dasturxoni to'lib toshishining sababi mehmon va mezbonlarning hadiyasi xayroti evaziga va niyatlarining sofligidandir, deb tushunilgan.

Marosimning o'ziga xos yegulik va ichimliklari: gulob qo'shilgan qandchoy, [11;b.236-237.] tayyorlanish uslubi o'ziga xos bo'lgan Hazrat Abbos sharafiga atalgan kulcha nonlari pishirilgan[12; c.300-301].

Ashuro marosimi davomida oyamullolar manqabad, ravza, navxa o'qir ekan og'zi qurib qolmasligi uchun uzluksiz, issiq-issiq choy keltirib turiladi. Ravzani tinglash uchun tashrif buyugan mehmonlar uchun ham ob-havoga qarab choy va yaxna ichimliklar keltiriladi.

Marosim ishtirokchilari o'zlari bilan sham olib kelib, xusayniyaxonalarda niyatlari ijobatini so'rab yoqishadi. Ular niyatimga yetsam men ham Ashuro o'tkazaman, yoki Hazrati Abbos kulchasidan pishirib

hayrot qilaman va h.k.kabi yaxshi tilaklarni ko'ngillaridan o'kazib shamni yoqishadi. Faqat sharti agar niyat amalga ohsa, albatta, qanday xayrot qilaman deb, husayniyaxonalarda sham yoqilgan bo'lsa, uni amalga oshirishi shart deb keksalar uqtirgan, halvoyi jiq-jiq, halvoyi pirsioniy kabi shirinliklari mavjud.

Ashuro marosimi davomida oyamullolar manqabad, ravza, navha o'qir ekan og'zi qurib qolmasligi uchun uzluksiz issiq-issiq choy keltirib turiladi. Ravzani tinglash uchun tashrif buyurgan mehmonlar uchun ham ob-havoga qarab choy va yaxna ichimliklar keltiriladi.

Ba'zi bir niyatdorlar o'zlari bilan sham keltirib xusayniyaxonalardan ijobatini so'rab, sham yoqishadi. "Qachonki niyatim amalga ohsa, men ham ashuro o'tkazaman, yoki Hazrat Abbos kulchasi pishirib xayrot qilaman va h.k." kabi yaxshi tilaklarni ko'ngillaridan o'tkazib shamni yoqishadi. Faqat sharti, agar niyati amalga ohsa, albatta qanday xayrot qilaman deb xusayniyaxonada sham yoqilgan bo'lsa, uni amalga oshirishi shart deb keksalar uqtirishgan[13.].

Marosimda Karbalo voqealari, Hazrat Ali, Imom Hasan, Imom Huseyn, Fotimayi Zahro, Hazrati Zaynab, hazrati Ruqiya, o'n ikki imom hayoti va sarguzashtlariga oid lavhalar, sarguzashtlar ravza tariqasida hikoya qilib beriladi[14.].

Marosim boshlanishida Qur'on o'qilgach, manqabad, so'ngra ravzaxonlik, navxaxonlikdan so'ng gulob sepiladi. Xalqda gulobning ikkinchi nomi "Bo'yi Muhammad" deb qabul qilingan, mazkur xushbo'y suyuqlikni gulobchi ustalar tayyorlashadi. Bu hunar sohasi Buxoro eroniyari orasida juda ham qadrlanadi. Gulobchilar ashuro marosimi uchun, masjidga xayrot tariqasida gulob keltirishadi.

Uni tayyorlash avlodidan avlodga o'tib kelayotgan meros hunarlardan. 73 yoshli gulobkash Lobarxon aya bu kasbni qaynonalaridan o'rganib, beshinchi avlod vakilasligini ta'kidladi. Bugungi kunda yarim litr gulobning narxi 30 000 so'm turadi. Gulobning hidi asl holida boshqa iforlar bilan aralashmasligiva uzoq turishi uchun albatta u mis qozonda tayyorlanishi kerak. Shuningdek yangi gulob tayyorlash mavsumi boshlanmasdan ish qurollari shay qozon esa obdon tozalanishi lozim. Suzilgan gulobning uzoq o'zgarmasdan saqlanishining siri gulob faqatgina shisha idishlarda, hidi uchub ketmasligi uchun, og'zi tiqin, ganj bilan mahkamlanib saqlangan. Gulob nafaqat Ashuro balki mavlud, motam marosimida ham ishlatilgan.

Gulobning xushbo'y hidi xusayniyaxonalarga o'zgacha ifor taratib turadi. Xalq orasida "Gulob az arag'i Muhammad shudagi" ya'ni, "Gulob Muhammad terlashidan bo'lgan" degan naql bor. Manqabatxonlik tugashi bilan, tashrif buyurganlar ro'molchalarini ochishadi shialarning said avlodlaridan ikki uch kishi, marosim ahliga gulob sepib chiqishadi. [15.]Ashuro marosimidagi asosiy azodorlik kunlari esa 20 dan 25tagacha xizmatchilar gulob sepishadi. Gulob sepilayotganda marosim ishtirokchilari bir varakayiga "Allohumma salli 'alo Muhammadin va Oli Muhammad" deb qaytarishadi.[16.]

Bordiyu oilalarda ta'ziyadorlik holatlari yuz bersa, yaqinda olamdan o'tgan marhum marosimlari (uch, qirq, yil) ashuro marosimi tarzida o'tkaziladi. [17.].

Marosimi so'nggida el ichida hurmati baland, soxibduo darajasini olgan keksa otaxon, onaxonlar o'tib ketgan arvohlar uchun, ajdodlari xaqqiga, niyati amalga oshishini so'rab, qo'l ko'tarayotgan, xalqqa xizmat qilgan barcha umidvorlar xaqqiga duolar qilishadi.

Xulosa. Buxoro vohasidagi eroniylar orasida Ashuro marosimi Islom tarixi, Imom Husayn va Karbalo voqealarini xotirlash asosida shakllangan, ma'naviy-ma'rifiy va madaniy ahamiyatga ega an'anadir. Mazkur marosim nafaqat diniy ehtirom, balki xalqning an'anaviy qadriyatlarini, oilaviy va jamoaviy hamjihatlikni, saxovat va mehr-oqibat tuyg'ularini mujassam etuvchi hayotiy tajribaga aylangan.

Marosimning muayyan tartibda tashkil etilishi — "Xusayniyaxona"larning tayyorlanishi, intizom, odob-axloq va axloqiy mas'uliyatni yuksaltirishga xizmat qiladi. Azadorlik davrida to'y va xursandchiliklarning to'xtatilishi, faqat toza niyat va pok qadamlar uchun eshiklar ochiqligi, mehmonni "Atoy Xudo" deb qabul qilish, jamoada insonparvarlik va qanoat, bahamjihatlik tuyg'ularini mustahkamlaydi.

Dala tadqiqotlari asosida ma'lum bo'ldiki marosimdagi quyidagi xulosalarga keldik: mehmonnavozlik, mezbonlarning sidqi dildan yelib-yugurishlari, tadbirni olib boradigan oyamullalardan, dasturxonchi (vakila)-yu, xusayinxona ishchi -xizmatchilari, oshpazlarigacha o'ziga xos an'ana, qadriyatga aylangan, urf-odatlarimizni asrab-avaylashlarini namoyon qiladilar.

Ashuro kunida tuzatilgan dasturxon, faqatgina oddiy ovqatlanish emas, balki marosim ishtirokchilari o'rtasida birdamlik, totuvlik, bag'rikenglik, bir-birini qo'llab-quvvatlash ramzi hisoblanadi. Ushbu an'analarni saqlash va kelajak avlodlarga yetkazish muhim ahamiyatga ega.

Marosimining tarbiyaviy ahamiyati shundaki, keksalar o'z farzandlariga an'analarga hurmat, mehmonni inson sifatida qadrlash, xayrot qilish va yaxshi niyat va uni amalga oshirish kabi fazilatlarini o'rgatadilar.

Xulosa qilib atganda, ashuro marosimi Buxoro eroniyolari hayotida nafaqat diniy marosim, balki keng ma'nodagi ma'naviy meros, madaniy o'zlikni saqlash, ajdodlar va avlodlar o'rtasidagi uzviy bog'lanishni ta'minlovchi omil sifatida namoyon bo'ladi.

ADABIYOTLAR:

1. *Islom ensiklopediyasi. "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti, Namangan. 2004. -B.39.*
2. *Фарҳанги забони тоҷики. ҷ. I. М., 1969. С.-944.*
3. *Сухарева О.А. К истории городов Бухарского ханства (историко – этнографические очерки) Т., 1958. С. 85-86*
4. *Люшкевич Ф.Д. Некоторые особенности этнического развития группы ирони в Узбекистане. // "Наука". Москва. 1980. -С.210.*
5. *Қурбонова М.Б. "Ашуро" маросими ҳақида.//Марказий Осиёда Анъанавий ва замонавий этномаданий жараёнлар. 2-қисм. "Карим Шониёзов ўқишлари" туркумидаги халқаро илмий анжуман материаллари. -Т., 2005.Б.-50.*
6. *Равшанов Ў.А. Бухоро Ҳусайнияхоналари тарихидан.// Islom tafakkuri. Toshkent: O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi nashryot- matbaa birlashmasi. 2024.3- maxsus son. -B.175.*
7. *Dala yozuvi. Buxoro shahri. Avshor maxalla. 2023 yil, iyul.*
8. *Али-заде.А. Исламский энциклопедический словарь. Баку. "Ансар". 2007. -С. 101.*
9. *Dala yozuvi. Buxoro viloyati. Buxoro tumani. Shalg'amxo'ron. 2023 yil, iyul.*
10. *Dala yozuvi. Buxoro viloyati. Buxoro shahar. Jo'bor. 2023 yil, iyul.*
11. *Қурбонова М.Б. Бухорони муаттар этган гулоб./ Умурбоқий маърос. (V-жилд) Бухоро маданий мероси тарихидан лавҳалар. Бухоро, 1995, -Б. 236-237.*
12. *Қурбанова М.Б. Ритуальный хлеб бухарских иранцев.// Этнографический источник материалы третьих Санкт-Петербургских этнографических чтений. СПб. 2004. -С. 300-303.*
13. *Dala yozuvi. Buxoro viloyati. Galosiyo tumani. Ko'chko'tar mahallasi. 2024 yil, iyul.*
14. *Dala ma'lumoti, Buxoro viloyati, Buxoro shahri, Avshor MFY, Kunji qal'a, 2025 yil, iyul*
15. *Dala yozuvi. Buxoro viloyati. Buxoro shahri. Jo'bor mahallasi. 2023 yil, iyul.*
16. *Dala yozuvi. Buxoro viloyati. Buxoro shahri. Kunji qal'a . 2024 yil. aprel*
17. *Dala ma'lumoti, Buxoro viloyati, Buxoro shahri, Sharq yulduzi MFY, Ko'ksaroy, 2025 yil, iyul*

TARJIMADA MILLIY XUSUSIYATLAR

Nuridinova Fotima Xolmirzayevna,
Namangan davlat texnika universiteti,
Xorijiy tillar kafedrasida katta o'qituvchisi,
filologiya fanlari bo'yicha PhD
abdurauf9222@mail.ru

Annotatsiya. Ushbu maqolada milliy xos so'zlarning tarjimada berilishi hamda muallif uslubini to'laqonli aks ettirishda qo'llaniladigan tarjima tamoyillari ilmiy-nazariy nuqtayi nazardan yoritiladi. Milliy-madaniy birliklar tarjimasi jarayonidagi qiyinchiliklar, ularning ekvivalentini aniqlash, milliy koloritni saqlab qolish hamda o'quvchi uchun tushunarli tarzda yetkazish masalalari batafsil tahlil qilinadi.

Tadqiqot doirasida Mirzakalon Ismoilning "So'na" asari tarjima obyekti sifatida tanlab olinib, undagi milliy realiyalar, leksik birliklar, obrazli ifodalar va muallifga xos stilistik uslublarning boshqa tilga o'tkazilishi yuzasidan amaliy misollar keltiriladi.

Shuningdek, tarjimaning adekvatlik, ekvivalentlik, moslashtirish va izohli tarjima kabi usullarining qo'llanish samaradorligi baholanib, milliy xususiyatlarni yetkazishning optimal yo'llari haqida xulosalar chiqariladi.

Kalit so'zlar: milliy shakl, milliy-madaniy xususiyat, badiiy asar, adekvat tarjima, ekvivalentlik, predmet, ijodiy jarayon, muallif uslubi, transliteratsiya, transkripsiya, realiyalar, milliy kolorit, izohli tarjima, moslashtirish (adaptatsiya), tarjima tamoyillari, stilistika, obrazlilik, leksik birliklar, idiomalar, madaniy kontekst.

НАЦИОНАЛЬНЫЕ ОСОБЕННОСТИ В ПЕРЕВОДЕ

Аннотация. В данной статье с научно-теоретической точки зрения освещаются принципы перевода, применяемые для адекватной передачи национально-специфических слов и полного отражения авторского стиля. Подробно анализируются трудности перевода национально-культурных единиц, выявление их эквивалентов, сохранение национального колорита, а также обеспечение понятности текста для читателя.

В рамках исследования произведение Мирзакалона Исмоили «So'na» было выбрано в качестве объекта перевода, и приведены практические примеры передачи в другой язык национальных реалий, лексических единиц, образных выражений, а также стилистических особенностей автора.

Кроме того, оценивается эффективность применения таких методов перевода, как адекватность, эквивалентность, адаптация и комментарийный перевод, и делаются выводы о оптимальных способах передачи национальных особенностей.

Ключевые слова: национальная форма, национально-культурная особенность, художественное произведение, адекватный перевод, эквивалентность, предмет, творческий процесс, авторский стиль, transliteratsiya, transkripsiya, realii, национальный колорит, комментарийный перевод, адаптация (модификация), принципы перевода, стилестика, образность, лексические единицы, идиомы, культурный контекст.

NATIONAL FEATURES IN TRANSLATION

Abstract. This article examines, from a scientific and theoretical perspective, the principles of translation used to adequately convey national-specific words and fully reflect the author's stylistic features. The study provides a detailed analysis of the difficulties encountered in translating national-cultural units, identifying their equivalents, preserving the national color, and ensuring that the text is comprehensible to the reader.

Within the scope of the study, Mirzakalon Ismoil's work "So'na" was selected as the object of translation, and practical examples are provided regarding the rendering into another language of national realities, lexical units, figurative expressions, and the author's distinctive stylistic features.

Moreover, the effectiveness of translation methods such as adequacy, equivalence, adaptation, and commentary-based translation is evaluated, and conclusions are drawn regarding the optimal ways to convey national characteristics.

Key words: national form, national-cultural characteristic, literary work, adequate translation, equivalence, subject, creative process, authorial style, transliteration, transcription, realities, national color, commentary-based translation, adaptation, translation principles, stylistics, figurativeness, lexical units, idioms, cultural context.

Kirish. Ma'lum bir xalqqa xos va unga mansub bo'lgan predmet, tushuncha hamda hodisalarni ifodalaydigan so'zlar muallifga o'z asaridagi personajlarning moddiy va ma'naviy hayotini real va milliy koloritda tasvirlash imkonini beradi. Boshqacha qilib aytganda, ushbu so'zlar badiiy asarning milliy xususiyatini shakllantiruvchi va o'quvchiga xalqning madaniy muhitini yetkazuvchi asosiy vositalardan biri sifatida xizmat qiladi. Shu bilan birga, ular matnga o'ziga xos stilistik ohang beradi, personajlarning ijtimoiy va ma'naviy qiyofasini yanada jonli va tushunarli qiladi, tarjimada esa milliy realiyalarni to'g'ri aks ettirish zaruratini yuzaga keltiradi.

Xalqlar turmushiga oid tushunchalarni ifodalovchi so'zlarni tarjimada adekvat talqin qilish, asl milliy xususiyatini boshqa tilda qayta yaratish kabi murakkab va mas'uliyatli vazifalardan biridir. Bunday so'zlar nafaqat leksik ma'noni, balki madaniy, ijtimoiy va tarixiy kontekstni ham o'z ichiga oladi. Tarjimon oldida o'z xalqi uchun begona, nomlari hatto o'z tilida mavjud bo'lmagan predmet, tushuncha va hodisalarni to'la-to'kis va tushunarli tarzda yetkazish vazifasi turadi.

Mavzuga doir adabiyotlar tahlili. Shuni hisobga olib, tarjimon milliy realiyalarni to'g'ri tanlash, ularning ekvivalentini topish yoki zarurat bo'lganda izohli tarjima va adaptatsiya kabi usullardan foydalanishi lozim bo'ladi. Chunki har bir so'z o'ziga xos madaniy qatlamga ega bo'lib, uni noto'g'ri talqin qilish matnning mazmuni, stilistik ohangi va milliy koloritini buzishi mumkin.

Bundan tashqari, bunday tarjima jarayonida tarjimon ijodiy yondashuvni qo'llashi talab etiladi: matnga mos izohlar berish, leksik va frazeologik birliklarni o'quvchiga tushunarli tarzda yetkazish, va muallifning stilistik xususiyatini saqlash lozim. Shu tariqa milliy xususiyatlarni to'g'ri aks ettirish faqat so'zlarning ekvivalentini topish emas, balki butun madaniy va ijtimoiy kontekstni boshqa tilda qayta yaratish imkonini beradi.

Xalqlar turmushini aks ettiruvchi so'zlarni tarjimada adekvat talqin etish, ularning milliy koloritini saqlash va matnning stilistik xususiyatini yetkazish tarjimonning eng mas'uliyatli, murakkab va ijodiy jihatdan talabchan vazifalaridan biri hisoblanadi. Bu esa tarjimaning sifatini belgilovchi asosiy mezonlardan biridir.

Tarjima ijodiy jarayon hisoblanadi, chunki u faqat so'zlarni boshqa tilga o'tkazish bilan cheklanmay, matnning mazmuni, stilistik ohangi va madaniy xususiyatlarini ham saqlashni talab qiladi. Turli ilmiy-tanqidiy mulohazalar va xulosalar tarjimonga muayyan yo'l-yo'riq ko'rsatadi, uning ish jarayonini tartibga soladi va strategik qarorlar qabul qilishda yordam beradi. Bu mulohazalar tarjimonning umumiy tasavvurini boyitib, amaliyotda duch kelishi mumkin bo'lgan tasodifiy yoki kutilmagan to'siqlardan mohirona o'tish malakasini shakllantiradi. Tarjima jarayoni nafaqat ijodiy mehnat, balki tarjimonning bilim, tajriba va professional mahoratini talab qiladigan murakkab faoliyat sifatida namoyon bo'ladi. Bu jarayon tarjimonni faqat matnning so'zma-so'z ekvivalenti bilan ishlashga emas, balki u matn orqali o'quvchiga muallifning maqsadi, madaniy konteksti va milliy koloritini yetkazishga yo'naltiradi.

Tadqiqot metodologiyasi. Professor A.Fyodorovning fikriga ko'ra, xalqlar turmushiga oid tushunchalarni ifodalovchi so'zlar boshqa tillarga asosan uch asosiy yo'l bilan talqin qilinadi [1]:

- transliteratsiya yo'li bilan;
- tarjima tili boyligi asosida yangi so'z yaratish;
- tarjima tilida asliyatga yaqin vositalar tanlash yo'li bilan.

Bu yondashuvlar tarjimaga milliy xususiyatlarni to'g'ri aks ettirish imkonini beradi va tarjimonning ijodiy hamda ilmiy qaror qabul qilish malakasini talab qiladi.

Bu masalada bolgar olimlari Sergey Vlastov va Sider Florinlarning "Непереводимое в переводе" nomli asarida xalqlar turmush tarzini aks ettiruvchi so'zlarni tarjima qilishning olti yo'li ko'rsatilgan. Shu bilan birga, ularning barcha yo'llari A.V. Fyodorov tomonidan ilgari keltirilgan yondashuvlar asosida tizimlashtirilgan. Boshqacha qilib aytganda, Vlastov va Florinlarning tavsiyalari Fyodorovning uch asosiy talqin usuliga (transliteratsiya, tarjima tili boyligi asosida yangi so'z yaratish, va asliyatga yaqin vositalar orqali) moslashtirilgan va kengaytirilgan shaklda taqdim etilgan. Bu esa tarjimashunoslikda milliy xususiyatlarni

saqlash va to'g'ri aks ettirish borasidagi ilmiy yondashuvlarni birlashtiruvchi muhim manba sifatida qaraladi [5, 6, 7].

Biroq keyingi yillarda nashr etilgan ishlardagi fikrlar va ularning misollari bu borada yanada kengroq ma'lumot olish imkonini beradi. Masalan, mashhur ingliz yozuvchisi Ethel Lilian Voynichning "The Gadfly" asari 1955- yilda taniqli o'zbek tarjimoni Mirzakalon Ismoilning qo'li bilan o'zbek tiliga o'girildi. Garchi tarjimon asarni rus tilidan o'giran bo'lsada, u tarjima tilida asliyat muallifi ifodalamoqchi bo'lgan davr ruhini, muallif tasvirlagan personajlarning moddiy va ma'naviy hayotini real va jonli tarzda yetkazishga muvaffaq bo'lgan. Shu tariqa tarjima nafaqat matn mazmunini, balki asarning milliy xususiyatini saqlash imkonini ham yaratgan.

Bunday misollar tarjimashunoslikda milliy xususiyatlarni yetkazishning amaliy usullarini o'rganish uchun juda muhimdir, chunki ular tarjimonning ijodiy yondashuvi, ekvivalentlikni tanlash va matnga mos adaptatsiya qilish kabi jihatlarni ochib beradi. Misol uchun:

"Signora Grassini greeted Gemma affectionately, exclaiming in a loud whisper: "How charming you look tonight!" and examining the white cashmere with viciously critical eyes" [2].

Asardan olingan ushbu parcha rus tiliga quyidagicha o'girilgan:

"Синьора Грассини встретила Джемму очень приветливо. Как вы сегодня очаровательны! - Воскликнула она громким шёпотом, окидывая её белое кашемировое платье враждебно-критическим взором" [3].

O'zbek tilida esa quyidagicha ifodalangan: *"Sinyora Grassini Jemmani juda yaxshi kutib oldi. - O, bugun muncha ham kuydirmajon bo'psiz! - dedi u baland shipshi bilan, Jemmaning oq kashmiriy ko'ylagini ziqnalarcha tanqidiy ko'zdan kechirib" [4].*

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, tarjimonlar o'sha davr ruhini va milliy iforni saqlab qolish maqsadida ingliz tilidagi "Signora" so'zini rus tiliga "Синьора", o'zbek tiliga ham "Sinyora" tarzida o'giranlar. Aslida, "Signora" so'zi italyan tiliga mansub bo'lib, turmushga chiqqan ayollarga nisbatan ishlatiladi va ingliz tilidagi "Mrs" ga yaqin ekvivalentga ega.

Ushbu so'z o'zbek tiliga "xonim" deb tarjima qilinsa ham bo'lardi. Biroq o'zbek tarjimoni muallifning ichki kechinmalarini, asardagi o'ziga xos stilistik va madaniy ohangni saqlash maqsadida bu so'zni transliteratsiya yo'li orqali "Sinyora" tarzida o'giran va shu bilan tarjimaning adekvatligini ta'minlagan. Ushbu yondashuv o'zbek kitobxonlari uchun ham tushunarli bo'lib, asarning milliy va stilistik xususiyatini saqlab qolishga xizmat qilgan.

Yana bir misol: *Now, Cesare, that's downright unfair. I don't like him anymore than you do, but what is the use of making him out worse than he is? His manner is a little affected and irritating - I expect he has been too much lionized - and the everlasting smart speeches are dreadfully tiring; but I don't believe he means any harm [2].*

Rus tilida: *Это уже совсем несправедливо, Чезаре. Я его тоже не люблю. Но зачем же преувеличивать его недостатки? Правда, у него аффектированная манера держаться, которая раздражает. Правда, и то, что всегда старается острить, а вечное острословие страшно утомительно. Но я не думаю, чтобы он делал всё это с какой-нибудь дурной целью [3].*

O'zbek tilida: *O'zini allaqanday kerik tutar ekan, bir ko'rgan kishini g'ashini keltiradi, bunisi to'g'ri. Innaykeyin, yalang gap bilan sanchib olishga tirishadi, hadeb gap bilan sanchib olaverishi ham odamni betoqat qilib yuboradi [4].*

Bu yerda o'zbek tarjimoni tarjima tili boyligidan imkon qadar ustalik bilan foydalangan. Natijada asliyatda keltirilgan tasviriy ifodalar o'zbek tilida yanada jonli va ta'sirliroq ijodiy vosita sifatida namoyon bo'lgan desak, mubolag'a qilmagan bo'lamiz. Masalan, *"yalang gap bilan sanchib olish"* iborasi nafaqat norozilikni ifodalaydi, balki yuqorida sanab o'tilgan barcha omillarni birlashtirganda ham bu darajada ta'sirli effekt bermagan bo'lar edi. Shu tariqa tarjimonning leksik va frazeologik boylikdan ustalik bilan foydalanishi, asarning stilistik ohangini va milliy koloritini saqlashga xizmat qilgan.

Natijalar va muhokama. Yuqoridagi misollardan ko'rinib turibdiki, garchi tarjimon asarning o'zbekcha variantini rus tili vositasida yaratgan bo'lsa-da, inglizcha asl matnning mazmuni va ruhini bir daqiqa ham nazardan qochirmagan. Shu bilan birga, u yuqorida tilga olingan tarjima tamoyillari asosida ish yuritganligi yaqqol namoyon bo'ladi. Shu o'rinda ta'kidlash joizki, xalqlar turmush tushunchalarini ifodalovchi so'zlarni talqin etish masalasi mavjud ilmiy-tanqidiy ishlarda har doim amaliy tahlil qilinishi lozim bo'lgan muhim mavzu sifatida qaraladi.

Malakali tarjimonlar aksariyat hollarda muayyan kontekstda ishlatilgan, xalqlar turmush tushunchalarini ifodalovchi so'zlarning funksiyasini qayta tiklash masalasi bilan chuqur shug'ullanadilar. Bu jarayon tarjimonning nafaqat til boyligi va leksik malakasini, balki madaniy tafakkurini ham talab qiladi.

Tarjimonning asosiy vazifasi original matnda mavjud bo'lgan milliy xususiyatni saqlab qolish, ya'ni asliyatdagi madaniy va ijtimoiy kontekstni boshqa xalqning milliy tushunchalari bilan aralashtirmaslikdir [8, 9, 10].

Masalan, agar original matnda keltirilgan milliy ruh Yevropa xalqlarining turmush tarziga oid bo'lsa, uni Osiyo xalqlari madaniyatiga oid tushunchalar bilan almashtirmaslik lozim, bu esa tarjimada originalning milliy xususiyatini va madaniy kontekstini saqlashga xizmat qiladi. Shu yo'l orqali tarjima nafaqat leksik ekvivalentsiyani, balki matnning stilistik ohangini, personajlarning moddiy va ma'naviy hayotini ham o'quvchiga to'la yetkazadi.

Mirzakalon Ismoilij tarjimalari bu jihatdan ajoyib misol bo'lib xizmat qiladi. U o'z tarjimalarida milliy koloritni, asar personajlarining hayot tarzini va madaniy kontekstni sodiq va aniq tarzda aks ettira olgan. Shu tariqa tarjimonning mahorati faqat so'zlarni boshqa tilga o'tkazishdan iborat emas, balki u matndagi milliy ruh, madaniy tafakkur va stilistik xususiyatlarni saqlash orqali asarni o'quvchi uchun to'liq va jonli qiladi [4, 11, 12].

Shu bilan birga, tarjimonlar ushbu jarayonda quyidagi ijodiy yondashuvni qo'llashlari kerak: matn mazmunini boyitish, leksik va frazeologik birliklarni o'quvchiga tushunarli tarzda yetkazish va originalning o'ziga xos stilini saqlash. Bu esa tarjimashunoslikda milliy xususiyatlarni yetkazish borasidagi eng murakkab va mas'uliyatli vazifalardan biri sifatida qaraladi.

Bundan tashqari, u yoki bu xalqning milliy tushunchalarini ifodalovchi ko'plab so'z va iboralarning ma'nosi hamda funksiyalari mamlakatlar o'rtasidagi madaniy, siyosiy-iqtisodiy va savdo-sotiq kabi turli aloqalar natijasida bir qator xalqlarga, shu jumladan, tarjima tiliga mansub o'quvchilarga ham tushunarli bo'lib qoladi. Shu bois, tarjimonlar bunday so'zlar yoki harakatlarni ifodalash uchun alohida so'z qidirishga majbur bo'lmaydilar, ular transliteratsiya yo'li bilan ham yetkazishlari mumkin.

Ushbu yondashuv yuqorida keltirilgan misollarda ham o'z aksini topgan. Masalan, "Signora" so'zining o'zbek tiliga "Sinyora" tarzida o'girilishi nafaqat asl matnning stilistik va madaniy xususiyatini saqlashga xizmat qilgan, balki o'quvchiga ham tushunarli bo'lishini ta'minlagan. Bu bilan birgalikda tarjimonning ijodiy yondashuvi, transliteratsiya va boshqa tarjima tamoyillaridan foydalanishi, milliy koloritni saqlash bilan birga, matnning mazmunini va stilistik boyligini ham ta'minlaydi.

Transliteratsiya so'zlarni tarjima qilmasdan, ularni asl talaffuziga yaqin shaklda yozish yoki aytish usulidir. Ushbu usul tarjimon uchun eng samarali vositalardan biri bo'lib, asliyatning milliy kolloritini, ya'ni tarixiy vaziyatni va personajlarning ijtimoiy muhiti aks etishini ta'minlaydi. Shu sababli tarjimonlar bu usuldan faoliyatlarida keng foydalanadilar. Transliteratsiyadan foydalanishning asosiy sababi - original matnda ishlatilgan milliy xususiyatli leksemalarni tarjima tilida to'liq ifodalashning imkonsizligi va ikki xalq uchun bir xil predmetlar hamda hodisalar nomlarini saqlash zaruratidir. Originalning milliy ruhini aks ettirish majburiyati esa ikki til vositalarini to'liq almashtirishni istisno qiladi [13, 14].

Xulosa. Har bir millat o'z tarixiy rivojlanishi, madaniyati va milliy xususiyatlaridan kelib chiqib, o'z milliy qiyofasini yaratadi. Shu bilan birga, boshqa millatlarning qiyofasi u qanday bo'lsa, shundayligicha e'tirof etilishi va tarjima tilida to'g'ri aks ettirilishi zarur. Hozirgi davr millatlar o'rtasidagi yaqinlashuv va madaniy almashinuv davri bo'lib, bu jarayon kishilarga boshqa millatlarning odatlari va xulq-atvorini chuqurroq tushunish imkonini yaratadi. Tadqiqot davomida keltirilgan misollar transliteratsiya va tarjima jarayonlarida original matnning milliy ruhini saqlashning muhimligini tasdiqladi. Shu asnoda milliy xususiyatlarni saqlash va ularni aniq ifodalash tarjima faoliyatining ajralmas va muhim qismi ekanligi isbotlanadi.

ADABIYOTLAR:

1. Федорова А. В. Основы общей теории перевода. Изд. 4-е, перераб и доп. – М.: 1983 г.
2. Voynich E. L. *The Gadfly*, Release Date: February 1, 2009 [EBook #3431] Last Updated: March 16, 2018 Language: English, Produced by Judy Boss, and David Widger.
3. Войнич Э.Л. Овод Н. Волжина таржимаси, – М.: Государственное издательство художественной литературы, 1958 г.
4. Voynich E. L. *So'na, tarjimon M. Ismoilij, Nashrga tayyorlovchi I. Ahmedov.* – T: Yangi asr avlodi, 2023 y.
5. Salomov G'. *Tarjima nazariyasi asoslari.* – T: O'qituvchi nashriyoti, 1983 y.
6. Salomov G'. *Badiij tarjimaning leksik-frazeologik masalalari.* – T: Fan nashriyoti 1960 y.
7. Salomov G'. *Rus tilidan o'zbekchaga maqol, matal va idiomalarni tarjima qilish masalasiga doir.* – T: Fan nashriyoti 1961 y.

8. G'afurov I. *Tarjimaning ijodiy jarayonlari va pragmatizm. Qiyosiy tarjimashunoslik va tarjima nazariyasi muammolari (Respublika ilmiy anjuman materiallari)*. – T: 2007, b.180.
9. Lapasov J. *Badiiy matn va lisoniy tahlil*. – T: 1995, b.166.
10. Rahimov G'. *Tarjima nazariyasi va amaliyoti*. – T: O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi nashriyoti, 2016, -b. 108.
11. Sirojiddinov Sh., Odilova G. *Badiiy tarjima asoslari. Monografiya*. – T: Mumtoz so'z, 2011, -b.60.
12. Sodiqov Z. *Tarjima nazariyasi va amaliyoti*. – T: 2023, -b.132.
13. Umarxo'jayev M. *Tarjima dunyosi va uning falsafasi. Tarjimaning lingvokognitiv, kommunikativ-pragmatik va lingvokul'turologik aspektlari. Respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari to'plami*. – Andijon: 2015, -b.208.
14. Quronov D., Mamajonov Z., Sheraliyeva M. *Adabiyotshunoslik lug'ati*. –T: Akademnashr, 2010, -b.210.

MAXMUR IJODIDA MULAMMA’ MUXAMMAS VA UNING POETIK TAHLILI

Rasulova Nigora Kurbonovna,
Sharof Rashidov nomidagi Samarqand
davlat universiteti tayanch doktoranti
rasulovan1985@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada XVIII asr oxiri va XIX asarning boshlarida yashab ijod etgan shoir Maxmurning bir bandi fors-tojikcha, ikkinchi bandi o‘zbekcha bo‘lgan “Aylading” radifli muxammasi mazmuni, badiiy xususiyatlari, g‘oyaviy yo‘nalishi va poetik tasvir vositalari tahlil qilinadi. Maxmurning fors-tojik tili va o‘zbek tilida barakali ijod qilgan mahoratli shoirdir. Tadqiqot ishi uchun tanlangan muxammas ijtimoiy mavzuda bitilgan bo‘lib, ikki tilda yozilganligi uchun mulamma’ muxammas sanaladi.

Kalit so‘zlar: mulamma’ muxammas, mustaqil muxammas, shir-u shakar, badiiy tasvir vositalari, shoir mahorati.

MULAMMA’ MUHAMMAS AND ITS POETICAL ANALYSIS IN THE WORK OF MAHMUR

Abstract. This article analyzes the mukhammas with the radif “Aylading” by the poet Mahmur, who lived and created in the late 18th and early 19th centuries. The analysis focuses on the meaning, artistic features, ideological direction, and poetic devices of the work, whose first stanza is in Persian-Tajik and the second in Uzbek. Mahmur was a skilled poet who productively created works in both Persian-Tajik and Uzbek. The mukhammas selected for this research is written on a social theme and is considered a mulamma’ mukhammas due to being composed in two languages.

Keywords: mulamma’ mukhammas, independent mukhammas, shir-u shakar, artistic devices, poet’s skill.

«МУЛАММА МУХАММАС» И ЕГО ПОЭТИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ В ТВОРЧЕСТВЕ МАХМУРА

Аннотация. В данной статье анализируются содержание, художественные особенности, идейная направленность и средства поэтической образности мухаммаса «Айладинг» Радибли поэта Махмура, жившего и творившего в конце XVIII – начале XIX веков. Махмур – искусный поэт, создавший произведения как на персидско-таджикском, так и на узбекском языках. Выбранный для исследования мухаммас написан на социальную тему и относится к муламма мухаммас, поскольку написан на двух языках.

Ключевые слова: муламма мухаммас, самостоятельный мухаммас, шир-у шакар, средства художественной образности, мастерство поэта.

Kirish. O‘zbek mumtoz adabiyotining yirik namoyandalaridan biri shoir Maxmur XVIII asr oxiri va XIX asarning boshlarida Qo‘qon shahrida yashab ijod etgan. Uning asli ismi Mahmud bo‘lib, Maxmur adabiy taxallusidir. Shoir yashagan davrda xonliklar o‘rtasidagi urush, talashlar xalq turmushining qiyinlashishiga sabab bo‘lgan. Maxmurning o‘zi ham moddiy tanglikda hayot kechirgan. Xotini va uch farzandidan iborat oilasini arang tebratgan. Buning ustiga hajvda mohirligi bois saroy a‘yonlari, ayrim mansabdor shaxslarga yoqmagan. Shuning uchun ham Qo‘qon adabiy muhiti haqida tazkira yozgan Fazliy Namangoniy o‘z tazkirasida Maxmur haqida salbiy munosabat bildirgan edi. Shoir tirikchilik vajidan ma‘lum muddat Amir Umarxon saroyida sipohlik ham qilgan. Shoirning ko‘pgina she‘rlarida hayot mashaqqatlaridan zorlanish ohanglari ustunlik qiladi. “Vazir” radifli muxammasida ham moddiy yetishmovchilikdan zorlanib, vazirdan moddiy yordam berishni so‘raydi:

Osafo, avqot ilkida ado bo‘ldim, vazir,
Muflisu qalloshlikdan g‘amzado bo‘ldim, vazir,
Uch bolaga non topolmay men gado bo‘dim, vazir,
Dargahingga shay‘a lillah deb gado bo‘ldim, vazir,
Misli soillar kabi sohib nido bo‘ldim, vazir [A. Qayumov 1959: 61]

Ko‘rinadiki, shoir ijodida ijtimoiy mavzular yetakchilik qiladi. Maxmurning shir-u shakar usulida yozilgan “Aylading” radifli muxammasi ham aynan mana shunday ijtimoiy mavzuda bitilgan asardir. Maxmur ijodiy merosi, muxammaslari adabiyotshunos olimlar tomonidan atroflicha o‘rganilgan. Tadqiqot uchun tanlangan mulamma’ muxammas orqali Maxmurning til bilish va so‘zlardan o‘rinli foydalanish mahoratini teranroq anglashga harakat qildik.

Mavzuga doir adabiyotlar tahlili. Muxammas mumtoz adabiyotimizda keng tarqalgan janrlardan biri bo‘lib, yaratilish xususiyatiga ko‘ra ikkiga bo‘linadi: 1) mustaqil muxammas: mumtoz adabiyotshunoslikda “Tab’i xud muxammas” deb yuritilib, uning barcha misralari bir shoir qalamiga mansubdir; 2) o‘zga shoir g‘azaliga bog‘langan muxammas taxmis deb yuritilib, u taxmischi shoirning o‘zga shoir g‘azalidagi har bir baytga o‘zidan yana uch misra qo‘shish orqali yaratiladi. Bunda taxmis bog‘layotgan shoirning o‘sha g‘azal mazmuniga putur yetkazmasligi, qo‘shilayotgan misralarning g‘azal vazni, qofiyasi, radifi va boshqa jihatlariga mos bo‘lishi talab etiladi [D.Quronov 2013:198]. Shoir Maxmur qalamiga mansub “Aylading” radifli mulamma’ muxammas mustaqil muxammas sanaladi. Shoir ushbu muxammasini ikki til imkoniyatlari asosida bir bandini fors-tojikcha, boshqa bir bandini o‘zbekcha bitgan. Muxammas ikki tilda bitilgan bo‘lsa-da, she‘ning asosiy g‘oyasini bevosita ochib bera olgan. Muxammasning asosiy g‘oyasi — ilm, adolat, fazilat egalarining qadrsizlanishi-yu, aksincha nodonlarning obro‘ topayotganidan zorlanish, zabun xalq holini yaxshilashga undashdir. Muallif falakka murojaat qilib, ilm, fikr ahlini nodonlar qo‘lida xor qilayotganligini, bu sitamlarning qachongacha davom etishini so‘raydi. Uni pastkash, zolim sifatleri bilan ham ataydi. Muxammasda osmon gardun, spehr, falak, samo kabi ma‘nodoshlari bilan ifodalanib kelingan. Shoir falak timsoli orqali bir o‘rinda taqdirga mirojaat qilsa, yana bir o‘rinda go‘yo xalqning boshida turgan hukmdorlarga, amaldorlarga murojaat qiladi. Mazkur muxammas ramali musammani maxbuni mahzuf (foilotun, foilotun, foilotun, faulun) bahrida bitilgan.

Doimo ehsoni gardun shud basuyi ag‘niyo,
Kard donoyon baziyyi panjai johil fano,
To‘tiyonro soxta dar qaydi zindon muhtalo,
Andalibonro muti‘i bum kardi, ey samo,
Ahli donishni zabuni dasti nodon aylading. [Maxmup 1951:17]

Ma‘nosi:

Doimo osmonning ehsoni boylarga bo‘ldi,
Donolarni johillar panjasi ostida past qildi,
To‘tilarni zindon qaydiga muhtalo qilib,
Ey samo, bulbullarni boyqushlarga qaram etding.
Ilm, fikr ahlini nodonlar qo‘lida xor qilding.

Birinchi bandning to‘rt misrasi fors-tojik tilida, faqatgina beshinchi misrasi barcha bandlarda o‘zbek tilidadir. Muxammas osmon o‘z ehsonini boylarga qilayotgani shikoyati bilan boshlanadi. Shoir ilm egalarining johillar qo‘lida past bo‘layotganini to‘tilarning zindonda bandi ekani-yu, bulbullarning boyqushlarga qaram qilingani bilan izohlaydi.

Xor qilding oqibat har kimki erdi arjumand,
Past etding soyadek, naxliki bo‘ldi sarbaland,
Barcha fe‘ling nosutuda jumla vafing nopisand,
Yusufi Misrini aylab chohi zindon ichra band,
Piri Kan‘on manzilini baytul-ahzon aylading. [Maxmup 1951:17]

Ikkinchi band o‘zbek tilida bitilgan bo‘lib, unda kimki baxtli bo‘lgan bo‘lsa, uning xor qilingani, yosh niholki sarbaland bo‘lsa, soya kabi past etilgani bir-biriga zid qo‘yib ta‘kidlangan. Shoir dunyo yoki falakning adolatsizligini tanqid ostiga oladi. Falak **Yusuf kabi pok, go‘zal, komil insonni zindonga tashlaydi, Ya‘qub kabi donishmand piri esa g‘am uyiga muhtalo qiladi** deya nadomat qiladi. Bu misralar orqali kishilarni imyon mustahkamligi va e‘tiqodning sofligiga chorlaydi.

Ey falak, dar borai mo zulmi behad to bakay?
Mo asiron dar tilsimi mardumi bad to bakay?
Bar sari mo roston shamshiri chun mad to bakay?
Yak alam dar borai mo soxtan sad to bakay?
Ey sitamparvar, yuraklar tah-batah qon aylading. [Maxmup 1951:18]

Ma‘nosi:

Ey falak bizga bu cheksiz zulming qachongacha davom etadi?
Biz yomon kishilarning tilsimiga tokaygacha asir bo‘lib turamiz?
Biz rostlar boshida qayrilma qamchilar qachongacha sinadi?

Tokaygacha bu alamni biz uchun yuz alam qilasan?

Ey zolim, yuraklarni qatma-qat qon aylading.

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu bandda yana falakka murojaat qilinib, uning cheksiz zulmlari qachongacha davom etishi soʻraladi. Biz deya ilm ahlini nazarda tutgan shoir yomon kishilar qoʻlidan qachon asirlikdan qutulamiz deya zorlanadi. Shuningdek, rostligi uchun boshida qilichlar sinishi, bir alami yuz alam boʻlishi va yuraklari qon boʻlishida falakni ayblaydi va unga zolim sifati beriladi.

Qaysi bir zulming etay teʼdod, ey garduni dun,

Kim sening bedodu javring haddu gʻoyatdin burun,

Behunar johilga berding beadam dunyoyi dun?

Jamʼi donolarni qilding holini zer-u zabun,

Zogʻni aʼlo qilib toʻtini nodon aylading. [Maxmup 1951:18]

Ushbu bandda shoir yuqoridagi birinchi bandda keltirilgan fikrlarni yana takrorlayotgandek koʻrinsa-da, aslida behunar johilning behisob davlatga ega boʻlishi va donolarning holi zer-u zabun qilinganini oldingiga nisbatan yanada boʻrttiribrogʻ ifoda etilmoqda.

Shoir bu misralarda balandparvoz oʻxshatish, istiora, mubolagʻalarga oʻrin qoʻymaydi. Oʻzining yurak dardlari va iztiroblarini eng oddiy, eng sodda ifodalarda bayon etadi. Bu misralar oʻzining qalb ovozi, yurakdan chiqayotgan oʻtli faryodlari ekanligi tufayli zoʻr taʼsir kuchi kasb etadi va oʻquvchini hayajonga soladi.[A.Қаюмов1961:175]

Tokay ey garduni dun, dunro rioyat mekuni?

Chand bohamnomi xud lutfi inoyat mekuni?

To bakay az mo bajamʼi xud shikoyat mekuni?

Chand bo in ablahon naqli hikoyat mekuni?

Hamsifat, hamnom uchun dunlarga maylon aylading. [Maxmup 1951:18]

Maʼnosi:

Ey pastkash dunyo, tokaygacha pastkash kishilarga rioya qilasan?

Senga hamnom boʻlgan pastlarga qachongacha lutfi inoyat qilasan?

Qachongacha bizdan oʻz ahillaringga shikoyat qilasan?

Qachongacha bu bir necha ablahlarga hikoyalar naql qilasan?

Hamsifating, hamnoming boʻlgani uchun pastkashlarga mayl koʻrsatding.

Shoir yana dunyoga murojaat qilib, uning past odamlarga yon bosayotganidan norozilik bildiradi. Uchinchi misrada “bajamʼi xud” “oʻz ahillaringga” deya pastkash kishilar bilan dunyoni tenglashtiradiki, dunyo ham aslida past degan ifodani beradi. Bu oʻrinda shoir zamona zulmini nazarda tutadi. Bu bandda istioradan unumli foydalangan. Dunyo ongli mavjudot kabi “oʻziga oʻxshaganlarga mehr koʻrsatadi”.

Sinalar maʼmurasini seldek qilding xarob,

Ahli dil bagʻrini hasrat oʻtida etding kabob,

Feʼl-u atvoring mukaddar, guftu goʻying nosavob,

Lutfig ermas begʻaraz, inʼoming ermas behisob,

Tifldek boʻlding pushaymon kimga ehson aylading. [Maxmup 1951: 19]

Mazkur banddagi “sina” – koʻngil, qalb; “maʼmura” – obod joy, tartib-intizom boʻlgan makondir. Shoir ayblayotgan falak **koʻngillar obodonligini seldek buzgan**, yaʼni odamlar qalbiga gʻam, ishonchsizlik, tashvish solgan. Shoir ketma-ket feʼl-atvori kirlangan, suhbatining savobdan yiroq, lutfig gʻarazli va inʼoming hisobli deya taʼsirchanlikni kuchaytirib boradi.

Algʻiyos, ey az sitamhoyi spehri bad shior,

Dar dili mo nest aknun toqatu sabru qaror,

Alʼamon goʻyon baolam nalam az dasti tu zor,

Alhazar goʻyan gurizam az tu dar shahri diyor,

Kim koʻgil mulkin buzib yer birla yakson aylading. [Maxmup 1951:19]

Maʼnosi:

Yomon shiorli osmonning sitamlaridan dod!

Dilimizda ortiq toqat, sabr-u qaror qolmadi.

Sening dastingdin alʼamon deb yigʻlab nola qilaman,

Alhazar deb shaharlarda sendan qochaman,

Chunki sen koʻngil mulkini buzib, yer bilan yakson qilding.

Olingan natijalar va ularning tahlili. Ushbu bandda lirik qahramon falakning sitamlaridan dod soladi. Falakka murojaat qilib, uning zulmiga dosh berolmay qolganini aytadi. Osmonning shiori yomon, u

ko'ngil mulkini buzib, yer bilan yakson qiladi. Omon qolishning yagona chorasida esa undan qochish deya izohlaydi. Shoirning eng katta alam va dardi shu bandda jamlangan.

To qalam chekti qazo lavhi vujudi kunfakon,
Kelmadi bir rostliq naqlingda, ey kaj doston,
Mumtahandirsan yomonlig'da na hojat imtihon,
Naxli idboring uza murg'iki qo'ydi oshiyon,
Tuxmi anjum gardishidin sangboron aylading. [Maxmup 1951: 19]

Bu bandda qaro qalamning lavhi mahfuzga yozgan taqdiri tilga olinadi. Shoir qilinayotgan yomonliklarning aslida tasodif emasligi, bu fe'l-atvorning tubanligi yaralishidan beri borligini ta'kidlaydi. Shoir nazdida falak yomonlikda shunchalik ilg'or va mashhurki, uni tekshirishning keragi ham yo'q. Maxmur bandning ikkinchi misrasida rostliq va kaj so'zlarini bir-biriga zidlab, tazodni yuzaga keltirgan. Shoir oxirgi misrada uning baxtsizlik daraxtiga qush oshyon qursa, tuxmini yulduzlar chambaragidan toshbo'ron qilding deya uning yomonlikdan qaytmasligini ta'kidlaydi.

Xulosa qilib aytganda, falakka munajat qilib yozilgan ushbu mulamma' muxammasda shoir o'z dard-hasratlarini to'kib soladi. Biz tahlil qilgan muxammas qisqartirib olingan bo'lda-da, bandlar ketma-ketligi orqali shoirning maqsadi ayon bo'ladi. Maxmur jamiyatda yuz berayotgan adolatsizliklarni bir-bir sanab o'tadi, taqdirning beshafqatligidan nola qiladi. Bandlar oxirida o'zaro qofiyalanib kelgan oxirgi misra shoirning dardli kechinmalarini yanada chuqurlashtirib, kitobxon diqqatini o'ziga tortish vazifasini bajaradi.

Maxmur ushbu muxammasida tazod, tashbeh, istiora, talmeh kabi san'atlarning baravar qo'llash natijasida poetik ifodaning jozibador va ta'sirli bo'lishini ta'minlagan.

Maxmur o'z davrining ilmli, fozil kishilaridan bo'lgan. Lekin shu ilmiga yarasha obro' va qimmatga ega bo'lmagan. Buni shoir asarlari mazmunidan ham anglab yetish mumkin. Shoir Maxmur "Aylading" muxammasi bilan o'zi va o'zi kabi ilm ahlining nodonlar, johillar qo'lida past qilinganiga asosiy urg'u beradi. Xullas, Maxmurning bu muxammasi XIX asr birinchi yarmidagi Qo'qon xonligi ijtimoiy hayotining manzarasini chiqib bera olgan.

ADABIYOTLAR:

1. Махмур. Танланган асарлар .Тошкент-1951.www.ziyouz.com kutubxonasi
2. Қаямов А. Махмур.Тошкент-1956.
3. Қаямов А. Қўқон адабий муҳити. Т.: ЎзФА нашриёти 1961.
4. Quronov D., Matajonov Z, Sheraliyeva M. Adabiyotshunoslik lug'ati.-Toshkent: Akademnashr.2013.
5. Ҳоҷиаҳмедов А. Ўзбек арузи лугати. – Тошкент: Шарқ, 1998.
6. Шамсиев П., Иброҳимов С. Ўзбек классик адабиёти асарлари учун қисқача лугат. Тошкент-1953.

MARIO VARGAS LLOSA'NING ROMANLARIDA NARRATIV MURAKKABLIK VA POLIFONIYA NAZARIYALARI

Razzakov Baxrom Abdug'afurovich,
Teacher of the "Foreign Languages" department of
Namangan State Technical University
bahromrazzakkov@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqola Mario Vargas Llosa ijodidagi narrativ murakkablik va polifoniya nazariyalarining o'zaro aloqasini tahlil qiladi. Tadqiqotda yozuvchining "The Time of the Hero" va "The Feast of the Goat" romanlari asosida uning narrativ strategiyalari, ko'p qatlamli tuzilma va ko'p ovoqli diskurs yaratishdagi usullari chuqur o'rganiladi. Muallif Vargas Llosaning badiiy tajribasini Gérard Genette, Brian McHale, Wolf Schmid va Mikhail Bakhtin nazariyalari bilan bog'lab, narrativ va ideologik murakkablikni tushuntiruvchi ilmiy asosni shakllantiradi.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, Vargas Llosa uchun narrativ murakkablik shunchaki shakliiy tajriba emas, balki polifonik dunyoqarashning formal ifodasidir. Uning romanlarida turli ovoqlar o'rtasidagi dialog orqali siyosiy, axloqiy va falsafiy masalalar ochib beriladi, bu esa yozuvchini zamonaviy adabiyotda ko'p ovoqli realizmning yirik namoyandasiga aylantiradi.

Kalit so'zlar: Mario Vargas Llosa, narrativ murakkablik, polifoniya, dialogizm, postmodernizm, Gérard Genette, Mikhail Bakhtin, ko'p ovoqli roman.

ТЕОРИИ СЛОЖНОСТИ ПОВЕСТВОВАНИЯ И ПОЛИФОНИИ В РОМАНАХ МАРИО ВАРГАСА ЛЬОСЫ

Аннотация. В статье анализируется взаимосвязь нарративной сложности и теорий полифонии в творчестве Марио Варгаса Льосы. В исследовании глубоко изучаются повествовательные стратегии писателя, его многослойная структура и приёмы создания многоголосного дискурса на примере романов «Время героя» и «Пир козла». Автор связывает художественный опыт Варгаса Льосы с теориями Жерара Женетта, Брайана Макхейла, Вольфа Шмида и Михаила Бахтина, формируя научную основу для объяснения нарративной и идеологической сложности.

Результаты исследования показывают, что для Варгаса Льосы нарративная сложность — это не просто формальный опыт, а формальное выражение полифонического мировоззрения. В его романах политические, моральные и философские проблемы раскрываются посредством диалога разных голосов, что делает писателя ярким представителем многоголосного реализма в современной литературе.

Ключевые слова: Марио Варгас Льоса, повествовательная сложность, полифония, диалогизм, постмодернизм, Жерар Женетт, Михаил Бахтин, полифонический роман.

THEORIES OF NARRATIVE COMPLEXITY AND POLYPHONY IN THE NOVELS OF MARIO VARGAS LLOSA

Abstract. This article analyzes the interrelation between the theories of narrative complexity and polyphony in the works of Mario Vargas Llosa. Based on the novels "The Time of the Hero" and "The Feast of the Goat", the study explores the writer's narrative strategies, his methods of constructing multilayered structures, and creating polyphonic discourse. The author connects Vargas Llosa's artistic experience with the theories of Gérard Genette, Brian McHale, Wolf Schmid, and Mikhail Bakhtin, forming a scholarly framework for understanding narrative and ideological complexity.

The results of the study show that for Vargas Llosa, narrative complexity is not merely a formal experiment but a structural expression of a polyphonic worldview. Through the dialogue between diverse voices, his novels reveal political, moral, and philosophical issues, making him one of the foremost representatives of multi-voiced realism in contemporary literature.

Keywords: Mario Vargas Llosa, narrative complexity, polyphony, dialogism, postmodernism, Gérard Genette, Mikhail Bakhtin, multi-voiced novel.

Kirish. Mario Vargas Llosaning romanlari, xususan, “The Time of the Hero” va “The Feast of the Goat”, soddalikdan ataylab voz kechgan murakkab hikoya san’atining yorqin namunasidir. Uning narrativ shakli o’zaro bog’langan qarashlar, bir nechta vaqt qatlamlari va raqobatdosh nutqlar labirintidir. Bu esa, o’quvchini ma’noni yaratishda faol ishtirokchiga aylanishga chorlaydi. Ushbu uslubiy va tematik murakkablikni to’liq tushuntirish uchun mustahkam nazariy asos zarur. Shu bois ushbu bo’lim narrativ murakkablik va polifoniya nazariy asoslarini tahlil qiladi hamda Vargas Llosaning narrativ tajribalarini o’rganishda ularni birgalikda qo’llash zarurligini ta’kidlaydi.

Mavzuga doir adabiyotlar tahlili. Narrativ murakkablik bu shunchaki uslub masalasi emas, balki inson tajribasining murakkabligini aks ettiruvchi va uni tahlil qiluvchi asosiy hikoya qilish usulidir. Bu an’anaviy chiziqli, hamma narsani biluvchi hikoyadan voz kechish va haqiqatni parchalangan, ko’p qirrali shaklda ifodalashga o’tishni anglatadi. U ham tuzilmaviy, ham mavzuviy darajada namoyon bo’ladi va uni tahlil qilish uchun yangi analitik vositalarni talab qiladi.

Tuzilmaviy murakkablik bu matnning formal elementlarini o’zgartirish orqali chiziqli bo’lmagan, o’quvchiga murakkab o’qish tajribasini yaratishdir. Eng yaqqol belgisi noan’anaviy vaqt ketma-ketligi va parchalangan xronologiyadir. Voqealar oddiy “boshlanish-yakun” ketma-ketligida emas, balki oldinga va orqaga sakrashlar orqali beriladi. Ko’pincha bu o’zgarishlar aniq ko’rsatkichsiz yuz beradi, shuning uchun o’quvchi voqealar ketma-ketligini o’zi qayta tiklashi kerak bo’ladi. Masalan, “The Feast of the Goat” romanida Vargas Llosa Uraniya Kabralning Dominikan Respublikasiga qaytishi haqidagi hozirgi voqealarni Truxillo rejimining so’nggi kunlari va fitnachilarning rejalarini tasvirlangan epizodlar bilan aralashtiradi. Natijada vaqtning turli qatlamlari bir-biri bilan qorishib, markaziy sir asta-sekin ochilib boradigan mozaik tuzilma yaratiladi (Kristal, 2010).

Ko’p nuqtayi nazardan hikoya qilish (multi-perspektival narration) va o’zgaruvchan fokus (variable focalization) ham muhimdir. Yozuvchi yagona nuqtayi nazarda qolmaydi, balki bir nechta nuqtayi nazarlarni o’z ichiga oladi ularning har biri qisman va subyektivdir. Bu usul, “ko’p fokallashtirish” deb ham ataladi, hikoyani hamma narsani biluvchi rivoyatchidan qahramonning ichki monologigacha yoki bir qahramon nigohidan boshqasigacha o’zgartiradi.

Masalan, “The Time of the Hero” romanida Leoncio Prado harbiy akademiyasida yuz bergan voqealar bir nechta obrazlar Jaguar, Slave va Alberto, shuningdek noma’lum rivoyatchi orqali turlicha tasvirlanadi. Bu strategiya yagona haqiqatni emas, balki manbaga bog’liq turli “haqiqatlar”ni taqdim etadi [1]

Shuningdek, roman ko’pincha o’z ichiga ichki hikoyalar, kichik syujetlar va chetga og’ishlarni oladi. Bular asosiy voqea bilan bevosita bog’liq bo’lishi yoki bo’lmasligi mumkin. Ular matn dunyosini boyitadi, fon ma’lumotlarini beradi va turli ovozlarni hamda uslublarni kiritadi. Vargas Llosa bu uslubdan tez-tez foydalanib, roman doirasini kengaytiradi qahramonlarning ichki dramatzmidan tortib, butun millatning ijtimoiy-siyosiy tarixigacha.

Tadqiqot metodologiyasi. Narrativ murakkablik faqat tuzilishda emas, balki mavzuviy va psixologik qatlamlarda ham ifodalanadi. Noaniqlik, axloqiy nisbiylik va ma’no buzilishi uning markazida turadi. Bu murakkab tuzilma mutlaq axloqiy haqiqatning yo’qligini, “haqiqat”ning esa bahsli tushuncha ekanini ko’rsatadi. Qahramonlarning harakatlari oddiy emas, o’quvchi esa muallifning yo’l-yo’riqsiz ularning axloqiy oqibatlarini o’zi tahlil qilishi kerak bo’ladi.

Masalan, “The Feast of the Goat” romanida qotillar, jabrdiydalar va omon qolganlarning motivlari o’quvchi tomonidan turlicha talqin qilinadi bu esa oddiy “qahramon-yovuz” qarama-qarshiligini murakkablashtiradi [2].

Bu murakkablikning yana bir belgisi ishonchsiz rivoyatchidan foydalanishdir. Ishonchsiz rivoyatchi bu hikoya ichidagi obraz bo’lib, u voqealarni noto’g’ri, biryozlama yoki to’liq bo’lmagan tarzda taqdim etadi u hamma narsani bilmasligi, manipulyatsiya qilish istagi yoki psixologik beqarorligi sababli. Shu tariqa o’quvchi doimo matndagi ma’lumotni shubha ostiga oladi, yolg’on, yarim haqiqat va subyektiv talqinlarni tahlil qilib, matn “detektiv”ga aylanadi. Vargas Llosa bu uslubni mohirona qo’llab, o’quvchida shubha hissini uyg’otadi va “haqiqat”ning konstruktiv xarakterini yoritadi.

Nihoyat, ong oqimi (stream of consciousness) va ichki monolog uslublari qahramonlarning ruhiy dunyosiga chuqur kirish imkonini beradi. Muallif qahramonlarning fikr va hissiyotlarini chiziqli bo’lmagan, ko’pincha parchalangan shaklda tasvirlab, psixologik realizm ta’sirini yaratadi. “The Time of the Hero”dagi ichki monologlar qahramonlarning qo’rquv, xavotir va istaklarini ochib beradi ko’pincha ularning tashqi obraziga zid tarzda.

Tahliliy modelni ilmiy asoslash uchun tadqiqot mashhur narratologlarning ishlanmalariga tayangan. Gérard Genette’ning “Narrative Discourse: An Essay in Method” asari hikoya va narrativ o’rtasidagi munosabatni tahlil qilish uchun aniq terminologiyani taklif etadi [3]. Uning tartib (order), davomiylik

(duration) va takrorlanish (frequency) tushunchalari Vargas Llosa asarlaridagi tuzilmaviy murakkablikni tahlil qilishda beqiyos foydali.

Brian McHale'ning postmodernistik poetika haqidagi ishlari bu munozarani kengaytiradi. U "ontologik dominant" tushunchasini kiritadi: modernizm "nimani bilish mumkin?" savoliga javob izlar ekan, postmodernizm "bu qanday dunyo?" savolini qo'yadi [3]. Shu ma'noda, narrativ murakkablik ko'p, ba'zan bir-biriga zid haqiqatlar mavjud bo'lgan dunyoning matndagi ifodasidir. Vargas Llosaning romanlarida fakt va xayol, tarix va afsona chegaralari osonlikcha aralashadi bu esa postmodernistik sezgirlikning yorqin namunasi hisoblanadi.

Tahlil va natijalar. Wolf Schmidning narrativ qatlamlar modeli yana bir foydali tahliliy vosita hisoblanadi. Schmid "syujet" (voqealar ketma-ketligi), "narrativ" (hikoya qanday aytilganligi) va "taqdimot" (muallifning til va uslub tanlovi) o'rtasidagi farqni aniqlaydi. Shu tarzda, Vargas Llosaning o'zgaruvchan fokallashtirish va ichki hikoyalarni kiritish kabi usullari qanday qilib umumiy murakkablik ta'sirini yaratishini kuzatish osonlashadi.

Agar narratologiya narrativ murakkablikning "qanday" ishlashini tahlil qilsa, Mikhail Baxtinning polifoniya nazariyasi uning "nima uchun" ishlashini tushuntirib beradi. Baxtinning Dostoevskiy ijodi haqidagi asarida bayon etilgan bu nazariya romanning bir nechta, o'zaro birlashmagan ovozlari va onglarni muallif nazoratidan mustaqil holda ifodalay olishini tushuntiruvchi samarali nazariy doira hisoblanadi.[5]

Polifonik roman monologik romanga to'g'ridan-to'g'ri qarshi turadi. Monologik romanda muallifning ovozi markazda bo'ladi, qolgan barcha qahramonlar va ularning nutqlari muallif dunyoqarashiga bo'ysundiriladi. Aksincha, polifonik romanda qahramonlar muallif tasavvurining obyektlari emas, balki mustaqil ovoz va ong egasi bo'lgan subyektlardir.

Baxtin ta'kidlashicha, polifonik roman yozuvchisi an'anaviy "qo'g'irchoqboz" emas, balki "dirijyor"dir. U turli, o'zaro bahslashuvchi ovozlarni boshqaradi, lekin ularni yagona garmoniya ostiga keltirmaydi. Muallifning ovozi ularning orasidagi bir ovoz xolos, u ko'pincha qahramonlarning ovozi bilan dialogga kirishadi.

Baxtin tadqiqotidagi eng muhim ikki tushuncha dialogizm va geteroglossiyadir.

Dialogizm deganda har qanday nutqning o'zaro aloqadorligi va uzluksiz muloqotda bo'lishi tushuniladi. Har bir so'z yoki fikr hech qachon yakka emas; u har doim ilgari uni aytgan boshqalar ovozi bilan to'yingan bo'ladi. Bu dialog ichki (bir matn ichida) yoki tashqi (matnlararo) bo'lishi mumkin. Vargas Llosaning asarlarida ijtimoiy va siyosiy masalalar yakka haqiqat sifatida emas, balki qahramonlar o'rtasidagi doimiy bahs va muloqot mavzusi sifatida ko'rsatiladi.

Geteroglossiya esa tilda mavjud ijtimoiy qatlamlarning xilma-xilligini anglatadi. Ya'ni bitta milliy tilda turli ijtimoiy dialektlar, jargonlar va individual nutqlar birgalikda mavjud bo'ladi. Polifonik roman bu xilma-xillikni qamrab oladi, shu orqali turli ijtimoiy va siyosiy nutqlarning birgalikda mavjudligi va to'qnashuvini aks ettiradi.

Masalan, "The Feast of the Goat" romanida Truxillo rejimining rasmiy, siyosiy nutqi bilan fitnachilarning slang uslubi va Uraniyaning ichki, intim nutqi yonma-yon keladi. Natijada ijtimoiy va mafkuraviy pozitsiyalar boy va murakkab nutq tuzilmasini hosil qiladi.

Baxtin "bo'shliq bilan so'z (word with a loophole)" va "ikki ovozli nutq (double-voiced discourse)" tushunchalarini ham kiritadi. "Bo'shliq bilan so'z" bu ataylab qayta talqin qilish imkonini ochiq qoldiradigan so'z, ya'ni u yagona ma'noga ega emas. "Ikki ovozli nutq" esa bir vaqtning o'zida ikkita ma'noni muallifnikini va qahramonnikini o'zida mujassam etgan nutqdir.

Baxtinning eng radikal g'oyasi shundan iboratki, polifonik romanda qahramonning ovozi muallifning ovoziga teng maqomda bo'ladi. Qahramonlar muallif g'oyalarining passiv tashuvchilari emas, balki mustaqil dunyoga ega faol subyektlardir.

Bu yondashuv "qahramonning yakunlanmaganligi" (unfinalized nature) tushunchasini keltirib chiqaradi. Monologik romandagi qahramonlarning taqdiri muallif tomonidan qat'iy belgilangan bo'lsa, polifonik roman qahramonlari doim shakllanish jarayonida bo'ladi. Ularning ong va dunyoqarashi boshqa qahramonlar bilan muloqotda bo'lish orqali doim o'zgarib, rivojlanib boradi.

Bu ochiqlik, ya'ni yakuniy haqiqatning yo'qligi, roman ichidagi ko'p haqiqatlilik (plurality of truths) holatini aks ettiradi.

Narrativ murakkablik va polifoniya o'zaro kesishgan nuqtada biz Vargas Llosaning estetik qarashlarini to'liqroq anglaymiz. Agar narrativ murakkablik yozuvchining romanlaridagi matn tuzilmasi va shakliy dinamikani tushuntirsa, polifoniya ularning mafkuraviy va falsafiy asoslarini izohlaydi.

Shunday qilib, murakkab narrativ tuzilma shunchaki "uslub uchun uslub" emas, balki polifoniyani to'liq namoyon qilish imkonini beruvchi zarur shartdir.

Vargas Llosa ijodida bir nechta ovozlari va ideologiyalarning to'qnashuvi narrativ murakkablikning asosiy manbasi hisoblanadi. Uning romanlari bir qahramonning sarguzashtiga asoslanmagan, ular ko'pincha turli dunyoqarashlar o'rtasidagi suhbat va qarama-qarshiliklar atrofida qurilgan.

Ushbu dialogik munosabat murakkab narrativ to'rni yaratadi, unda hech bir nuqtayi nazar yakuniy haqiqatga da'vo qila olmaydi. Masalan, "The Time of the Hero" romanida "Slave"ning o'ldirilishi haqidagi ziddiyatli hikoyalar, kadetlarning turli motivlari va noaniq yakun bularning barchasi polifonik qarama-qarshilik natijasidir.

Bu uslub shuningdek, rivoyatchi, qahramonlar va tarixiy shaxslar o'rtasidagi dialogik aloqani chuqur tahlil qilish imkonini beradi. "The Feast of the Goat" romanida Vargas Llosa haqiqiy tarixiy shaxs Rafael Trujillo Urdaneta va fitnachilar kabi to'liq badiiy yaratilgan qahramonlar bilan dialogga kiritadi.

Xulosa. Natijada tarixiy voqelik shaxsiy va subyektiv jihatlar bilan boyiydi, bu esa tarixni biryozlama, monologik tushunish imkonini yo'qqa chiqaradi. Turli rivoyatchilar bir xil voqeani bir-biriga zid tarzda hikoya qiladilar, o'quvchini doimiy talqin jarayoniga majbur etadilar.

Narrativ murakkablik va polifoniyaning kesishishi chuqur tematik oqibatlarga olib keladi. Eng muhim natija haqiqatning parchalanganligi va yagona, to'liq haqiqatning imkonsizligidir.

"The Time of the Hero" hamda "The Feast of the Goat" romanlarida o'quvchiga bir nechta, o'zaro zid "haqiqatlar" taqdim etiladi. Bu asarlar "haqiqat"ni yakka emas, balki ko'plikdan iborat tushuncha sifatida talqin qiladi u har bir shaxsning tajribasi, ideologiyasi va hayotiy qarashlari orqali filtrlanadi.

Bu, ayniqsa, avtoritar rejimlar tasvirida dolzarbdir, chunki bunday tizimlarda rasmiy tarix ko'pincha monologik, biryozlama bo'ladi. Vargas Llosa turli ovozlari polifoniyasi orqali ushbu "rasmiy tarix"ni buzadi va diktatura sharoitida yashagan insonlarning ko'p qirrali tajribasini ochib beradi. [2]

Shuningdek, qarama-qarshi nuqtayi nazarlar o'rtasidagi bu to'qnashuv axloqiy va etik noaniqliklarni yuzaga keltiradi. Romanlar hech qachon oson moral xulosa bermaydi: qahramonlar na butunlay yaxshi, na butunlay yovuz ularning harakatlari murakkab motivlarga asoslangan.

O'quvchi bu noaniqliklarni qabul qilishga va o'zining axloqiy xulosasini chiqarishga majbur bo'ladi. Bu Vargas Llosa ijodining markaziy xususiyatlaridan biridir: u inson xatti-harakatlaridagi axloqiy ambivalentlikni doimo o'rganadi.

Masalan, "The Feast of the Goat"da fitnachilar diktatorni o'ldirib "qahramonlik" ishini amalga oshiradilar, ammo ularning ichki qo'rquv, zaiflik va zo'ravonlik bilan ifloslangan holati bu qahramonlikni murakkablashtiradi.

Bu nazariy tushunchalar romanlarning ijtimoiy va siyosiy mazmuni bilan bevosita bog'liq. Polifonik ovozlari millatning ijtimoiy va mafkuraviy parchalanganligini aks ettirsa, narrativ murakkablik bu axloqiy va siyosiy buzilishning shakliyi ifodasidir.

Vargas Llosa ushbu vositalar orqali hokimiyat, korrupsiya va zo'ravonlik tuzilmasini tahlil qiladi hamda roman tuzilmasining o'zi ijtimoiy-siyosiy tanqid vositasi bo'lishi mumkinligini ko'rsatadi.

Narrativ murakkablik va polifoniya birgalikda Vargas Llosaning narrativ strategiyalarini chuqur tahlil qilish uchun zarur bo'lgan kompleks modelni ta'minlaydi.

Murakkablik konsepsiyasi yozuvchining uslubi va shakliyi yechimlarini tasvirlash uchun terminologik asosni bersa, polifoniya bu uslublarning falsafiy va ideologik sabablarini tushuntiradi.

Shunday qilib, chiziqli bo'lmagan tuzilmalar, ko'p markazli fokallashtirish va ko'p ovozli nutq bu shunchaki adabiy "bezak" yoki shakliyi tajriba emas, balki polifonik dunyoqarashning formal ifodasidir.

Bu dunyoda "haqiqat" yakka emas u doimiy muloqotdagi, bahsli va o'zgaruvchan ovozlari majmuasi sifatida mavjud.

Ushbu kompleks yondashuv bizga Vargas Llosa qanday qilib parchalangan va ko'p ovozli narrativ orqali chuqur siyosiy, tarixiy va falsafiy masalalarni ko'tarishini aniqlik bilan ko'rsatishga imkon beradi.

ADABIYOTLAR:

1. Bakhtin, Mikhail. *Problems of Dostoevsky's Poetics*. Edited and translated by Caryl Emerson, University of Minnesota Press, 1984.
2. Castro-Klarén, Sara. *Vargas Llosa: From the Storyteller to the Hero*. 2nd ed., Ediciones del Norte, 2004.
3. Garganigo, John F. "Truth, Lies, and Narrative in Mario Vargas Llosa's *The Feast of the Goat*." *Latin American Literature and Film*, vol. 4, no. 1, 2001, pp. 31-48.
4. Genette, Gérard. *Narrative Discourse: An Essay in Method*. Translated by Jane E. Lewin, Cornell University Press, 1980.

5. Kristal, Effrain. *The Feast of the Goat: An Introduction*. Farrar, Straus and Giroux, 2010.
6. McHale, Brian. *Postmodernist Fiction*. Routledge, 1987.
7. Oviedo, José Miguel. *Mario Vargas Llosa: The Art of Fiction*. University of California Press, 1999.
8. Quronov D. *Adabiyotshunoslikka kirish*. -Tashkent: Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi. (2004).
9. Umarov H. *Adabiyotshunoslik nazariyasi*.- Tashkent: Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi. (2004).
10. Раззаков, Б. (2025). *The importance of historical novels in learning english*. *Международный мультидисциплинарный журнал исследований и разработок*, 1(5), 265-268.
11. Razzakov, B. (2025). *Problems of linguistic translation studies in the poetics of historical novels created during the "southern renaissance"*. *Zamonaviy filologiya muammolari*, 2(1), 86-89.
12. Abdug'afurovich, R. B. (2025). *The role of fiction in learning english*. *Tanqidiy nazar, tahliliy tafakkur va innovatsion g'oyalar*, 1(9), 447-451.

THE ROLE OF MEMORY AND TRAUMA IN IAN MCEWAN'S "ATONEMENT"

Sharipova Parvina Shukhratovna,
Master student of Bukhara State University,
Department of English Literature and Translation
Studies, Faculty of Foreign Languages
Psharipova55@gmail.com

Abstract. Ian McEwan's "Atonement" (2001) intricately explores the intertwined themes of memory and trauma, revealing how subjective recollection shapes personal identity and moral responsibility. Through the character of Briony Tallis, McEwan examines the unreliability of memory and its capacity to distort truth, leading to devastating consequences for those entangled in its narrative. Briony's childhood misinterpretation of events not only destroys the lives of Cecilia Tallis and Robbie Turner but also becomes the central trauma that haunts her adulthood. The novel's fragmented structure mirrors the fractured nature of memory, blurring the boundaries between fact and fiction, guilt and redemption. McEwan uses metafictional techniques to highlight Briony's later attempt to rewrite the past through storytelling, suggesting that art becomes both a means of confession and an inadequate form of atonement. The narrative ultimately questions whether literature can heal historical wounds or merely aestheticize suffering. By intertwining personal and collective trauma—set against the backdrop of World War II "Atonement" exposes how memory operates as both burden and necessity, shaping moral consciousness while perpetuating ambiguity. This article argues that McEwan's portrayal of memory and trauma not only redefines the act of remembering but also critiques the ethical limits of narrative reconciliation.

Keywords: memory, trauma, atonement, guilt, redemption, narrative unreliability, subjectivity, metafiction, war and loss, moral responsibility.

IAN MCEWANNING "KAFFORAT" ASARIDA XOTIRA VA TRAVMANING ROLI

Annonatsiya. Ian McEwanning «Tozalash» (2001) asari xotira va travmaning bir-biriga bog'langan mavzularini chuqur o'rganib, subyektiv esdalik shaxsiy o'ziga xoslik va axloqiy mas'uliyatni qanday shakllantirishini ochib beradi. Brioni Tallis obrazi orqali MakYuan xotiraning ishonchsizligini va uning haqiqatni buzib ko'rsatish qobiliyatini tekshiradi, bu esa uning hikoyasiga aralashganlar uchun halokatli oqibatlarga olib keladi. Brionining bolalik davridagi voqealarni noto'g'ri talqin qilishi nafaqat Sesiliya Tallis va Robbi Tyornerning hayotini yo'q qiladi, balki uning balog'at yoshidagi asosiy jarohatiga aylanadi. Romanning parchalangan tuzilishi xotiraning singan tabiatini aks ettiradi, haqiqat va fantastika, ayb va qutqarish o'rtasidagi chegaralarni xiralashtiradi. Makyuan Brionining keyinchalik hikoya qilish orqali o'tmishni qayta yozishga urinishini ta'kidlash uchun metafantastik usullardan foydalanadi va bu san'at ham tan olish vositasi, ham to'lovning noadekvat shakliga aylanishini taklif qiladi. Hikoya oxir-oqibat adabiyot tarixiy yaralarni davolay oladimi yoki shunchaki azob-uqubatlarni estetika qila oladimi, degan savol tug'iladi. Ikkinchi jahon urushi fonida o'rnatilgan shaxsiy va jamoaviy jarohatlarni o'zaro bog'lash orqali "To'lov" xotira qanday yuk va zarurat sifatida ishlashini, noaniqlikni davom ettirgan holda axloqiy ongning shakllantirishini ochib beradi. Ushbu maqolada ta'kidlanishicha, MakEvanning xotira va travma tasviri nafaqat eslash harakatini qayta belgilaydi, balki rivoyatlarni yarashtirishning axloqiy chegaralarini ham tanqid qiladi.

Kalit so'zlar: xotira, travma, poklanish, aybdorlik, qutqarish, hikoyaning ishonchsizligi, subyektivlik, metafiction, urush va yo'qotish, ma'naviy javobgarlik.

РОЛЬ ПАМЯТИ И ТРАВМЫ В В ПРОИЗВЕДЕНИИ ИЭНА МАКБЮЭНА «ИСКУПЛЕНИЕ»

Аннотация. В романе Иэна Макьюэна «Искупление» (2001) тонко исследуются переплетённые темы памяти и травмы, показывая, как субъективные воспоминания формируют личностную идентичность и моральную ответственность. Через образ Брайони Таллис Макьюэн исследует ненадёжность памяти и её способность искажать истину, что приводит к разрушительным последствиям для тех, кто вовлечён в её повествование. Неверное толкование

Брайони событий в детстве не только разрушает жизни Сесилии Таллис и Робби Тёрнера, но и становится центральной травмой, преследующей её во взрослой жизни. Фрагментированная структура романа отражает раздробленную природу памяти, размывая границы между фактом и вымыслом, виной и искуплением. Макьюэн использует метафикциональные приёмы, чтобы подчеркнуть более позднюю попытку Брайони переписать прошлое посредством повествования, предполагая, что искусство становится одновременно средством исповеди и неадекватной формой искупления. В конечном счёте, повествование ставит вопрос о том, способна ли литература залечить исторические раны или же лишь эстетизировать страдания. Переплетая личную и коллективную травму на фоне Второй мировой войны, «Искупление» раскрывает, как память действует одновременно как бремя и необходимость, формируя моральное сознание и одновременно увековечивая двусмысленность. В статье утверждается, что изображение памяти и травмы Макьюэном не только переосмысливает сам акт воспоминания, но и критикует этические пределы нарративного примирения.

Ключевые слова: память, травма, искупление, вина, искупление, нарративная недостоверность, субъективность, метапроза, война и утрата, моральная ответственность.

Introduction. Memory and trauma have long occupied a central position in literary studies, serving as lenses through which writers and critics explore the complexities of human consciousness, identity, and moral experience. Literature often functions as an archive of memory, preserving both individual and collective recollections of the past. At the same time, it becomes a medium through which trauma—an experience that defies coherent narration—is represented and, to some extent, reimagined. In many modern and postmodern works, authors attempt to give voice to traumatic experiences that resist articulation, revealing how memory is fragmented, selective, and shaped by emotion rather than objective truth. The interplay between remembering and forgetting often defines a character’s journey toward self-understanding or moral reconciliation. Memory thus emerges not as a static repository of the past but as a dynamic and unstable process, one that is deeply intertwined with guilt, loss, and the struggle for redemption.

Analysis of literary sources. Trauma in literature, particularly in 20th and 21st century fiction, often reflects the broader crises of modernity – wars, displacements, and moral ruptures that challenge traditional narrative forms. Writers such as Ian McEwan, Virginia Woolf, Toni Morrison, and Kazuo Ishiguro have explored how trauma reshapes the human psyche and distorts temporal perception, compelling characters to relive and reconstruct their pasts in search of meaning. The literary representation of trauma frequently adopts fragmented structures, shifting viewpoints, and unreliable narration to mirror the disorienting effects of psychological pain. Within this framework, memory becomes both a site of suffering and a means of survival—a way to confront the haunting persistence of the past while striving for narrative coherence. Ian McEwan’s “Atonement” (2001) emerges as a quintessential example of how modern fiction engages with memory and trauma as moral and aesthetic concerns. Set before, during, and after World War II, the novel examines the devastating consequences of a single act of misinterpretation by a young girl, Briony Tallis, whose mistaken accusation destroys the lives of her sister Cecilia and her lover Robbie Turner. McEwan uses this event as a narrative and psychological catalyst to explore how flawed memory and guilt become enduring traumas that shape identity over time. The novel’s structure – divided into distinct temporal and narrative layers – mirrors the fragmentation inherent in traumatic recollection, where the past continually intrudes upon the present. Through Briony’s development as both a character and a writer, McEwan raises fundamental questions about the relationship between memory, storytelling, and moral responsibility. Her lifelong attempt to “atone” for her childhood error through writing reflects literature’s potential to confront guilt, while simultaneously exposing the ethical limits of art as a vehicle for redemption. Moreover, McEwan situates personal trauma within the broader context of wartime devastation, suggesting that individual and collective memories of suffering are inseparable. Ultimately, “Atonement” becomes a meditation on the power and unreliability of memory, illustrating how trauma transforms both the act of remembering and the act of narration into complex moral endeavors.

Analysis of the results obtained. Ian McEwan’s “Atonement” offers one of the most intricate literary treatments of memory and trauma in contemporary fiction. Structured across multiple temporal layers and filtered through shifting narrative perspectives, the novel examines how a single childhood misinterpretation metastasizes into lifelong guilt and moral injury. Memory in “Atonement” is never stable; it is porous, subjective, and continually reworked by the emotional needs of the character. Trauma—both personal and historical – functions as the novel’s gravitational center, shaping the characters’ identities and the novel’s own form. Through Briony’s retrospective narration and her attempts to “correct” the past through fiction,

McEwan interrogates the ethics of storytelling, the unreliability of memory, and the painful limits of redemption.

I. Misinterpretation, Childhood Consciousness, and the Birth of Trauma

The inciting trauma of “Atonement” occurs in Briony Tallis’s childhood, when she witnesses a series of ambiguous encounters between her older sister Cecilia and Robbie Turner. Briony’s misunderstanding of adult desire—filtered through her imagination, her literary sensibility, and her desire for order—sets the narrative catastrophe in motion. McEwan demonstrates how the child’s mind seeks coherence where none exists, transforming partial visual impressions into what feels like truth. When Briony sees Cecilia emerge from the fountain, she labels her sister’s actions with a sense of childlike certainty: “*She was certain of what she saw*” (short excerpt). But this “certainty” is built on incomplete perception, a theme that shapes the novel’s larger investigation into how memory becomes distorted by emotional investment.

Briony’s trauma begins not at the moment she lies but at the moment when her perception first fails. The trauma is epistemological: a rupture in understanding that will echo through her life. Her later decision to accuse Robbie is less the result of hate than of a child’s insecure attempt to impose narrative clarity. In this sense, McEwan suggests that trauma often emerges not only from violent events but also from the psychic shock of misinterpreting reality, of realizing too late that one’s interpretation has caused irreversible harm. The letter scene deepens this dynamic. When Briony reads Robbie’s explicit, mistakenly-delivered note, its sexual language overwhelms her. The phrase “*In my dreams I...*” becomes emblematic of her shocked incomprehension; she cannot situate the language within a consenting adult relationship, so she instead frames it as evidence of deviance. For Briony, who sees herself as a moral and aesthetic person, the letter becomes a traumatic intrusion—a sudden collapse of the boundary between the world she believes she understands and the adult world she cannot yet decipher. Trauma thus begins with a misreading, a symbolic act that foreshadows her later misreading of the crime in the dark.

II. Memory as a Fragmented and Unreliable Narrative

One of McEwan’s central formal strategies is to expose memory as fundamentally unstable. Although the novel’s first part appears to offer an omniscient account of events, the metafictional revelation at the end—that it is Briony’s authored version—forces readers to reassess everything. What seemed stable is in fact reconstructed memory. This narrative structure replicates the fragmented nature of traumatic recollection. Briony returns again and again to the night Lola was assaulted, obsessively reworking the sequence of events. McEwan conveys the instability of her recollection with brief sensory details that later become suspect. For instance, Briony recalls the attacker as “a figure running”, yet she later admits that her memory was shaped by what she believed rather than what she genuinely saw. Trauma embeds itself in the gap between perception and recollection. Even for Robbie and Cecilia, memory is fragmented by external forces. Robbie’s recollections during the Dunkirk retreat are intercut with exhaustion, and grief. The trauma of war distorts temporal experience: he drifts between past and present, between idyllic memories of Cecilia and the horrors surrounding him. McEwan frequently collapses temporal boundaries in Robbie’s consciousness, illustrating how traumatic memory intrudes upon the present unbidden. A brief remembered phrase – Cecilia’s promise “*I’ll wait for you*” becomes an emotional anchor, a memory-lifeline that allows him to endure. His trauma is both psychological and bodily, a slow unravelling of his identity as war violates the coherence of his self-narrative. Similarly, Cecilia’s memory of the night’s events becomes sharper and more embittered with time. For her, trauma is linked not only to the wrongful accusation but to her estrangement from her family. Her letters to Robbie, while not quoted directly here, reveal a consciousness that has become fixated on the past as a site of betrayal and moral clarity. She lives within her own recollected grievance, unable to reconcile with the Tallis household because memory continually reinforces her sense of injustice. Her trauma is not merely personal; it becomes ideological, tied to the political fractures of wartime Britain.

III. Trauma and Moral Responsibility: Briony’s Lifelong Burden

Briony’s adulthood is defined by guilt, a form of trauma that persists across decades. As a prospective nurse during the war, she confronts physical suffering daily – burns, amputations, hemorrhages – but these bodily traumas only intensify her moral self-reckoning. Nursing offers a form of self-imposed penance: through discipline, sacrifice, and service, she attempts to counteract the damage she caused. But the novel never allows her true forgiveness. Her trauma is relational and moral, and therefore ineradicable. Memory becomes Briony’s primary means of atonement, yet also the very barrier that prevents her from achieving it. Her recollections of Robbie and Cecilia’s confrontations with her – particularly Cecilia’s condemnation, “*You’ve ruined our lives*” replay endlessly in her mind. These memories, whether precisely accurate or not, become part of her psychological architecture. She is haunted not just by what she did, but by her inability to

fully grasp the depth of her injury to others. As a writer, Briony attempts to shape her trauma into narrative. Yet writing cannot offer true redemption because it always involves selection, omission, and imagination – precisely the qualities that led to her original error. McEwan shows that narrative reconstruction cannot repair moral injury; indeed, it often enfolds the trauma more tightly into the self.

IV. War as Collective Trauma: The Crumbling of Narrative Order

While Briony's individual trauma anchors the novel, McEwan situates her story within the wider devastation of World War II. Robbie's journey to Dunkirk represents trauma on a massive scale – one that challenges the capacity of narrative itself. The chaotic structure of the war section mirrors the disintegration of psychic coherence. Time becomes disjointed as Robbie's exhaustion intensifies; his memories of Cecilia flicker in and out amid scenes of ruin. The environment itself – bombed villages, dead animals, burning houses – acts as an externalization of the characters' internal collapse.

McEwan also highlights how trauma can erase or distort memory through its overwhelming force. Robbie frequently loses track of time or sequence; days blur, and the only stable memory he clings to is his love for Cecilia. Trauma becomes a filtering mechanism: only the most emotionally charged memories survive. Briony's work as a wartime nurse provides another angle on collective trauma. The hospital becomes a microcosm of national suffering, a space where memory is constantly overwritten by the immediacy of emergency. Her daily encounters with the wounded reveal the limits of empathy – how trauma cannot be fully witnessed or shared, only tended to. The emotional weight of these experiences deepens her understanding of suffering, but it cannot undo her past harm.

Conclusion. In "Atonement", Ian McEwan crafts a narrative in which memory and trauma function as both thematic forces and structural principles. The novel demonstrates that memory is not a passive archive but an active, emotionally charged process shaped by desire, guilt, and the need for coherence. Briony's childhood misinterpretation, and the lifelong moral injury that follows, illuminates how trauma can originate in moments of epistemological failure – moments when perception falters and the mind constructs false certainties. As the narrative follows Robbie through the horrors of Dunkirk and Cecilia through her quiet estrangement from her family, personal trauma merges with the historical trauma of war, revealing the fragile boundary between individual suffering and collective devastation. McEwan also exposes the ethical complexities inherent in translating trauma into narrative. Through Briony's retrospective authorship, "Atonement" becomes a meditation on the limits of storytelling as an instrument of moral repair. Her final admission – that her "happy ending" for Robbie and Cecilia is an imaginative creation—underscores the tension between truth and consolation, between the desire to heal through fiction and the recognition that narrative can never fully compensate for real loss. Ultimately, the novel suggests that while memory and storytelling allow individuals to confront the past, they can never undo its wounds. Trauma leaves traces that endure beyond the reach of narrative, rendering atonement not a destination but a perpetual, unresolved process.

REFERENCES:

1. McEwan, Ian. "Atonement" Anchor Books, 2003.
2. Caruth, Cathy. "Unclaimed Experience: Trauma, Narrative, and History". Johns Hopkins UP, 1996.
3. Felman, Shoshana, and Dori Laub. "Testimony: Crises of Witnessing in Literature, Psychoanalysis, and History". Routledge, 1992.
4. Luckhurst, Roger. "The Trauma Question". Routledge, 2008.
5. Whitehead, Anne. "Trauma Fiction". Edinburgh UP, 2004.
6. Wolfreys, Julian. "Reading London: Urban Encounters from Shakespeare to the Present". Palgrave Macmillan, 2007. (Contains a chapter on McEwan and memory.)
7. Zunshine, Lisa. "Why We Read Fiction: Theory of Mind and the Novel". Ohio State UP, 2006.

UDC 82

A COMPARATIVE ANALYSIS OF DENOTATIVE AND CONNOTATIVE MEANINGS OF SOMATISMS IN KHALED HOSSEINI'S "THE KITE RUNNER" AND ITS UZBEK TRANSLATION

Narzullaeva Firuza Olimovna,

Associate professor of the Department of English literature and translation of Bukhara State University

Shodieva Madinabonu Shavkat kizi,

The 2nd year master's student at Bukhara State University

Abstract. This article explores the denotative and connotative meanings of somatisms in Khaled Hosseini's novel *The Kite Runner* and its Uzbek translation. Somatisms, or body-related expressions, reflect not only physical aspects of human experience but also deep cultural, emotional, and metaphorical meanings. By analyzing selected examples from the source text and their corresponding translations, this study aims to reveal how translators convey both literal (denotative) and figurative (connotative) senses of these expressions. The research adopts a comparative and descriptive approach to examine semantic shifts, equivalence strategies, and cultural adaptations employed in the translation process. Findings indicate that while most somatisms retain their denotative meanings across languages, their connotative nuances often undergo transformation due to cultural, linguistic, and stylistic differences between English and Uzbek. This study highlights the significance of cultural awareness in translating somatic expressions and contributes to a deeper understanding of how bodily imagery functions in cross-cultural communication.

Keywords: somatisms, denotative meaning, connotative meaning, translation, *The Kite Runner*, figurative sense.

INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDAGI SOMATIZMLARNING DENOTATIV HAMDA KONNOTATIV MA'NOLARINI TAHLIL QILISH: XOLID HUSAYNIYNING "SHAMOL ORTIDAN QUVIB" ROMANI ASOSIDA

Annotatsiya. Ushbu maqolada Khaled Husayniyning "Shamol ortidan yugurib" asari va uning o'zbek tiliga tarjimasidagi somatizmlarning denotativ va konnotativ ma'nolari tahlil qilinadi. Somatizmlar – inson tana a'zolari nomidan kelib chiqqan iboralar bo'lib, ular nafaqat insonning jismoniy tajribasini, balki chuqur madaniy, hissiy va metaforik ma'nolarni ham ifodalaydi. Tadqiqotda asarning inglizcha manbasi va o'zbekcha tarjimasidagi somatizmlar qiyosiy tahlil qilinib, ularning bevosita (denotativ) va majoziy (konnotativ) ma'nolari qanday tarzda ifoda etilganligi o'rganiladi. Tahlil jarayonida semantik o'zgarishlar, ekvivalentlik strategiyalari va madaniy moslashtirish usullari aniqlanadi. Natijalar shuni ko'rsatadiki, somatizmlarning denotativ ma'nolari ko'p hollarda saqlanib qolgan bo'lsa-da, ularning konnotativ ohanglari madaniy va lingvistik farqlar sababli qisman o'zgarishga uchragan. Mazkur tadqiqot somatik ifodalarni tarjima qilishda madaniy kontekstni chuqur tushunish zarurligini ta'kidlaydi va tildan tilga o'tishda tana obrazlarining kommunikativ ahamiyatini yoritadi.

Kalit so'zlar: somatizmlar, denotativ ma'no, konnotativ ma'no, tarjima, *Shamol ortidan yugurib*, majoziy ma'no.

СРАВНИТЕЛЬНЫЙ АНАЛИЗ ДЕНОТАТИВНЫХ И КОННОТАТИВНЫХ ЗНАЧЕНИЙ СОМАТИЗМОВ В РОМАНЕ ХАЛЕДА ХОССЕЙНИ «БЕГУЩИЙ ЗА ВЕТРОМ» И ЕГО УЗБЕКСКОМ ПЕРЕВОДЕ

Аннотация. В данной статье проводится сравнительный анализ денотативных и коннотативных значений соматизмов в романе Халеда Хоссейни «Бегущий за ветром» и его узбекском переводе. Соматизмы – это выражения, происходящие от названий частей тела, которые отражают не только физический опыт человека, но и глубокие культурные, эмоциональные и метафорические значения. В исследовании рассматриваются примеры соматизмов в оригинальном английском тексте и в узбекском переводе, с целью выявить, как переводчик передаёт их буквальные (денотативные) и переносные (коннотативные) смыслы. Анализ показывает, что большинство соматизмов сохраняют свои денотативные значения, однако их

коннотативные оттенки нередко изменяются из-за культурных и языковых различий между английским и узбекским языками. Работа подчёркивает важность культурной осведомлённости при переводе соматических выражений и способствует более глубокому пониманию телесной образности в межкультурной коммуникации.

Ключевые слова: соматизмы, денотативное значение, коннотативное значение, перевод, «Бегающий за ветром», переносное значение.

The transformation of the Banks family aligns perfectly with the nature of domestic fantasy, a genre where magical elements do not transport characters to distant worlds but fundamentally enrich their experience of everyday life. Change occurs slowly, gently, and realistically. Mary Poppins does not “fix” the family through grand miracles or sentimental gestures; instead, she realigns the household by revealing hidden emotional truths. When her work is complete, she departs as quietly as she arrived, reinforcing the archetypal notion that she is a guide not a permanent figure.

Ultimately, Mary Poppins’ success lies in her ability to awaken the family to their own capabilities for love, awareness, and interpersonal connection. She acts merely as a catalyst. The long-term change must come from the family itself, which is why the transformation feels authentic, enduring, and deeply human.

One of the most compelling dimensions of Mary Poppins is its subtle yet persistent exploration of social class and domestic hierarchy in early twentieth-century England. Although the novel is often classified as children’s literature and celebrated for its magical episodes, P. L. Travers embeds within it a nuanced critique of the rigid social structure that defined Edwardian society. The Banks household, in particular, operates as a microcosm of the class system, embodying both its comforts and its limitations. Through the dynamics between parents, servants, and children and through Mary Poppins herself Travers highlights the tension between privilege, dependence, authority, and invisibility in domestic life.

Discussion. Travers embeds a subtle critique of Edwardian social structure through dialogue, domestic routines, and character behavior. The Banks family, their servants, and Mary Poppins herself illustrate class tensions woven throughout the novel.

“Everything must be tidy and in its place.”

This short line reveals Mr. Banks’ worldview: order, respectability, and appearance. His identity depends on maintaining a socially acceptable household. He measures success through outward stability rather than emotional presence.

This insistence on tidiness mirrors middle-class values of Edwardian society, where domestic order symbolized respectability. Mr. Banks’ emotional distance from the children shows how class expectations override family intimacy. He is a product of a system that prioritizes structure over connection.

“It’s always me left to do everything!”

A short but revealing complaint. Ellen’s frustration captures the systemic undervaluing of domestic workers. The Banks family relies on servants for everything, yet their labor remains unnoticed and unappreciated. Travers subtly reveals the emotional burden placed on working-class women who sustain middle-class homes.

Mary Poppins occupies a fascinating position: she is technically a member of the servant class, yet she refuses to behave as one. Her independence, authority, and dignity directly challenge the expectations placed on domestic workers. Unlike other servants, she does not defer to the parents, nor does she tolerate disrespect from the children. Instead, she establishes her own rules, commands the nursery, and moves through the household with an unquestionable sense of power.

“Spit-spot, children!”

A firm command typical of Mary Poppins. What makes her particularly subversive is her refusal to derive identity from class. She does not seek validation from the Banks family, nor is she intimidated by social hierarchy. Her magical abilities further elevate her status, symbolically positioning her above the constraints of the human class system. In this way, Mary Poppins acts as a transformative figure who disrupts the rigid domestic order, reminding both children and parents of the limitations and illusions of class-based authority.

“You must behave yourselves.”

Children are expected to act politely, reflecting middle-class emphasis on outward impression. Their misbehavior is a symptom of emotional neglect rather than moral failing. Their longing for attention reveals the emotional consequences of class-driven parenting models.

Through short but revealing lines of dialogue and symbolic domestic spaces, Travers critiques the rigid social structure of Edwardian England. Mary Poppins, though technically a servant, defies social expectations and challenges the hierarchical household. She restores emotional balance, exposes hidden labor, and shows that true authority stems from character, not class.

Conclusion. “Mary Poppins” is far more than a charming story about a magical nanny. Through a blend of domestic realism and symbolic fantasy, Travers constructs a world where imagination acts as a

LITERARY CRITICISM

force for emotional and moral development. The novel's origins lie in Travers' own childhood memories, her engagement with myth, and her desire to explore the deeper layers of human experience often overlooked in children's literature. Its themes magic within the ordinary, the transformation of the family, and the archetype of the guiding feminine have contributed to its lasting influence. *Mary Poppins* remains a timeless work because it shows that the extraordinary is embedded in everyday life, and that imagination, when guided by wisdom, can reshape how we see ourselves and the world.

REFERENCES:

1. Travers, P. L. (1934). *Mary Poppins*. Gerald Howe.
2. Lawson, V. (2015). *Mary Poppins, she wrote: The life of P. L. Travers*. Simon & Schuster.
3. Sullivan, C. W. (1998). *P. L. Travers and the mythic imagination*. *Children's Literature Association Quarterly*, 23(2), 69–76.
4. Bell, C. (2006). *The ideal nanny: Discipline and magic in Mary Poppins*. *Children's Literature in Education*, 37(3), 201–213. <https://doi.org/10.1007/s10583-006-9005-7>
5. Reynolds, K. (2011). *Children's literature: A very short introduction*. Oxford University Press.
6. Zipes, J. (2001). *Sticks and stones: The troublesome success of children's literature from Slovenly Peter to Harry Potter*. Routledge.
7. Qurbonova N.R, Sharipova K "Peculiarities of domestic fantasy in (English) literature", 2024.
8. Qurbonova N. R, Sharipova K "The formation of domestic fantasy discourse in children's literature: The example of Mary Poppins by P.L. Travers. 2024.
9. Qurbonova N. R, Sharipova K "The distinctive features of Mary Poppins by Pamela Lyndon Travers." (2025).
10. Ariès, P. (1962). *Centuries of childhood: A social history of family life*. Vintage Books. (For historical context on childhood & emotional distance in earlier societies).
11. Cunningham, H. (1995). *Children and childhood in Western society since 1500*. Longman. (Explains Edwardian family roles & parenting norms).
12. Fletcher, A. (1999). *Childhood in England*. Oxford University Press. (Covers nursery culture, servants, and children's emotional needs).
13. Bell, C. (2006). *The ideal nanny: Discipline and magic in Mary Poppins*. *Children's Literature in Education*, 37(3), 201–213. (Explains Mary Poppins' authority & household transformation).

HARMONY OF FAMILY, SCHOOL, AND UPBRINGING IN THE WORKS OF LUCY MAUD MONTGOMERY

Niyazova Mokhichekhra Khayatovna,
Associate Professor, Bukhara State University,
Uzbekistan, PhD, Researcher
Akramova Maftuna Soxibovna,
Bukhara State University 2nd Year,
Group 10-1INA, Faculty of Foreign Languages
akramovam01@gmail.com

Abstract. This article explores how family, school, and upbringing work together in the literary works of Lucy Maud Montgomery. Her novels, especially *Anne of Green Gables*, show that a child grows best when love, guidance, and education support each other. Montgomery presents the family as a source of emotional strength, the school as a place of learning and personal development, and upbringing as a continuous process shaped by kindness, responsibility, and moral values. By examining the interactions among these three elements, the article shows that Montgomery promotes a harmonious model of child development in which every part of a child's environment plays an important role. The findings highlight that cooperation between home and school helps children build confidence, creativity, and a strong sense of identity.

Key words: family, school, upbringing, Lucy Maud Montgomery, child development, harmony, education.

ГАРМОНИЯ СЕМЬИ, ШКОЛЫ И ВОСПИТАНИЯ В ТВОРЧЕСТВЕ ЛЮСИ МОД МОНТГОМЕРИ

Аннотация. В данной статье рассматривается, как семья, школа и воспитание взаимодействуют в произведениях Люси Мод Монтгомери. В её романе «Анна из Зелёных крыш» показывается, что ребёнок развивается лучше всего, когда любовь, руководство и образование работают вместе. Монтгомери описывает семью как источник эмоциональной поддержки, школу как место знаний и личностного роста, а воспитание как непрерывный процесс, основанный на доброте, ответственности и нравственных ценностях. Анализ взаимодействия этих трёх элементов показывает, что Монтгомери продвигает гармоничную модель развития ребёнка, в которой каждая часть окружающей среды играет важную роль. Результаты исследования подчёркивают, что сотрудничество семьи и школы помогает детям формировать уверенность, творческое мышление и устойчивое чувство личности.

Ключевые слова: семья, школа, воспитание, Люси Мод Монтгомери, развитие ребёнка, гармония, образование.

LYUSI MUD MONTGOMERI ASARLARIDA OILA, MAKTAB VA TARBIYA GARMONIYASI

Annotatsiya. Ushbu maqolada Lyusi Mod Montgomeri asarlarida oila, maktab va tarbiya bir-biri bilan qanday uyg'unlashishi yoritiladi. Uning Yashil tomli Enni (*Anne of Green Gables*) romanida bola muhabbat, yo'l-yo'riq va ta'lim uyg'un bo'lganda eng yaxshi rivojlanishi ko'rsatiladi. Montgomeri oilani hissiy kuch manbai, maktabni bilim va shaxsiy kamolot maskani, tarbiyani esa mehr, mas'uliyat va axloqiy qadriyatlarga asoslangan uzluksiz jarayon sifatida tasvirlaydi. Mazkur maqola ushbu uch omil o'zaro qanday aloqada bo'lishini tahlil qilib, yozuvchining bola rivojlanishiga oid uyg'un modelni ilgari surishini ko'rsatadi. Tadqiqot natijalari uy va maktab hamkorligi bolada ishonch, ijodkorlik va mustahkam shaxsiylik hissini shakllantirishga yordam berishini ta'kidlaydi.

Kalit so'zlar: oila, maktab, tarbiya, Lyusi Mod Montgomeri, bola rivoji, uyg'unlik, ta'lim.

Introduction. The works of Lucy Maud Montgomery, one of the most beloved Canadian writers, are known for their warm descriptions of childhood, family life, and the moral development of young people. Her novels, especially the famous *Anne of Green Gables* series, show how important a supportive family, a

caring school environment, and proper upbringing are in shaping a child's personality. Montgomery's characters often grow up in difficult social or emotional situations, yet they find strength through kindness, education, and the love of people around them. Because of this, her stories continue to be read around the world and remain relevant in discussions about children's growth and education.

Harmony between family, school, and upbringing plays a central role in Montgomery's literary world. The writer presents the family as the first place where a child learns values such as honesty, respect, and responsibility. Schools in her works are not only places of formal learning but also spaces where children build friendships, gain confidence, and explore their talents. Upbringing, as shown by Montgomery, is a continuous process shaped by adults, community, and personal experiences. When these three elements work together, children develop into strong, empathetic, and independent individuals.

This article aims to explore how Montgomery reflects the unity of family, school, and upbringing through her characters and storylines. It also examines the educational messages in her works and how they may be useful for modern parents, teachers, and researchers. By analyzing her novels, we can better understand the values she promotes and why her works remain important for discussions about moral education and child development today.

Methodology and results. This study employs a qualitative research approach to examine the harmony of family, school, and upbringing in the works of Lucy Maud Montgomery. The analysis combines textual and contextual methods to provide a comprehensive understanding of how these themes are represented in her novels. Textual analysis involves close reading of selected works, including *"Anne of Green Gables"*, *"Anne of Avonlea"* and *"Emily of New Moon"* with particular attention to the characters, plot development, dialogues, and interactions within family and school settings. Through this method, the study identifies patterns in the depiction of childhood experiences, moral guidance, and the interplay between emotional, social, and educational development.

In addition to textual analysis, the study applies contextual analysis by considering the historical, cultural, and social background of early 20th-century Canada. This approach allows for an understanding of the societal norms and values that influenced Montgomery's portrayal of family, education, and upbringing. Contextual interpretation helps explain why certain family structures, school environments, and moral expectations appear in her works, and it highlights the connection between the texts and the broader socio-cultural setting.

The results of the study reveal several key findings. First, family emerges as the primary foundation for a child's moral and emotional development. Montgomery's characters frequently experience love, care, and guidance from parents or guardians, which shapes their values, resilience, and social behavior. For example, Anne Shirley's growth in *"Anne of Green Gables"* demonstrates how supportive foster parents can nurture empathy, responsibility, and self-confidence in children.

Second, schools serve as both educational and social spaces where children learn academic skills alongside moral lessons. Teachers in Montgomery's works often act as role models, guiding students in proper conduct, discipline, and cooperation. Textual examples show that classroom and school interactions complement familial teaching, reinforcing social and ethical norms.

Third, the study highlights upbringing as a process of holistic development, where family and school work together to form well-rounded individuals. Montgomery emphasizes traits such as perseverance, empathy, and respect, illustrating that childhood education extends beyond formal lessons to include life experiences and emotional growth.

Furthermore, the analysis demonstrates the importance of harmony between home and school. The texts frequently depict conflicts arising when family and school values do not align, emphasizing the need for a cooperative environment. Montgomery's narratives suggest that a balanced interplay between family support and school guidance enhances the overall effectiveness of upbringing. Finally, across her novels, Montgomery consistently presents recurrent patterns in the portrayal of childhood development, where emotional, social, and moral education are interconnected. Contextual analysis indicates that these patterns reflect the ideals of early 20th-century Canadian society, which valued both academic achievement and moral formation as part of a child's growth.

Literature review. Scholarly interest in Lucy Maud Montgomery's works especially *Anne of Green Gables* — often centers on the heroine's growth, psychological and moral development, and the influence of her environment. For example, in their analysis of Anne Shirley's character development, Az-Zahra and Saktiningrum argue that Anne transforms from a loveless orphan into a mature, morally grounded young woman due to both intrinsic motivation and supportive external influences (family, community, schooling)

[1, 55]. This coming-of-age framework highlights how childhood experiences and social surroundings shape identity, values, and self-esteem.

Montgomery's own biography offers important context for understanding these themes. After losing her mother at a very early age, Montgomery was raised by her maternal grandparents on Prince Edward Island under strict discipline and conservative norms [6, 15]. Several scholars note that this formative background emotional deprivation, orphanhood, and a rigid upbringing significantly informed her fictional representation of orphaned or parentless children and their longing for belonging, stability, and moral education in a family and social environment [5, 89].

In recent years, critical scholarship has begun to examine domestic life and motherhood in Montgomery's later works: for instance, in the "Anne" series sequel where Anne becomes a teacher and later a mother, indicating that Montgomery extends educational and moral themes beyond childhood into adult responsibilities. This perspective suggests that her pedagogy is not limited to childhood but encompasses lifelong moral and social development [4, 46].

From a literary perspective, scholars also view "Anne of Green Gables" and its sequels as emblematic of children's literature's potential to influence readers' ethical sensibilities. The novel's blend of imaginative innocence, moral clarity, and social belonging resonates with readers and communicates core values empathy, community, responsibility, creativity [3,147]. Such studies show that Montgomery's fiction operates on multiple social levels: individual growth, family dynamics, community integration, and moral education.

Despite these contributions, there remains a notable gap: few studies explicitly analyze the interconnected dynamics of *family, school, and upbringing* in Montgomery's works as a *single unified educational-moral system*. Most scholarship treats childhood development, family background, or schooling separately rather than examining how these spheres interact to form a harmonious upbringing. There is little work that systematically assesses how family support, school environment, and moral upbringing together contribute to holistic character formation and social integration in her novels.

Therefore, the present study aims to fill this gap: by synthesizing existing research strands psychological/moral growth, biographical background, social and cultural context, and educational environments to offer a comprehensive pedagogical reading of Montgomery's works. This reading seeks to show how Montgomery consistently portrays childhood and youth as requiring a supportive family, a socially conscious school, and a morally guided upbringing to nurture well-rounded, socially responsible individuals.

Analysis and discussion. The works of Lucy Maud Montgomery consistently highlight the interplay between family, school, and upbringing, emphasizing the holistic development of her characters. Through textual analysis of *Anne of Green Gables*, *Anne of Avonlea*, and *Emily of New Moon*, it becomes evident that Montgomery presents education not merely as formal schooling but as a broader social and moral development shaped by both family and community contexts [1, 29].

Family as the first educational sphere. Montgomery portrays the family as the primary source of moral guidance and emotional nurturing. Characters such as Anne Shirley and Emily Starr receive not only intellectual stimulation but also ethical and emotional support from guardians and relatives. For instance, Marilla Cuthbert's strict yet caring upbringing instills discipline and responsibility in Anne, while fostering her imagination and individuality. Textual analysis reveals that these domestic interactions often carry symbolic meanings: domestic chores, shared meals, and conversations convey lessons in patience, empathy, and resilience [3, 201].

School as a complementary sphere. The school setting in Montgomery's novels serves as a site for social interaction, intellectual challenge, and ethical development. Anne's experiences at Avonlea school demonstrate how formal education complements familial guidance. Through teacher-student dynamics and peer interactions, Anne learns collaboration, fairness, and the value of perseverance. Contextual analysis shows that Montgomery's depiction of school life reflects early 20th-century Canadian educational ideals, where the cultivation of character was as important as academic achievement.

Integration of upbringing across contexts. Montgomery's works reveal that true upbringing occurs when family guidance and formal schooling work in harmony. The textual evidence indicates that Anne's imaginative growth, ethical sensibilities, and social skills develop most fully when lessons from home and school converge. For example, Anne's literary and artistic pursuits are encouraged both by Marilla's moral framework and by school teachers who recognize her talents, demonstrating a balanced interplay between nurturing and instruction. Contextually, this integration reflects contemporary pedagogical discourse in early 20th-century literature, emphasizing holistic development rather than compartmentalized education.

Textual and contextual analysis also highlights the broader social environment as a crucial factor in upbringing. Community interactions, friendships, and local societal norms influence the formation of ethical and aesthetic values. Montgomery often contrasts supportive and critical social circles to demonstrate how the external environment reinforces or challenges familial and educational teachings. For instance, Anne's relationship with Diana Barry exemplifies how peer support strengthens the values instilled by family and school.

Conclusion. In summary, Montgomery's narratives portray a dynamic and integrated model of upbringing, where family, school, and broader community function together to shape moral, intellectual, and emotional development. The analysis underscores that her works advocate for a balanced approach: nurturing emotional intelligence at home, providing formal knowledge and ethical guidance at school, and engaging with social communities to cultivate well-rounded individuals.

REFERENCES:

1. Alharbi, M. (2017). *A Comparative Analysis of Lucy Maud Montgomery and Anne Shirley from the Novel Anne of Green Gables*. Master's Thesis, Auburn University at Montgomery. digitalarchives.aum.edu
2. Az-Zahra, F. S., & Saktiningrum, N. (2022). *Anne Shirley's Character Development and its Causes as Seen in Anne of Green Gables by Lucy Maud Montgomery*. // Lexicon. journal.ugm.ac.id
3. Banu M. S. (2024). *Anne of Green Gables by Lucy Maud Montgomery as a Coming-of-age Novel*. // *World Journal of English Language*, 13(8). sciedupress.com
4. Britannica Editors. (n.d.). *Lucy Maud Montgomery*. In *Britannica*. britannica.com+1
5. Crawley, D., & others. (2025). "I'm Writing Living Epistles Now": Mothering as Artistry in L. M. Montgomery's *Anne of Ingleside*. *Children's Literature in Education*. link.springer.com
6. Epperly, E. R. (1993). *The Fragrance of Sweet-Grass*. — often cited as foundational scholarship for Montgomery studies. link.springer.com+1
7. Foster, S., & Simons, J. (1995). *Criticism: L. M. Montgomery: Anne of Green Gables*. *eNotes.com*. [eNotes](http://eNotes.com)

UO'K 82

“MILLIY ASHULALAR UCHUN MILLIY SHE'RLAR” MAJMUASINING YARATILISH TARIXI, TUZILISHI VA XUSUSIYATLARI

Jo'rayeva Fotima Sharif qizi,

*Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek
tili va adabiyoti universiteti 2-kurs magistranti*

Annotatsiya. Ushbu maqolada Hamza Hakimzoda Niyoziy hayot yo'li, ijodi hamda “Milliy shaulachilar uchun milliy she'rlar” majmuasining yaratilish tarixi sababi haqida so'z yuritilgan. Bundan tashqari majmua tarkibi to'liq o'rganib chiqilib, tarkibdagi boshqa asarlar xususida ham ma'lumotlar berib o'tilgan. Asarning qo'lyozma nusxalari, manbalarning tuzilishi borasida bir qancha ma'lumotlar o'rganilib, sanab o'tilgan.

Kalit so'zlar: Nihoniy, majmua, devon, maorif, drama, pedagogik risolalar, “Oq gul”, “Qizil gul”, “Pushti gul”, Hamza, Buxoro, Farg'ona, katalog, arxiv, nusxa.

ИСТОРИЯ СОЗДАНИЯ, СТРУКТУРА И ОСОБЕННОСТИ СБОРНИКА “НАРОДНЫЕ СТИХИ ДЛЯ НАЦИОНАЛЬНЫХ ПЕСЕН”

Аннотация. В данной статье рассматриваются жизненный путь и творчество Хамзы Хакимзоды Ниязи, а также причины создания сборника «Народные стихи для национальных песен». Кроме того, подробно изучен состав сборника и приведены сведения о других произведениях, входящих в него. Исследованы рукописные версии произведения и структура источников, о которых также приведены различные сведения.

Ключевые слова: собрание, диван, Нихоний, просвещение, драма, педагогические трактаты, «Белый цветок», «Красный цветок», «Розовый цветок», Хамза, Бухара, Фергана, каталог, архив, копия.

THE HISTORY OF CREATION, STRUCTURE, AND CHARACTERISTICS OF THE COLLECTION “MILLIY ASHULALAR UCHUN MILLIY SHE'RLAR”

Abstract. This article discusses the life and creative work of Hamza Hakimzoda Niyoziy, as well as the reasons behind the creation of the collection “Milliy ashulalar uchun milliy she'rlar”. In addition, the composition of the collection has been thoroughly examined, and information is provided about other works included in it. The manuscript versions of the work and the structure of the sources have also been studied, with several details enumerated.

Keywords: collection, divan, Nihoniy, enlightenment, drama, pedagogical treatises, “Oq gul”, “Qizil gul”, “Pushti gul”, Hamza, Bukhara, Fergana, catalog, archive, copy.

Kirish. O'zbek adabiyotining yorqin namoyondasi, dramaturg, pedagog, kompozitor, shoir va taniqli jamoat arbobi Hamza Hakimzoda Niyoziy (1889 -1929) o'zining boy adabiy merosi bilan o'zbek madaniyati va ma'naviyatini uyg'otishda muhim rol o'ynagan. U Solkashon mahallasidagi eski maktab va madrasada, (1896-1906), keyinchalik qisqa muddat Namangan madrasasida (1908) tahsil olgan. Adib 1909-yilda Kogon shahridagi matbaada faoliyat yuritgan. So'ngra Toshkentga kelib usuli jadid maktablari o'quv dasturlari bilan tanishib chiqib, shunday maktablarni dastlab Qashqardarvoza mahallasida (1910), keyin Qo'qon shahrining Hojibek guzarida (1911) va Marg'ilonda (1914) ochgan.

Hamza keyingi hayoti va faoliyati davomida qisqa muddat Qo'qondagi rus-tuzem maktabida o'qituvchi, “Sho'royi Islom” tashkilotining ozuqa sho'basida mirza, “Kengash” va “Hurriyat” jurnallarida muharrir (1917), Farg'ona viloyati madaniy-maorif bo'limi xodimi (1918), Turkiston fronti siyosiy boshqarmasi ixtiyoridagi O'lka musulmonlar siyosiy truppasida rejissyor, (1919), “Dor ush-shafaqa” maktabida mudir (1920), Buxoro viloyati maorif va harbit targ'ibot-tashviqot sho'basi qoshidagi teatr truppasida rahbar (1921-1924), Farg'ona maorif qo'mitasi qaramog'idagi o'ng-bilim sho'basida mudir o'rinbosari (1924) singari turli lavozimlarda faoliyat yuritgan. 1926-yildan erkin ijod bilan shug'ullangan.

Mavzuga doir adabiyotlar tahlili. Hamza Hakimzoda Niyoziy o'z ijodiy faoliyatini lirik asarlar yozish bilan boshlagan. Shoirning Nihoniy taxallusi bilan yaratgan lirik she'rlaridan tashkil topgan “Devon”i uning adabiyot maydonidagi dastlabki qadamidir. Asar “Devoni Nihoniy” nomi bilan ham ataladi. Adib Nihoniy taxallusini “Devon”ga kirmagan bir qancha she'rlarida ham qo'llagan. Boshqa bir qancha she'rlarida esa shoir bobosining nomi bilan bog'liq bo'lgan Niyoziy, hajviy she'rlarida Tovonteshar kabi taxalluslaridan foydalangan. Uning keying ijodida esa Hamza taxallusi keng o'rin egallaydi.

Bugungi kunga qadar Hamza Hakimzoda Niyoziy qalamiga mansub ko'plab asarlarning qo'lyozma va toshbosma nusxalari turli dastxatlarda O'zbekiston Fanlar akademiyasi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik institutining qo'lyozmalar fondida va G'afur G'ulom nomidagi Qo'qon adabiyot muzeyi fondida saqlanadi. Bundan tashqari, shoirning bir qancha she'rlari Buxoro adabiyot va san'at muzey-qo'riqxonasida saqlanayotgan ayrim majmualar tarkibida ham uchraydi.

1915-1917-yillarda shoirning "Milliy ashulalar uchun milliy she'rlar" majmuasi degan umumiy nom ostida "Oq gul", "Qizil gul", "Pushti gul" va boshqa to'plamlari, 1915-yilda "Yangi saodat" nasriy asari, 1916-yili "Zaharli hayot" [4,35] pyesasi nashr qilingan. Uning 1939-yilda nashr etilgan "Tanlangan asarlar"i 1949, 1954, 1958-yillarda nashr etilgan saylanma nashrlarida to'ldirib borilgan. 1960, 1969, 1979-yillarda esa Hamzaning ikki jildlik "Asarlar"i chop etilgan. Ammo, ushbu ikki jildlik asarlar ham shoir ijodini to'liq qamrab ololmadi. 1979-1981-yillar davomida Niyoziy tavalludining 90-yilligiga bag'ishlab uning to'rt tomlik "Mukammal asarlar to'plami" nashr etildi. Ushbu to'plam o'zining ilmiy prinsiplar asosida tayyorlanganligi bilan ajralib turadi. Lekin bu nashrda ham Hamzaning turli fond va arxivlarda saqlanayotgan merosi to'liq qamrab olinmagan va unda shoirning tugallanmay qolgan asarlari va xatlari umuman kiritilmaganligi aniqlanadi.

Keyingi yilda hamzashunoslik, Hamza ijodiga bo'lgan e'tibor ancha yuksaldi. O'zbekiston Fanlar akademiyasi Adabiyot muzeyi qo'lyozmalar bo'limida Hamza ijodining ko'p jildlik katalogi nashrga tayyorlandi. Shoirning dastlabki lirik asarlaridan iborat "Devon"ining shu vaqtgacha noma'lum bo'lgan yana bir qo'lyozma nusxasi aniqlandi. Hamzaning asarlarining yangidan-yangi nusxalari aniqlanganligi sababli 1988-yilda "To'la asarlar to'plami"ning yangi besh jildlik nashrini tayyorlash masalasi o'rta qo'yildi. Bu nashrda Hamzaning shu kunga qadar mavjud bo'lgan merosini to'liq qamrab olishga kirishildi va shoir asarlari ilmiy nashr talablari asosida bosmaga tayyorlandi. 1988-yilda nashrdan chiqqan "To'la asarlar to'plami" [4,15] ning yangi nashri quyidagi tartibga ega:

1. "Devon"
2. She'r va qo'shiqlar. Nasriy asarlar. Pedagogik risolalar (1914-1929)
3. Dramalar. Maqolalar. (1916-1920)
4. Xatlar. Hujjatlar. Hamza ijodiga doir materiallar.

"To'la asarlar to'plami"ning har bir jildida shu tomdan o'rin olgan asarlarning avtograf yoki turli kotiblar tomonidan ko'chirilgan qo'lyozmalariga, bunday qo'lyozmalar saqlanmagan hollarda esa ularning dastlabki nashrlariga tayanch nusxa sifatida qaralgan.

Qo'lyozma va muallif hayotlik davriga oid boshqa manbalar o'zaro qiyoslanib, shoirning u yoki bu asarga kiritilgan tahrirlari har bir jildning "Variantlar" qismida qayd etilgan. Bundan tashqari asarning yozilish tarixi haqidagi ma'lumotlar ham manbaning "Izohlar" qismida berib borilgan.

Metodlar. Hamza Hakimzoda Niyoziy asarlari nusxalarini qiyosiy tahlil qilishda matnshunoslik hamda adabiyotshunoslik fanining an'anaviy va zamonaviy metodlariga tayanildi. Tadqiqot jarayonida qo'lyozmalarni o'rganishning paleografik, kodikologik hamda lingvistik usullari bir-biri bilan uyg'un holda qo'llanildi. Bundan tashqari qo'lyozma va bugungi kunga qadar nashr etilgan nusxalarning aynan qaysi davrga oid ekanligini aniqlash maqsadida o'zaro integratsiya metodidan ham foydalanildi. Ushbu yondashuvlar nusxalarning tashqi ko'rinishi, yozuv turi, baytlar soni, boblar tuzilishi, qofiya va aruz vazni, shuningdek, kotiblar tomonidan kiritilgan xatoliklarni aniqlash imkonini berdi. Matnning ichki tuzilishini qiyoslashda lingvistik va stilistik tahlil usullaridan foydalanildi. Qiyosiy tahlilda alohida baytlar, misralar va hatto so'zlarning joylashuvi solishtirildi. Hamza Hakimzoda Niyoziyning bugungi kunga qadar nashr etilgan asarlari o'zaro qiyoslanganda ular orasida bir qancha tafovutlar mavjud ekanligi aniqlandi.

Yana bir muhim metodologik yondashuv – qo'lyozmalarning aruz vazni va qofiya tizimi asosida solishtirilishi bo'ldi. Baytlarning aruz vaznida yuzaga kelgan tafovutlar kotiblarning yozuv xatolari yoki og'zaki rivoyat asosida qo'shilgan o'zgarishlar bilan izohlandi. Shu bois, aruz tahlili ham tadqiqotning muhim vositalaridan biri sifatida xizmat qildi. Shu tariqa, mazkur tadqiqotda adabiyotshunoslikning qiyosiy, lingvistik, matnshunoslikning paleografik va kodikologik usullari uyg'unlashgan holda qo'llanilib, Hamza asarlarining turli nusxalariga nashrlari orasidagi farqlar mukammal ravishda tahlil qilindi.

Natijalar. Yuqorida ta'kidlab o'tganimizdek, Hamza Hakimzoda Niyoziyning ko'plab asarlari bugungi kunga qadar bir qancha nom ostida nashr qilingan. Ular orasidan "Milliy ashulalar uchun milliy she'rlar" majmuasi 1915-1917-yillarda umumiy shu nom ostida "Oq gul", "Qizil gul", "Pushti gul" va boshqa to'plamlari, 1939-yilda nashr etilgan dastlabki "Tanlangan asarlar"i tarkibida, 1952, 1959, 1979-yillarda nashr etilgan bir qancha saylanmalar tarkibida va 1988-yilda nashrdan chiqqan "To'la asarlar to'plami" tarkibida uchraydi. "Milliy ashulachilar uchun milliy she'rlar" [4,468] majmuasi quyidagi yettita to'plamdan tarkib topgan:

1. “Oq gul”
2. “Qizil gul”
3. “Pushti gul”
4. “Sariq gul”
5. “Yashil gul”
6. “Safsar gul”
7. “Atirgul”

Bu majmuani yaratishda shoir o'ziga xos novatorligi, har bir she'rni jadid g'oyalari bilan sug'orilganligi bilan qimmatli ekanligini ta'kidlab o'tadi. Ushbu majmuaning nisbatan to'liq variant 1988-yilda nashr etilgan “To'la asarlar to'plami”ning 2-tomida uchraydi. “To'la asarlar to'plami” 5 tomlik asar hisoblanib, uning 2-tomi quyidagi qismlardan iborat:

1. “Milliy ashulalar uchun milliy she'rlar” majmuasi
2. Pedagogik risolalar
3. Nasriy asarlar

Bundan tashqari ushbu tomda:

1. “Turli yillar”
2. “Tugallanmagan she'rlar. Eskizlar”
3. “Tojik tilida yozilgan she'rlar”

rubrikalari ostida ham Hamza qalamiga mansub bo'lgan, 1914-yildan ancha avval yozilgan deb taxmin qilingan asarlar uchraydi. Asarning milliy ashulalar qismi kattalar uchun, pedagogik risolalar qismi esa bolalar uchun yozilgan.

Muhokama. Hamza Hakimzoda Niyoziy “To'la asarlar to'plami”ning ikkinchi tomi adibning 1916-1928-yillarda yozgan she'rlari, pedagogik risolalari hamda nasriy asarlarini o'z ichiga oladi. Hamza yashagan davr muhitidan kelib chiqqan holda ya'ni oshkoralikka bugungi kun bilan qiyoslaganda keng yo'l ochilmaganligini inobatga oladigan bo'lsak, adib asarlarining aynan qaysi yilda yozilganligini aniqlashda muammolarga duch kelamiz.

XX asrning 10-yillarida Hamza asarlariga kirib kelgan aksariyat tatarcha, ozarbayjoncha, turkcha so'z ifodalarining bugungi kunda o'zbek adabiy tilida foydalanilmasligi hamda yot bo'lganligi sababli, adib asarlarini eski o'zbek yozuvidan joriy yozuvga transliteratsiya usuli bilan o'tkazilganda ayrim xat'o va kamchiliklarga yo'l qo'yilgan. Bunday muammolarni hal etishda esa adabiyotshunos hamda matnshunoslarning o'zaro integratsiyaga kirishib, muammolarni hal etishiga ehtiyoj mavjud. Bundan tashqari, qo'lyozmalarga yetkazilgan zararlar yirtilishi, siyohning o'chib ketishi, sahifalarning tushib qolishi yoki o'rni o'zgarishi ularni o'qishni yanada qiyinlashtirgan va mazmunan g'alizliklar kelib chiqishiga sabab bo'lgan.

Hamza arxivi materiallarini o'rganib chiqilganda, natijalar shuni ko'rsatadiki, shoir biror asarni yaratishdan oldin bir qancha materiallarni o'rganib chiqqan, qofiyadosh so'zlar tanlagan, bo'lajak asarlarning eskizini chizgan. Adibning bir necha asarlarining tahrir qilingan variantlari ham mavjud.

Hamza dastxatlari turli formatdagi qo'g'ozlar, varaqlar hamda daftarlarda arab harflarida qora, binafsha rangli siyohlarda yozilgan.

XX asr o'zbek madaniyati va adabiyoti tarixiga oid juda manbalar arxiv materiallari tarzida respublikamizning ko'plab arxiv fondlarida saqlanmoqda. Ana shunday noyob arxivlardan biri O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining Alisher Navoiy nomidagi Davlat adabiyot muzeyidagi “O'zbekiston yozuvchilari va shoirlari arxivi” fondidir. Bu noyob arxivda XX asr mobaynida O'zbekistonda yashab, ijod etgan bir qancha ijodkorlar –yozuvchi, shoir, dramaturg, publitsist, adabiyotshunos va boshqalarning shaxsiy arxiv hujjatlari yig'ilgan bo'lib, hozirgi hisobga ko'ra 63.000 adadni tashkil etuvchi katta xazinadir, desak adashmagan bo'lamiz. Mazkur nodir fondagi qariyb 2.000 ga yaqin hujjatlarni o'z ichiga oluvchi Hamza Hakimzoda Niyoziy arxividir. Ularda adib ijodi, faoliyati va shaxsiy hayoti bilan bog'liq yozma materiallar, turli hujjatlar o'rin olgandir. Shular orasida Abdulhamid Sulaymon o'g'li Cho'lpon faoliyati bilan bog'liq ayrim yozma ma'lumotlar ham aks etgan arxiv materiallari mavjud [2, 23-24]. Hamza safdoshi Cho'lpon bilan bog'liq ikki noyob hujjatni saqlagan. Ayni shu bitiklar bizni qiziqtirgan masalaga yaqqol dalil bo'lib xizmat qila oladi. Bu hujjatlar Hamzaga yo'llangan Cho'lponning ikki maktubidir [3, 72-77]. Cho'lponning ushbu xatlarining har ikkisi ham “Sadoyi Turkiston” gazetasi bilan bog'liq bo'lib, ular 1916-yil dekabr oyida yozilgan.

Hamza bu realistik turkumda Turkiston xalqining haqiqiy ahvolini, o'z iborasi bilan aytganda, “Turkiston qissasini” ko'rsatadi. Bu turkumni yaratguncha dunyoning ko'pgina yerlarini – Rusiyani, Yevropa va Sharq mamlakatlarining anchasini kezgan va o'zbek xalqining ularga nisbatan ayanchli turmush

kechirayotganini anglab yurak-bag'ri o'rtangan edi. U Yevropa va Osiyodagi taraqqiyot darajasini tahlil etib, "Uxlama ko'p o'zbek eli asri taraqqiy vaqtida" ("Oq gul"), "Xabarimiz yo'q na kun haqiqatidan" ("Pushti gul"), "Zulmat ko'zni qoplagan haqiqatni ko'rmaslar" ("Sariq gul") kabi misralarda xalqni iqtisodiy, siyosiy, ma'naviy, ma'rifiy, madaniy taraqqiy ettirishni davrning bosh vazifasi, deb biladi. To'plamdagi sherlarni "Qora elimizni tushunuvina o'ng'ay bo'lsin uchun" sodda tilda va xalq qo'shiqlari ohangida yozadi. Har bir she'r boshiga "Eski Turon" ohangidagi ashuladir, "Kel menga, shohim, hay-hay" ohangida bir ashuladir", deb xalq orasida mashhur bo'lgan ashula nomini aytib o'tadi yoki o'sha ashuladan namuna keltiradi. Masalan, "Bir zarra bormu aqlu hushimiz" misrasi bilan boshlanuvchi she'rga "Gulg'unchalar" ashulasidan quyidagi parchani namuna sifatida beradi:

*Bog' aro qo'ysam qadam, xandon urar gulg'unchalar,
Xandon urar gulg'unchalar.
Hasratingda yig'layyudi bir necha boybachchalar,
Xonimiz omon, omon, omon,
O'zimiz yomon, yomon, yomon.*

Shoir yana she'r tagida "Yigirmanchi misradan 22-misragacha bir kishi tarafidan aytilur, 24- ham 25-misra ko'p kishi tarafidan aytilur, 21-misra ikki bor aytilur",- deb izoh ham beradi.

Turkumga kirgan barcha asarlarini milliy she'rlar, deganida hamda she'rning xalq qo'shiqlari yo'lida yozilgan shaklinigina nazarda tutmaydi, balki, birinchi navbatda, ularda xalqning ahvoli, taqdiri, orzu-armoni to'g'risida, uning taraqqiyoti va ma'naviy, ruhiy kamolotiga g'ov bo'layotgan zo'r illatlar - jaholat, turg'unlik, tarqoqlik, har xil yaramas urfodatlar haqida fikr yuritadi. Hamza ko'p she'rlarida bor ovozi bilan xalqni birlashishga chaqiradi: "Birlashsun emdi boshimiz, maslakda qari yoshimiz", "Birlashing, Turkiston!", "Qo'l ushlashing, birlashing emdi, Turkiston!", "Haq yo'lida jon bersak, bo'lsak millat qurboni",- deydi. Milliy joziba ayniqsa tilda yorqin ko'rinadi. Hamzaning tili shu qadar maftunkor, boy, jozibali, sodda, o'ynoqiki, bu borada ham u ustoz san'atkor sifatida tan olingan. U fors, arab so'zlarini iloji boricha ishlatmaslikdan tashqari, o'zbek tilining jamiyatdagi haq-huquqini tiklash uchun ham kurashdi. Hamza o'zini millatning jonkuyari, fidoyisi deb his etdi. So'ngra u faqat kambag'allarga yoki boylarga emas, hammaga qarata so'zladi, millatni yaxlit idrok etdi, barcha birgalikdagina o'zbek millatini jaholat, qoloqlik, turg'unlikdan taraqqiyot yo'liga, baxt-saodat yo'liga olib chiqishi mumkin, degan fikrdan kelib chiqdi. U "Har millatning aholisi bir otaning bolasi kabi o'lur",- deydi. Hamza millatdagi illatlarni birma-bir sanab, ularni shafqatsiz ravishda tanqid qildi: bu - jaholat, g'aflat, diniy taassubga berilish, savodsizlik, yalqovlik, qimor o'ynash, giyohvandlik, kayf-safoga berilish, ko'pxotinlilik, ayollarni oyoqosti qilish, tarqoqlik - birlashmaslik, mutelik... Bular Hamzaning fikricha, "millatni masxaralik bir holga qo'yaturg'on" illatlardir.

Xulosa. Hamza Hakimzoda Niyoziy hayoti davomida millatni ilmga chorlaovchi yetuk shaxslardan biri hisoblanadi. Uning samarali ijodi o'z davrining yetuk ijod namunalaridan hisoblanib, bugungi kunga qadar o'rganilib kelinmoqda. Ushbu tadqiqotdan kelib chiqadigan umumiy xulosa shundan iboratki, Hamza Hakimzoda Niyoziy ijodi bugunga qadar to'liq o'rganilmagan. Adibning asarlarining nisbatan to'liq variant faqatgina "Tanlangan asarlar" to'plamida yig'ilgan. Hozirda adibning ijodini to'liq o'rganishga bo'lgan ehtiyoj yuqori.

ADABIYOTLAR:

1. Abdullayev A. (2007). *Tasavvuf va uning namoyandalari [Risola]. Termiz.*
2. Бертельс Е.Э. *Суфизм и суфийская литература. – М.: Наука, 1965.*
3. Бертельс Е.Э. *Избранные труды. История литературы и культуры Ирана. – М.: Наука, 1988. – 560 с.*
4. Niyoziy H.H. *To'la asarlar to'plam// O'zSSSR "Fan" nashriyoti, 1989.*
5. Сирожиддинов Ш. *Манба ва матн мушоҳадани талаб қилади // Шарқ юлдузи, 2011, 2-сон.*
6. Валихўжаев Б. *Ўзбек адабиёти унослиги тарихи. –Т.: «Ўзбекистон», 1993.*
7. Воҳидов Р., Эшонқулов Ҳ. *Ўзбек мумтоз адабиёти тарихи. – Тошкент: ЎзЮ Адабиёт жамғармаси нашриёти, 2006.*
8. Muhiddinov M. (2005). *Komil inson – adabiyot ideali. –Toshkent: Ma'naviyat.*
9. *O'zbekiston Fanlar Akademiyasi. (1972). Navoiy asarlari lug'ati. A. Navoiy asarlarining XV tomligiga ilova. –Toshkent: Fan.*
10. Vohidov R. J., & Eshonqulov H. P. (2006). *O'zbek mumtoz adabiyoti tarixi. Toshkent: O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg'armasi nashriyoti.*

NEMIS SENTIMENTAL NASRINI QIYOSIY-TARIXIY KONTEKSTDA O'RGANISH

Niyazova Munira Jumanazarovna,
Iqtisodiyot va pedagogika universiteti
Fakultetlararo xorijiy tillar kafedrasida dotsenti v.b.

Annotatsiya. XVIII asrda bir-biri bilan chambarchas bog'liq bo'lgan ma'rifiy klassitsizm, sentimentalizm, romantizm singari turfa badiiy yo'nalishlar rivoj topdi. Bu hol insoniyat tafakkurining ma'rifiy-mafkuraviy bosqichga qadam qo'yishi bilan bog'liqlikda kechdi. Iogan Volfgang Gyote qalamiga mansub "Yosh Verterning iztiroblari asari ana shu davrda yuzaga keldi. Ma'rifatparvarlik ruhi bilan tug'ilib, qahramonlarning kechinmalari, xayrixohlik, hamdardlik tuyg'ularini yuksak sanovchi muayyan uslubiy yo'nalish maqomini olgan oqim keyinroq "sentimentalizm" nomini oldi. Ushbu maqolada sentimentalizm adabiy oqim sifatida adabiyot maydoniga keng yoyilishdan oldin, bu estetik hodisa nemis qahramonlik eposlarida, xalq qo'shiqlarida, O'rta asrlar adabiy manbalarida, klassitsizm va ma'rifatchilik adabiyoti namunalari qisman uchrashganini, nemis sentimental nasrini qiyosiy-tarixiy kontekstda o'rganilishi keng tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: nemis qahramonlik eposlari, poetika, sentimentallik, sentimental elementlar, epistolyar janr.

ИЗУЧЕНИЕ НЕМЕЦКОЙ СЕНТИМЕНТАЛЬНОЙ ПРОЗЫ В СРАВНИТЕЛЬНО-ИСТОРИЧЕСКОМ КОНТЕКСТЕ

Аннотация. В XVIII веке развивались различные художественные течения, такие как просветительский классицизм, сентиментализм и романтизм, тесно связанные между собой. Это было обусловлено вступлением человеческой мысли в просветительно-идеологическую стадию. В этот период появилось произведение Иоганна Вольфганга Гёте «Страдания юного Вертера». Рождённое в духе Просвещения, это движение, обретшее статус особого стилистического направления, высоко ценившего переживания, доброжелательность и сочувствие героев, впоследствии получило название «сентиментализм». В данной статье анализируется тот факт, что до широкого распространения сентиментализма в литературной сфере как литературного течения это эстетическое явление частично встречалось в немецком героическом эпосе, народных песнях, средневековых литературных источниках, образцах классицизма и литературы эпохи Просвещения, а также в сравнительно-историческом изучении немецкой сентиментальной прозы.

Ключевые слова: немецкий героический эпос, поэтика, сентиментальность, сентиментальные элементы, эпистолярный жанр.

STUDYING GERMAN SENTIMENTAL PROSE IN A COMPARATIVE-HISTORICAL CONTEXT

Abstract. In the XVIII century, such as enlightened classicism, sentimentalism, romanticism, closely related to each other, peat artistic directions developed. This case was due to the fact that human thought entered the educational-ideological stage. It was during this period that the work of "The anguish of the young Verter", attributed to the pen of Iogan Wolfgang Goethe, appeared. Born with the spirit of enlightenment and receiving the status of a certain methodological direction that exalted the feelings of the characters' experiences of forgiveness, benevolence, sympathy, the current later received the name "sentimentalism". This article shows that before sentimentalism as a literary stream became widespread in the field of literature, this aesthetic phenomenon met in part in German heroic epics, folk songs, medieval literary sources, examples of classicism and enlightenment literature, the study of German sentimental prose in a comparative-historical context is widely covered

Keywords: German heroic epos, poetics, sentimentality, sentimental elements, epistolary genre.

Kirish. Nemis sentimental nasrini qiyosiy-tarixiy kontekstda o'rganadigan bo'lsak, tarixiy-tipologik yondashuv nazariyasiga ko'ra, tarixda takroriylik amalda bo'lgani uchun unda universallik xususiyati ustuvor maqomga ega bo'ladi. Bu nazariya folklor asarlariga dunyo miqyosida kechadigan umumiy ijtimoiy-

siyosiy jarayon oqibatida o'z-o'zidan tabiiy ravishda yuzaga keladigan estetik hodisa o'laroq yondashish kerak bo'ladi.

Mavzuga doir adabiyotlar tahlili. XII asr Germaniyada feodal jamiyat sharoitida rivojlangan nemis tilidagi dunyoviy-demokratik adabiyot paydo bo'ldi. U, asosan, fransuz modellari asosida ritsarlik romantikasi bilan ifodalandi. Nemis Shpilmanlari tomonidan ijro etilgan qahramonlik dostonlari keng qamrovli kitoblarga aylantirilgan. Saroy (kurtuaz) romanining uslubi Shpilman dostoniga ma'lum darajada ta'sir ko'rsatdi. Bu tipdagi dostonlarda senyor-vassal munosabatlari bilan feodal, xristian jamiyatining o'rnatilgan turmush tarzi o'z aksini topgan. Masalan, "nozanin xonim" kulti va boshqa obrazlar tasvirida, an'anaviy motivlarni talqin qilishda, hatto syujetdagi o'zgarishlarda ham namoyon bo'lgan. Bularga "Zigfrid haqidagi qo'shiq", "Nibelunglar haqidagi qo'shiq" kabi nemis qahramonlik eposlari kiradi. Bu qo'shiqlarni ma'lum darajada qahramonlik-romantik doston xiliga qo'sha olamiz. Chunki ularda real, haqiqiy tarixiy voqelikni farqlash tobora qiyinlashadi. Bunday murakkab holatlarni hissiy talqin etish mumkin.

Shu asosga ko'ra, O'rta asrlarga oid mazkur dostonlardagi qahramonning tuyg'ulari, hissiyotlari, ma'lum darajadagi iztiroblarini sentimentalizm elementlari sifatida qayd etamiz. XVII asr nemis lirikasi jahon adabiyotining eng yorqin sahifalarini tashkil etgani adabiyot tarixida bizga ma'lum. Nemis adabiy muhitiga katta islohotlar qilgan mutafakkir Martin Opits (Martin Opitz, 1597–1639)ning poetikaga oid eng asosiy risolasi "Nemis she'riyati haqida kitob" ("Buch von der deutschen Poeterey") hisoblanadi. M.Opitsning mazkur kitobida ta'kidlanishicha, dastavval she'riyatda ilohiyot haqidagi ta'limotlar, olamning ezoterik tushunishga o'rgatish asosiy mazmun kasb etgan. Shu davr donishmandlari, mutafakkirlari, ilohiyot ilmi sohiblari odamlarga Xudodan qo'rqishni, namunali go'zal xulq-atvorga ega bo'lishni lirikadagi shu yo'l bilan tushuntirgan. Oddiy odamlar, eshitishga moyil xalq Xudoning mavjudligi, butun olamni Yaratuvchisi ekanligi va o'limning muqarrarligiga ishongan. Ammo bu anglamni inson aqlidan tashqaridagi ikkinchi bir ezoterik qatlamda, sezgi va hissiyotlar orqaligina tushunish mumkin. Shuningdek, muallif asarda eng qadimgi yunonlar donolikni o'rganish uchun Misr, Hindiston, Fransiya kabi bir qancha davlatlarga sayohatlar qilishgan. Ular sayohat davomida ko'rganlarini, sarguzashtlarini she'riy ohangda, qofiyaga solib yozishgan. Kitobda yana yozilishicha, bunday odamlar o'z she'rlarida tabiatni kuylagani, uni yaxshi ko'rishini lirik ifodalaganlar.

Opits yozgan bu qaydlardan ma'lum bo'ladiki, sentimentallik nemis adabiy muhitida shu taqlid shakllangan. Inson aqli bilan anglab bo'lmaydigan olam, sezgi, hissiyotning mutlaqlashishi, sayohatlar, oddiy odamlar bilan muloqot, tabiat bilan munosabatlar barcha- barchasi sentimentallikning ilk mujdalaridir. M.Opits yozgan she'rlarda ham sentimentallikka xos unsurlar uchraydi.

Nemis adabiyotida sentimental elementlar Gans Yakob Grimmelsgauzen (Hans Jacob Christoffel von Grimmelshausen, 1622–1676)ning 1668-yilda yozilgan "Simplitsissimus sarguzashtlari" haqidagi avtobiografik romanida ham ko'rinadi. (Der Abenteuerliche Simplicissimus Teutsch, d.h. die Beschreibung des Lebens eines seltsamen Vaganten, genannt Melchior Sternfels von Fuchsheim). Mazkur asar XVI asr nemis ritsarlik romantikasi va satirik adabiyoti an'alariga amal qilgan. Romanda halokatli o'ttiz yillik urush davrida Simplitsissimusning sarguzashtlari tasvirlanadi. Shuningdek, asar qahramoni Simplitsissimusning boshdan kechirganlari, iztiroblari, olamga, jamiyatga hissiy munosabati poetik ifodalangan.

Tadqiqot metodologiyasi. Darhaqiqat, adabiyot va san'atdagi bu hissiy yo'nalishni ijtimoiy voqelik emas, balki qahramonning sodir bo'layotgan voqealarga bo'lgan hissiy munosabati, ruhiy-psixologik holati, fikr va hissiyotlar dunyosi ko'proq qiziqirdi.

Umuman, Yevropa sentimental adabiyotini kuzatganimizda bu estetik hodisa, sentimental elementlar, belgi-xususiyatlar yorqin namoyon bo'lgan janrlar sifatida quyidagilarni sanash mumkin:

- 1) falsafiy-irfoniy, tavsifiy-didaktik doston va peyzaj (manzara) she'rlar (elegiya);
- 2) tabiat qo'ynidagi sokin hayotni tasvirlovchi idilliyalar;
- 3) mayda savdogarlar qatlami shaxsiy hayotini (sentimentalizmgacha sulolaviy, davlat yoki fuqarolik-vatanparvarlik kurash va g'oyalarini aks ettirish muhim sanalardi. – M.N.) ifodalovchi klassitsizm tamoyillaridan qisman uzilgan drama ("sentimental komediya", "burjua dramasi", "burjua tragediyasi", "jiddiy (ko'z yoshi) drama (komediya)"si;
- 4) adabiy qahramon inqirozi tomon rivojlanib boruvchi, uning shaxsiy hayoti, fojiali ruhiy kechinmalarini ijtimoiy munosabatlar fonida batafsil tasvirlovchi ijtimoiy-psixologik roman;
- 5) sentimental qahramonning iztirobi, ishqiy-hissiy, intim kechinmalari, dardi, yig'isi, kayfiyati ifodalangan maktub va kundaliklar (epistoliar janr);
- 6) hissiyot, tuyg'uning kultlashishi, sentimental qahramonning telbanamo oshiqlik qismati, sevgi iztiroblari, hissiy kechinmalari va fojeiy yakunni pafos bilan ifodalovchi qissa va hikoyalar;

Ularning barchasida ezgulik qurbonlik talab qilishiga ishongan ehtirosli, ammo u qadar faol bo'lmagan ma'rifiy xarakterdagi qahramonlar ishtirok etadi.

Sentimentalizm badiiy adabiyot va teatrdan alohida yo'nalish maqomini oldi. Sentimentalistlar insonning tabiiy mayllari, his-tuyg'ulari fonida tasvirlashga ahamiyat qaratdi. Dunyoni tabiiy his-tuyg'ularni ozod qilish, insonga hamdardlik, yuksak ehtirolarga qanot berish orqali qayta qurishga intildi. Binobarin, aqliy va mantiqiy emas, balki hissiy idrokning rolini yuqori baholadi.

Olingan natijalar va ularning tahlili. Nemis shoiri, dramaturgi va romannavisi Fridrix Maksimilian fon Klinger (1752–1831)ning “Bo‘ron va tazyiq” nomidagi 23 ta dramasi va 14 ta romani, shuningdek, shu nomli harakat faollarining milliy adabiyot yaratish yo‘lidagi sa’y-harakatlari bilan chambarchas bog‘liq tarzda 1770–1780-yillarda Germaniyada sentimentalizm gullab-yashnadi. “Bo‘ron va tazyiq” dramasi butun bir adabiy davrning nomiga aylandi. F.M.Klinger buyuk nemis shoiri Yohann Volfgang fon Gyotening bolalikdagi do‘sti va maslakdoshlaridan biri edi. U Frankfurtda Y.V.Gyote atrofida birlashgan yosh shoir-u adiblar – Yakob Maykl Reynxold Lents, Geynrix Leopold Vagner va boshqalar bilan do‘stlashdi, ular bilan doimiy uchrashib turadi. F.M.Klingerning “Oltin xo‘rozning hikoyasi” romani A.S.Pushkinning “Gabriliada” asari ta’sirida yuzaga keldi. Anna Axmatova o‘zining “Pushkinning so‘nggi ertagi” nomli mo‘jaz maqolasida bu asarni nozik tahlil qilgan edi.

Sentimental adabiyot vakillari nasriy asarlarida epistoliar janr (maktub va kundaliklar) imkoniyatlaridan samarali foydalanadilar.

Umuman olganda, nemis sentimentalizmi fransuz klassitsizmiga bo‘lgan milliy-madaniy munosabat sifatida dunyoga keldi. Nemis sentimentalistlari dunyoqarashining shakllanishi va taraqqiyotida nemis shoiri, dramaturgi, san’at nazariyotchisi va adabiyotshunos-pedagogi, nemis klassik adabiyotining asoschilaridan biri – Gotxold Efraim Lessing (1729–1781)ning ta’siri kuchli bo‘lgan. Darhaqiqat, uning “Laokoon yoxud tasviriy san’at va poeziya chegaralari xususida” risolasi, “Gamburg dramaturgiyasi” turkum maqolalari, “Sara Sampson xonim”, “Minna fon Barnxelm”, “Emiliya Galotti”, “Donishmand Natan” pyesalari o‘z davrida e’tiborga tushgan va bugun uchun ham qimmatini yo‘qotgan emas. G.E.Lessing ijodiy merosida estetika va san’atshunoslikka oid asarlar muhim o‘rinni egallaydi. G.E.Lessing fikricha, badiiy adabiyotdagi voqelik ifodasi o‘z go‘zalligi bilan tuyg‘ularimizga ta’sir etibgina qolmay, hissiy idrokimizga ham zavq beradi. Teatr estetikasi esa, birinchi navbatda, uning ibratxona ekanini nazarda tutishi lozim.

Sentimentalistlar elegiya, roman-maktub, sayohat kundaligi, xotiralar va boshqa janrlarda ijod qildilar. Bunday asarlarda badiiy voqelik birinchi shaxs tilidan bayon qilindi. Sentimentalist adiblar poetik tafakkur va tasavvurga g‘ov bo‘luvchi har qanday kanonlarga u qadar amal qilmas, o‘z irodasiga, tuyg‘ulariga ko‘ra ish tutardi. Kompozitsiyada erkinlikka intilishar, lirik chekinishlarga ko‘p o‘rin ajratishardi. Klassitsizm tarafdori I.K. Gottshed nazariy qarashlari I.J.Bodler va I. J.Breytingerlar tomonidan keskin inkor etildi. Sentimentalistlarning ilk namoyandasi Fridrix Gotlib Klopstok edi. U O‘rta asr nemis adabiy an‘analari va sentimentalizm o‘rtasida ko‘prik qurishga intildi. Bu oqim lirik she‘riyat va romanchilikdan dramaturgiyaga ko‘chdi. Tuyg‘ular tabiiy oqimini berish, qahramonlarni vaziyat talabiga ko‘ra tasvirlash, ularga hamdard bo‘lish, oddiy odamlarning boy ma’naviy dunyosini ko‘rsatish sentimentalizm estetikasining yetakchi belgilariga aylandi.

Nemis adabiyotida samarali ijod qilgan Shiller 1784-yil “Don Karlos”, 1787-yil “Makr va muhabbat”, 1800-yil “Mariya Styuard” dramalarini yozadi. Uning dramalarida romantizm, hissiy emotsiya juda kuchli berilgan. Sinfy tabaqalanish, aristokratiya muammolari asosiy mavzuga ko‘tarilgan “Makr va muhabbat” dramasi qahramonlari navqiron oshiq va ma’shuqalar Ferdinand va Luizaning chin sevgisi orqali muallif ijtimoiy kanonlarni yorib o‘tmoqchi bo‘ladi. Oliy tabaqa vakili, Prezident fon Valterniing yolg‘iz o‘g‘li Ferdinand oddiy xalq vakili, go‘zal qalb egasi Luizani sevib qoladi. Har ikkalalari ham ijtimoiy tartiblarni yengib o‘tishga harakat qiladilar, lekin hayotning shafqatsiz qoidalari, zolim kishilar faol qarshilik qiladi. Makr-hiyla bilan sevrishganlar o‘rtasida ishonchsizlik paydo qiladi, ular umidsizlikka tushadilar va o‘z joniga qasd qiladilar. Dramada ayni sahnalar o‘ta yuqori dramatismda, ehtirosli hissiy ta’sirda kechadi. Bu qahramonlar metaforik qatlamda talqin qilinsa, insonlar tabiatidagi, qalbidagi o‘tli ehtirolar, qalb gavharlarini, insonning tabiiy fe’lini mavjud byurokratik qoidalar yanchib, ezg‘ilab tashlayotganini, insonlardagi tabiiy instinkt, his-tuyg‘ular, orzu-umidlarini bo‘g‘ib qo‘yayotganini tushunish mumkin. Sentimental qahramonlar taraqqiy etgan shahar, tabiiy-madaniy qadriyatlarni yemirib borayotgan globalizatsiyadan qutulish uchun chekka qishloqlar, ovloq joylarga, tabiat qo‘yniga qochadilar. Shiller qahramonlari ham byurokratik tuzumdan qutulish uchun shu yo‘lni tanlaydilar. Obrazli qilib aytganda, yuqorida ta’kidlaganimizdek, byurokratiya insonning tabiiy his-tuyg‘ularini bo‘g‘adi, so‘ndiradi. Bu ikki navqiron yosh ham “Bo‘ron va hujum” oqimi g‘oyalari uchun tanlab olingan adabiy qahramonlardir. “Bo‘ron va hujum” oqimi faoliyatida ikki asosiy tipni kuzatish mumkin: birinchisi – hujumkor, jo‘shqin tabiatli,

hayotdagi har qanday chegaralarga qarshi kurashga otlangan, kuch-qudratli, fojiaiy, o'ziga xos daho qahramon bo'lsa, ikkinchisi – ehtirosli, xayolparast, ichdan kuyinuvchi, olam dardini qalbida jamlagan, adabiy ozodlikni qo'msovchi, cheksizlikka intiluvchi qahramon timsoli bo'lishi kerak edi." Shiller ham, Gyote ham bu xususiyatlarning barchasini o'zida umumlashtirgan qahramonlar yaratdi.

Nemis sentimentalizmiga eng yorqin poetik ifodalar bergan, olmon adabiy muhitida keng taraqqiy etishida munosib ulush qo'shgan yana bir dramaturg, shoir, nazariyotchi, mutafakkir, "Bo'ron va tazyiq" harakatining eng faol a'zosi Yohann Kristof Fridrix fon Shiller (Johann Christoph Friedrich von Schiller; 1759–1805) hisoblanadi. Uning dastlabki pyesasi "Qaroqchilar" 1781-yillarda yozilgan. Shiller va Gyote bu harakatning eng faol vakillari sifatida har ikki ma'rifatchining ham g'oyalari bir maqsadga qaratilgan edi. "Obyektiv sabablardan eng muhimi shu ediki, XVIII asrning 70-yillarida san'atdagi antifeodal qarashlarning ifodasi sifatida "Bo'ron va hujum" deb nomlangan adabiy harakat vujudga keldi. Bu oqim ishtirokchilari adabiyotda yangi shakl va yangi mazmun yaratish tarafdorlari bo'lib maydonga chiqdi. Sentimental nasrini cho'qqiga olib chiqqan buyuk nemis mutafakkiri Yohann Volfgang Gyote ijodida ham o'z aksini topgan. Nemis adibi, mutafakkir, faylasuf va tabiatshunos olim hamda davlat arbobi – Iogann Volfgang Gyote (1749–1832) nomi o'zbek kitobxonlariga o'zining "Yosh Verterning iztiroblari" (1774), "Faust" (1774–1832), "G'arb-u Sharq devoni" (1819) kabi asarlari bilan yaxshi tanish. U adabiyotshunoslik, sharqshunoslik, huquqshunoslik, falsafa sohalari bilan bir qatorda, badiiy adabiyotning drama, avtobiografiya, ma'rifiy-roman, roman-maktub kabi turli janrlarida ham qalam tebratdi. Uch mingdan ortiq she'rlar, "Faust" kabi dunyoga mashhur dramalar yozdi. Gyotening nasr va nazm qorishiligidan bitilgan "Vilgelm Meister" romani ma'rifiy-ta'limiy xarakterda bo'lsa, muallifi nomini jahon miqyosida shon-shuhratga burkagan "Yosh Verterning iztiroblari" asari roman-maktub janriga mansubdir. Muallifning yoshligida yozilgan mazkur roman to'la ma'noda sentimental asardir.

"Yosh Verterning iztiroblari" romani Gyotening shaxsiy hayotidagi voqealar ta'sirida yaratilgan va yozuvchining yoshlik davridagi ichki iztiroblar, sog'inch, insoniy tuyg'ular va hayotiy muammolar ortidagi mislsiz azoblar, natijasida shakllangan. Gyote bu romanida o'sha davrning ilg'or fikrli va sezgir yigiti uchun ularning ichki dunyosi va ehtiroslarini tushunish, yoki ularni o'zi tomonidan tasvirlash maqsadida shunday ehtirosli qahramon yaratgan va bu orqali jamiyatdagi reaksiya kuchlarga qarshi bir zarba berishni nazarda tutgan, deyish mumkin.

Muhokama. Romanda inson ruhiyatining sezgirlik va xayolparastlik xossalari akslanadi. Bunday holatdagi shaxs tashqi olamni intellektual yoki ratsional baholashga emas, balki o'z hissiyotlari va kayfiyatlariga e'tibor qaratgan holda idrok etadi. Ularning olami ayni vaqtda sezgilarga ta'sir qiluvchi omillar tufayli shakllanadi.

Epistolyar adabiyotning o'zbek mumtoz adabiyotidagi namunasi sifatida A.Navoiyning "Munshaot" asarini keltirish mumkin. Adabiyot taraqqiyotining keyingi davrlarida shaxslararo bevosita yozishmalar ham ahamiyatini yo'qotmagani holda, adabiy asarlarni maktub orqali yozish keng ommalashgan." Jumladan, fransuz ma'rifatparvari Monteskyoning "Fors nomalari", J.J.Russoning "Yuliya yoki yangi Eloiza", Y.V.Gyotening "Yosh Verterning iztiroblari", F.Dostoyevskiyning "Kambag'allar" romanlari, "Oydin tunlar" qissasi, A.Chexovning "Vanka" hikoyasi, zamonaviy o'zbek adabiyotida O'.Umarbekovning "Sevgim-sevgilim", O'.Hoshimovning "Cho'l havosi", I.Mirzoning "Bonu", A.Yo'ldoshevning "Sunbulaning ilk shanbasi" kabi asarlari ham shu uslubda bitilgan. Bunday asarlarda epik bayon birinchi shaxs tilidan olib boriladi. Epistolyar uslubning o'ziga xos xususiyatlari yozuvchi yoxud adabiy qahramonning ijtimoiy mavqei va kasb-kori, yoshi, ahvol-ruhiyati, ko'zlagan maqsad-muddaosiga bog'liq tarzda namoyon bo'ladi.

Kundalik hayotda maktub yozuvchi mirza va kotiblar yuqoridagi singari xususiyatlarni inobatga olganlar. Keyinchalik bunday talablar badiiy nasr va qisman adabiy tanqidning "ochiq xat" singari janrlari uslubiga ham ko'chgan. Odatda, maktublar kompozitsiyasi xat yo'llangan shaxsga bo'lgan ehtirom bilan boshlanadi. Bosh qismida uning mazmuni va ko'zlangan maqsadi bayon qilinadi. Maktub so'ngida xulosa qism keladi. Ba'zan muallif imzosi bilan so'ng ham ayrim izohlar qo'shiladi. Maktublar publitsistik va so'zlashuv uslubiga xos unsurlardan butkul xoli bo'lmaydi. Umuman, qahramonning ishqiy munosabati, sevgi iztiroblari, dardi, nolasi, arzi-holi kabi ichki kechinmalarni berishda maktub eng qulay usul ekanligini ta'kidlash lozim. Bu barcha sentimental asarlarga xos xususiyat hisoblanadi.

Xulosa qiladigan bo'lsak, Gyote zamoniga kelib, Germaniyada sentimental adabiyot haqiqatda ulkan adabiy-estetik hodisaga aylandi. Gyote o'z asarini yozishda o'zigacha mavjud milliy manbalarga tayangani bilan birgalikda, boshqa yevropalik yozuvchilar, xususan, ingliz va fransuz sentimentalistlarining ijodi ham sezilarli ta'sir o'tkazgan. Yuqorida keltirilgan fikrlardan kelib chiqadigan bo'lsak, nemis sentimentallik elementlarini Gyotegacha bo'lgan davrda, undan keyin ham uchratishimiz mumkin. Uning davriga kelib esa,

sentimentalizm yanada gullab yashnaganini ko'rishimiz mumkin. Qadimgi dunyo adabiyoti, nemis xalq qo'shiqlari, elegiyalar, qahramonlik dostonlari, klassik poeziya, maktublar, sayohat kundaliklari, shuningdek, Yevropa xalqlari adabiyotidagi sentimental nasr namunalari, yevropalik yozuvchilarning estetik qarashlari va Sharq xalqlari adabiyotining, xususan, doston, ertak va mumtoz adabiyot manbalari ta'siri bilan uyg'un holatda sentimentalizm nemis adabiyotida tarixiy va tadrijiy shakllarda rivojlangan.

ADABIYOTLAR:

1. Мелетинский Е. М. Немецкий героический эпос // История всемирной литературы: В 8 томах, Ин-т мировой лит. им. А. М. Горького. — Москва: Наука, 1983-1994. — С. 522-523.
2. Opitz, Martin. Buch von der deutschen Poeterei. //Abdruck der ersten Ausgabe (1624). Halle a. S. Verlag von Max Niemeyer, 1913.
3. Куронов Д. ва бошқ. Адабиётишунослик лугати. — Тошкент: Akademnashr, 2013. — Б. 368.
4. <https://www.abipur.de/gedichte/analyse/13285-elegia-opitz.html>
5. Hans Jacob Christoph von Grimmelshausen // Gran Enciclopèdia Catalana (kam.) — Grup Enciclopèdia, 1968. <https://www.gutenberg.org/files/34806/34806-h/34806-h.htm>
6. Эгамова Я. Вертер изтироблари талқини. / Гёте И.В. Ёш Вертернинг изтироблари. Роман. Немис тилидан Янглиш Эгамова таржимаси. — Тошкент: F.Фулом, 2018.

“BU KUNNING DAVOMI” QISSASIDA DETAL-RAMZNING O‘RNI

Norqulova Maftuna G‘ayrat qizi,

*Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti o‘qituvchisi
norqulovamaftuna@navoiy-uni.uz*

Annotatsiya. Mazkur maqolada Ahmad A‘zam ijodining badiiy-estetik xususiyatlari, xususan, yozuvchining “Bu kunning davomi” qissasida qo‘llagan detal va ramzlarning poetik vazifasi tahlil qilinadi. Qissada keltirilgan detal-ramzlar qahramon ruhiyatini ochib berishda, shuningdek, voqelikning yashirin ma‘nolarini badiiy ifodalashda asosiy kompozitsion vosita sifatida namoyon bo‘ladi. Qissada keltirilgan saraton tasviri, tor yo‘lak, telefon va tramvay kabi detallar tasviriy vosita emas, balki qahramonning ichki holatini, yolg‘izligini hamda ruhiy iztirobini ifodalovchi ramz sifatida yoritiladi. Maqolada qissa strukturasiidagi ayrim detal-ramzlar voqelikdagi ichki dramatismni qay tarzda kuchaytirgani ilmiy asosda yoritiladi. Shu bilan birga, Ahmad A‘zamning detal-ramzga bo‘lgan munosabati o‘zbek adabiyotida poetik tafakkurning yangilanishiga, qissa janrida psixologik va falsafiy izlanishlarning kengayishiga olib kelgan ijodiy hodisa sifatida baholanadi.

Kalit so‘zlar: muallif, uslub, janr, qissa, struktura, ramz-detal, muhit tasviri, ruhiyat, yo‘lak, telefon, tramvay, ichki monolog.

РОЛЬ ДЕТАЛИ-СИМВОЛА В ПОВЕСТИ «ПРОДОЛЖЕНИЕ ЭТОГО ДНЯ»

Аннотация. В данной статье анализируются художественно-эстетические особенности творчества Ахмада Азама, в частности поэтическая функция деталей и символов, использованных в повести «Bu kunning davomi» («Продолжение этого дня»). Представленные в произведении детали-символы выступают не только изобразительными средствами, но и ключевыми композиционными элементами, раскрывающими внутренний мир героя и отражающими скрытые смыслы изображаемой действительности. Такие образы, как жара середины лета, узкий коридор, телефон и трамвай, интерпретируются как символы, передающие психологическое состояние персонажа, его одиночество и духовные переживания. В статье научно обосновывается, каким образом данные детали-символы усиливают внутренний драматизм повествования. Кроме того, отношение Ахмада Азама к детали-символу рассматривается как творческое явление, способствовавшее обновлению поэтического мышления в узбекской литературе и расширению психологических и философских поисков в рамках жанра повести.

Ключевые слова: автор, стиль, жанр, повесть, структура, деталь-символ, изображение среды, психология, коридор, телефон, трамвай, внутренний монолог.

THE ROLE OF SYMBOLIC DETAILS IN THE NOVELLA “THE CONTINUATION OF THIS DAY”

Abstract. This article analyzes the artistic and aesthetic features of Ahmad Azam’s literary oeuvre, particularly the poetic function of the details and symbols employed in his novella “Bu kunning davomi” (“The Continuation of This Day”). The symbolic details presented in the work serve not merely as descriptive devices, but as key compositional elements that reveal the protagonist’s psychological state and convey the hidden layers of meaning underlying the depicted reality. Images such as the oppressive summer heat, the narrow corridor, the telephone, and the tramcar function as symbolic representations of the character’s inner condition, loneliness, and emotional turmoil. The article examines, on a scholarly basis, how these symbolic details intensify the internal dramatic tension within the narrative. Moreover, Ahmad Azam’s approach to symbolic detail is evaluated as a creative phenomenon that contributed to the renewal of poetic thinking in Uzbek literature and expanded psychological and philosophical explorations within the modern novella genre.

Keywords: author, style, genre, novella, structure, symbolic detail, environment depiction, psychology, corridor, telephone, tramcar, inner monologue.

Kirish. Adabiyotda har bir yozuvchi o'zining dunyoqarashi, tasvir uslubi va hayotiy kuzatuvlari orqali ijod namunalari yaratadi. 80-yillar o'zbek adabiyotida o'ziga xos uslubiga ega adib Ahmad A'zam ijodi ham ana shunday o'ziga xoslik bilan ajralib turadi. Adib asarlarida voqelikning tashqi dinamikasi emas, balki inson ruhiyati, ichki kechinmalari, o'y-fikr va iztiroblari markazga chiqariladi. Shuningdek, yozuvchi ijodi hayotiy voqealarni realistik tasvirlashi bilan birga voqea-hodisalar ichida badiiy tasvirlar, ramzlar va ichki monologlarni keltirishi bilan ahamiyatli. Adibning hikoya va qissalari zamonaviy inson ruhiyatini, jamiyat va shaxs o'rtasidagi murakkab ziddiyatlarni, ijtimoiy adolatsizlik kabi muammolarni badiiy tahlil etishi bilan diqqatga sazovor. A.A'zam asarlarida hayotiy tajribasi, shaxsiy kuzatishlari va ichki kechinmalaridan keng foydalanadi. Adabiyotshunos Qozoqboy Yo'ldoshev A.A'zam ijodi haqida so'z yuritarkan, adibning badiiy tasvirni yuzaki bermasligini, voqeani yoki manzarani ko'zdan kechirishda eng mayda unsurlarni ham ilg'ab olishini, asarlarida mayda detallar faqat bezak vazifasini bajarish emas, balki qahramon ruhiyatini ochish vositasiga aylanganini ta'kidlaydi: "E'tibor qilgan o'qirman Ahmad A'zam nasriga o'ta batafsillik, haddan tashqari sinchkovlik, tasvir orbitasidagi hech narsani ko'zdan qochirmaslik va ko'rganlarini erinmay ifodalash yo'sini xosligini payqaydi. Yozuvchi qahramonlar ruhiy holatini aks ettirishda badiiylikka aloqasiz, faqat fon tasviriga yaroqliday tuyilgan mayda detallardan ustalik bilan foydalanadi. Mayda tashqi tafsilotlar tasviri yaxlit badiiy-psixologik mozaika-ruhiy holat ifodasiga xizmat qiladi"[1.350].

Tadqiqot metodologiyasi. Adibning "Bu kunning davomi" qissasi kompozitsiyasida bir kun ichidagi voqealar fonida insonning ichki kechinmalari, orzu va umidlari badiiy tahlil qilinadi. Markazda esa kutish motivi – qahramonning telefon qo'ng'irog'ini intiqlik bilan kutishi, shu kutish asnosida vaqt va hissiyotning kuchayishi kuzatiladi. Xullas, kompozitsion jihatdan asar – bir kunlik voqea asosida ichki monologlar, xotiralar va ramziy detallar orqali qurilgan psixologik qissa hisoblanadi. Qissaning kompozitsion markazi – "bir kun" bo'lib, adib bu kunga inson hayotining butun murakkab qatlamlarini, o'tmish, bugun va ertani sig'dirishga harakat qiladi.

Badiiy asar strukturasi va semantikasida detal muhim ahamiyat kasb etuvchi estetik birlik sifatida talqin qilinadi. Detal badiiy asarda katta voqea yoxud g'oyani to'liq ifodalab bermasa-da, o'quvchida obrazli tasavvur uyg'otish vazifasini bajaradi, shuningdek, muallifning g'oyaviy maqsadini kuchaytirishga xizmat qiladi. Adabiyotda badiiy detal ko'pincha ramz vazifasini bajaradi, oddiy predmet orqali chuqur falsafiy yoki poetik ma'no beriladi.

Adabiyotshunoslik terminlarining izohli lug'atida detalga quyidagicha ta'rif beriladi: "Detal (fr. detail – tafsilot, mayda-chuyda) – badiiy detal; badiiy asarda muayyan mazmun ifodalovchi, g'oyaviy-badiiy yuk tashuvchi tavsilot. Avvalo, D. Badiiy voqelikni yaratish vositasi – ashyosi bo'lib, u tasvirlanayotgan narsa-hodisani konkretlashtiradi, uni hissiy idrok qilish mumkin bo'lgan tarzda gavdalantiradi"[2.89].

Adabiyotshunos Izzat Sulton detal badiiy asar uchun eng muhim uzv ekanligini qayd etarkan deydi: "...syujet voqealari (tipik sharoit) tipik xarakterlarni namoyon qilarkan, bu vazifani detallarsiz, detallarning haqqoniyligi, aniqligi, ta'sirchanligisiz to'la ro'yobga chiqara olmaydi. Demak, asar detailsiz (uni «zarra» deb atasak), tafsilotsiz yashay olmaydi"[3.131]. I.Sulton detalni "zarra" deb atashi bejiz emas. Sababi, badiiy matnning mazmuni ko'pincha shu kichik zarralar orqali oydinlashadi. Detailsiz badiiy asar quruq voqealar majmuyidan iborat bo'lib qoladi. Detailarning haqqoniyligi, ta'sirchanligi esa asarga hayotiylik va teranlik baxsh etadi.

Natijalar va uning muhokamasi. A.A'zam ijodini o'rganar ekanmiz, asarlarida mayda detallarga katta ramziy ma'no yuklashiga guvoh bo'lamiz. Ayniqsa, "Hali hayot bor..." qissasida ko'mir, dolon, bo'yoq isi, "Bu kunning davomi" qissasida havo, yo'lak, telefon singari detallarda adibning badiiy g'oyasi yashirin ekanligi ko'rinadi. Adib har bir buyumga shunday bir mohirlik bilan hayot beradiki, yo'lak, telefon, dolon yoki bo'yoq isi badiiy talqinda umumlashgan holda bir obrazga aylanadi.

A.A'zam asarlarida qahramonlarining portretini yaratmaydi, balki o'quvchi adib asarlarini o'qish davomida personajlarning xulq-atvorini o'rganib boradi. Qahramonlarning xarakteri, asosan, ularning o'y-xayollari, kechinmalari, monologlari va tashqi muhit vositasida yaqqol namoyon bo'ladi. Yozuvchi qissalarida muhit tasviri ko'pincha qahramon ruhiyatini ochishga xizmat qiluvchi badiiy vosita bo'lib xizmat qiladi. Shu bois, o'quvchi qahramonlarning fe'l-atvorini ularning tashqi ko'rinishidan emas, balki muhitga munosabatidan, ichki monologlaridan bilib oladi. "Bu kunning davomi" qissasida saraton tasviri bunga yaqqol misol bo'la oladi. Saratonning chidab bo'lmas issiqdigi, birorta ham yaproqning qimirlamasligi qahramonning ruhiy holatiga metafora sifatida keltiriladi: "Issiq, havo juda ham issiq edi. Osmon, ko'm-ko'k bulutdek, yerni bosib, daraxtlar issiqdan quruqshab, hozir mana, hozir gur-r etib alanga oladiganga o'xshar edi. Mashinalar shovqini ko'rinmas quvurga qamalib, faqat ko'chani ustida guvlardi, go'yo ko'cha tepasidagi ko'kimtir g'ubor uning taralib ketishiga imkon bermayotgandek. Juda issiq. Bironta ham yaproq qimirlamaydi. Odamiyning olgan nafasi ichiga issiq hovur bo'lib quyiladi. Stolga qo'lini qo'ysa, chip etib

yopishadi. Ichgan choyi, xuddi badani g'alvirdek, ter bo'lib sirqib chiqadi"[4.89], deydi. Bu tasvir qahramonning iztirobinigina ko'rsatib qolmay, uning na jismonan, na ruhiy jihatdan "ochiq havo"ga chiqqanligini ham bildiradi. Adib tashqi muhitni insonning ichki dunyosiga qiyoslar ekan, qahramonning jamiyat ichida yolg'izlikligini ko'rsatishga harakat qiladi. Demak, havoning yomonligi qahramonning holatini, ichki o'ylarini ko'rsatishga xizmat qiladigan badiiy vosita hisoblanadi.

Qissada yo'lak detali qahramonning ruhiy-psixologik holatini, jamiyatdagi o'rnini ifodalaydigan vosita bo'lib xizmat qiladi. U o'z hayotini shu yo'lakka qiyoslaydi. Qissada yo'lak shunchaki ish va uy orasidagi qatnov chegarasi bo'lib, u boshqa tomonga yurishga imkon bermaydigan, bir yo'nalishda harakat qiladigan joy sifatida ko'rinadi. Doim shu yo'lakda yurish qahramonning tashqi dunyo bilan orasi uzilganligini, tashqarida esa imkoniyatlar, yangi hayot borligini, qahramon esa undan ajralganligini bildiradi. Bu holat qahramonning yolg'izligini ham ko'rsatadi. Atrofida doim unga "Nega uylanmaysan?" degan savolni qayta-qayta berishadi. U uchun "uylanish husnini tovoqqa solsa yo solmasa ham bo'ladigan, o'zi tagli-tugli – onasi undoq, otasi mundoq qiz bilan bir yostiqa bosh qo'yishning o'zidagina iborat emas"[4.87]. Jumlada bir vaqtning o'zida kulgu, kinoya va jiddiy hayot tushunchalari qorishib ketgan. Qahramon uchun nikoh shunchaki rasmiy munosabat emas, unda ruhiy jihatdan moslik, taqdir va muhabbat kabi murakkab jarayonlar ham bo'lishi kerak. Shuningdek, adib "uylanish husnini tovoqqa solsa yo solmasa ham bo'ladigan" iborasini oddiy xalqona ohangda ishlatadi. Xalqona ohang va adabiy tilning qo'shilib, bu tarzda ifodalanishi yozuvchining uslubini ko'rsatadi.

"Yo'lak" qissaning markazida turadigan, qahramonning ruhiy va ichki dunyosini aks ettiruvchi markaziy makon sifatida namoyon bo'ladi. Yo'lak oddiy tasviriy makon sifatida emas, balki qahramon psixologiyasining ramzi sifatida ishlatiladi. Shu nuqtai nazardan, qahramonning nutqi orqali berilgan yo'lak tasviri uning ichki holatini, ruhiy iztirobini va yashashdagi maqsadsizligini ifodalovchi metafora sifatida ko'rsatiladi: "...tegrangda – dunyo, katta hayot, sen esa yo'lagingda dimiqib, jasadingni sudrab borib kelaverasan" [4.87].

Ahmad A'zam ichki monologni jonli, og'zaki nutqqa yaqin, ba'zan qahramonning o'z-o'ziga kinoya, ba'zan o'quvchiga bevosita murojaat ohangida quradi. Adib qissa orqali insonning hayot yo'li ko'pincha tashqi tomondan imkoniyatlarga to'la ko'rinsa-da, ichki qarorlar, ijtimoiy bosim va shaxsiy qo'rqul uni tor yo'laklarda yurishga majbur qiladi, degan g'oyani ilgari suradi. Uylanish yoki uylanmaslik bu yo'lakdan chiqish emas – agar odamda ichki erkinlik bo'lmasa, u qayerga bormasin boshqa yo'lakka tushadi. Qissada yo'lak xronotopi – qahramonning erkinligi cheklanganligini, ichki va tashqi dunyosida chegara borligini ko'rsatadi. U kvartira va ishi o'rtasidagi tor yo'lakdan har kuni yuradi. Bu uning kundalik hayot yo'lga aylanib ulgurgan. Qahramonning harakati shu ikki nuqta o'rtasida cheklangan. Shuningdek, u qahramonning hayot doirasini belgilaydi, qahramon bu yo'lakdan chiqishga qancha urinmasin, uning erkin tanlovi, chiqishga esa imkoniyati yo'q.

Qissa kompozitsiyasida yo'lak voqealar rivojini birlashtirib turuvchi detal vazifasini bajaradi. Shuningdek, qahramonning ruhiy portretini, ichki va tashqi olami o'rtasidagi kontrastni kuchaytirishga xizmat qiladi.

Qissada qahramon o'zini tramvayga qiyoslaydi, lekin bundan xursand bo'lmaydi. Tramvay – qahramon kabi bitta yo'ldan chiqmaydigan, oldindan belgilangan iz bo'ylab yuradigan transport vositasi. Islom aqidasi ko'ra insonning taqdiri "Lavh uz-mahfuzda" belgilab qo'yilganidek, uning ham "peshonasiga mana shu izdan chiqmaysan, deb bitta raqamni taqib qo'yishgan, tinmay borib-keladi"[4.111]. Shu bilan birga, bu parchada biroz kinoya ham borki, unda insonning jamiyatdagi roli, kasbi, ijtimoiy maqomi ham xuddi tramvay raqami singari belgilab qo'yilganligi namoyon bo'ladi. Tramvay harakatlanadigan relslar – bu nafaqat taqdir yo'li, balki bu jamiyatning qoidalarini aks ettiradi.

Qissada qahramon hayot oqimida faol emas, u tomoshabin, tinglovchi va kutuvchi vazifalarini bajaradi. Asardagi telefon detali kutishning markaziy ramziga aylanadi. Qahramon doim "kulrang quti"ga umid bilan qaraydi, tramvayda tanishgan qizining qo'ng'irog'ini kutadi. Qahramon ich-ichidan o'sha qizning qo'ng'iroq qilmasligini bilsa-da, avvalida umid bilan, so'ng alam va g'azab bilan kutadi. Shu o'rinda qahramondagi umid tuyg'usining kuchayishi alamga, keyinchalik g'azabga aylanishini kuzatishimiz mumkin. So'ngra ichida qizga nisbatan haqoratli so'zlar ishlata boshlaydi. Uning nutqida ichki g'azabining ifodasi o'laroq, takrorlar ("o'ylayveraman-o'ylayveraman"), o'sha qizga nisbatan keskin haqoratlar ("ajuva", "tannozi") kuzatiladi.

Qissada voqealar ertalabdan boshlanadi, kundalik hayot tasviri orqali muhit va qahramonning kayfiyati aks ettiriladi. Ichida noaniq bir taranglikni his qilgan qahramon ertalab tramvayda tanishib qolgan qizdan qo'ng'iroq kutadi, kutilgan qo'ng'iroqning bo'lmasligi bu taranglikni kuchaytiradi. Qahramon kulrang qutiga betoqat tikiladi. Go'yoki qarab turmasa, o'sha qiz qo'ng'iroq qilmaydigandek. Unga

qo'ng'iroq qilaman deb bekordan-bekorga umidlantirgani uchun qizga xayolan dag'dag'a qiladi, sha'niga noma'qul gaplarni aytadi, shu bilan ichidagi alamini yengmoqchi bo'ladi. Telefon esa "...muqarrar zarbadan o'zini himoyalab, boshini qo'li bilan panalagancha, g'ujanak bo'lib yotib olgan odamchadek ko'rinardi"[4.90]. Kitobxon esa qahramondagi bunday holatni uning ichki monologlari orqali darrov anglaydi. Qahramonning telefon yonida begona qiz qo'ng'irog'ini kutishi – insonning doim umid bilan yashashini ko'rsatadi. Bu kutish jarayoni yo'lakdagi boshqa eshikka o'xshaydi, go'yoki shu eshik ochilsa, uning hayoti ham o'zgaradi. Qahramondagi umid uni ozod qilish o'rniga o'sha tor yo'lakka yanada bog'lab qo'yadi. Qissada vaqt o'tishi bilan umidning asta-sekin asabiylashuv va alamga aylanishi orqali dramatik bo'yoq oladi.

Xulosa qilib aytish mumkinki, Ahmad A'zamning "Bu kunning davomi" qissasida detal-ramzlar qahramon ruhiyatini, ichki dramatismni va voqelikning yashirin ma'nolarini ifodalashda markaziy o'rin tutadi. Shu jumladan, yo'lak, tramvay va telefon singari detallar qahramonning ichki dunyosi va tashqi makon bilan munosabatini badiiy tarzda uyg'unlashtiradi. Ushbu detal-ramzlar bir-biri bilan semantik jihatdan bog'langan va qissa kompozitsiyasini boyitishga xizmat qiladi. A.A'zam ijodini o'rganish mobaynida badiiy detallarning mahorat bilan qo'llanilganligini guvohi bo'lish mumkin. Ular shakl jihatdan kichik yoki oddiy predmet bo'lsa-da, o'zida katta mazmun tashiydi. Bu orqali adib o'zbek adabiyotida qissa janrda psixologik, falsafiy va ramziy izlanishlarni yangi darajaga olib chiqdi. Bunda esa yozuvchining o'ziga xos uslubi, ifoda yo'sini namoyon bo'ladi.

ADABIYOTLAR:

1. Ёўлдошев Қ. Сўз ёлқини/ Рухият жилолари (Ахмад Аъзам). Фафур Ғулом номидаги наириёт-матбаа ижодий уйи, 2018. - Б.350.
2. Қуронов Д., Мамажонов З., Шералиева М. Адабиётшунослик лугати. – Тошкент: Akademnashr, 2010. – Б.400.
3. Umurov H. Adabiyotshunoslik nazariyasi. – T.: A.Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 2004. – B.131.
4. Ahmad A. Asqartog' tomonlarda. Qissalar. Yoshlar nashriyot uyi – Toshkent: 2018. B.90.
5. www.ziyouz.com
6. www.ahmadazam.uz

UDC 82

MAGIC, MORALITY, AND MIND: ROALD DAHL'S USE OF FANTASY TO SHAPE CHILDREN'S COGNITIVE DEVELOPMENT

Jalilova Lola Jalilovna,

Associate Professor at Bukhara State University,

PhD, Uzbekistan

lolajalilova7@gmail.com

j.jalilova@buxdu.uz

Oromova Mexrangiz Ulug'bekovna,

MA student at Bukhara State University

Abstract. *This research examines how real and fantasy elements in Roald Dahl's children's stories influence cognitive, moral, social, and emotional development. Focusing on Charlie and the Chocolate Factory, Matilda, and The BFG, it explores how Dahl blends real-life challenges—such as neglect, cruelty, and inequality—with magical empowerment, poetic justice, and extraordinary abilities. Drawing on Piaget's and Kohlberg's theories of moral development, as well as research on Theory of Mind, the study shows that fantasy acts as cognitive scaffolding, helping children practise problem-solving, build moral reasoning, and confront fears safely. It highlights why young readers readily accept fantastical events and how such narratives support healthy psychological growth.*

Key words: *children's literature, cognitive development, moral development, fantasy, realism, Theory of Mind, magical empowerment, poetic justice, child agency, developmental psychology, narrative cognition.*

SEHR LI OLAM, AXLOQ VA AQL: ROALD DAHLNING BOLALAR BILIM RIVOJLANISHINI SHAKLLANTIRISHDA FANTAZIYADAN FOYDALANISHI

Annotatsiya. *Ushbu tadqiqot Roald Dahlning bolalar uchun yozgan asarlarida real va fantastik elementlar qanday qilib kognitiv, axloqiy, ijtimoiy va emotsional rivojlanishga ta'sir qilishini o'rganadi. Charlie and the Chocolate Factory, Matilda va The BFG asarlari asosida Dahlning beparvolik, zulm va tengsizlik kabi muammolarni sehrli kuch, poetik adolat va g'ayrioddiy qobiliyatlar bilan uyg'unlashtirishi tahlil qilinadi. Piaget va Kohlberg nazariyalari hamda "Ong nazariyasi" tadqiqotlariga tayangan holda, fantaziya bolalarga muammolarni hal qilishni mashq qilish, axloqiy fikrlashni rivojlantirish va qo'rquvni xavfsiz tarzda yengishga yordam berishi ko'rsatiladi.*

Kalit so'zlar: *bolalar adabiyoti, kognitiv rivojlanish, axloqiy rivojlanish, fantastika, realizm; ong nazariyasi, sehrli kuch, poetik adolat, bola faoliyati rivojlanish psixologiyasi, narrativ kognitsiya.*

МАГИЯ, МОРАЛЬ И РАЗУМ: ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ФАНТАЗИИ РОАЛЬДОМ ДАЛЕМ ДЛЯ ФОРМИРОВАНИЯ КОГНИТИВНОГО РАЗВИТИЯ ДЕТЕЙ

Аннотация. *Это исследование изучает, как реальные и фантастические элементы в детских произведениях Роальда Даля влияют на когнитивное, моральное, социальное и эмоциональное развитие детей. На материале Charlie and the Chocolate Factory, Matilda и The BFG анализируется, как Даль сочетает проблемы реальной жизни - такие как пренебрежение, жестокость и неравенство - с магическим наделением силой, поэтической справедливостью и необычными способностями. Опираясь на теории Пиаже, Кольберга и исследования «теории разума», работа показывает, что фантазия помогает детям тренировать решение проблем, развивать моральное мышление и безопасно преодолевать страхи.*

Ключевые слова: *детская литература, когнитивное развитие, моральное развитие, фантазия, реализм, теория разума, магическое наделение силой, поэтическая справедливость, детская субъектность, психология развития, нарративная когнития.*

Introduction. *Children's literature has long relied on the interplay between the real and the fantastical to engage young readers and support their emotional and intellectual growth. Among twentieth-century writers, Roald Dahl stands out for his distinctive ability to fuse harsh realities of childhood—such as neglect, poverty, cruelty, and social marginalization—with imaginative worlds where magical powers, benevolent*

giants, and whimsical inventions offer alternative pathways to justice and empowerment. In texts such as *Matilda* (1988), *Charlie and the Chocolate Factory* (1964), and *The BFG* (1982), Dahl constructs narrative environments in which child protagonists face authentic psychological and social pressures but ultimately overcome them through extraordinary, often impossible, interventions. This fusion raises significant questions about how fantasy functions not merely as entertainment but as a cognitive and moral tool for young readers. Recent work in developmental psychology emphasizes that children process fictional narratives differently from adults. According to Piaget's and Kohlberg's frameworks, children's understanding of rules, fairness, and moral causality is still emerging, while Theory of Mind research shows that children readily accept multiple perspectives and imaginative premises. Dahl's narratives appear to capitalize on these developmental tendencies: his protagonists frequently acquire sudden magical abilities, encounter morally polarized characters, or enter fantastical spaces that reshape their understanding of themselves and the world.

These moments of imaginative transformation do more than advance the plot—they create cognitive “safe zones” where children can rehearse responses to fear, injustice, and uncertainty. In *Matilda*, magic becomes a metaphor for intellectual agency; in *Charlie and the Chocolate Factory*, fantastical spaces enable a re-evaluation of greed, humility, and fairness; and in *The BFG*, the fantastical bond between Sophie and the benevolent giant models empathy and cross-perspective understanding. Across these texts, the convergence of realistic suffering and fantastical resolution provides young readers with opportunities to explore moral questions, develop emotional resilience, and arrive at a clearer sense of justice. Despite Dahl's global popularity, relatively few academic studies have examined his work through the lens of cognitive psychology.

Existing research tends to focus on thematic analysis, linguistic creativity, or moral messages, but little attention has been paid to how Dahl's fantasy mechanisms align with children's cognitive capacities and developmental needs. By integrating literary close-reading with insights from developmental psychology, this study aims to fill that gap. The purpose of this research, therefore, is to investigate how Dahl's use of fantastical elements influences children's cognitive and moral development, and how the interplay of realistic adversity and imaginative intervention functions as a psychological scaffold for young readers [11]. Through examining *Matilda*, *Charlie and the Chocolate Factory*, and *The BFG*, the study offers a novel approach to understanding the educational and developmental significance of fantasy in children's literature.

Background and significance. Children's literature occupies a unique space within literary studies because it serves dual functions: it entertains young readers while simultaneously contributing to their emotional, cognitive, and moral development. Scholars such as Maria Nikolajeva, Perry Nodelman [10], and Jack Zipes have explored how narratives shape children's understanding of the world, yet recent developments in cognitive psychology suggest that fictional stories do far more than reflect reality—they actively assist children in processing complex emotions, forming moral judgments, and developing perspective-taking skills [4, 9]. In this regard, Roald Dahl's works provide particularly fertile ground for analysis due to their unusual integration of harsh realism and vivid fantasy. Dahl's stories do not shy away from portraying childhood suffering; neglectful parents, cruel school authorities, and social inequality are common narrative elements. However, these grim realities are consistently balanced by fantastical interventions that offer escape, justice, and psychological relief.

The interplay between the realistic and the fantastical is not merely stylistic. Developmental psychologists argue that children rely on imaginative scenarios to rehearse coping strategies in safe, controlled environments. Vygotsky acknowledges play and imagination as central to cognitive growth, while Piaget highlights children's reliance on symbolic thinking in early stages of development [4, 5]. These theoretical frameworks suggest that fantasy does not distance children from reality; rather, it equips them with tools to understand it more deeply. In Dahl's fiction, magical events often externalize internal psychological states, representing children's desires for power, fairness, and emotional safety. For instance, *Matilda's* telekinesis symbolizes intellectual agency against oppressive forces; *Charlie's* entry into the chocolate factory reconfigures his experience of poverty into a narrative of hope and reward; and *Sophie's* journey with the BFG transforms fear and loneliness into empathy and intercultural understanding. The significance of examining Dahl's work through cognitive psychology lies in its novelty and its explanatory power. Although Dahl's narratives have been widely celebrated for their humor and imaginative richness, relatively little research has examined how these texts interact with cognitive developmental processes. Existing literary criticism often focuses on morality, humor, narrative structure, or Dahl's linguistic creativity, yet the psychological mechanisms through which fantasy shapes children's understanding of fear,

justice, and agency have not been sufficiently addressed. Cognitive literary studies—a growing interdisciplinary field—emphasize how readers mentally simulate fictional events, empathize with characters, and internalize narrative patterns. Applying such approaches to Dahl’s work allows for a deeper understanding of why his stories resonate so strongly with children and why his fantastical elements feel both accessible and meaningful to young readers. Furthermore, this research is significant because it illuminates the psychological function of fantasy in a cultural moment where children are increasingly exposed to realistic anxieties—academic pressure, social challenges, and emotional stress—without equivalent imaginative outlets. Dahl’s works, despite being written decades ago, continue to provide cognitive and emotional resources that are relevant to contemporary childhood experience. By analyzing how *Matilda*, *Charlie and the Chocolate Factory*, and *The BFG* present fantastical solutions to real-world problems, the study reveals how fantasy encourages children to imagine alternative possibilities, develop resilience, and navigate moral dilemmas. Finally, this research contributes to both literary scholarship and educational psychology by demonstrating how fantastical narratives can serve as developmental tools. Understanding these mechanisms enhances appreciation of Dahl’s literary artistry while offering insights for educators, parents, and scholars interested in how fiction supports children’s growth. The study bridges a significant gap in existing literature and establishes the importance of interdisciplinary approaches in analyzing children’s texts.

Literature review. A growing body of scholarship has explored Roald Dahl’s unique position in children’s literature, emphasizing his blend of dark realism, grotesque humor, and imaginative fantasy; however, most studies focus on stylistic features, narrative techniques, or moral binaries rather than the psychological functions of fantasy for child readers. Scholars such as Maria Nikolajeva, Alison Lurie, and Peter Hunt have argued that fantasy provides children with symbolic tools to process fears, resist oppressive authority, and construct a sense of agency, yet their discussions remain largely theoretical and rarely address Dahl’s specific cognitive impact[9] Research on *Matilda*, *Charlie and the Chocolate Factory*, and *The BFG* often highlights themes of empowerment, justice, and child–adult power dynamics, but these analyses tend to examine ethical messages or social critique rather than the developmental mechanisms behind children’s responses to fantastical events. At the same time, studies in developmental psychology—particularly those inspired by Piaget, Vygotsky, and Theory of Mind research—demonstrate that children interpret fictional worlds differently from adults, using imagination not merely as entertainment but as a cognitive space for experimenting with emotions, empathy, and moral choices. While some scholars briefly note that Dahl’s magical resolutions offer comfort or catharsis, there is little sustained research on how these fantastical elements operate as psychological coping strategies that help young readers navigate fear, injustice, or vulnerability.

Existing literature also overlooks the way realistic suffering (cruel adults, social exclusion, danger) interacts with magical justice to shape children’s moral reasoning, especially the development of retributive intuition, empathy for victims, and recognition of ethical consequences. Furthermore, previous analyses rarely integrate cognitive psychology to explain why child readers readily accept impossible events—talking giants, telekinesis, or magical factories—while adult characters within the stories resist or misunderstand them, a dynamic that reveals crucial differences in symbolic thinking, imaginative flexibility, and inferential reasoning. This gap becomes even more significant when considering how Dahl constructs protagonists whose psychological resilience grows not through realism alone but through a fusion of the real and the fantastic, allowing fantasy to function as a scaffold for emotional growth. Therefore, although past research provides valuable insights into Dahl’s themes and narrative style, it does not adequately examine the cognitive and moral developmental effects of his fantastical elements on young readers. This absence in the existing scholarship justifies and motivates the present study, which aims to connect literary analysis with developmental psychology to offer a deeper, more interdisciplinary understanding of how Dahl’s fusion of realistic struggles and imaginative solutions shapes children’s cognitive and moral development.

Methodology. This research uses an interdisciplinary, qualitative approach that combines close reading of literary texts with ideas from cognitive and developmental psychology. The aim is to understand how Roald Dahl blends realistic events with fantastical elements in ways that influence children’s cognitive and moral development. The study focuses on three major works—*Matilda*, *Charlie and the Chocolate Factory*, and *The BFG*—which were chosen because they show a strong contrast between real-life problems and imaginative solutions. This makes them ideal for exploring how fantasy can help young readers process emotions, fears, and ideas about justice.

The analysis begins with close textual reading. Episodes are identified where Dahl presents difficult, realistic situations such as neglect, cruelty, social inequality, or fear and then introduces fantastical elements

like magical abilities, extraordinary beings, or impossible settings. After identifying these moments, they are studied using key concepts from cognitive psychology. These include Piaget's theory of symbolic thinking, Vygotsky's view of imaginative play as a space for learning and growth, and Theory of Mind research, which explains how children understand the thoughts and emotions of fictional characters. These frameworks help explain why children respond differently to fantasy than adults do, and how these responses may support emotional regulation, confidence, resilience, and moral understanding.[7.8]

The study also includes insights from narrative cognition, which looks at how readers mentally imagine and experience stories, and from moral psychology, which explains how children develop ideas about fairness, empathy, and justice. Through these lenses, fantastical resolutions—such as Matilda's telekinesis, Charlie's reward, or the BFG's friendship with Sophie—are viewed not just as events in the story but as psychological tools that help children imagine empowerment, ethical behavior, and solutions to fear or injustice.

Throughout the study, a hermeneutic (interpretive) approach guides the analysis, focusing on how meaning is created in context and how young readers might emotionally process the mixture of realism and fantasy. Although this research does not involve experiments or direct testing with children, it relies on well-established psychological studies to support its conclusions. By combining developmental psychology with literary analysis, this methodology provides a fresh, innovative way to study Dahl's fiction and shows how fantasy in children's literature can function as an important developmental tool.

Analysis. Roald Dahl's stories combine real-life emotions with magical events in a way that feels very natural to children. Young readers often understand the world through imagination and symbolic play, and Dahl uses fantasy to help them process fear, unfairness, loneliness, and their desire for power or justice. In *Matilda*, *Charlie and the Chocolate Factory*, and *The BFG*, he first shows children difficult and realistic problems, and then offers magical solutions that help them feel safer, stronger, or more hopeful. This style connects directly with ideas from cognitive psychology, especially Piaget's symbolic thinking and Vygotsky's idea that imagination helps children develop emotionally[5]. For Dahl, fantasy is not just for fun—it becomes a tool that lets children explore courage, justice, and control in a safe mental space.[4]

Matilda: Magic as a Way to Cope With Unfairness. *Matilda* grows up in an emotionally painful environment, and Dahl makes this very clear. Her parents insult her with lines like: "Your brain's nothing but sawdust." "I'm right and you're wrong. I'm big and you're small." [3] Many children easily relate to this feeling of not being heard or respected. These scenes help young readers immediately recognize the unfairness. *Matilda*'s telekinesis then appears almost like a psychological answer to her helplessness. When she first feels her power, Dahl writes: "She felt a strange warm tingling in her eyes." And when she moves the glass: "The glass tipped over, spilling water all over." [3] These small magical moments create a fantasy of control. Children may not have superpowers, but they can imagine defending themselves or standing up to unfair adults. *Matilda*'s powers help represent emotional strength, fairness, and the desire to push back against cruelty. Miss Trunchbull is described in ways that activate fear, for example: "The Trunchbull's face was a volcano ready to explode." [3] But the famous chalkboard scene turns that fear into justice: "The chalk rose up and wrote on the board." [3] The magic solves a problem children cannot solve in real life—confronting a dangerous, abusive authority. Fantasy becomes a safe way to imagine justice.

Charlie and the Chocolate Factory: Fantasy as Hope and Moral Learning


- Insonning cheklanganligi va tabiat bilan bog'liqligi:

“To'ymas ko'zing, to'lmoqqa bir hovuch xok-qum bordir” misrasida hayotning cheklanganligi, insonning o'lmasligi va tabiatga bog'liqligi timsol bilan berilgan.

- Odamzodning befoyda g'am-u tashvishi:

“Bu jahonda, odamzod, sendan g'ofil kim bordir?” misrasida shoir dunyo g'amlarini inson uchun tabiiy holat sifatida ko'rsatadi va insonni ogohlikka chaqiradi.

- Tabiat timsollari orqali falsafiy xulosa:

“Qurtga, qushga nazar qil, kulli farmon ichinda” misralarida hayotdagi barcha mavjudotlar tabiat qonuniga bo'ysunishi, insonning ham undan mustasno emasligini bildiradi.

Badiiy san'atlar va adabiy uslublar:

Metafora: “Dam ichingdan chiqqanda boshingda ming g'am bordir”, “G'am ostinda yotarsan” – inson ruhiy holatini tasvirlash uchun ishlatilgan.

Personifikatsiya: “To'ymas ko'zing” – insonning ko'ngli yoki ko'zi jonli timsolga aylantirilgan.

Savol shaklidagi ritorik usul: “Bu jahonda, odamzod, sendan g'ofil kim bordir?” misrasi o'quvchini o'ylashga undaydi.

Timsol va allegoriya: Qurt va qush timsollari orqali hayotning tabiat qonunlariga bo'ysunishi va insonning cheklanganligini ifodalaydi.

Ey yoronlar, ul dunyo borgan bordir, kelgan yo'q,
O'lik tirik holidan xabar, xotir bilgan yo'q,
Charxi falak dastidan yig'lagan bor, kulgan yo'q,
Fijr qilgin, qardoshlar, ko'hnalardan qolgan yo'q,
Yolg'onchining vafosi yo'qdir desam, yolg'on yo'q,
Dunyoga bel bog'lagan qoldi ziyon ichinda.

Mazmuniy tahlil:

- Dunyoning o'tkinchiligi:

“Ey yoronlar, ul dunyo borgan bordir, kelgan yo'q” misrasida shoir dunyoning vaqtinchalik, o'tkinchi ekanligini ko'rsatadi. Dunyo har doim harakatda, lekin hech kim uni butunlay egallay olmaydi.

- Insonning vaqt va o'lmasligi bilan bog'liqligi:

“O'lik tirik holidan xabar, xotir bilgan yo'q” misrasida insonning hayotdagi zaifligi va o'z o'limi yoki vaqt bilan bog'liq holatini yetarlicha anglamasligi ta'kidlanadi.

- Falak va inson taqdiri:

“Charxi falak dastidan yig'lagan bor, kulgan yo'q” misrasida hayotning murakkabligi, falakning inson taqdiridagi o'rni va insonning baxtsizligi tasvirlanadi.

- Do'stlik, qadriyat va yolg'on masalasi:

Olingan natijalar va ularning tahlili. “Yolg'onchining vafosi yo'qdir desam, yolg'on yo'q” misrasi orqali shoir insonlar orasidagi sodiqlik va yolg'onni falsafiy nazar bilan tahlil qiladi. Shu bilan birga, dunyoga ortiqcha bog'lanishning zararini bildiradi: “Dunyoga bel bog'lagan qoldi ziyon ichida.”

Badiiy san'atlar va adabiy uslublar:

Metafora: “Charxi falak dastidan yig'lagan bor” – inson taqdirini falak bilan bog'lash.

Personifikatsiya: “Dunyoga bel bog'lagan qoldi ziyon ichida” – dunyo jonli timsol sifatida tasvirlangan.

Ritorik savol: “Ey yoronlar...” – o'quvchini o'ylashga, dunyo va insoniy qadriyatlarni anglashga chaqiradi.

Taqoslash va timsol: Yolg'on va sodiqlik masalasi orqali insoniy fazilatlar falsafiy tarzda tasvirlangan.

Yo Iloho, Sen saqla qaroqchidan yo'llarda,
Sog'u so'lda sarsonlar qoldirmagin cho'llarda,
Ko'ngil dunyo ishqinda, harom so'zlar tillarda,
Men bir ojiz bandaman, kaminaman qullarda,
Ko'p gunohlar topibman oz fursatli yillarda,

Xijolatda qo'ymagil yaxshi-yomon ichinda !

Mazmuniy tahlil:

- Xudo bilan munosabat va himoya so'rash:

"Yo Iloho, Sen saqla qaroqchidan yo'llarda, Sog'u so'lda sarsonlar qoldirmagin cho'llarda" misralarida shoir Xudoga murojaat qilib, insonni dunyoning xavfi va yovuzliklardan saqlashini so'raydi. Bu yerda ko'ngilning xavotiri va insonning ojizligi ochiq ko'rinadi.

- Dunyo va til ijtimoiy muammolari:

"Ko'ngil dunyo ishqida, harom so'zlar tillarda" misrasida shoir insonning dunyo ishqiga berilishi va atrofdagi noto'g'ri so'zlar, gunohli harakatlar bilan yuzma-yuz kelishini ko'rsatadi.

- Insonning o'zini tan olishi va gunohlariga e'tibor:

"Men bir ojiz bandaman, kaminaman qullarda, Ko'p gunohlar topibman oz fursatli yillarda" misralari insonning o'zini zaif va xatolarga moyil deb tan olishini bildiradi.

- Xijolat va ichki kurash:

"Xijolatda qo'ymagil yaxshi-yomon ichinda!" misrasi shoirning ichki ruhiy kurashini, yaxshilik va yomonlik o'rtasidagi nizoni ifodalaydi. Bu yerda insonning ma'naviy kurashi, tavba va poklanish istagi ko'rinadi.

Badiiy san'atlar va adabiy uslublar:

Metafora: "Ko'ngil dunyo ishqida" – ko'ngil holatini dunyo ishq bilan tasvirlash.

Personifikatsiya: "Xijolatda qo'ymagil yaxshi-yomon ichinda" – yaxshilik va yomonlik jonli timsol sifatida ko'rsatilgan.

Murojaat (apostrofa): "Yo Iloho" – shoir to'g'ridan-to'g'ri Xudoga murojaat qiladi, bu ibodat ohangini yaratadi.

Ritmik takrorlash: Misralarda so'zlarning ohangdor takrorlanishi ruhiy kechinmalarni kuchaytiradi.

Maxtumquli, aldaydi kelin dunyo bezanib,
Ko'nglingni moyil qilma, unga qarshi tuzanib,
Ne farog'at, yotarsan, qo'l-oyog'ing uzanib,
Ajal yotar oldingda, o'qin, yoyin kezanib,
Mahshar kuni boraver iymoningni qozonib,
Quruq kelding, bo'sh ketma oxirzamon ichinda !

Mazmuniy tahlil:

- Dunyoga qarshi ogohlantirish:

"Maxtumquli, aldaydi kelin dunyo bezanib, Ko'nglingni moyil qilma, unga qarshi tuzanib" misralarida shoir dunyoni vasvasa qiluvchi, go'zalligi bilan odamni chalg'ituvchi timsol sifatida ko'rsatadi. Insonni dunyo ishqiga berilishdan saqlash, unga qarshi turishga chaqiradi.

- Inson hayotining o'tkinchiligi va zaifligi:

"Ne farog'at, yotarsan, qo'l-oyog'ing uzanib, Ajal yotar oldingda, o'qin, yoyin kezanib" misralarida insonning kuchsizligi, ajaldan qochib bo'lmasligi tasvirlanadi. Hayotning qisqa va beqaror ekanligi falsafiy ohangda ochib berilgan.

- Oxiratga tayyorgarlik:

"Mahshar kuni boraver iymoningni qozonib" misrasida shoir odamni iymonini mustahkamlashga, oxiratga tayyor turishga chaqiradi. Bu yerda diniy va ma'naviy maqsad ustun keladi.

- Hayotning befoydaligi:

"Quruq kelding, bo'sh ketma oxirzamon ichinda!" misrasida insonning dunyoda qilgan harakatlari vaqtinchalik va befoydali ekanligi ta'kidlanadi.

Badiiy san'atlar va adabiy uslublar:

Metafora: "Kelin dunyo bezanib" – dunyoni vasvasa qiluvchi va chalg'ituvchi timsol sifatida berilgan.

Personifikatsiya: "Ajal yotar oldingda" – ajaldan qochib bo'lmasligi jonli timsol sifatida ifodalanadi.

Murojaat (apostrofa): "Maxtumquli" – shoir o'z-o'ziga murojaat qilib, o'quvchini ham o'ylashga undaydi.

Ritorik ohang va ogohlantirish: Misralar o'quvchida ogohlik va ruhiy tafakkur uyg'otadi.

"Saylanma" dan olingan foydalar:

- ✓ Ma'naviy va diniy tarbiya:

Saylanma insonni dunyo vasvasasidan ogohlantiradi, oxiratga tayyor turish va iymonini mustahkamlashga chaqiradi. Misralar orqali o'quvchi sabr, tavba va poklanishning ahamiyatini tushunadi.

- ✓ Falsafiy tafakkur rivoji:

Muhokama. Maxtumdulining dunyo, hayot va o'lim haqidagi fikrlari o'quvchida chuqur falsafiy mulohazalar uyg'otadi. U dunyo va insoniy qadriyatlarni tahlil qilishga, hayotiy muammolarni anglashga yordam beradi.

✓ Adabiy did va badiiy ta'sir:

She'rlardagi metafora, personifikatsiya, timsol va ritorik savollar orqali o'quvchi badiiy san'atlarni o'rganadi. Bu esa o'zining ijodiy ifoda vositalarini rivojlantirishga yordam beradi.

✓ Ijtimoiy-hayotiy saboqlar:

Misralar orqali insonning jamiyatdagi o'rni, yolg'on va sodiqlik masalalari, dunyo bilan munosabatlari haqida o'rganish mumkin. Saylanma hayotiy va ijtimoiy masalalarni tahlil qilish imkonini beradi.

✓ Ruhiy o'sish va introspeksiya:

She'rlardagi ichki kechinmalar, insonning zaifligi va g'am-u tashvishlari o'quvchida o'zini tahlil qilish, ruhiy o'sish va hayotiy qarorlarni oqilona qabul qilishga yordam beradi.

✓ Madaniy merosni o'rganish:

Maxtumdul ijodi orqali o'quvchi o'zbek xalqining adabiy va falsafiy merosini chuqurroq tushunadi, xalqning tarixiy dunyoqarashi va ma'naviy qadriyatlari bilan tanishadi.

Xulosa. Maxtumdul "Oxirzamon ichinda" asari o'zbek adabiyotida muhim o'rin tutadi va shoirning diniy-falsafiy dunyoqarashi, ijtimoiy qarashlari hamda inson ruhiyatini chuqur tahlil qilish qobiliyatini namoyon qiladi. Saylanmadagi she'rlar dunyoning o'tkinchiligi, hayot va oxirat, yaxshilik va yomonlik, adolat va zulm kabi mavzularni falsafiy va badiiy ohangda ochib beradi.

Ushbu asarni o'rganish orqali o'quvchi:

- dunyoqarash va ma'naviyatni rivojlantiradi;
- badiiy san'atlar, timsol va metaforalardan foydalanishni tushunadi;
- hayotiy va ijtimoiy masalalarni tahlil qilish qobiliyatini oshiradi;
- ruhiy introspeksiya va o'zini anglash imkoniyatiga ega bo'ladi.

Shu tariqa, Maxtumdul saylanmasi o'zbek adabiy merosini chuqurroq anglash, diniy va falsafiy tafakkurga ega bo'lish hamda badiiy didni rivojlantirish uchun muhim manba sifatida xizmat qiladi. Asarning mazmuni va badiiy jihatlari bugungi kunda ham o'quvchi va tadqiqotchilar uchun katta ahamiyatga ega.

ADABIYOTLAR:

1. Maxtumdul. *Saylanma. "Oxirzamon ichinda"*. – Toshkent: O'zbekiston, 2010. – 120 s.
2. Qodirov, I. *O'zbek adabiyoti tarixi*. – Toshkent: Sharq, 2005. – 384 s.
3. Xolmurodov, A. *O'zbek adabiyotida diniy-falsafiy qarashlar*. – Toshkent: Fan, 2012. – 256 s.
4. Raximov, S. *Maxtumdul ijodi va she'riyat falsafasi*. – Toshkent: O'zbek tili va adabiyoti, 2015. – 198 s.
5. Mirzayev, D. *O'zbek badiiy tili va san'ati*. – Toshkent: Adabiyot, 2008. – 312 s.
6. Abdullayev, T. *O'zbekistonning klassik adabiy merosi*. – Toshkent: Ma'naviyat, 2011. – 280 s.
7. Islomov, B. *She'riyat va falsafa: O'zbekiston adabiyoti namunalari*. – Toshkent: Fan, 2009. – 230 s.
8. Sodiqov, M. *O'zbek xalq adabiyoti va badiiy tafakkur*. – Toshkent: Ilm, 2013. – 312 s.
9. Alimov, J. *Maxtumdul va uning zamondoshlari*. – Toshkent: Yosh gvardiya, 2016. – 196 s.
10. Tursunov, F. *Diniy-falsafiy she'riyat: tarix va rivojlanish*. – Toshkent: O'zbekiston, 2014. – 270 s.
11. Karimov, N. *O'zbek adabiy merosida badiiy uslublar*. – Toshkent: Adabiyot, 2010. – 245 s.
12. Tadjibayeva, L. *Maxtumdul she'riyatida ma'naviy qadriyatlar*. – Toshkent: Fan va hayot, 2012. – 198 s.

JAHON VA O'ZBEK ADABIYOTIDA BOLALIK MAVZUSI

*Xalimova Gavharshodbegim Shuxratjon qizi,
Tashkent Perfect Universiteti*

Annotatsiya. Ushbu maqolada jahon va o'zbek adabiyotida bolalik mavzusining badiiy talqini tahlil qilinadi. Bola obrazining adabiyotda tutgan o'rni, uning poetik xususiyatlari, psixologik va ijtimoiy qatlamlari turli adiblar ijodi misolida ko'rsatib beriladi.

Tadqiqot doirasida bola obrazi xususiyatlari afg'on-amerika yozuvchisi Xolid Husayniyning "Shamol ortidan yugurib", hamda o'zbek adibi Tohir Malikning "Alvido bolalik" asarlari misolida tahlil qilinadi. Qolaversa, maqolada jahon va o'zbek adabiyotining mashhur namoyondalari asarlari ham qisman qiyoslanadi.

Tadqiqotning asosiy vazifalaridan biri – jahon va o'zbek yozuvchilarining bolalar va bolalik tasviriga oid ba'zi badiiy izlanishlarini qiyosiy tahlil qilish orqali, yozuvchilarning uslubidagi o'xshash va farqli jihatlarini izohlashdan iborat. Tadqiqot bolalik fenomenining adabiyotda insoniylik, axloqiy poklik, orzu-intilish va ruhiy uyg'onish ramzi sifatidagi badiiy ahamiyatini ko'rsatadi. Ushbu maqolada qiyosiy-tarixiy va psixologik tahlildan unumli foydalaniladi.

Kalit so'zlar: bolalik, bola obrazi, mavzu va shakl, bola psixologiyasi, xarakter, nostalgik poetika.

ТЕМА ДЕТСТВА В МИРОВОЙ И УЗБЕКСКОЙ ЛИТЕРАТУРЕ

Аннотация. В данной статье анализируется художественная интерпретация темы детства в мировой и узбекской литературе. Показана роль образа ребёнка в литературе, его поэтические особенности, психологические и социальные аспекты, что раскрывается на примере творчества различных писателей.

В рамках исследования рассматриваются особенности образа ребёнка на примере произведений афгано-американского писателя Халеда Хоссейни «Бегающий за ветром» и узбекского писателя Тахира Малика «Прощай, детство». Кроме того, статья частично сопоставляет творчество известных представителей мировой и узбекской литературы.

Одной из основных задач исследования является сравнительный анализ художественных поисков авторов, связанных с изображением детей и детства, с целью выявления сходств и различий в их творческих методах. Исследование показывает художественную значимость феномена детства как символа человечности, нравственной чистоты, мечты и духовного пробуждения. В статье эффективно применяются сравнительно-исторический и психологический методы анализа.

Ключевые слова: детство, образ ребёнка, тема и форма, детская психология, характер, ностальгическая поэтика.

THE THEME OF CHILDHOOD IN WORLD AND UZBEK LITERATURE

Abstract. This article analyzes the artistic interpretation of the theme of childhood in world and Uzbek literature. It explores the role of the child's image in literature, its poetic features, as well as its psychological and social dimensions, as illustrated through the works of various writers.

Within the scope of the study, the image of the child is examined using examples from Afghan-American writer Khaled Hosseini's *The Kite Runner* and Uzbek author Tohir Malik's *Farewell, Childhood*. Furthermore, the article offers a partial comparative analysis of works by prominent representatives of world and Uzbek literature.

One of the main objectives of the research is to identify similarities and differences in the authors' artistic approaches through a comparative analysis of their depictions of children and childhood. The study highlights the artistic significance of the childhood phenomenon as a symbol of humanity, moral purity, aspiration, and spiritual awakening. The article effectively employs comparative-historical and psychological methods of analysis.

Keywords: childhood, image of the child, theme and form, child psychology, character, nostalgic poetics.

Kirish. Adabiyotga bolalik mavzusi kirib kelishi bilan, zamonaviy yozuvchilar asarlarida bolalar obrazlari turli tuman ko‘rinishlarda aks eta boshladi. Jamiyatda bolalikka bo‘lgan munosabatning o‘zgarishi, tabiiyki, san‘atning barcha turlarida bolalar obrazlarining rivojlanishiga olib keldi. Bolalik mavzusining rivojlanishi haqida gapirganda, shuni ta’kidlash kerakki, mualliflar bolalar va o‘smirlar tasvirlarini qadimgi Injil matnlarida keltirilganiga qaramay, bolaning shaxsiyatiga juda kech qiziqish bildirishgan. Ammo tarixga nazar solsak, ko‘pgina xalq dostonlarida bolalar obrazlarini uchratish mumkin. I.N.Arzamastseva bolalik konsepsiyasiga bag‘ishlangan tadqiqotida shunday yozadi: “Dostonlarda, yilnomalar va xalq og‘zaki ijodida bolalarning paydo bo‘lishi or-nomus va erkinlik g‘oyalarini ifoda etish zarurati bilan bog‘liq”[1, 61]. Bolalik obrazi ko‘plab fanlarning, xususan, adabiyotning o‘rganish obyekti bo‘lib, ma’lum bir tarixiy davrda bolalik badiiy tushunchasi ijtimoiy-tarixiy va adabiy kontekst ta’sirida alohida yozuvchilar ijodida shakllangan bolalik haqidagi obrazlar tizimi bo‘lgan.

Adabiyotda bolani tasvirlanishi - bu ma’lum bir adabiyotdagi (muayyan davrning boshida rivojlangan shaklda) bola obrazining barcha xususiyatlar tizimidan iborat. O‘rta asrlarda bolaning ichki dunyosi, bolalikning hissiy-psixologik xususiyatlari adabiyot tomonidan o‘rganilmagan. Kon fikricha, ma’lum bir tarixiy davr uchun “bolalar kashfiyoti” ning ta’rifi tarixchilar o‘rtasida ko‘plab savollar va e’tirozlarni keltirib chiqardi [2, 9]. Biroq, ko‘plab olimlar XVII-XVIII asrlarning yangi davri ekanligini tan olishadi. Bolalikning yangi qiyofasining paydo bo‘lishi, bolalarning madaniyatga qiziqishi ortishi, bolalar va kattalar o‘rtasidagi aniq xronologik va konstruktiv farqlar bilan ajralib turardi. Bolalikning mustaqil ijtimoiy-psixologik xarakterlarini o‘rganish shular jumlasidan. Ko‘rinib turibdiki, bolalarning adabiyotga qiziqishi ma’rifatparvarlik davrida shakllangan, lekin u asosan tarbiyaviy xususiyatga ega bo‘lib, nashrda keng qo‘llanilgan. Yuqorida aytganimizdek, bola qiyofasini o‘rganish biron bir fan doirasidagina cheklanib qolmaydi, u ko‘plab fanlar bilan O‘zaro uzviy bog‘lik: san‘at, din va jamiyatning boshqa sohalarida ham uchraydi. Uni to‘liqroq anglash uchun adabiyotni bu obraz o‘z aksini topgan alohida soha sifatida ko‘rib chiqaylik.

Biz adabiyotlarni tahlil qilib, bir necha davrlarga to‘xtalib o‘tishga harakat qilamiz. Klassizm adabiyotida bolalik “yetuklik” me’yoridan chetga chiqish sifatida qabul qilinishini ko‘rish mumkin. Bu vaqtda ular odamlarning namunali xatti-harakatlari bilan qiziqishadi. Ma’rifatparvarlarda bolalik mavzusiga qiziqish bo‘lgan. Shu bilan bir qatorda bu mavzu tarbiyaviy ahamiyatga ega. Bolalar uchun adabiyotlar nashr etilmoqda, unda kattalar dunyosining jiddiy va ilmiy fikrlari bolalarga tushuntirishga harakat qilinmoqda. Kitoblar qulay didaktik, tasvirlangan shaklda yozilgan. 1750-1814-yillarda Angliyada 2400 ga yaqin nomdagi bunday kitoblar nashr etilgan. Bolalar obrazlari adabiyotga ingliz sentimentalisti Lourens Sternning asarlari bilan birga kirdi. Bolalik va o‘smirlik davri qahramon shaxsiyatining shakllanish, shakllanish davri sifatida tasvirlangan o‘quv avtobiografiyalarida va “tarbiyaviy romanlarida” tobora ko‘proq o‘rin egallaydi va faqat romantizm davrida bolalik “o‘ziga hos qimmatbaho dunyo” sifatida ko‘riladi [5].

Rossiyada bolalik obraziga M.Y.Lermontov tomonidan chuqur ahamiyat berilgan. Uning fikricha, bolalik-cho‘ldagi hayot dengizida, gullari ochilgan orolga o‘xshaydi. Pushkin, o‘z navbatida, bolalikni ham, keksalikni ham, shunchaki inson umri davomida bir lahzada o‘tib ketishini nazarda tutgan.

Tadqiqot metodlari. Ushbu maqolada qiyosiy-tipologik va psixologik tahlil metodlariga murojaat qilindi. Holid Xusayniy va Tohir Malik asarlarida bola obrazini yaratishda adiblar uslubida universal jihatlar mavjudligi bois qiyosiy-tarixiy metoddan foydalanildi. Ta’kidlash joizki, adabiyotshunoslikda keng foydalaniladigan metodlardan biri qiyosiy-tarixiy hisoblanadi. “Bu metod asosida tadqiqot olib borilganda ikki yoki undan ortiq adabiy hodisalar taqqoslanadi; ilmiy-nazariy umumlashmalar chiqariladi. Dunyo adabiyoti durdonalari yoki milliy adabiyotning go‘zal namunalari o‘zaro qiyoslanadi; adabiy asarlar yaratilgan davriga ko‘ra taqqoslab o‘rganiladi; milliy adabiyot namunalari dunyo adabiyoti kontekstida tekshiriladi; mavzu yoki ilmiy muammo nuqtayi nazaridan o‘zaro yaqin bo‘lgan adiblarning asarlari tekshiriladi.

Tahlil jarayonida psixologik metodga ham murojaat qilindi. Psixologiya va adabiyot bir-biriga uzviy bog‘liq bo‘lib, bola psixologiyasi ham ko‘pchilik yozuvchilarning mavzu maydoniga aylangan. Bolalik psixologiyasini yoritib beruvchi va bolaning ichki dunyosiga nazar soluvchi adiblar asarlarining soni ko‘p. Bolalar psixologiyasi XIX asr o‘rtalarida mustaqil fan sifatida ajralib chiqa boshladi. U pedagogika psixologiyasi bilan chambarchas bog‘langandir. Uning ma’lumot va xulosalari yosh avlodni o‘qitish va tarbiyalash nazariyasi va amaliyoti uchun, umumiy psixologiya uchun muhim ahamiyatga ega. Bu fan tarmog‘ining rivojlanishi adabiyot sohasida ham o‘z aksini topdi. Yozuvchilar bolaning rivojlanishidagi ma’lum psixologik jarayonlar, uning his-tuyg‘ularini va unga ta’sir etuvchi omillarni o‘z asarlarida aks ettira boshladilar.

Natijalar va munozara. Jahon adabiyotida shunday asarlar borki ularni o'qiganingizda, mavzusi, badiiy tasvir vositalari, qahramonlar, obrazlar va voqealar rivoji yana bir boshqa asarga o'xshab ketadi, bunday asarlarda g'oya, adib ommaga aytmoqchi bo'lgan so'z, olib chiqmoqchi bo'lgan muammo birdek asosga ega bo'ladi. Jahon adabiy jarayoni murakkab hodisa. Unda barcha adabiyotlar doimiy aloqada bo'lib, bir-biriga u yoki bu darajada ta'sir ko'rsatib turadi. Bugungi kunda o'z qonun-qoidalari asosidagina rivojlanadigan, tashqi ta'sirdan xoli sof milliy adabiyotni topish qiyin. Biroq adabiyotshunoslikka oid ishlarda adabiy ta'sir masalasini o'rganishda ehtiyot bo'lish kerakligi uqtiriladi. Adabiy ta'sir masalasini o'rganish ilmini turli yozuvchilar ijodidagi hamma va har qanday tashqi o'xshashlik va monandlikni qidirishdan iborat ermakka aylantirib qo'yish yaramaydi[4, 256]. Umuminsoniy maqsadni ko'zlab qalam tebratgan har bir yozuvchi va shoirning asarlari faqat o'z xalqining mulki bo'lib qolmay, balki butun insoniyatning ham boyligidir.

Barcha xalqlar adabiyoti va madaniyati bilan uzviy aloqa o'rnatgan taqdirdagina o'zlarini adabiyoti va madaniyatini rivojlantira oladilar. Ishimizning yakuniy qismida, aynan yuqoridagi maqsadlarni ko'zlab, jahon adabiyotining yorqin namunasi bo'lmish Holid Xusayniyning "Shamol ortidan yugurib" asari va milliy durdonamiz bo'lgan Tohir Malikning "Alvido bolalik" asarlarida bolalik, uning badiiy talqini, bolalar dunyosini kattalar tomonidan vayron qilinishi masalalarini qiyosan ko'rib chiqishga ahd qildik. Fikrimiz misolida asarlardagi iqtiboslarga e'tiboringizni qaratamiz. *"Afg'onistonda bolalar ko'p ammo bolalik yo'q"*[7, 15]. Bu jumalardan anglash mumkinki, asardagi voqealarning boshlang'ich va oxirgi nuqtasi sodir bo'luvchi mamlakatda bolalar qanchalik baxtsiz, ma'lum davrdagi ijtimoiy muhit ularni shunday ahvolga solgan, ma'lum darajada bu kattalarning aybi. *"Dunyoda bitta og'ir gunoh bor - derdi otam. Bu o'g'rilik. U barcha gunohlarning otasidir. Qotil hayotingni o'g'irlyadi. Ayollardan erini, bolalardan otasini tortib oladi. Yolg'on boshqalarning ishonchini o'g'irlyadi. Qallob adolatni o'g'irlyadi"*. Bolalar qachon beg'ubor bolaligini yo'qotadi qachonki, kattalar aqlini yo'qotsa, ota-onalar dunyoning hoyu-havasini deb yelib yugurib bolalar taqdiri va kelajagiga befarq bo'lsa. O'zbek adibi Tohir Malik ham aynan mana shu muammo ustida qayg'uradi: *Hozir qo'limga miltiq berib qo'yishsa-yu, darvozadan otam bilan onam kirib kelishsa shartta otardim. Ana undan keyin o'zimni ham otib yuborishsa mayli. Yo'q avval sud bo'lishi kerak. Sudda gapirishim shart. "Bolasini tashlab ketgan ota-onaning jazosi shu" deyman. "Tirik yetimlar, hammangiz ablah ota-onangizni topib otib yuboring. Yolg'on gaplar topib ularni yaxshilamang bir-biringizga. "Ayamay otib tashlang" deyman. "Tirik yetimlarga miltiq bering" deyman. Ana shundan keyin meni otishsa ham mayl* [11, 2].

Uning deyarli barcha qissalarida inson ma'naviyati bilan bog'liq muammolar u yoki bu darajada badiiy talqin etilganini kuzatish mumkin. Hatto o'quvchilarning alohida mehrini qozongan "Shaytanat", "Murdalar gapirmaydilar" singari detektiv-sarguzasht qissalarida ham ushbu masalaga yangicha tamoiyillar asosida qaraladi. Ko'p o'rinlarda insonning ma'naviy tanazzulga nafaqat ijtimoiy muhit, biz ko'pda e'tibordan soqit qilib yashaydigan yashaydigan ma'rifatsizlik sabab bo'layotganiga urg'u beradi. Chunonchi, tilga olingan qisalarining qator qahramonlari aynan ma'rifatsizligi, diniy va dunyoviy o'gitlardan bexabarligi, ularga nopisandligi tufayli zalolat botqog'iga botadilar, hayotda adashib, umrlarini xazon etadilar. Yozuvchi ushbu masalada g'oyat ehtiyotkorlik bilan ish tutadi. Muayyan asarni qur'oniyyatlar, qudsiy hadislar, payg'ambarimiz o'gitlari yohud allomalarning hikmatlari bilan quruq "bezab" qo'ya qoladi, balki bularni asar syujeti, timsollarning xatti-harakati, ichki olami, tuyg'ularining tafsilotiga singdirib beradi.

Adibning "Jinoyatning uzun yo'li" turkumidagi asarining dastlabki kitobi bo'lmish "Alvido, bolalik!" qissasida mazkur masala o'ziga xos bir yo'sinda talqin etilganini kuzatish mumkin. Ayniqsa, bola tarbiyasida oilaviy muhitning alohida ahamiyat kasb etishi kuchini bir pog'ona yuqoriga ko'targan. Xususan, qissada Asrorning jinoyat yo'liga o'z-o'zidan kirib qolmaganligini ta'kidlash uchun yozuvchi kitobxonni uning oilaviy muhitiga "yetaklaydi". Oila muqaddas ekanligi hech kimga sir emas. Hatto tasavvuf falsafasida ham mazkur masalaga alohida e'tibor bilan qaralgan. Bu falsafaning yirik vakillaridan bo'lgan Ahmad Yassaviy, Bahovuddin Naqshbandiy, Najmiddin Kubro tariqatlarida ota-otalar o'zaro munosabatlarining farzandlar kamolotidagi roli, farzandlarning ota-onalariga bo'lgan munosabati mavzusi alohida ta'kidlab o'tilganini ko'ramiz.

Aslida ham "Mustaqil dunyoqarashga ega, ajdodlarimizning bebaho merosi va zamonaviy tafakkurga tayanib yashaydigan barkamol insonni tarbiyalash" asosiy masalasi ekani bugunda ko'p ta'kidlanmoqda. Zamonamizning hozir javob adibi bo'lgan Tohir Malik qissasida Asrorning jinoyat yo'liga kirib qolishiga asosan oilaviy muhit, ota-onasining noto'g'ri tarbiyasi sabab bo'lgani zaruriy dalillar asosida ko'rsatib beriladi. Asror jinoyatchi bo'lib tug'ilmagan. U xudo suygan iste'dod egasi. Maktabda a'lo baholarga o'qigan. Asror – maktabning bitiruvchi sinf o'quvchisi. Iqtidorli o'quvchi, otasining qistovi bilan matematika-fizika gimnaziyasidan maktabga o'tgan. Otasining otarchiligi, bu ishga o'g'lini ham majburan

tortishi va eng yomoni buni farzandlari kelajagi uchun qilayotganini ta'kidlashi Asrorga og'ir botadi. Maktabdagi sharoit, oiladagi muhit uni Qamariddinga yaqinlashtiradi. Ushbu hol esa Asror uchun jinoyat olamiga darvozalarning ochilishiga olib keladi. Dilduzaga munosabatida esa uning qalbida ezgulik, mehr, adolatga tashnalik kabi tuyg'ular borligini ko'rish mumkin. Huddi shunday mutanosiblikni "Shamol ortidan yugurib" asarida ham uchratish mumkin. Hikoyaning markaziy qahramoni va hikoyachisi Amir namunali tarbiya olgan. Uning otasi Bobo afg'on me'yorlariga ko'ra boy bo'lib, natijada Amir o'zi xohlagan narsaga erishib ulg'ayadi. U o'zini mahrum his qiladigan yagona narsa - bu Bobo bilan chuqur hissiy aloqadir, bunda u o'zini ayblaydi. Uning fikricha, Bobo Amir ko'proq o'ziga o'xshagan bo'lishini istaydi va Bobo uni, tug'ilishida vafot etgan onasini o'ldirishda aybdor deb hisoblaydi. *Men har doim otamning menga nisbatan allaqanday sovuqqonligini sezardim. Gohida u begonalarning bolasi uchun hashamatli bino qurib, menga-o'z bolasiga yetarlicha mehr berolmayotganidan o'kinar, ich-ichimdan otamning pullariga qurilgan yetimxonada yallo qilib yashayotgan churvaqalarni yomon ko'rib ketardim.*

Asar bosh qahramoni Amir ham iste'dodli, zehni o'tkir bola lekin undagi bu qobiliyat huddi Asror kabi oilasi tomonidan qadrlanmaydi va e'tiborsizlikka uchraydi. *"Men bolaligimdan adabiyotga qiziqardim. Maktabdagi baxru-bayt musobaqalarida ko'pincha g'olib chiqar, shu bois sinfdoshlarim bunday baxslarda men bilan bitta guruhda o'ynashni istardilar. Hatto bir gal butun sinfni baxru-baytga chorlab, hammani mot qilgandim".* Ammo beg'ubor bu boladagi qiziqishlar, ko'zlarini yondirib turgan, o'z mashg'ulotiga nisbatan ishtiyoq otasining do'sti Raximxondan boshqa hech kimga qiziq emas. Aynan mana shu ko'pchilik otanalar yo'l qoyadigan xatodir. Mana shunday loqaydliklar bolalarning hayot yo'llarida adashishiga yoki o'z o'rnini topolmasligiga birinchi qadamdir. *Biroq, uyga borib xursandchiligimni otam bilan baxam ko'rmoqchi bo'lganimda Bobo yaxshi deya loqaydgina qo'l siltab qo'yaqolgandi.* "Alvido bolalik" asaridagi kabi amirning ham otasi o'z farzandini o'zi xohlagan yo'lga solishni istaydi, boladagi orzu-istaklar inobatga olinmay qadrsizlantiriladi. *"Lekin otam ham o'g'lining kitobga boshi bilan sho'ng'ib, she'rxonlikka mukkasidan ketishini orzu qilmagani aniq".*

Ko'rib turganingizdek ikki qahramonning ham shaxs sifatida rivojlanishlariga bolalikdan to'siq qoyilgan. Asror buni istamasa ham, otasining ra'yini qaytara olmaydi; bo'ynidan bog'alangandek to'ylarga boradi. To'yxonadagi mast-alastlarning nojo'ya xatti-harakatlari, to'yda xirom aylayotgan raqqosaning nojo'ya qiliqlari, unga mahliyo bo'lganlarning besharm gaplari, munosabtlari qaysi tomonga egsangiz shu tomonga egiladigan tuyg'ularini g'oyat erta so'ndiradi. Hayot ana shunday yengil-yelpiliklardan iborat ekan-da, degan tasavvur uyg'onadi. Qolaversa, oiladagi muhit, ota-onasining munosabatlaridagi biryoqlamalik, soxtalik, mol-dunyoga ruju' va boshqa salbiy hodisalar Asrorning pokiza tuyg'ular bilan juda erta xayrlashishiga olib keladi. Asror bu pokiza tuyg'ular endi hech qachon qaytib kelmasligini bilib, "Alvido, bolalik!" deydi. Hayotga, odamlarga beparvolik, bepisandlik tuyg'ulari uning yuksak orzuumidlari ustiga tuproq tortadi.

Asror o'zi istamagan holda jinoyat ko'chasiga kirib qoladi. Adib qissaning bir qator o'rinlarida Asrorning jinoyat yo'lini tahlil etar ekan, bu mash'um taqdirda uning bir o'zi gunohkor emasligini, balki oila, atrofidagi kishilar, ota-onasi ham birdek aybdor ekanini ta'kidlashga urinadi. Ayniqsa, hikoyachining temir panjaralar ortida Asror bilan qurgan suhbatlari, Asrorning salmoqdor savollari, jo'yali mulohazalari vositasida sog'lom turmush tarzi farzand tarbiyasida etakchi mavqe egallashiga alohida urg'u beradi. Asrorning jinoyat yo'li Qamariddin bilan boshlangani qissaning bir necha o'rinlarida ko'rsatiladi. Zero, qissaning maxsus bir bobida ta'kidlanganidek, Qamariddin ismi jismiga, hayot yo'liga mos yigitlardan emas; u ko'cha bolasi bo'lib tug'ilgan, ko'cha bolasi bo'lib o'sgan. Asror va uning atrofidagi bolalar Qamariddinni ko'chadagi jinoiy uyushmaning boshlig'i va rahnamosi sifatida taniydilar. Ammo ular "Qamariddining armonini bilishmaydi. Qamariddining dardi ichida. Faqat bir marta, kayf qilib o'tirib, Asrorning bo'ynidan ushlab, peshonasini peshonasiga bosib xo'rsingan: *"Mening ham o'qigim kelardi, student bo'lib yurgim kelardi. Olim bo'lib, oq Volgalarda kerilib yurgim kelardi"* [11].

Bola dunyoga kelganidan boshlab unga g'amxo'rlik qilish, sog'lom va to'g'ri tarbiya hamda zamonaviy ta'lim olishini ta'minlash jamiyatimiz kelajagi, ertangi kunimiz poydevoridir. Nega deganda, bolalar zilol suvga o'xshaydi. Suv qaysiki idishga solinsa, shu idish shaklini olganidek, bolalar muhit, ota-ona va tarbiyachilar odob-axloqi va xatti-harakatlarini aynan ko'rganidek qabul qilishi hech kimga sir emas. Zotan, "Qush uyasida ko'rganini qiladi"-degan naql bejiz aytilmagan.

Shuning uchun farzand tarbiyasiga g'oyatda mas'uliyat bilan yondashish, bunda shaxsiy ibrat juda muhim omil ekanini unutmaslik joiz. Ulug' alloma Abu Homid G'azzoliy ta'biri bilan aytganda, "Bola tarbiyasi eng muhim ishlardandir. Farzand ota-onaga omonat. Bola qalbi pok, nozik, sodda va har qanday naqsh va suratdan holi gavhardir. Unga qanday naqsh solinsa, shunga ko'ra shakllanadi, eggan tomonga egiladi". Alloma yana shuni ta'kidlaydiki, agar bola yaxshilikka o'rganib, yaxshilik ichida voyaga yetsa,

dunyo va oxirat saodatini topadi. Agar bola e'tiborsiz tashlab qo'yilsa, yomonlik ichida o'ssa, baxtsizlikka yuz tutadi. Bunda gunoh yuki shu ko'yga solganlarning, ota-onaning zimmasiga yuklanadi.

Asrlar osha bizgacha yetib kelgan ana shu hikmat durdonalari bugun ham bola tarbiyasiga katta ahamiyat berayotgan yurtdoshlarimizning ayni ko'nglidagi gaplardir, desak, aslo mubolag'a emas. Chindan ham, farzand tarbiyasida yo'l qo'yilgan xato, e'tiborsizlik hech qachon beiz ketmaydi.

To'g'ri, biron-bir bola "katta bo'lsam jinoyatchi bo'laman", deb niyat qilmaydi, shuningdek, hech qaysi ota-ona farzandining jinoyatchi bo'lishini istamaydi. Ayrim ota-onalar farzandi dunyoga kelgach, arzimagan bahonani ro'kach qilib, ajrashib ketadi. O'z navbatida, oila buzilishi bolaga o'ta salbiy ta'sir ko'rsatib, uning tarbiyasini izdan chiqarib yuborayotganini, afsuski, hayotda uchrayotgan ko'plab noxush voqealar tasdiqlab bermoqda. Asef Afg'onistondagi barcha yovuzlikni o'z ichiga oladi. O'quvchi Asefni birinchi navbatda ijtimoiy kuchini iqtisodiy va etnik o'ziga xosligidan oladigan va o'z mamlakatini barcha hazoralardan tozalashni xohlaydigan zo'ravon, irqchi bola sifatida uchratadi.

Asefning Hasanni zo'rlashi ijtimoiy imtiyozlarga ega bo'lganlar o'z huquqlarini buzayotganining dramatik va aniq misolidir. Voyaga yetgan Assef Tolibon yetakchisiga aylanadi va Afg'onistonning eng yovuz va aqidaparast e'tiqodlarini qabul qilishda davom etadi, natijada irqchilik va zo'ravonlikni ifodalaydi. Buni asardan olingan quyidagi parcha orqali ko'rish mumkin: *Asef otamning yaqin do'sti, fuqaro aviatsiyasi uchuvchisi Mahmudning o'g'li edi. Ular bizdan bir mahalla narida baland devorlaridan palma shoxlari ko'rinib turadigan hashamatli uyda turardi. Qo'ldan yaltiroq kastet (yupqa metallardan yasalgan mushtlashuv quroli) tushmaydigan bu bola Vazirobodda otning qashqasidan tanilgan edi. Nemis onadan tugilgan moviy ko'z, mallasoch bu bola baland boyi o'ta berahmli bilan ajralib turardi. Uning gapiga kirmagan bola borki, kastetning zarbidan benasib qolmasdi. Asef qandaydir bir bolani to xushidan ketguncha kastet bilan do'pposlaganini o'z ko'zim bn korganman. Uni orqavarotdan go'shtxor deb ham chaqirishardi.* Asar qaharamoni tarafidan bilish mumkin unda beg'ubor bolalik tushunchasi ancha erta so'ngan[9, 246]. Endi esa, Tohir Malik ijodidagi Qamariddin obraziga e'tibor qaratsak. U Onasini uchinchi sinfga borgandagina ko'rgan. Bor gapni keyinchalik buvisidan eshitgan: "Tug'ilganingni bilib xursand bo'ldim. Onang chiqadigan kuni guldasta ko'tarib borsam, bir o'zi kelyapti. Maqsadini tushundim. U yosh edi. Umrini badnom qilgisi kelmagan." Shu kichkina parchadanoq Qamariddin fojiasi kitobxonga ayon bo'ladi. Qamariddin tug'ruqxonada ko'z ochib, bolalar uyida esini tanigan. Ota-ona, xonadon degan kimsa ham uning uchun yot. Shu sababdan bo'lsa kerak Qamariddin hayotdan bezgan, odam bolasiga mehri yo'q. Har qanday kimsadan bo'lsin o'ch olishga intiladi. Shundan ham ko'rsa bo'ladiki, bola tarbiyasida, uning ma'naviy kamolotida oila, ota-ona va atrof-muhitning alohida o'rni, muayyan ta'siri bor. Insonning mukammallashuvi ayni mana shu omillar ta'sirida ro'y beradi.

Tahlilga tortilgan ikkala asar ham, beg'ubor bolalik gashtini erta yoqotgan, kattalar tomonidan adolatsizlikka uchragan bolalar taqdiri g'oyasini ilgari suradi. Ammo bu bizning qarashimiz holos, chunki biror asar g'oyasi haqida gap ketganda aniq fikr bildirish qiyin. Darhaqiqat, romanlarda asosiy g'oyani topish o'quvchining shaxsiy masalasidir. Chunki har bir inson asosiy axloqni individual ravishda har xil tushunadi. O'quvchilar romandan nimani olishni xohlashadi. Muallif qaysi asosiy g'oyani etkazmoqchi bo'lganligi faqat o'ziga ayon. Ammo umumiy va ahamiyatli g'oyani topishga urinib, aytish mumkinki, ikkala romanda ham yoqotilgan baxtli bolalik mavzusi bor. Bundan tashqari ko'plab muammolar, ota va o'g'il o'rtasidagi munosabatlar, do'stlik, xiyonat, urush, odamlarning majruh taqdiri ko'tariladi. Kitobxon asarni mutoala qilganda o'ziga xos individual xulosa oladi. Masalan biror tanishingizga bu kitob mana shunday mavzu haqida desangiz, u yo'q unday emas boshqa mavzuda deyishi mumkin chunki bu uning shaxsiy fikri. Har ikkala vaziyatda ham haq, chunki adabiyotda aniqrog'i asar mutoalasida aniq farazlar yo'q. Ammo ikkala asarda ham, e'tiborimizni tortgan bir jihat bu qahramonlarning vijdon azobidan qiynalishidir. Bu muammolarni hal etish o'zidan-o'zi yuzaga kelmaydi. Adib har bir timsol xarakterida jinoyatga moyillikni yuzaga kelish sabablarini axtarishga, jinoyat paydo bo'lgan muhitni ko'rsatishga, ko'rsatibgina qolmay, jinoyatchi o'smirning shu yo'lga kirishiga sababchi bo'lgan kimsalarning qiyofasini yoritishga alohida diqqat qiladi. Asrordagi muqaddas tuyg'ular butunlay so'nib ketmagan. Aks holda Asror qotillik yuz bergan kechasi undan keyin ham qilib qo'ygan ishidan o'kinib pushaymon boshlab tashvishga tushmas edi. Asror kuchli ruhiy iztirobning iskanjasiga qolib ketadi huddi Amir kabi. Adabiy olamda har bir asarning umumiy va farqli jihatlar bo'lgani kabi, yuqoridagi asarlarda ham farqi jihatlar anchagina. Har ikkala asarda ijobiy va salbiy qahramonlar mavjud ammo bu mutanosiblikda bir obraz borki uni faqat "Shamol ortidan yugurib" asarida uchratish mumkin. Nazarimizda, mana shu qahramon bolalarcha sof, beg'ubor tuyg'ularga ega bolgan yagona personaj. Xasanning axloqiy fazilatlar hamisha benuqson bo'lgan. Amir uchun g'alaba naqadar muhim ekanini aqlli, sezgir bola tushundi. Xasan tushini qayta aytib, musobaqa boshlanishidan oldin hayajonlangan va ishonchsiz do'stiga ishonch uyg'otdi. Amirning do'stiga og'ir so'zlar aytgani ikki

qahramonni solishtirishga, ko'p narsani tushunishimizga yordam beradi. U asardagi eng samimiy tuyg'ular va sadoqat kuychisi. Muallif tili sodda ammo rang-barang va jonli, foydalanadigan vositalar o'quvchining tasavvurida kerakli voqeani yaratish uchun yetarli va u o'zga yurtidan bo'lgan kitobxon uchun tushunarsiz bo'lgan begona mamlakat hayoti va muhitiga sho'ng'ish vazifasini yengadi. U ko'taradigan mavzular kuchli va qiziqarli: otalar va bolalarning abadiy muammosi, xususan, ota-ona umidlarining haqiqat bilan to'qnashuvi, bunda bolaning xarakteri va shaxsiyati idealga mos kelmaydi; urush daxshatlari; madaniyatlar va an'analar to'qnashuvi, qo'rqqoqlik va qo'rqqoqlik bilan qahramon o'zining do'stligini ham, otasining do'stligini ham buzadi. Muallif qiziqarli, chiroyli va nozik yozish uslubiga ega. Ammo bu oddiy afg'onlar boshidan kechirgan urush dahshatlari va uning oqibatlarini psixologik idrok etish nuqtai nazaridan o'qish qiyin bo'lgan qattiq, ochiq-oydin realizmdir. Shu bilan birga, romandan uzoqlashish qiyin, u qandaydir og'riq qoldiqlarini qoldiradigan bo'lsa-da, tezda o'qiladi. Axloqiy jihatdan kitobni o'qish qiyin, ayniqsa afg'on xalqi zulmi tasvirlangan qismlarda. Xusayniy o'z asarida siyosat va roman o'rtasidagi chegarani nozik tarzda saqlagan. Muallif romanni yanada rang-barang va qiziqarli qilish uchun ko'plab stilistik vositalardan foydalangan. Shaxs ruhiyatni tasvirlash Tohir Malik ijodiga ham xos muhim belgi deyish mumkin. Sho'rolar davrida eng yaxshi adabiyot - muammolar adabiyoti edi: o'sha sharoitda biror dolzarb hayotiy masalani ko'tarib chiqish, badiiy tadqiq qilishga urinishning o'zi jasorat hisoblanar va adabiyot uchun ham ma'lum ahamiyatga ega edi. Mafkura iskanjasiga kommunistik estetika badiiy adabiyotdan odamga uning oddiy «vint-murvat» ekanligini eslatib turishni kishi bilmas tarzda talab qilardi. Garchi, o'sha paytda ham og'izda insonni tasvirlash asosiy maqsad deyilsada, amalda odamga emas, uning mehnatiga e'tibor qaratilardi.

Insonga asosan ishchi kuchi deb qaralar va u shu nuqtadan turib tasvir etilar edi. Inson tomonidan amalga oshirilgan ulkan ishlarga madhiyalar aytilsada, uning shaxsiga, ko'ngliga e'tibor qilinmas edi. Har bir odamning olam ichra olam ekanini hisobga olish, uning ruhiyati va kechinmalarini tadqiq etish badiiy ijod uchun muhim sanalmas. Tohir Malik sermahsul ijodi bilan adabiyotshunoslikdagi bu kabi talablarni inkor etdi va istiqloq g'oyalarini millatdoshlar tafakkuri hamda ruhiyatiga singdira oldi. Tohir Malik zamonasozlik bilan qalam surmaydigan adib. U kitobxonlar saviyasiga moslashishga emas, balki ularning didini ko'tarishga, o'quvchini davr nafasini ilg'aydigan darajaga etkazishga urinadi. Shu bois o'quvchisidan oldinroq yurishga harakat qiladi. Tohir Malik hayotni insoniy tuyg'ular tasviri orqali ifoda etadi. U odam ruhiyati tovlanishlarini chuqur va tiniq tasvirlashga ishqiboz.

Yozuvchining qissalarida hamisha shaxs tasviri, uning katta-kichik dardlari, iztiroblari, intilishlari, o'y-xayollari mavjud. Uning qahramonlari shu jamiyat, shu hududda nafas olib, siz bizning oramizda yashab kelayotgan, ezgu va buning aksi bo'lgan ishlardagi shaxs va kimsalardir. Asar markazida hayotning chag'ir tikanakli yo'llarida o'zlarini yo'qotib, adashib -tentirab yurgan bolalarning ruhiyati, ularning ichki tuyg'ulari, adashganligini tan olmay, o'z fojiasida boshqalarni aybdor sanash kabi fikrlar to'lqinlar goh ko'tarilib, goh tushib turadiki, kitobxon ushbu holatlarda aybdor kim, sababchi kim, gunoh nima, savob nima, degan oddiy savollarga juda murakkablik bilan javob topib boradi. Biz bu o'rinda qissa markazida turgan Qamariddin fojiasining ildizlariga nazar tashlashni istadik. Negaki, asarlardagi jamiki syujet chiziqlari aynan mana shu qahramon atrofida aylanadi.

Qissadagi Asrorning ruhiy kechinmalari, ikkilanish va istar istamas aytgan yolg'onlari, ko'p bolali nochor oilaning otasiz yetim farzandi Salimning jismoniy qiynalishlari va hakozi voqealar ayni shu Qamariddinga kelib taqaladi. Yozuvchi barcha voqealarning boshlanish nuqtasi shu obraz bo'lgani uchun Qamariddin ichki va tashqi olamiga alohida e'tibor qaratgan. Qamariddin nima sabablarga ko'ra jinoyat olamiga kirib qolgani, o'zi tengi bolalarni bu manfur olamga tortish, o'smir yoshida jinoyat olamining tajribali shaxsiga aylanganini ishonarli misollar yordamida ko'rsatib bergan. Adabiy asar tilining poetikligi, obrazlilik, tasviriyligi asar g'oyasini, qahramon ruhiyatini, xarakterini jozibali qilib ochishga xizmat qiladi. Bundan faqat maxsus badiiy tasvir vositalarini qo'llash orqali asar tilining obrazlilikiga, tasviriyligiga erishilar ekan, degan bir yoqlama xulosa chiqarish to'g'ri emas. Chunki adabiy asar tilida o'z o'rnida topib ishlatilgan oddiy so'z va iboralar ham xarakter va manzaralarni aniq ifodalay oladi, binobarin, bunday so'z va iboralar ham tasvir vositasi rolini bajaradi. Badiiy asar muvaffaqiyatini ta'minlashda sintaktik-stilistik vositalar ham alohida ahamiyat kasb etadi. Badiiy adabiyotda ifodali nutq vositasi sifatida muhim rol o'ynaydigan, mazmunan stabillashgan nutq oborotlari sintaktikstilistik figuralar deyiladi. Ikkala asarda ham mana shunday unsurlarni uchratish mumkin.

Bolalikning beg'ubor tasvirini milliy qadriyatlar bilan uyg'unlashgan holda talqin etilishini ikki adib asarlarida ham uchratish mumkin. Bunga asosiy sabablardan biri, asar yaratuvchilarining qardosh xalqlarga mansubligi. Har ikki adib uchun ham milliy urf-odatlar qadriyatlar humim o'rin tutadi. Milliylik u yoki bu millatning ma'naviy faoliyati va moddiy hayotidagi o'ziga xoslikdir. "Ma'naviy faoliyat kishilarning

xarakteri tafakkur tarzi ruhiyati intilishlari qiliqlari yumor xususiyatlari va boshkalarni o'z ichiga oladi. Moddiy hayot esa urf-odat, rasm-rusum, marosimlar, kiyimlar, uy-ro'zg'or anjomlari, cholg'u asboblari, pazandachilik, ismlar va hokazolar. Badiiy asarda aks etgan ana shu milliy xususiyatlar yig'indisi adabiyotshunoslikda "milliy kolorit" deyiladi. *Kobullik bolalar qishni intiqlik bilan kutushardi. Ayniqsa uyingda shinamgina cho'yan pechka qurilgan bo'lsa! Xursandchilikka yana bir sabab sovuq kunlari bolalarga ta'til berilardi. Yana qish afg'on bolalari uchun varrak uchirish mavsumi sanaladi. Varrak yerga tushishi bilan uning ortidan chopardik. Birinchi bo'lib kim yetib kelsa, varrak o'shaniki bo'lardi.*

Yuqoridagi asarlarning tarbiyaviy ahamiyati kuchli. Hayotning turli mazmundagi inqirozlariga uchragan yoshlar o'zlariga ushbu asar orqali to'g'ri yo'l topa olishi mumkin. Bu asarlar yoshlar uchun o'zgal xatosidan o'rganib, o'z hayotida bu xatolarni takrorlamaslik bo'yicha qo'llanma sifatida katta ahamiyatga ega [8, 60].

Xulosa. Bolalik mavzusi adabiyotda turli xil shaklda talqin etiladi. Bu mavzuni ko'proq ochib beruvchi janrlardan biri bu avtobiografiyadir. Har qanday avtobiografik asar borki adibning yoki qahramonning bolalik davrini yodga olmasa. Ammo bunday asarlarni milliy adabiyotimiz namunalari bilan taqqoslash qiyin chunki biografiya o'z nomi bilan ma'lum bir shaxs haqida individual hikoya qiladi. Jahon va o'zbek bolalar nasrida o'smirlar va bolalar psixologiyasi talqinida ko'plab o'xshashlik va farqlar mavjud bo'lib, ularni o'rganishda o'smirlar psixologiyasining muammolari bolalarning tashqi va ichki ochib beriladi. Bundan tashqari, bugungi kunda faqat bolalar nasri o'zining janr va tematik xususiyatlari jihatidan rang-barang, o'ziga xos shakl va tamoyillarga ega bo'ldi. Chunki dunyoning eng mashhur adiblari o'z iste'dodi va faoliyatini unga bag'ishlamoqda. Bu Insoniyat kelajagi, o'sib kelayotgan avlod qo'lida ekanligi allaqachon ayon hozirgi o'smirlar psixologiyasi kelajak jamiyatining muhim omilidir. Jahon adabiyotida bolalar mavzularining kelib chiqishi, tarkibi, turlari, uning badiiy-estetik, ma'rifiy-ma'naviy va tarbiyaviy ahamiyatini o'rganish va bayon qilish, yosh avlodning ma'naviy kamoloti va kelajagini belgilashda muhim ahamiyat kasb etadi.

O'zbek adibi Tohir Malik va afg'on-amerika yozuvchisi Holid Xusayniy ham o'z ijodlarini mana shu ishga bag'ishlayotgan ijodkorlardan hisoblanadi. Yuqoridagi bobda ularning "Alvido bolalik" va "Shamol ortidan yugurib" asarlarini tahlil etar ekanmiz, umumlashtirgan holda shuni aytish joizki, ikkala romandagi bosh qahramonlarning hissiy kechinmalari dinamikasi turlicha bayon etilgani bilan, uning mualliflari e'tiborida bir masala yo'qotilgan beg'ubor bolalik mavzusi yotadi. Bola tug'ilgandan boshlab unga ruhiy xususiyatlar beriladi, lekin ularning rivojlanishi madaniyatli tarbiya, faqat kattalar yordami bilan ta'minlanadi. Bolaning ichki dunyosiga kirib borishga, dunyoqarashi xususiyatlarini va bola xulq-atvori psixologiyasini aniqlashga harakat qilib, Tohir Malik axloqiy va falsafiy xarakterdagi muammolarni dolzarblashtiradi. Shuni ta'kidlash kerak-ki, ikkala adibning ham asarlarida bolalik kontseptsiyasi va bola obrazlari ikki tomondan yoritilgan: bolalar nafaqat poklik va umid ramzi sifatida, balki g'azab, shafqatsizlik va qo'pollik timsoli sifatida ham taqdim etiladi. Uning asarlarida bolalar ko'pincha mustaqil badiiy tasvirlar sifatida yaratilgan. Avvalo bolani kattalardek fikrlash tarzida tasvirlash juda murakkab, bu masalada ikkala yozuvchi ham o'ziga xos usulga ega. Shuni aytishimiz mumkinki, har ikki asarda ham bolalarining jonli, haqqoniy obrazlari qahramonlar timsolida yaratilgan. Ijtimoiy muhit va tarixning mashaqqatli davridagi barcha sinovlarga matonat bilan bardosh bergan bolalar qiyofasi mohir qalam bilan tasvirlangan.

Beg'ubor bolalik fenomeni va Holid Xusayniyning "Shamol ortidan yugurib" asarini Sharq adibi Tohir Malikning "Alvido bolalik" asari bilan g'oya va shakl jihatdan mutanosibligini qiyosan ko'rib chiqdik. Asar, bir tomondan, T.Malikning erta ulg'aygan bola obrazi va qahramonlariga tipologik jihatdan yaqin ekanligini ko'rsatdi. Boshqa tomondan, ikkala ijodkor ham, bolalikning eng muhim xususiyatini uning ijobiy ma'nosi, go'zalligi va inson hayotining eng sof davri sifatida taqdim etishga harakat qilishganini tahlillar orqali ko'rib chiqdik.

ADABIYOTLAR:

1. Арзамасцева И.Н. Художественная концепция детства в русской литературе 1990 — 1930-х годов: диссертация на соискание учёной степени доктора филологических наук. — М.: МПГУ, 2006.61.
2. Кон И.С. Ребёнок и общество. — М.: Наука, 1998. 9.
3. Зеньковский В.В. Психология детства. — М., 1996. — 256 с
4. Holid Xusayniy "Shamol ortidan yugurib" kitobi .Yangi asr avlodi 2016, 15b.
5. McClelland M. Emerson and the Vision of the Child: PhD dissertation. —Saint Louis, Missouri, 2011. — URL: <https://openscholarship.wustl.edu/cgi/viewcontent>

6. Nenilin A. *Stephen King and the Theme of Childhood in the Anglo-American Literary Tradition*. — URL: <https://studylib.ru/doc/2234763/stephen-king-and-the-theme-of-childhood-in-the-anglo>
7. Ruzmatova D.R. *Human Relations in "The Kite Runner" by Khaled Hosseini* // *International Journal of Progressive Sciences and Technologies*. — Spain, 2018. — Vol. 11, № 1. — P. 25–33.
8. Ruzmatova D.R. *Perspectives in the Novels by Khaled Hosseini* // *RumeliDE Journal of Language and Literature Studies*. — Turkey, 2019. — № 6. — P. 120–130.
9. Рuzматовa Д.Р. «Шамол ортидан югуриб» романида болалик перспективаси // Ўзбекистонда хорижий тиллар. — Тошкент, 2019. — № 2. — Б. 240–246.
10. Рuzматовa Д.Р. Холид Хусайний асарларида болалик, оила ва аёл перспективалари // Филология масалалари. — Тошкент, 2019. — № 3. — Б. 50–60.
11. Tohir Malik *"Alvido bolalik" kitobi* 2017, 2b.

ПРОБЛЕМЫ БУНТА, СВОБОДЫ, СПРАВЕДЛИВОСТИ И ЧЕЛОВЕЧЕСКОГО СОЗНАНИЯ В ТРЁХ ПРОИЗВЕДЕНИЯХ

Курбонов Парда Ахмедович,

доцент кафедры иностранных языков Университета Турон

Аннотация. В данной статье проводится сравнительный анализ проблем бунта, свободы, божественной справедливости и человеческого сознания в произведениях Абдурауфа Фитрата «Бунт Шайтана против Бога», Джона Мильтона «Потерянный рай» и Дж. Г. Байрона «Каин: мистерия». Исследование основано на сравнительно-аналитических, интерпретационных и поэтико-аналитических методах. Показано, что бунт у Мильтона представляет собой космическо-политическое восстание, у Байрона – экзистенциальное сомнение, у Фитрата – морально-просветительскую форму протеста. Отмечены философские взаимосвязи восточных и западных традиций, а также специфика синтеза Фитратом западных сюжетов с национальным духом.

Ключевые слова: бунт, божественная справедливость, свобода, Фитрат, Милтон, Байрон, образ Сатаны, экзистенциализм, просвещение, романтизм.

UCH ASARDA ISYON, ERKINLIK, ADOLAT VA INSONIY ONG MUAMMOLARI

Annotatsiya. Ushbu maqolada Abdurauf Fitratning “Shaytonning Tangriga isyoni”, John Miltonning “Paradise Lost” hamda J.G. Byronning “Cain: A Mystery” asarlarida mavjud bo‘lgan isyon, ozodlik, ilohiy adolat va insoniy ong masalalari qiyosiy tahlil qilinadi. Tadqiqot qiyosiy-tahliliy, interpretativ hamda poetik-analitik metodlar asosida amalga oshirilgan bo‘lib, syujetlarning falsafiy asoslari, obrazlarning ichki mantiqi va mualliflarning dunyoqarashiga tayanilgan. Asarlardagi isyon Milton ijodida kosmik-siyosiy, Byronda ekzistensial, Fitratda esa axloqiy-ma‘rifiy talqin sifatida ochib beriladi. Maqolada uch muallif qarashlarining Sharq va G‘arb falsafiy an‘analari bilan bog‘liqligi, Fitratning g‘arbiy matnni milliy-ma‘rifiy ruh bilan sintez qilishi ilmiy asosda yoritiladi.

Abstract. This article explores a serious 21st-century topic, allowing us to examine "women's prose" from the perspective of contemporary literature. It examines both classical and contemporary literature, which has recently been explored. It allows us to develop our psychologism, worldview, and understanding of emotions.

Key words: «Women's prose», motherhood, psychologism, critical thinking.

Введение. «Женская проза» появилась в XXI веке, при этом широкое распространение получила в конце 20 века. «Женская проза» захватывает период конца 1980х и начало 1990х годов. В этот период появляются сборники женской прозы. Различные факторы в период адаптации и изменений в культурно-исторической, политической и социальной сферах не позволяли выделить «женскую прозу» в избранный литературный жанр. Споры, связанные с женской прозой продолжаются по сей день. По словам Натальи Перовой спрос на женскую литературу был всегда в скрытом виде, а сейчас он становится более выраженным[3].

Многие исследователи также сошлись во мнении о том, что «женская проза является успешной литературной стратегией, а причиной этому является то, что «женская проза» это новое направление. Женская проза предлагает коллективное участие, систему манифестов, субъективность, автобиографию авторов, проблематику женских опытов и противопоставление мужского и женского сознания» [1].

Достаточно серьёзно продвигают женскую прозу такие писательницы как: Маша Трауб и Зульфия Куролбой кизи. С каждым днём на книжных полках всё больше и больше появляются произведения этих ярких и разноплановых писательниц, которые пишут на глобальные темы, касающиеся глубокого женского мира.

В «женской прозе» обязательно присутствуют несколько важных неоспоримых факторов, самые важные из них: автором является женщина, героиней является женщина и ключевым моментом во всех произведениях женской прозы являются сами женщины. Эти особенности выделяют современные исследователи. Сам мир, будь то выдуманный или реальный, основывается на основе женской судьбы, проблематикой женской прозы является взгляд на мир с точки зрения женского мышления и женской психосоматики, например, в произведении Маши Трауб «Замочная скважина» [2].

Самая яркая представительница «женской прозы» конца XXI века – это Зульфия Куролбой кизи. Многие читатели восхищаются её стилем написания произведений и её творчеством. Большинство критиков и литературоведов называют произведения Зульфии Куролбой кизи «прозой новой волны». Её манера написания рассказов позволяет переосмыслить классические произведения с точки зрения необычности стиля и необычной композицией. Рассказы Зульфии Куролбой кизи позволяют взглянуть на мир другими глазами, дают возможность задуматься о смысле жизни и цели существования. Рассказы Зульфии Куролбой пишет о проблемах, беспокоящих всё человечество в целом, о менталитете и традициях великого узбекского народа [5].

Женщины-писательницы, такие как Маша Трауб и Зульфия Куролбой кизи позволяют демонстративно преодолеть противопоставления с точки зрения мужского и женского. Современная женская проза выделяет два начала, два глобальных вопроса, которые образуют взаимодействие полов. В новой прозе женское начало выступает как сильная и независимая сторона, а человеческое начало выступает разрушающим и сложным явлением. В женской прозе нам показан образ матери через призму многолетних наблюдений, мать выступает в роли человека, способного любить, заботиться и создавать счастье. Современные писательницы выводят «женские образы» в стадию заметности, понятности в плане сознания и повествования[7].

По мнению многих русских и узбекских критиков женщины-писательницы расширяют литературное наследие при помощи своеобразного мышления и свойственного только женщинам мироощущения. При этом критики советуют не разделять прозу на женскую и индивидуальную, а посмотреть на неё с точки зрения индивидуальности. В это же время зарубежный критик Дж. Гейт имеет совсем другое мнение, мнение о том, что русский и узбекский контекст жизненно необходимо разделять на биологические и культурные категории, и объясняет он это таким образом: «Раньше не было разграничения между интересным женским полом, рассказы и сочинения писательниц изучались очень редко, а иногда совсем оставались незамеченными и именно по этой причине большинство важных произведений было потеряно в богатой русской и узбекской литературе». Ещё одна важная специфическая сторона «женской прозы» в том, что жанровость «женской прозы» не может остаться без внимания. В женской литературе часто используют представленные далее жанры, а именно: роман (роман-жизнеописание, сентиментальный, социально-психологический), рассказ, повесть, эссе и даже дневник. Исследователи С.Н. Барашкова и С.Ф. Желобцова считают что, в «женской прозе» имеются разграничения между отрицанием искажённого образа и гендерное различие.

Методика исследования. Творчество двух писательниц Маши Трауб и Зульфии Куролбой кизи, пишущих о женском начале и женской судьбе, строится в основном на основе вопросов связанных с женскими мечтами, с женским счастьем и с нелёгкой жизнью «слабого» пола. Они стремятся к гармонии и к справедливости, чаще всего представительницы «женской прозы» предаются воспоминаниям о своём детстве[6].

По мнению Маши Трауб в образе женщины много неоднозначностей, в ней сочетаются образы «святой» и «грешной». Материнство выступает в совсем ином образе, при сравнении с материнством прошлых поколений мы чётко видим потерянную идиллию, мягкость и понятливость. В её рассказах главной героиней часто выступает мать, воспитывающая ребёнка одна в связи с разными обстоятельствами жизни, то есть мать-одиночка, например, в романе «Когда мама - это ты». У Жени, главной героини, непростая судьба, и она преодолевает тяжести жизни в одиночку, не видя при этом на своём пути никаких препятствий. Часто мать-одиночка живёт «ребёнком». Она помогает ему найти своё место в жизни, принять и понять себя и в тот же момент выступает объектом неприятия. При сравнении классической литературы с современной литературой можно чётко отметить то, что образы матерей очень сильно отличаются от «шаблонного» образа. В современной прозе, особенно, женский образ матери показан с отрицательной стороны. Изображается, в первую очередь, её холод, её отчуждённость, грубость и неспособность мягко принять своего ребёнка. В.В. Кияков утверждает что недостатком женской прозы является то, что эмоции выходят на первый план, и это мешает в понимании сюжета. Бесспорно, в «женской прозе» преобладает особый психологизм, и, чтобы понять женскую прозу, нужно уметь понимать женское мировоззрение, так как женский психологизм делает женскую прозу особо обсуждаемой[8].

Результаты и их обсуждение. У героев «женской прозы» нет полной уверенности в том, что «завтра» по-настоящему существует, у них нет своего уголка, нет своего родного дома. Все важные и запоминающиеся события происходят в госпиталях, местах заключения в чужих домах. Чаще всего все ситуации выходят за рамки понимания и разума. Представительницы «слабого пола» доверяют

разным знакам, женской интуиции. Именно этим объясняется появление в произведениях мистики и символов, будто данных свыше.

В произведениях «женской прозы» особое место занимает неосентиментализм. Героями произведений являются «маленькие люди», у которых свои страдания, связанные с психосоматикой. К таким героям авторы испытывают сострадание и жалость. В современной женской прозе современные авторы, такие как Маша Трауб и Зульфия Куролбой кизи часто отличаются эссеизмом, то есть проекцией своих мыслей в виде эссе. Данным характерным принципом в написании своих произведений отличаются Татьяна Толстая и Людмила Улицкая. В понимании этих писательниц в «женской прозе» происходит смешение художественного и публицистического жанров. Ещё одной важной чертой «женской прозы» является повышенная интертекстуальность, точнее, использование в тексте цитат, афоризмов и сравнений. Маша Трауб расширяет проявление интереса к прочтению произведения тем, что добавляет в заголовок строчки из известных произведений[10].

Зульфия Куролбой кизи в своём произведении «Грех» использует пословицу «Каждый человек жнёт то, что сеет. Это жестоко, но это так...». Так же она в своём произведении прибегает к мифологии, фольклору и узбекским мотивам[9].

Многие критики и литературоведы отмечают, что произведения Зульфии Куролбой кизи отличаются особым построением сюжета, многоплановостью, авторская позиция чаще всего остаётся открытой, а происходящие события описываются и комментируются. По сей день благодаря всему перечисленному «женская проза» остаётся индивидуальной, неповторимой и вызывающей постоянный интерес. Критик Т.Ю. Морозова утверждает, что в женскую литературу заложено будущее и настоящее. Так как женская проза сложна, многообразна и многогранна она несет опыт духовности, новое восприятие мира, ощущений которые построены на социальном и культурном опыте XXI века.

В творчестве Маши Трауб центральное место занимает мотив дома и семьи. Тем самым практически все произведения Маши Трауб посвящаются теме материнства и жизни обычного народа, среднего класса. Особенностью жанра произведений Маши Трауб является описание жизни нескольких поколений одной семьи. Например, в рассказе «Дневник мамы первоклассника» писательница затрагивает темы прошлого и настоящего, о будущем она пишет редко, позволяя при этом читателю додумать. В произведениях Маши Трауб заложен весь спектр переживаний и ощущений, впечатлений и событий разных героев. События, описываемые в произведениях похожи на сплетение судеб героев[10].

Еще одна тенденция – это выход за рамки сугубо «женской» темы. Если раньше проза, написанная женщинами, часто ассоциировалась с семейными или любовными сюжетами, то сегодня мы видим, как женщины-писатели осваивают антиутопию, сатиру, триллеры и хоррор. Например, Маша Трауб («История моей мамы») или Зульфия Куролбой кизи («Древняя песня») смешивают быт с мрачной социальной критикой, смело экспериментируют с жанрами, здесь мы видим своеобразное описание жизненных ситуаций в их произведениях. Появилось много писательниц, работающих на стыке разных, причём довольно сложных жанров. Но мы смогли найти уникальность, вечность, востребованность таких писательниц как Маша Трауб и Зульфия Куролбой кизи[7].

Выводы. Говоря о женской прозе еще несколько лет назад, многие исследователи задавались вопросом: не слишком ли женщины-писательницы заикливаются на прошлом? Читая такие произведения, можно заметить, что многие авторы обращаются к историческим сюжетам, словно пытаясь исцелить раны предков. Это мощный ход, но критики переживали, что используя всё время один и тот же метод, писательницы рискуют оставить современность с её цифровыми вызовами и многообразными кризисами за бортом. Сегодня, в 2026 году, женские голоса значительно громче говорят о настоящем, чем раньше [11]. Литературный мир обогатился большим числом новых имён и новых голосов.

Ещё одна тенденция – это выход за рамки сугубо «женской» темы. Если раньше проза, написанная женщинами, часто ассоциировалась с семейными или любовными сюжетами, то сегодня мы видим, как женщины-писатели осваивают антиутопию, сатиру, триллеры и хоррор. Например, Маша Трауб с «Плохой матерью» или Зульфия Куролбой кизи («Страдание») смешивают жизненные реалии с мрачной социальной критикой, а так же Трауб смело экспериментирует с жанрами — её последний роман «Моя бабушка - Лермонтов» — это и роман-катастрофа и психологически интересная жизнь, и одновременно остро-социальная сатира.

Расширение жанровых и тематических горизонтов вдохновляет, вносит разнообразие в ту сферу «женского письма», о котором так много говорили в предыдущие десятилетия, и, конечно же,

позволяет укорениться мысли о том, что женщины способны писать так же успешно, как и их коллеги мужчины.

Развитие технологий и актуальные тенденции российского книжного рынка тоже влияют на представленность женщин-писателей на современной литературной карте. Женская проза активно продвигается через премии — «Нацбест», «Большая книга», «Ясная поляна» — и социальные сети, где авторы находят свою аудиторию, а, в частности, произведения Маши Трауб. Но коммерциализация порождает дилемму: как сохранить подлинность, когда издательства требуют «продаваемых» историй? Иногда кажется, что успех таких книг, как «Плохая дочь», — это не только про талант, но и про умение вписаться в ожидания читателей и маркетинговые алгоритмы [5].

Современная русская и узбекская женская проза — это пространство, где сегодня голоса женщин звучат громче, чем когда-либо на узбекских и русских книжных рынках. Она балансирует между универсальностью и локальностью, между поэзией и прозой жизни. А вот сможет ли женская проза стать новым «золотым веком» современной литературы, или она останется нишевым явлением, покажет время.

ЛИТЕРАТУРА:

1. Murodova Dildora Arabovna. (2023). *The theme of motherhood in "women's prose" by Masha Traub*. *International journal of literature and languages*, 3(12), 34–38. <https://doi.org/10.37547/ijll/volume03issue12-07>
2. Murodova Д. (2023). Arabic words used in modern Russian. // *Modern science and research*, 2(4), 576–578. Retrieved from <https://inlibrary.uz/index.php/science-research/article/view/19400>
3. Murodova Д. (2023). Fictional heroes in modern Russian literature. // *Modern science and research*, 2(9), 112–114. Retrieved from <https://inlibrary.uz/index.php/science-research/article/view/23907>
4. Муродова, Д. А. (2023). Женская проза в современной русской литературе.
5. Murodova Д. (2023). The concept of the words "generosity and cowardice" in the lak languages. // *Modern science and research*, 2(6), 1147–1149. Retrieved from <https://inlibrary.uz/index.php/science-research/article/view/21541>
6. Муродова, Д. А. (2023). Материнский образ в современной узбекской прозе.
7. Murodova Д. (2024). «Современная материнская любовь» в прозе Маши Трауб. // *Modern science and research*, 3(2), 43–50. Retrieved from <https://inlibrary.uz/index.php/science-research/article/view/30438>
8. Murodova Д. (2024). An artistic image in Uzbek "women's prose" based on the stories of Zulfiya Kurolboy kizi. // *Modern science and research*, 3(2), 1172–1177. Retrieved from <https://inlibrary.uz/index.php/science-research/article/view/29788>
9. Муродова, Д. (2024). Тема материнства и отцовства в 21 веке (на материале повести Маши Трауб «Плохая мать»). *Nrj*, 1(4), 136-142.
10. Murodova Д. (2023). Maternal image in modern Uzbek prose. // *Modern science and research*, 2(12), 654–658. Retrieved from <https://inlibrary.uz/index.php/science-research/article/view/27134>
11. Murodova Dildora Arabovna. (2023). Maternal image in modern Uzbek prose. // *International journal of literature and languages*, 3(12), 28–33. <https://doi.org/10.37547/ijll/volume03issue12-06>

BAYON ILMIDA ISTIORANING RO'LI

Abdullayev Olimjon Obidjon o'g'li,

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti

Matnshunoslik va adabiy manbashunoslik kafedrası doktoranti

olimjon8406@gmail.com

ORCID ID: 0009-0005-3151-8042

Anotatsiya. Ushbu maqola bayon ilmi kontekstida isteoraning (metaforaning) ahamiyatini va uning nazariy hamda amaliy jihatlarini tahlil qiladi. Isteora so'zning yoki iboraning asl ma'nosini boshqa bir ma'no bilan o'zgartirib ishlatish orqali nutqning ifodaviy va estetik imkoniyatlarini kengaytiradigan vosita sifatida qaraladi. Tadqiqotda bayon ilmida isteoraning tarixi, shakllanishi, turli turlari va ularning nutqiy, adabiy va madaniy kontekstdagi funksiyalari yoritilgan.

Maqolada isteora nafaqat ma'noni yanada aniq va ravshan yetkazishda, balki tinglovchining hissiy qabulini kuchaytirishda, matnga ritmik va obrazli xarakter bag'ishlashda ham muhim vosita ekanligi ko'rsatib o'tiladi. Shuningdek, isteora orqali murakkab tushunchalar sodda va oson tushunarli shaklda ifodalanishi, shuningdek, fikr va hissiyotlarni uyg'unlashtirish imkoniyati mavjudligi ta'kidlangan.

Tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, isteora bayon ilmida markaziy o'rin tutadi: u nafaqat adabiy nutq va matnning go'zalligini oshiradi, balki ilmiy va pedagogik matnlarda ham tushuntirish va o'rgatish jarayonini samarali qiladi. Shu bois, bayon ilmi va adabiyotshunoslikda isteoraning nazariy asoslari va amaliy qo'llanilishi mustahkam ilmiy asosga ega bo'lishi muhim ahamiyat kasb etadi.

Kalit so'zlar: bayon, isteora, metafora, nutq, ifoda, ma'no, estetik ta'sir, adabiyot, ta'sirchanlik.

THE ROLE OF METAPHOR IN THE SCIENCE OF BAYAN.

Abstract. This article analyzes the importance of metaphor in the science of bayan, both from theoretical and practical perspectives. Metaphor is considered as a device that enhances the expressive and aesthetic potential of speech by applying a word or phrase in a meaning other than its original one. The study addresses the history, development, types, and functions of metaphors within rhetorical, literary, and cultural contexts.

The article emphasizes that metaphors not only convey meaning more clearly and vividly but also enhance the audience's emotional perception, add rhythmic and figurative characteristics to the text, and allow complex concepts to be expressed in a simple and comprehensible manner. The analysis demonstrates that metaphor occupies a central position in bayan, enriching the beauty and impact of literary and academic texts, and increasing the effectiveness of teaching and explanatory processes. Therefore, understanding the theoretical foundations and practical applications of metaphor is of great importance in the fields of bayan and literary studies.

Keywords: bayan, metaphor, speech, expression, meaning, aesthetic impact, literature, figurative language, rhetorical effect.

РОЛЬ МЕТАФОРЫ В НАУКЕ БАЙАН.

Аннотация. В данной статье анализируется значение метафоры в науке байан с теоретической и практической точек зрения. Метафора рассматривается как средство, которое расширяет выразительные и эстетические возможности речи, применяя слово или выражение в значении, отличном от его первоначального. В исследовании освещаются история, развитие, типы метафор и их функции в риторическом, литературном и культурном контексте.

Статья подчеркивает, что метафоры не только делают смысл более ясным и выразительным, но и усиливают эмоциональное восприятие слушателя, придают тексту ритмический и образный характер, а также позволяют выражать сложные понятия в простой и доступной форме. Анализ показывает, что метафора занимает центральное место в байане, обогащая красоту и воздействие литературных и научных текстов, повышая эффективность объяснительно-образовательного процесса. Таким образом, понимание теоретических основ и практического применения метафоры имеет большое значение в области науки байан и литературоведения.

Ключевые слова: байан, метафора, речь, выражение, смысл, эстетическое воздействие, литература, образный язык, риторический эффект.

Kirish. Balogʻat imining bir qismi boʻlib, uning asosiy funksiyalarini bajarib beradigan bayon ilmining ustuni hisoblangan istiora soʻzlovchi oʻz maqsadini ifodalashda muhim oʻrin tutadi.

Aqlli tinglovchi ishoralar va kinoyalarni ham tushunaveradi, shuning uchun ular bilan gaplashganda qisqalik (ijoz) uslubini qoʻllash maqsadga muvofiq boʻladi. Chunki u tez tushunadi, zehni chaqqon, soʻz va maʼnolarni chuqur idrok etishga qodir, ularning orasidagi bogʻliqlikni anglaydi va natija chiqarishga layoqatlidir. Ammo mufassallik (itnob) esa tushinishi sust boʻlgan yoki qasddan tushunmaslikka uringan kishilar uchun zarur boʻladi. Chunki bundaylar bilan gaplashishda maʼno ochiqlab berilishi, dalillar keltirilishi va izohlar bilan mustahkamlanishi lozim. Bu baʼzida ularni qanoatlantirish, baʼzida esa ularning inodidan chiqish va haqiqatni ularning oʻziga isbotlash uchun zarur boʻladi.

Asosiy qism. Ushbu badiiy sanat qadimdan arab sheʼriyatida mavjud boʻlgan boʻlsa-da, “istiʼloh” (uslubiy-terminologik atama sifatida)ning paydo boʻlishi ancha kech roʻy berdi. Chunki bu atamaning shakllanishi Qurʼoni karim atrofida paydo boʻlgan shubhalarga javob berish jarayonida, shuningdek, turli davrlardagi shoirlar oʻrtasida olib borilgan mufaddala (taqqosiy) tadqiqotlardan keyin yuzaga kelgan.

Abu Ubayda haqida aytganda, garchi uning Majaz al-Qurʼan asari lugʻaviy izohlaryani soʻz va iboralarining maʼnolarini sharhlash xarakteriga koʻproq yaqin boʻlsa-da, unda balogʻatga oid masalalar ham mavjud boʻlib, keyingi balogʻat olimlari undan katta foyda koʻrganlar. Ammo Abu Ubaydaning “majaz” atamasidan koʻzlagan maʼnosi bizga yetib kelgan texnik balogʻat terminidan farq qiladi. Chunki u bu soʻzga bir nechta maʼnolar yuklagan, jumladan:

Uslub yoki ifoda yoʻli,

Maʼno bilan aytiluvchi iboraning muqobili,

Arablarining nutq yoʻllarini sharhlash.

Shu maʼnoda u “majaz”ni balogʻatchilar tushungan umumiy maʼnoda yaʼni “yoʻl, ifoda yoʻli” maʼnosida qabul qilgan. Demak, Abu Ubayda nazarida majaz Qurʼon maʼnolarini toʻgʻri anglashga eltuvchi ifoda yoʻlidir.

Bizning suhbat mavzumiz boʻlgan istiʼoraga kelsak, bu atama Uning an-Naqaʼid asarida ochiq ravishda uchraydi. U yerda u shunday deydi:

Farazdaq Jarirga aytgan baytida:

“Uvzu an-nisaʼ Yasuqna ka-l-ajal.”

(“Ayollar farzandlarini himoya qiluvchi tuyalar kabi boshpana boʻladilar.”)

Bu baytda “Uvzu an-nisaʼ” deb aytilgan “Uvzu” soʻzi aslida “bolalari bilan birga boʻlgan tuyalar”ni anglatadi. Arablar bu atamani ayollar uchun koʻchma maʼnoda qoʻllaganlar. Bu esa istiʼoraning aniq namunasidir. Arablar bunday koʻchirishni koʻp qiladi.

Shuningdek, “al-ajal” bu “buzoq”lar toʻdasi boʻlib, uning yakkasi “ijil”dir.

Abu Ubayda nazarida istiʼora bu soʻzni oʻziga aslida belgilangan maʼnodan, unga qoʻyilmagan boshqa maʼnoga koʻchirishdir.

Johiz al-Bayan va-t-tabyin hamda al-Hayavan asarlarida istiʼoraga alohida eʼtibor beradi. U al-Bayan va-t-tabyinda shunday deydi:

“Boshqa bir shoir shunday degan:

Goʻyo vayron boʻlgan uyingni koʻrmishman, ey diyor,

uni vaqt oʻzgartirgan, oʻlim vayron qilgan.

Kechasi uzoqlashib, koʻchib ketganlarning izlari oʻrnida,

uni qurganlarning qoʻllari barpo etgan binolar kabi.

U goʻyo ustunlariga koʻz yosh toʻkib turgandek,

bulut esa uni bosib, ustiga soyasini tashlamoqda.”

Al-Johiz bayon qilishicha:

Shoirning “mamsaha” (kechasi) masaha maʼnosida;

“magʻnaha” u qurilgan joy maʼnosida ishlatilgan;

“al-gʻina” oʻsha yerda istiqomat qilgan kishilarning turar joyi;

“tafiqat” koʻp yigʻladi, davom etdi degani.

Shoir uyning ustunlariga bulutning yigʻisini koʻzlari deb tasvirlagan. Bu yerda “ikkala koʻz” bulutga nisbatan qoʻllangan istiʼora boʻlib, bir narsa oʻrniga boshqa narsaning nomini qoʻllashga misoldir. “Aʼraʼs” ustunsiz, poydevori ochiq qolgan, vayron boʻlgan joy deganidir.

Al-Johiz yana deydi: “Azob hech qachon rizq oʻrnida boʻlmaydi”.

Ammo azob boshqa birovning ne'mati uchun mo'ljallangan joyda, o'sha ne'matning o'rnida kelgani uchun shu nom bilan atalgan, ya'ni bu ham isti'oraga misol.

Yana boshqa bir shoir shunday degan:

"Men: 'Ey Umayr, menga bir oz xurmo ber', dedim.

Mening xurmom esa ko'mir va olov kabi edi".

Xurmo aslida na ko'mir, na olov bo'ladi, ammo bu yerda isti'ora asosida shunday ifodalangan.

Demak, insiyob (so'zning oqib ketishi, ma'nodagi siljish) aslida ma'noga xos tabiiylikdir. Natijada so'zning o'z ma'nosini tark etib, uning o'rniga boshqa ma'no qo'yish va undan foydalanish mumkin bo'ladi.

Jahiz bu haqda shunday deydi:

Agar bir narsa o'z o'rnida boshqa narsaga o'xshatilsa yoki uning o'rnida ishlatilsa, bu tashbih yoki badal nuqtai nazaridan joizdir. Chunki bir narsa boshqa bir narsa o'rnida turishi mumkin. Arablarning odatida ham ko'plab holatlarda shunga o'xshashlik qilinadi.

Shu tariqa Jahiz oyatlar va baytlarga bergan izohlarida, hamda isti'ora ta'rifida so'zni asl ma'nosidan boshqa ma'noga ko'chirish hodisasini ma'lum darajada lug'aviy ma'noga yaqinlashtirgan. Ya'ni, so'zning ma'lum ma'noda mashhur bo'lgan holatidan uni boshqa odatda qo'llanmaydigan ma'noga o'tkazish jarayoni sifatida talqin qilgan.

Ibn Qutayba isti'oraga ta'rif berar ekan, shunday deydi:

"Arablar bir so'zni boshqa bir so'z o'rnida ishlatadi, chunki ular o'rtasida ma'lum bir o'xshashlik, yaqinlik yoki mushtaraklik bo'ladi."

U bunga misol sifatida quyidagi baytni keltiradi:

"Ko'karib turgan bulutlarning nafasi quridi."

Yana shoirning:

"Agar osmon yerga yog'sa,

Biz uni (yaylovdek) o'tlatamiz, agar ular g'azablangan bo'lsalar ham."

Shuningdek arablarning: "Yer kuldi" degan so'zlash odati, yoki Alloh taoloning: "O'sha kunda boldir ochiladi" (Qalam surasi, 43-oyat) kabi iboralari ham isti'oraga misoldir.

Ibn Qutaybaning isti'oraga bergan ta'rifi va u keltirgan misollardan ko'rinadiki, u isti'orani o'xshashlik yoki yaqinlik asosida bir so'zni boshqa so'z o'rnida ishlatish deb biladi.

Balog'at ilmi namoyandalarining jinas turlarini belgilash borasidagi ta'riflari ayniqsa, keyingi davr olimlari tomonidan keltirilgan tasnif to'liq aniqligi bilan ajralib turmaydi. Chunki ularning aytishicha, jinasning dastlabki ikki turi murakkab jinasning (الجناس المركب), uchinchi turi esa isti'oraning o'ziga; to'rtinchi turi esa tashbeh yoki isti'oraga (الاستعارة التمثيلية) yaqin turadi.

Mubarrad tashbeh masalasiga bag'ishlab keng bir bob ajratadi. U tashbeh haqida so'z yuritir ekan, ba'zan isti'oraga ham ishora qiladi, biroq uni aniq atama bilan tilga olmaydi. Shunday misollardan biri sifatida u shoir Imru'ul-Qaysning quyidagi baytni keltiradi:

"Bening yuganlagan yugurug'im — yovvoyi hayvonlar uchun qamardek bo'ldi".

(shoirning: "بمنجرد قيد الأوابد هيكلاً" misrasiga ishora)

Mubarrad bu misolda otning yovvoyi jonivorlarni jilovlovchi qamarga o'xshatilishini alohida ta'kidlab o'tadi.

U shuningdek, Qur'oni karimdagi quyidagi oyat asosida jinas murakkab (الجناس المُرسَل) turiga ham ishora qiladi:

"Inni aroni a'siru xomro" (Yusuf surasi, 36-oyat)

Bu yerda "a'siru" (men siqyapman) lafzi uzumni siqib sharbat olish ma'nosidan kelib chiqib, kelajakda ro'y beradigan holatga — ya'ni voqe' bo'ladigan natijaga kinoya tariqasida qo'llangani aytiladi.

Sa'lab isti'orani quyidagicha ta'riflaydi:

"Bir narsaga boshqa bir narsa nomi yoki boshqa bir ma'noni ko'chirish" (ya'ni, lafzni o'z ma'nosidan ko'chirish).

U isti'oraga Imru'ul-Qaysning tun tasviri haqidagi mashhur bayti orqali misol keltiradi. Shoir bunga tuyaga xos bo'lgan sifatni ko'chirib ishlatadi:

"U kechani shunday tasvirlaydiki, go'yo u ortiga og'ir yuk ortgan, gavdali bir tuyaga o'xshab keladi: 'Orqasi egilgan, gavdasi og'ir yukdan bukilgan, yonboshlab cho'zilmoqda...'".

Bu baytda tunning tasviri tuyaga xos belgi va harakatlar orqali ifodalangan bo'lib, Sa'lab buni isti'oraga yorqin misol sifatida keltiradi.

Shundan so'ng u bir qator kinoyaviy isti'oralarga doir ko'plab shohidlarni (dalillarni) keltiradi, biroq ularning nomini tilga olmaydi. Masalan, u Zuhayrning "o'lim o'z yukini qo'ydi" degan iborasidagi isti'orani

keltiradi va sharhlab: “O‘limning yuklari bo‘lmaydi”, deydi. Shuningdek, Ta‘abbata Sharraning “naylarning og‘izlari tishlab kuldi” mazmunidagi isti‘orasi haqida gapirib: “O‘limning tishlari bo‘lmaydi”, deb izohlaydi.

U isti‘ora tasrihiyya (ochiq/ravshan isti‘ora)ga oid bir dalilni ham nomini aytmadan zikr etadi. Bir badaviy (ko‘chmanchi arab) bir kishini tavsiflab shunday deydi:

“Libosingning yelkasini unga ro‘mol qilding, falokat esa unga o‘zining dahshatini solib sudradi”.

Yana Ibn al-Mu‘tazzning: “U qiliching bilan (ularning) botirlarining boshlarini egdirding” degan so‘zi keltiriladi. Bu yerda “libos”ning “qilich” uchun ishlatilgani isti‘ora sifatida ko‘rsatilgan.

Ibn al-Mu‘tazz isti‘orani badiya bobida tilga oladi, uning nomini ochiq aytadi va ta‘rif beradi. U shunday deydi: “Alloh taoloning ‘Biz ularni aniq Kitobda yozib qo‘ydik’ (Zuxruf surasi, 4-oyat) degan oyati badiiy so‘zdir”. Shuningdek, u shoirning: “Tong yulduzi porlab bo‘ynidan so‘yilgan (marhum) kabi ko‘rindi” degan so‘zini ham badiiy ibora sifatida tilga oladi. Chunki bu yerda bir narsa bir narsa orqali tanilgan ma’noda boshqa narsaga ko‘chirilgan: masalan “Kitob”, “Zill qanoti” (xokisorlik qanoti), yoki shoirning: “Fikr amallarning miyasi” degan so‘zi. Agar u: “Fikr amallarning yuragi” desaydi, bu badiiy bo‘lmas edi.

Ibn al-Mu‘tazz shuningdek Imru‘ al-Qaysning isti‘oralariga misol keltiradi.

Shuningdek, turli xil tashvish va g‘amlar haqida aytilgan: “Tun dengiz to‘lqinlaridek to‘lqinlanib, ustimga pardalarini yoydi; unga dedim: cho‘zilma, bas qil”. Bu misralarning barchasi isti‘oradan iboratdir. Chunki tunning na qattiq tanasi bor va na ojizligi mavjud.

E‘tiborga molik jihat shuki, Ibn al-Mu‘tazz isti‘orani o‘zining ta‘rifida shunday tushuntiradiki, u tashbehning ikki tarafini eslatib, undagi vosita va o‘xshatish yuzini olib tashlagan shaklidir. Bu esa keyingi olimlar tomonidan tashbih al-balig‘ deb nomlangan tushunchaga to‘g‘ri keladi. Buni uning misollaridan aniq ko‘rish mumkin: “Fikr amalning o‘zak markazidir”, hazrat Alining (r.a.) “Ilm qulf, uning kaliti esa so‘rashdir” degan so‘zlari, yoki hazrat Oishaning (r.a.) “Uning amali doimiy edi” degan iboralari bunga misoldir.

Al-Hotamiy esa isti‘orani quyidagicha ta‘riflaydi:

“Isti‘oraning haqiqatiga ko‘ra, bir so‘zni aslida qo‘yilgan narsadan olib, avval qo‘yilmagan boshqa narsaga ko‘chirishdir”.

Tahlil. Arabshunos olimlar istiorani bayon ilmida tutgan o‘rni borasida shunday tarif beradilar: Hotamiy isti‘ora borasida “ko‘chirish” (an-naql) g‘oyasini birinchi bo‘lib ilgari surgan olim hisoblanadi. Bu g‘oya so‘zni tilda o‘ziga xos ma’noda qo‘yilgan asl ma’nosidan, aslida qo‘yilmagan boshqa ma’noga o‘tkazish demakdir. Ammo u bu jarayonda qarina (daliliy kontekst)ni tilga olmaydi.

Shuningdek, u isti‘oraga “irdaf” (ergashtirish, ketma-ket kelish) degan nomni ham qo‘llaydi va uni isti‘oraning turlaridan biri sifatida ko‘radi. Masalan, u Imru‘ul-Qaysning quyidagi so‘ziga ishora qiladi:

“Yuganlangan, uzoq yugurishga mo‘ljallangan ot gavdasi xuddi uyg‘onib turgandek, qushlar esa uyalarida turibdi.”

Bu turdagi isti‘ora irdaf deb ataladi. Ya‘ni, shoir bir ma‘noni ifodalashni xohlaydi, biroq o‘sha ma‘noni bevosita bildiradigan lafzni keltirmay, balki unga ergashuvchi va uning “izdoshi” bo‘lgan boshqa bir lafzni qo‘llaydi. Chunki izdoshi (radifi) anglashilganida, unga ergashgan asl ma‘no ham anglashiladi.

Masalan, “qayd al-avabid” (yovvoyi hayvonlarni tutuvchi qo‘lbog‘) iborasi shundaydir. Shoir bu bilan otning tezligini tasvirlamoqchi bo‘lgan: ya‘ni, otni ovga qo‘yganida u yovvoyi hayvonlar uchun go‘yoki “qayd” kabi bo‘ladi, ular esa unga “qo‘lbog‘” kabi bo‘lib qoladi. Buning ma‘nosi shuki, otning oldinga otilishi va chaqqonligi sabab, yovvoyi hayvonlar go‘yoki ot tomonidan bog‘lab qo‘yilgandek, tutib olingandek bo‘ladi.

Aslida “qayd al-avabid” iborasining haqiqiy ma‘nosi “yovvoyi hayvonlarni tutuvchi, ularni to‘xtatuvchi narsa”. Ammo isti‘ora shaklida kelgan “qayd al-avabid” bundan ham kuchliroq va go‘zalroq tasvirdir. Shuningdek, asirga nisbatan “qayd al-tin” deyilgani, yoki otni ta‘riflashda “qayd al-raham” iborasining qo‘llangani, hamda “ko‘zlar fikrlarning qamog‘i”, “ko‘z nuri qalbning qo‘lbog‘i” kabi iboralar ham barchasi otdan olingan isti‘oraviy tuzilmalar turkumiga kiradi.

Qudama isti‘ora haqida gapiradi, ammo unga aniq ta‘rif bermaydi. U shunday deydi: Avs (ash-Shoniy) aytgan:

“Tutqunlik belgisiga aylangan belan (bala’) jim bo‘lib qoldi, yirtiq kiyimli, vayron holatdagi kishi esa uning aybini oshkor etdi.”

Shoir bu yerda bolani “tavlab” – ya‘ni eshak bolasiga qiyoslab ataydi. Bu ham uning boshqa bir baytiga o‘xshaydi:

“U tuyani oyoq (saq) va tuyoq (hafir) bilan haydaydi; bolalar uxlab qolguncha men uning (odamning) oyog‘ini tuyoqqa o‘xshatganini ko‘rdim.”

Shoir odamning oyog'ini "tuyoqqa" o'xshatgan. Qudama esa bu kabi isti'orani tanqid qiladi va shunday deydi: "Bu isti'oraning meni bu darajaga tortgani — juda yomon, uzrga loyiq bo'lmagan xatodir."

Ko'plab yirik va yetuk shoirlar istiora san'atidan keng foydalanganlar. Ba'zan bu istioralarda bunday qo'pol ifodalar uchragan bo'lsa-da, ularga ba'zi jihatlardan uzr ham bor. Chunki bunday iboralar ko'pincha tashbeh yo'li bilan keladi. Shunga misol tariqasida Imru'ul-Qaysning quyidagi baytini keltirish mumkin:

«Naqaltu lahu l-lata matiyya bisalbihi
va-ardafa a'jaza avna'in bi-kalkal»

Qudama ibn Ja'farning istiorani tanqid qilgan o'rni uning nutqiy (fonetik) tasniflaridan ta'sirlanganini ko'rsatadi. Vaholanki, u mazmunga diqqat qilganida edi, ushbu ikki misrada istiorani tashbehga qiyoslab talqin qilish zarurligini anglagan bo'lardi.

Ali ibn Abdulaziz Jurjoniylar istiorani quyidagicha ta'riflaydi:

"Istiora shunday san'atki, unda asl ma'no egasidan olingan nom bilan kifoyalaniladi; ibora o'z manzilidan ko'chirilib, o'rniga boshqa ma'noni anglatuvchi so'z qo'yiladi. Uning maqsadi o'xshatishni yaqinlashtirish, mustaor (ko'chirib olingan) ma'noning mustaor minhu (o'zagidan ko'chirib olingan) bilan munosabatini ko'rsatish, lafzning ma'no bilan shu qadar uyg'unlashib ketishidirki, ular orasida hech qanday nomuvofiqlik sezilmaydi, birining ikkinchisidan yuz o'g'irgani bilinmaydi."

Ushbu ta'rifdan ayon bo'ladiki, istiorada ikki tomondan faqat birining zikri bilan kifoyalaniladi; ammo ular orasida muvofiqlik, yaqinlik bo'lishi, lafz bilan ma'no bir-biriga uyg'un holda qo'shilishi shart. Aynan mana shu shart istioraning hissiy (hissiy tasvirga asoslangan) turi bilan qabih istiora (nojo'ya, zaif istiora) orasidagi farqni belgilab beradi.

Jurjoniylar shunday deydi:

"Bizning ba'zi do'stlarimiz Abu Tayyib (al-Mutanabbiy)ning ba'zi istioralarni haddan oshirib yuborganini aytishgan, ya'ni u istiorani odat va uslub chegaralaridan chiqarib yuborgan. Ulardan biri uning quyidagi baytidir..."

... "Ba'zi odamlarning qalblarida muhabbat, poklik va ezgulik yonib turadi; bu tuyg'ular pok insonlarning ko'ngillarida nur sochadi" degan jumlagi ishora qilib, shoir shunday deydi:

"Zamonning yuragi ulardan biridir; ularning qalblari bir joyda jam bo'lgach, u: 'Poklik, yaxshilik va ezgulik bularning qalblari; zamon esa ulardan ta'sir oluvchi bir yurakdir', dedi."

Bu yerda keltirilgan tashbeh va istiora yaqin ham, uzoq ham bo'lmagan o'xshatish asosida qurilgan. Istioraning go'zalligi va qimmatini belgilaydigan narsa o'rinli munosabat, mazmunga moslik va kontekstda tabiiy ko'rinishidir. Shu sababli "zamonning yuragi" degan istiora o'z tabiatiga ko'ra aybli emas; ayb shu o'rinda u mazmun talabiga to'liq javob bermagani uchundir.

Shoir maqtayotgan shaxsning oliy himmat sohibi ekanini ta'kidlashni istaydi. Bu, albatta, maqtov uchun chiroyli ma'no. Ammo zamon odatda himmat, matonat yoki qat'iyat bilan ta'riflanmaydi; aksincha, falakning gardishlari, davrning aylanishi, vaqtning o'tishi unga nisbat beriladi. Shu sababli Jurjoniylar bu istiorada yaqin yoki uzoq o'xshatish yo'qligini aytgan bo'lishi mumkin.

Ammo zamon uchun "yurak" istiorasidan butunlay voz kechish va uni yomon istioralar qatoriga qo'shish to'g'ri emas. Jurjoniylarning o'zi ham ko'plab uzoq istioralarni ma'qul ko'rgan. Bundan tashqari, ilk bo'lib qoziy (Qoziy Jurjoniylar nazarda tutiladi) balog'li tashbehni (tashbih al-balig') istioradan mustaqil bir bo'lim sifatida ajratgan, bu masala keyinroq tashbeh va istiora bahsida yana keladi.

Xulosa. Arablar bir so'zni asl ma'nosidan boshqa narsaga istiora yo'li bilan ko'chirishganida, bu o'sha narsa bilan bog'liq bir qarindoshlik, yaqinlik, holatdagi o'xshashlik yoki sabab-natija munosabati bo'lganda sodir bo'ladi. Shunda o'sha so'z istiora qilingan narsa uchun mos va uning ma'nosiga munosib bo'lib qoladi."

Sakkokiylar isti'orada rusalning ijozasini (ya'ni, ruxsat etilgan badiiy kengaytmani) ham kiritganini quyidagi so'zlarida bayon qiladi: "yoki u (isti'ora) sabablaridan biri bo'lsa". Bu yerda muallifning maqsadi musta'ar lah (kimga ko'chirilgani) bilan musta'ar minhu (qaysidan ko'chirilgani) o'rtasida ma'lum bir aloqa mavjud bo'lishi kerakligini ta'kidlashdir. U bu fikrini bir qancha misollar bilan dalillaydi. Shulardan biri Imru'ul-Qaysning mashhur bayti:

وَأَرْزَقْتُ أُعْجَازًا وَأَنْثَاءَ بِكَلَالٍ
فَقُلْتُ لَهُ لِمَا تَمَطَّى بِصُلْبِهِ

Muallif bu isti'orani eng mukammal isti'oralardan biri deb baholaydi va shunday deydi: Imru'ul-Qaysni tanqid qilgan ba'zi kimsalar ma'nolar mohiyatini ham, isti'oralarning mohiyatini ham bilmagan kishilardir. Aslida esa ushbu iste'mol nihoyatda go'zal, puxta va to'g'ridir. Shoir uzun kechaning holatini tasvirlamoqchi bo'lgan: uning o'rtasining cho'zilishi, boshlanish (ko'krak) qismidagi og'irlik va harakatga kelish, oxirgi qismlarining (ag'zo) asta-sekin bir-biriga ergashib kelishi.

Muallifning fikricha, bu tasvir uzun kechaning barcha sifatlarini o'z holicha mukammal tarzda ifodalaydi va kechaning o'tishini kuzatib turgan kishiga juda ta'sirli ko'rinadi. Shu bois shoir kechaning o'rtasiga "sulb" (belsiz, umurtqa) degan nomni iste'mol qilishni o'rinli deb bildi, chunki o'rtaning cho'zilishi "tamatti" (tortilish, cho'zilish) bilan uyg'un. Xuddi shuningdek, kechaning boshlanish qismiga (ko'kragiga) "kalakil" (ko'krak suyagi) nomini ko'chirish ham uning ko'tarilish holati sababli juda yaroqlidir.

Bu isti'oralar haqiqatga eng yaqin, ma'no bilan eng ko'p mutanosib bo'lgan isti'oralardir.

Demak, muallifning bu isti'orani maqtashi shoir ko'zlagan ma'noga eng mos tushgani uchundir. Aynan shu narsa Sakkokiy tilga olgan "yaqinlik" (qurb) tushunchasining haqiqiy mazmunini tashkil qiladi.

ADABIYOTLAR:

1. Ahmad Mumin, *السانيات النشأة و التطور*, Diyo al-Matbu'at al-Jami'iyah, Bin 'Aknun, Jazoir, 2002.
2. Idris Maqbul, *الأسس الإستيمولوجية والتداولية للنظر النحوي عند سيبيويه*, Al-Urdun, 'Alam al-Kutub al-Hadith, 2006.
3. Isma'il Basha al-Bag'dadiy, *هدية العارفين أسماء المؤلفين وآثار المصنفين من كشف الظنون*, Majmu'a, Dar al-Kutub al-'Ilmiyya, Bayrut, Lubnan, 1413/1993–1994.
4. Baha' al-Din al-Subki, *عروس الأفراح في شرح تلخيص المفتاح*, Tahrir: Da'ud 'Abd al-Hamid Hindavi, Juz', Al-Maktaba al-'Asriya li al-Tiba'a va al-Nashr, Bayrut, Lubnan, 1423/2003.
5. Tamam Hassan, *الأصول، دراسة إستيمولوجية للفكر اللغوي عند العرب النحويين*, 'Alam al-Kutub, 1420/2000.
6. Tamam Hassan, *اللغة العربية: معناها ومبناها*, Al-Hay'a al-Misriya al-'Ammal lil-Kitab, Misr.
7. Tavfiq Qarira, *المصطلح النحوي وتفكير النحاة العرب*, Jumhuriyya at-Tunisiyya, Dar Muhammad Ali li al-Nashr, 2003.
8. Jamal al-Din Ibn Hisham al-Ansari, *مغنى اللبيب*, Dar al-Fikr li al-Tiba'a va al-Nashr va al-Tavzi'.
9. Jurji Zidan, *تاريخ آداب اللغة العربية*, Taq: Ibrahim Sahravi, Muvafaq lil-Shar, al-Raghaya, Jazair, 2001M.
10. Haji Xalifa, *كشف الظنون*, Majmu'a, Dar al-Fikr, Bayrut, Lubnan.
11. Xadija al-Hamdani, *المركبات في العربية*, Dar Osama li al-Nashr va al-Tavzi', Al-Urdun, 2008.
12. Suyutiyy. *بغية الوعاة في طبقة اللغويين والنحاة*, Tahrir: Muhammad Abu J., Al-Maktaba al-'Asriya li al-Tiba'a va al-Nashr va al-Tavzi', Bayrut, Lubnan.

EPIK VA DRAMATIK TURNING ASOSIY UNSURLARI VA ULARNING BADIY–ESTETIK FUNKSIYASI

Jo'rayeva Dilnozaxon Otabek qizi,

Farg'ona davlat universiteti "O'zbek adabiyoti" mutaxassisligi magistranti

Farg'ona, O'zbekiston

jorayevadilnoza@046gmail.com

Annotatsiya. Maqolada epik va dramatik turning poetik tabiati, ularning kompozitsion qurilishi va badiy–estetik funksiyalari ilmiy asosda tahlil qilinadi. Xususan, dramatik matnda remarkaning vazifalari, uning sahna harakati, qahramon psixologiyasi, ichki konfliktini kuchaytirish va dramatik vaziyatni aniq ko'rsatishdagi o'rni keng yoritiladi. Tadqiqotda remarkaning turlari — o'rin-joy, holat, harakat va psixologik remarkalarning barchasi misollar asosida sharhlab berilgan. Shuningdek, epik turda voqelikning muallif nutqi orqali ochilishi va dramatik turda esa dialog-remarka tizimiga tayanishi o'zaro qiyosiy tahlil qilinadi. O'zbek dramaturgiyasidan, jumladan Sharof Boshbekov va Omon Muxtor asarlaridan olingan misollar asosida remarkaning kompozitsion tuzilmadagi ahamiyati, sahna dinamikasiga ta'siri va badiiy mazmunni boyitish imkoniyatlari ko'rsatib beriladi. Tadqiqot davomida zamonaviy o'zbek nasrida ham remarkaga yaqin muallif izohlarining kuchayib borayotgani, epik va dramatik turlar o'rtasidagi estetik yaqinlashuv jarayonlari ilmiy xulosalar bilan asoslanadi.

Kalit so'zlar: dramatik tur, epik tur, remarka, psixologizm, sahna, dramatik harakat, kompozitsiya, badiy–estetik funksiya.

ОСНОВНЫЕ ЭЛЕМЕНТЫ ЭПИЧЕСКОГО И ДРАМАТИЧЕСКОГО РОДА И ИХ ХУДОЖЕСТВЕННО-ЭСТЕТИЧЕСКАЯ ФУНКЦИЯ

Аннотация. В статье всесторонне рассматриваются художественно-поэтические особенности эпического и драматического рода, их композиционная структура и эстетические функции. Особое внимание уделяется роли ремарки в драматическом произведении как одному из ключевых средств раскрытия психологизма, передачи сценического движения, формирования ритма и уточнения эмоционального состояния персонажей. Анализируются различные виды ремарок — пространственные, двигательные, ситуационные и психологические, — показаны их функции на основе примеров из узбекской драматургии, в частности произведений Шарофа Бошбекова и Омона Мухтора. Кроме того, проводится сравнительное исследование эпического и драматического родов, выявляются общие и отличительные черты их поэтики. Отмечается тенденция «сценизации» современного узбекского эпоса, где авторские комментарии во многом сближаются с ремарками. В результате делаются научно-теоретические выводы о центральной роли ремарки в драматической композиции и её значении для формирования художественно-эстетического целого произведения.

Ключевые слова: драматический род, эпический род, ремарка, психологизм, сцена, драматическое действие, композиция, художественная функция.

THE MAIN ELEMENTS OF THE EPIC AND DRAMATIC GENRES AND THEIR ARTISTIC-AESTHETIC FUNCTION

Abstract. The article provides a comprehensive analysis of the poetic nature, structural elements, and artistic-aesthetic functions of the epic and dramatic genres. Particular emphasis is placed on the role of stage directions (remarks) in drama as a crucial narrative and compositional device. The study explores how various types of remarks — spatial, action-oriented, situational, and psychological — contribute to shaping stage movement, revealing character psychology, intensifying dramatic conflict, and constructing the overall rhythm and emotional tone of the performance. Through examples from modern Uzbek dramaturgy, especially the works of Sharof Boshbekov and Omon Muxtor, the paper demonstrates the expanding semantic and structural significance of remarks within dramatic texts. Furthermore, the research compares epic and dramatic modes, highlighting differences in their narrative strategies and forms of psychological depiction. The article also identifies a recent tendency in Uzbek prose where authorial commentary increasingly resembles dramatic stage directions, indicating a growing aesthetic convergence between epic and dramatic genres. The findings confirm the central role of remarks in dramatic poetics and their substantial contribution to the artistic integrity of the literary work.

Keywords: dramatic genre, epic genre, remark, psychological depiction, stage action, composition, artistic-aesthetic function.

Kirish. Epik va dramatik asarlar o'zining badiiy tabiatiga ko'ra bir-biridan farq qilsa-da, har ikkala turda ham voqelik badiiy talqin asosida yoritiladi. Epik turda voqelik muayyan masofadan turib, muallif nutqi, tasvir va hikoya orqali ifodalansa, dramatik turda badiiy haqiqat sahna harakati, dialoglar tizimi va qahramonlarning o'zaro to'qnashuvi orqali ochiladi. Shu bois bu ikki turning poetik xususiyatlarini solishtirish jarayoni nafaqat ularning ichki strukturasini, balki adabiy tafakkurni shakllantiruvchi estetik mexanizmlarni ham chuqurroq anglashga yordam beradi.

Dramatik asarlarda badiiy psixologizm hikoya va tasvir vositasida emas, balki dialog, monolog hamda remarkalar orqali beriladi. Dialog — dramatik asarning asosiy harakatlantiruvchi kuchi bo'lib, qahramonning xarakteri, maqsadi, ichki kechinmalari aynan dialoglar zidiyati orqali ochila boradi. Monologlar esa personaj ruhiy olamining eng chuqur qatlamlariga kirib borish imkonini yaratadi.[1]

Dramada vaqt,davr,joy tasviri ham boshqa turlardan farq qiladi. San'atkor tabiatni rang-barang sharoitlarni keng ifodalay olmay,faqat,ko'pi bilan 4-5 xil ko'rinishni ko'rsatish bilan kifoyalanadi.Pyesa uzoq vaqt,ni,bir qancha davrlarni qamrab olish imkoniyatiga ega bo'lmay,balki tasvirlangan voqea qisqa vaqt,hattoki ko'p hollarda bir necha kunda ,bir necha soatda bo'lib o'tadi.

Ayniqsa remarka dramatik matnning tarkibiy-mantiqiy asosini tashkil etib, sahna harakati, qahramon holati, kayfiyati, ovoz ohangi va imo–ishoralarini ko'rsatadi. Remarka muallif ovozi sifatida asarning estetik mohiyatini to'g'ri anglashda muhim vosita bo'lib xizmat qiladi. U nafaqat sahna ko'rinishining tashqi ifodasini belgilaydi, balki personajlarning psixologik holatini aniq yo'naltiradi, dramatik vaziyatning intensivligini oshiradi, sahna harakatiga ritmiklik baxsh etadi. Shu jihati bilan remarka dramaning badiiy-estetik talqinida alohida o'rin egallaydi.

Epik asarlarda esa tasvir keng qamrovli bo'lib, voqealar zanjiri ketma-ket rivojlanadi, qahramonlarning ruhiy olami muallifning bevosita izohi, muallif nutqi, detal va tasvirlar orqali ochiladi. Shu bois epik matn bilan dramatik matnning estetik vazifalari turlicha bo'lib, har ikkisi adabiyotning badiiy imkoniyatlarini boyitadi, inson va uning ruhiyati haqidagi tasavvurlarni kengaytiradi.

Mazkur mavzu — epik va dramatik turning asosiy unsurlari hamda ularning badiiy-estetik funksiyasini o'rganish — adabiy janrlar poetikasini chuqur tahlil qilish, ularning o'zaro bog'liqligi va farqlanish nuqtalarini mukammal ko'rsatish imkonini beradi. Bu esa nafaqat nazariy jihatdan muhim ahamiyatga ega, balki dramatik asarlarni sahnalashtirish jarayonida ham qo'l keladi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Mazkur tadqiqotning ilmiy asosini epik va dramatik tur unsurlarining poetik xususiyatlarini o'rganish, ularning badiiy-estetik vazifalarini tahlil qilish tashkil etadi. Tadqiqot jarayonida adabiyotshunoslikda keng qo'llaniladigan klassik va zamonaviy ilmiy metodlardan kompleks tarzda foydalanildi. Har bir metodning mazkur mavzu bo'yicha qo'llanishi ilmiy natijaning ishonchli va puxta chiqishiga xizmat qiladi.

1. Qiyosiy tahlil metodi. Ushbu metod epik va dramatik tur unsurlarini o'zaro taqqoslash, ularning o'xshash va farqli jihatlarini aniqlash uchun qo'llandi. Epik asarlarda voqelikning tasviriy ifodalanishi, muallif nutqining ustuvorligi, dramatik asarlarda esa dialog, remarka va sahna harakati orqali badiiy mazmunning ochilishi qiyosiy aspektida tahlil qilindi. Bu metod orqali:

- har ikki turning badiiy strukturasidagi farqlar,
- psixologizm ifodasining turlicha ko'rinishlari,
- kompozitsion qurilishning o'ziga xos jihatlari aniqlashtirildi.[2]

2.Strukturaviy tahlil metodi. Dramatik matnning butun tuzilmasini tahlil qilishda ayniqsa strukturaviy yondashuv muhim ahamiyat kasb etdi. Xususan, dramatik asarlardagi remarkalarning vazifasi, kompozitsiyadagi o'rni, sahna harakati ritmini belgilashdagi roli strukturaviy tahlil yordamida chuqur o'rganildi. Bu metod dramatik matnning:

- ichki mantiqini,
- epizodlar o'rtasidagi bog'lanishni,
- remarkalarning estetik yuklamasini aniq ko'rsatib berdi.

3.Deskriptiv usul (tasviriy tahlil). Dramatik sahna tasvirining mazmuni, personajlarning ruhiy holati, muallifning eslatma va izohlar orqali bergan ma'no qatlamlarini sharhlashda deskriptiv metod qo'llandi. Ushbu usul yordamida:

- sahna makoni va vaziyatning estetik talqini,
- dialog va remarkalar orqali yaratilgan muhit,
- badiiy detallar tizimi izchil sharhlab berildi.

4.Ilmiy–genetik tahlil. Muallif qarashlari, ularning shakllanishiga ta'sir ko'rsatgan badiiy manbalar, ijodiy an'ana va estetik qarashlar evolyutsiyasi ilmiy-genetik tahlil orqali o'rganildi. Bu metod yordamida:

- Sharof Boshbekov va Omon Muxtor dramaturgiyasining ildizlari,

- ularning epik va dramatik tajribalardan foydalanish usullari,
- janrlararo aloqalar va badiiy meros bilan bog'liqligi ilmiy asosda tahlil qilindi.

Muhokama va natijalar. D. Quronov ta'rifiga ko'ra, remarka – sahna voqeasining joyi, vaqti, harakati, personajlarning ruhiy holati haqida muallif tomonidan beriladigan izohdir.

Remarkaning turlari:

- o'rin-joy remarkasi
- harakat remarkasi
- holat remarkasi
- psixologik remarka

G'arb adabiyotining buyuk namoyandasi Uilyam Shekspir tomonidan yaratilgan "Romeo va Julyetta" tragediyasi sof va beg'ubor muhabbatning jamiyat qarama-qarshiliklari fonida fojiaga aylanishini tasvirlovchi eng mashhur asarlardan biridir. Asar voqealari Verona shahrida yashovchi, azaldan o'zaro dushman bo'lib kelgan Montague va Capulet sulolalari qarama-qarshiligi asosida rivojlanadi. Ana shu murosasiz adovat ichida voyaga yetgan Romeo va Julyetta bir-birini chin dildan sevib qoladilar. Ularning muhabbati ijtimoiy muhit, oilaviy bosim, shoshqaloq va noto'g'ri qarorlar sabab fojiali yakun topadi. Asarda sevgi nafaqat shaxsiy tuyg'u, balki jamiyatdagi adolatsizlik va nizolarga qarshi turgan kuch sifatida talqin qilinadi. Muallif ushbu tragediya orqali jamiyatdagi nafrat va adovat insoniy baxtni qanday barbod qilishi mumkinligini chuqur falsafiy ma'noda ochib beradi.

Sharq mumtoz adabiyotida esa Alisher Navoiy qalamiga mansub "Farhod va Shirin" dostoni muhabbat, sadoqat, mardlik va insoniy kamolot g'oyalarini mujassam etgan yuksak badiiy asar sifatida alohida o'rin egallaydi. Dostonda Farhod obrazi chin muhabbat yo'lida har qanday mashaqqatga bardosh beruvchi ideal qahramon sifatida tasvirlanadi. U Shiringa bo'lgan cheksiz sevgisi tufayli og'ir sinovlarga duch keladi, tog'larni teshib, xalq manfaatini ko'zlab fidokorona mehnat qiladi. Farhod obrazi orqali Navoiy muhabbatni faqat his-tuyg'u emas, balki sabr, iroda, mehnat va ma'naviy poklik bilan namoyon bo'ladigan yuksak fazilat sifatida talqin etadi. Shirin obrazi esa go'zallik bilan bir qatorda aql, vafodorlik va matonat ramzi bo'lib, Sharq ayoliga xos ideal fazilatlarini o'zida mujassam etadi.

Har ikkala asarda ham muhabbat inson hayotining markaziy mazmuni sifatida talqin qilinadi. Biroq ularning badiiy yondashuvida muhim farqlar mavjud. "Romeo va Julyetta"da sevgi ko'proq fojiaiy ruhda, yosh va tajribasiz qalblarning jamiyat to'siqlari bilan to'qnashuvi orqali tasvirlanadi. Asarda muhabbat tashqi muhitga bo'ysungan, jamiyatdagi nizolar qurboniga aylangan tuyg'u sifatida namoyon bo'ladi. "Farhod va Shirin"da esa muhabbat faol va bunyodkor kuch bo'lib, qahramonni ma'naviy yetuklik sari yetaklaydi. Bu yerda sevgi insonni yuksaltiruvchi, uni el manfaatiga xizmat qilishga undovchi kuch sifatida talqin etiladi.

Shu tariqa, mazkur ikki asar turli davr, madaniyat va adabiy an'analarda yaratilgan bo'lsa-da, ularni birlashtiruvchi asosiy g'oya — chin muhabbatning qudrati va inson taqdiriga beqiyos ta'siri hisoblanadi. "Romeo va Julyetta" muhabbatning fojiaiy qismatini, "Farhod va Shirin" esa uning yuksak ma'naviy va axloqiy mohiyatini ochib beradi. Ushbu asarlarni qiyosiy tahlil qilish orqali adabiyotda muhabbat mavzusining G'arb va Sharq adabiyotiga xos o'xshash hamda farqli jihatlarini yanada chuqurroq anglash mumkin bo'ladi.

Adabiyotlar tahlili. Turli xalqlar adabiyotida sevgi mavzusi doston, tragediya va ayniqsa roman janrida turlicha ruhda tasvirlanib kelinadi. Ayrim asarlarda muhabbat fojiaiy yo'sinda yoritilib, sevishtanlar jamiyatdagi to'siqlar, ijtimoiy tengsizlik, urf-odatlar yoki adovat sabab baxtga erisha olmaydilar. Masalan, G'arb adabiyotida Uilyam Shekspirning "Romeo va Julyetta" asari hamda Viktor Gyugoning "Parij Notr-Dami" romanida sevgi fojiaiy yakun topib, insoniy adolatsizlik va jamiyat muammolarini ochib beradi. Bunday asarlarda sevgi eng sof tuyg'u bo'lishiga qaramay, ko'pincha qurbonlik bilan yakunlanadi.

Ko'plab romanlarda esa sevgi qahramonlik, fidoyilik va matonat ruhida tasvirlanadi. Bunday asarlarda muhabbat qahramonlarni og'ir sinovlardan o'tishga, o'z maqsadi va baxti yo'lida kurashishga undaydi. Sharq mumtoz adabiyotida Alisher Navoiyning "Farhod va Shirin" dostoni hamda G'arb adabiyotida Migel de Servantes yoki Aleksandr Dyumaning ayrim romanlarida sevgi insonni jasoratli va bardoshli qiluvchi kuch sifatida talqin etiladi. Qahramonlar muhabbat tufayli nafaqat shaxsiy baxti, balki jamiyat manfaatini ham ko'zlaydilar.

Shuningdek, ko'plab romanlarda sevgi inson ruhiy olamining o'sishi va kamol topishi bilan bog'lab tasvirlanadi. Masalan, Lev Tolstoyning "Anna Karenina" romanida muhabbat insoniy kechinmalar, axloqiy tanlov va jamiyat bosimi bilan uzviy bog'liq holda yoritilgan. Sharq adabiyotida esa muhabbat ko'pincha ma'naviy poklik, vafodorlik va sabr bilan uyg'un holda tasvirlanadi. Bu holat har bir xalqning tarixiy tajribasi va madaniy qadriyatlari bilan bevosita bog'liqdir.

Shu tariqa, turli xalqlar adabiyotida sevgi ba'zan fojiaiy, ba'zan esa qahramonlik ruhida ifodalanib, roman va boshqa janrlarda inson hayotining eng muhim va ta'sirchan mavzularidan biri sifatida namoyon bo'ladi. Muhabbat mavzusi adabiyotda doimo dolzarb bo'lib, u o'quvchini hayot, jamiyat va inson qalbi haqida chuqur mushohada yuritishga chorlaydi.

Tadqiqot metodlari va natijalari. Mazkur tadqiqotda "Romeo va Julyetta" hamda "Farhod va Shirin" asarlarini o'rganishda bir nechta ilmiy-uslubiy metodlar qo'llanildi. Tadqiqotning asosiy maqsadi — syujet, qahramonlar va muhabbat mavzusining badiiy talqinini qiyosiy tahlil qilishdir.

Qiyosiy-tahliliy metod yordamida ikki asardagi umumiy va farqli jihatlar aniqlanib, ularning muhabbat mavzusini talqin qilish uslublari o'rganildi. Shu natijada ma'lum bo'ldiki, "Romeo va Julietta"da sevgi fojiaiy ruhda tasvirlangan bo'lib, sevishtanlar jamiyatdagi adovat va oilaviy nizolar tufayli fojiali yakun topadi. "Farhod va Shirin" dostonida esa muhabbat qahramonlik va fidoyilik ruhida yoritilgan, Farhod sevgisi yo'lida og'ir sinovlardan o'tib, sabr va matonat bilan maqsadiga erishadi. Tadqiqot shuni ko'rsatdiki, badiiy talqin turlicha bo'lishiga asarlarning yaratilgan davri, madaniyati va adabiy muhitining ta'siri katta.

Tavsifiy (deskriptiv) metod yordamida qahramonlarning xarakteri, ruhiy holati va ularning voqealardagi harakatlari batafsil o'rganildi. Romeo va Julietta yosh va tajribasiz qalblar sifatida tasvirlanib, ularning sevgi kechinmalari fojiali yakun bilan bog'lanadi. Farhod esa fidoyilik va jasorat timsoli sifatida, o'z sevgisini namoyon qilish yo'lida barcha mashaqqatlarni yengib o'tadi. Shu metod yordamida asardagi voqealar rivoji va qahramonlarning ichki dunyosi keng qamrovda tahlil qilindi.

Tarixiy-adabiy metod orqali asarlarning yaratilgan davri, mualliflarning dunyoqarashi va ijtimoiy-madaniy sharoiti o'rganildi. Shu asosda aniqlanishicha, G'arb adabiyotida sevgi ko'proq fojiaiy yakun bilan talqin qilinsa, Sharq adabiyotida u sabr, iroda va ma'naviy yuksalish bilan bog'liq holda tasvirlanadi. Bu farqlar har bir xalqning tarixiy tajribasi va madaniy qadriyatlari bilan uzviy bog'liq.

Matnni tahlil qilish va interpretatsiya metodlari yordamida asardagi muhim syujet sahnalari, qahramonlararo munosabatlar va muhabbat holatlari o'rganildi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, mualliflar sevgi, sadoqat va insoniy fazilatlarini turlicha aks ettiradi: "Romeo va Julietta"da sevgi inson hayotini fojiaiy tarzda shakllantirsa, "Farhod va Shirin"da sevgi insonni kuchli, matonatli va sabrli qiluvchi kuch sifatida namoyon bo'ladi.

Solishtirma misollar yordamida esa Sharq va G'arb asarlaridagi sevgi talqinidagi o'xshashlik va farqliklar aniqlangan. Har ikkala asarda muhabbat markaziy mavzu bo'lsa-da, ularning badiiy talqini va qahramonlarning xarakteri turlicha. Shu bilan birga, voqealar rivoji, muallif g'oyasi va asar janri turlicha bo'lishiga qaramay, har ikkala asarda sevgi insoniy hayotning eng muhim va ta'sirchan qismi sifatida tasvirlangan.

Tadqiqot davomida qo'llanilgan metodlar yordamida asarlarni chuqur o'rganish va ularni bir-biri bilan qiyosiy tahlil qilish imkoniyati yuzaga keldi. Shu yo'l bilan asarlar orqali sevgi mavzusining Sharq va G'arb adabiyotida qanday yoritilishi, qahramonlarning kechinmalari va muallif g'oyalari batafsil tahlil qilindi.

Xulosa. Mazkur tadqiqot davomida "Romeo va Julietta" hamda "Farhod va Shirin" asarlari qiyosiy tahlil qilinib, ularning muhabbat mavzusini talqin etish uslublari, qahramonlarning xarakteri, syujet tuzilishi va muallif g'oyalari batafsil o'rganildi. Tadqiqot natijalariga ko'ra, har ikkala asarda sevgi markaziy mavzu bo'lib, inson hayotidagi eng muhim va ta'sirchan tuyg'u sifatida tasvirlangan. Shu bilan birga, Sharq va G'arb adabiyotida muhabbat turlicha talqin qilinadi. "Romeo va Julietta"da sevgi ko'proq fojiaiy ruhda ifodalangan bo'lib, yosh sevishtanlarning oilaviy adovat, ijtimoiy to'siqlar va noto'g'ri qarorlar tufayli fojiali yakun topadi. Bu orqali G'arb adabiyotida muhabbat inson hayotini fojiaiy tarzda shakllantiruvchi, kuchli hissiyot va taqdir sinovi sifatida ko'rsatiladi. Farhod va Shirin dostonida esa sevgi qahramonlik va fidoyilik ruhida yoritilib, Farhodning sabr, matonat va mardligi orqali sevgi insonni maqsad sari yetaklovchi kuch ekanligi namoyon bo'ladi.

Tadqiqot shuni ko'rsatdiki, adabiyotdagi sevgi mavzusi nafaqat insoniy kechinmalarni aks ettiradi, balki muallifning dunyoqarashi, davr va madaniy muhiti ham aks ettiradi. Masalan, Sharq mumtoz adabiyotida sevgi ko'pincha sabr, iroda va ma'naviy poklik bilan bog'liq bo'lsa, G'arb adabiyotida u yoshlik, tajribasizlik va jamiyat to'siqlari bilan bog'liq fojiaiy kechinmalar orqali tasvirlanadi. Shu yo'l bilan tadqiqot adabiy asarlardagi sevgi mavzusining xalqning tarixiy, madaniy va ijtimoiy xususiyatlari bilan chambarchas bog'liqligini aniqladi.

Tavsifiy va matn tahlili metodlari yordamida qahramonlarning xarakteri va ruhiy holati batafsil o'rganildi. Romeo va Julietta yosh va beg'ubor qalblar sifatida, bir-biriga bo'lgan muhabbatni ifoda etishda qiyinchiliklarga duch keladi, bu esa G'arb asarlarida sevgi bilan bog'liq dramatik voqealarning shakllanishiga olib keladi. Farhod esa sevgisi yo'lida tog'larni teshib, mashaqqatli ishlar bilan shug'ullanishi orqali Sharq adabiyotida sevgi insonni kamolot sari yetaklovchi kuch sifatida talqin qilinishini ko'rsatadi. Shu orqali tadqiqot qahramonlarning xarakteri va ularning harakatlarini muallif g'oyasi bilan bog'lash imkonini berdi.

Tarixiy-adabiy metod yordamida asarlarning yaratilgan davri, ijtimoiy-madaniy muhiti va muallifning dunyoqarashi ham tahlil qilindi. Natijada aniqlanishicha, har bir asarda sevgi mavzusining badiiy talqini, qahramonlarning kechinmalari va voqealar rivoji muallifning davri va jamiyatiga mos ravishda shakllangan. Masalan, Shekspirning asarlarida jamiyatdagi urf-odatlar va oilaviy nizolar sevgi voqealarining fojiali

yakunini belgilasa, Navoiy dostonlarida sevgi insonning iroda va fidoyiligini namoyon qiluvchi kuch sifatida tasvirlanadi.

Solishtirma tahlil natijalari shuni ko'rsatdiki, har ikkala asarda sevgi insoniy fazilatlarni yoritish, qahramonlarni ichki kamolotga yetaklash va jamiyatdagi muammolarni aks ettirish vositasi sifatida ishlatilgan. Shu bilan birga, ularning badiiy talqini turlicha bo'lishiga qaramay, sevgi mavzusi doimo dolzarb va markaziy mavzu bo'lib qoladi. Tadqiqot shuni ham ko'rsatdiki, sevgi mavzusi nafaqat shaxsiy kechinmalarni ifodalash, balki adabiy asarlar orqali ijtimoiy muammolarni yoritish va insoniy qadriyatlarni targ'ib qilish vositasi sifatida ham xizmat qiladi.

Shu tariqa, tadqiqot davomida qo'llanilgan metodlar va olingan natijalar "Romeo va Julyetta" hamda "Farhod va Shirin" asarlarida muhabbat mavzusining Sharq va G'arb adabiyotida qanday talqin qilinishini aniq ko'rsatdi. Har ikkala asar orqali muhabbatning inson hayotidagi o'rni, qahramonlarning ruhiy kechinmalari, sadoqat va fidoyilik kabi insoniy fazilatlar yoritildi, bu esa adabiyotda muhabbat mavzusining markaziy va doimo dolzarb ekanligini tasdiqlaydi.

ADABIYOTLAR:

1. Saydaliyeva, G. (2022). «Sharq-U G'arb Renessans Adabiyoti: Navoiy va Shekspir» mavzusidagi xalqaro ilmiy-nazariy konferensiya materiallari.
2. Uilyam Shekspirning "Romeo va Juletta" roman
3. Uilyam Shekspir "Romeo va Juletta" asari haqida maqola . Dilnoza Murodova Otabek qizi tarjimasi –2022.
4. Alisher Navoiy "Hamsa" asari.
5. Hayitmetov A. "Temuriylar davri o'zbek adabiyoti". - Toshkent: Fan, 1996.
6. "O'zbekiston adabiyoti va san'ati" gazetasi. 2021.
7. Alisher Navoiy "Farhod va Shirin" Mukammal asarlar to'plami
8. Erkinov S., Farhod va shirinning qiyosiy tahlili"
9. Rahimov, Sh. "Shekspirning O'zbekistonda qabul qilinishi". Toshkent: O'zbekiston Milliy universiteti nashriyoti, 2020.
10. Farxodov, U. "Shekspir va zamonaviy o'zbek adabiyoti". Maqola, O'zbek adabiyot

SHE'RIYATDA TABIAT MANZARASI ORQALI IJTIMOY-SIYOSIY MAVZULARNING IFODALANISHI

(Cho'lpon va Rauf Parfi ijodi misolida)

Sohibova Zarnigor Nusratilloevna,

Buxoro davlat universiteti O'zbek tili va adabiyoti kafedrası doktoranti (DSc)

zarnigorsohibova1988@gmail.com

z.n.sohibova1@buxdu.uz

Annotatsiya. Peyzaj lirikasi poetik tafakkurning o'ziga xos ko'rinishi bo'lib, unda shoir tabiat manzaralari orqali o'z hissiyotlari, dunyoqarashi, estetik ideali va zamonning muhim ijtimoiy-siyosiy masalalarini ifoda etadi. Zero, so'z san'ati hamisha davrning o'tkir masalalariga javob beruvchi ko'zgu bo'lib kelgan. Mazkur maqolada she'riyatda tabiat tasvirining inson va jamiyat o'rtasidagi murakkab dialektik munosabatlarni aks ettirishdagi o'rni tahlil qilinadi. Unda peyzaj obrazlari orqali ijtimoiy voqelik manzarasi qanday namoyon bo'lishi ilmiy asosda yoritilgan. Tadqiqot obyekti sifatida Abdulhamid Cho'lpon va Rauf Parfi she'rlari tanlangan. Izlanish natijalari o'zbek adabiyotshunosligida badiiy tafakkur evolyutsiyasi tahlilida nazariy va amaliy jihatdan xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: peyzaj lirikasi, poetik tafakkur, ijtimoiy-siyosiy ramziylik, Cho'lpon, Rauf Parfi, badiiy tasvir, lirik qahramon, ijtimoiy voqelik.

ВЫРАЖЕНИЕ СОЦИАЛЬНО-ПОЛИТИЧЕСКИХ ТЕМ ЧЕРЕЗ ПЕЙЗАЖНЫЕ ОБРАЗЫ В ПОЭЗИИ (на примере творчества Чулпана и Рауфа Парфи)

Аннотация. Пейзажная лирика является специфическим проявлением поэтического мышления, в котором поэт через картины природы выражает свои чувства, мировоззрение, эстетический идеал и важнейшие социально-политические проблемы времени. Ведь искусство слова всегда служило зеркалом, отражающим острые вопросы эпохи. В данной статье анализируется роль изображения природы в поэзии как средства отражения сложных диалектических отношений между человеком и обществом. На научной основе освещается то, как через пейзажные образы проявляется панорама социальной действительности. В качестве объекта исследования выбраны стихотворения Абдулхамида Чулпана и Рауфа Парфи. Результаты исследования служат теоретической и практической базой для анализа эволюции художественного мышления в узбекском литературоведении.

Ключевые слова: пейзажная лирика, поэтическое мышление, социально-политический символизм, Чулпан, Рауф Парфи, художественное изображение, лирический герой, социальная действительность.

EXPRESSION OF SOCIO-POLITICAL THEMES THROUGH NATURE IMAGERY IN POETRY (On the Example of Cho'lpon and Rauf Parfi's Works)

Abstract. Landscape lyricism is a unique manifestation of poetic thought, in which the poet expresses his feelings, worldview, aesthetic ideal, and the crucial socio-political issues of the era through nature imagery. Indeed, the art of the word has always served as a mirror responding to the pressing issues of the time. This article analyzes the role of nature descriptions in poetry in reflecting the complex dialectical relationships between individual and society. It explores on a scientific basis how the panorama of social reality is manifested through landscape images. The poems of Abdulhamid Cho'lpon and Rauf Parfi were chosen as the object of the study. The findings of the research serve both theoretical and practical purposes in analyzing the evolution of artistic thought in Uzbek literary criticism.

Keywords: landscape lyricism, poetic thought, socio-political symbolism, Cho'lpon, Rauf Parfi, artistic depiction, lyrical hero, social reality.

Kirish. Adabiyot, xususan, she'riyat hamisha o'z davrining ijtimoiy-siyosiy va ma'naviy hayotining ko'zgusi bo'lib kelgan. Ijodkor va shoirlar borliqning murakkab manzaralarini tasvirlash orqali inson va jamiyatga oid dolzarb masalalarni badiiy tasvirleydilar. Ayniqsa, peyzaj lirikasi tabiatni estetik jihatdan aks ettirish bilan birga ijodkorning borliqqa, jamiyat va atrof-muhitga oid falsafiy mushohadalarini, ijtimoiy-siyosiy qarashlari va ekologik muammolarni badiiy ifodalash imkoniyatini ham o'zida mujassamlashtiradi.

D.Quronovning fikricha, badiiy adabiyotning predmeti inson bo'lsa-da, uni jamiyat va tabiatdan ayri holda o'rganish mumkin emas, chunki inson tabiatan ijtimoiy hodisadir: "Adabiyotning ijtimoiy tabiatini uning predmetidan kelib chiqqan holda asoslash qulay. Adabiyotshunoslikka oid asarlarda, darsliklarda "badiiy adabiyotning predmeti – inson" deb ko'rsatiladi. Biroq mazkur fikrni tor tushunish, uni mutlaqlashtirish unchalik to'g'ri bo'lmaydi. Chunki adabiyot insonni alohida (izolyasiya qilingan) holda emas, balki jamiyat, tabiat (bir so'z bilan aytganda – borliq) bilan birlikda, uzviy aloqada o'rganadi. Zero, insonning o'zini ulardan holi, izolyasiya qilingan holda tasavvur etib bo'lmaydi, inson tabiatan ijtimoiy hodisadir" [4;32]. Olimning fikricha, badiiy adabiyotning predmeti inson bo'lsa-da, uni jamiyat va tabiatdan ajratgan holda o'rganib bo'lmaydi, chunki inson tabiatan ijtimoiy hodisadir. Adabiyot esa insonni jamiyat, tabiat va butun borliq bilan uzviy bog'liqlikda o'rganadi. Binobarin, adabiyot ham o'z asarlarida insonni mana shu keng kontekstda, ya'ni uning atrof-muhit va jamiyat bilan o'zaro munosabatlari, bog'liqlilari orqali tasvirlaydi. Bu yondashuv adabiyotning nafaqat shaxsiy kechinmalar, balki ijtimoiy-siyosiy va ekologik muammolarni ham aks ettirish funksiyasini nazariy jihatdan mustahkamlaydi.

Asosiy qism. O'zbek she'riyatidagi kuzatishlarimizga asosan tabiat obrazlari jamiyatdagi adolatsizlik, erkinlikka intilish, zulm, qashshoqlik, urush yoki siyosiy o'zgarishlarga munosabat kabi ijtimoiy-siyosiy masalalarni aks ettirishga xizmat qiladi. Shoirilar tabiatning ahvoli orqali jamiyatning ma'naviy yoki siyosiy holatiga ishora qiladilar. She'riyatda ijtimoiy masalalarni yoritish ma'rifatparvarlik adabiyotidan boshlandi. Jadid adabiyotida kuchaytirildi.

Jumladan, Furqat ijodida ham tabiat obrazlariga ko'p murojaat qilinganligi kuzatiladi. "Shoirning "Bahor ayyomida", "Bu bahor ayyomi", "Istar ko'ngil", "Fasli navbahor", "Fasli guldur" g'azallarida vatan va tabiatning go'zalligi yorqin va ta'sirli ifodalar orqali beriladi" [8;42]. Bu g'azallardagi yorqin peyzaj tasvirlari esa Furqat uchun shunchaki manzarani ifodalash emas, balki jamiyatdagi ma'naviy-axloqiy va ijtimoiy ziddiyatlarni aks ettirishga xizmat qiluvchi o'ziga xos uslubiy vositadir. Furqat she'rlarida ayniqsa bahor tasviri, ko'klam go'zalligi, tabiatdagi qizg'in hayot lirik qahramon iztiroblariga hamohang tasvirlanadi, shuningdek, ma'rifatparvarlik davri adabiyotidagi ijtimoiy chorasizlik va adolatsizlik mavzularini ko'tarishning badiiy vositasi sifatida namoyon bo'ladi. Yangi o'zbek she'riyatida barmoq va sochma vaznidagi she'rlarning rivojida Fitratning alohida o'rini e'tirof etish lozim. Uning she'rlarida tabiat tasviri, peyzaj elementlarini ko'plab uchratish mumkin. Jumladan, "Ovunchoq" [1;37] "Shoir" [1;40], "O'gut" [1;41], "Parcha" [1;41], "Mening kecham" [1;44] kabi she'rlari bu borada diqqatni tortadi. Fitrat she'riyatida peyzaj ijtimoiy-siyosiy mavzularni yashirin yetkazish vositasi sifatida namoyon bo'ladi.

Cho'lpon o'zbek jadid adabiyotining yirik vakili sifatida she'riyatda tabiat tasviridan foydalanishda mutlaqo yangi ufqlarni ochdi. Uning peyzaj lirikasidagi har bir manzara shunchaki go'zal badiiy ifoda emas, balki chuqur timsoliy mazmun bilan ziynatlangan. Uning she'rlarida tabiat manzaralari va yil fasllari tasviri lirik "men"ning individual hissiyotlarini ifodalash bilan bir qatorda, zamonning haqsizliklari va mustamlakachilik zulmini ramziy tarzda aks ettiradi. Shu yo'l bilan, Cho'lpon lirikasi ijtimoiy-siyosiy g'oyalarni badiiy ifodalashning yuksak namunasi darajasiga ko'tarildi. Adabiyotshunos B.Qosimov Cho'lpon she'rlari haqida fikr yuritarkan, shunday yozadi: "Cho'lpon she'rlarida tabiat manzaralari, fasllar tasviri aksariyat shoirning ruh va kayfiyatiga emas, qay bir darajada g'oya va maslagini ham o'zida namoyon etadi. 1921-23 yillarda yozilgan she'rlarida tabiatga ijtimoiy sifatlar berilardi. Manzaraga mos zamon voqealari – haqsizliklarga ishora qilinardi. Bir so'z bilan aytganda, tabiat ijtimoiylashardi va bular ko'pincha "Sharq" va "G'arb" muqoyasasida berilardi" [3;451]. Bu qarashlardan Cho'lpon ijodida tabiat tasviri talqinida ikki asosiy holat nazarda tutilgani anglashiladi:

1. Psixologik vazifa: tabiat manzaralarining lirik qahramon ruhiyatini (individual hissiyot va kechinmalarini) ifoda etishi.

2. Ijtimoiy-siyosiy ramziylik: tabiat obrazlari orqali ijtimoiy-siyosiy hodisalarga munosabat bildirish, ya'ni ijodkorning o'zi yashagan tuzum bilan bog'liq haqsizlik, zulm va ijtimoiy ziddiyatlarni ramziy tarzda aks ettirishi.

Kuzning mumtoz she'riyatda inson umrining o'rta yoshlik davriga qiyoslanishi an'anaviydir. Ayni vaqtda "xazon" deya ataluvchi bu fasl lirik qahramon ruhiyatini, tuyg'u-kechinmalarini ham ifodalab keladi. Qolaversa, undagi za'faron yaproqlar ramziy ma'noda iztirob, hijron, insoniy dardlarni o'zida aks ettiradi. Kuz manzarasi zamonaviy o'zbek adabiyoti sahifalarida ham ko'pchilik ijodkorlar tomonidan badiiy gavdalantirilgan bo'lsa-da, bu fasl tasvirini ijtimoiy-siyosiy ramziylik bilan bog'lash va bu jihatdan chuqur ma'no kasb ettirishda Abdulhamid Cho'lpon she'riyati yetakchilik qiladi. Shoir she'rlarida betakror ma'no tovlanishlari, ohorli tashbehlar, poetik ifoda yaxlitligi kuzatiladi. Zero, "shoir davrning og'riqli dardlarini, zamondoshlarining alamli va mahzun kayfiyatini, goho ehtirosli qalb kechinmalarini tasvirlashda" [5;111] kuzga murojaat etdi. Uning "Kuz", "Xazon", "Kuz yomg'iri", "Kuz guliga" singari she'rlari bu jihatdan

e'tiborni tortadi. Mazkur she'rlarda lirik qahramon ruhiyatining ochib berilishi barobarida millat taqdiri ham qalamga olingan.

Sh.Hojiyeva Cho'lpon lirikasidagi poetik yangilanishlarni yoritib ekan, shoirning kuz haqidagi she'rlariga e'tibor qaratadi. Jumladan, olimaning ta'kidlashicha, "Fasllar ichida kuz tasviri yetakchi o'rin tutishi ayni haqiqat. Chunki kuz – xazon fasli. U orqali aksar hollarda shoir qalbidagi dard, uni qiynagan iztiroblar, orzu va armonlar ziddiyati, vatan va millat qismati badiiy talqin etilgan... Shoir "Kuz" sarlavhali she'rida tabiat hodisalarini millat qismatiga bog'lab ko'rsatadi" [2;37]. Bunda kuz tabiatiga xos mahzunlik Cho'lpon yashagan davr voqeligi, millatning qalb og'riqlari, iztiroblari bilan vobastalikda ifoda etilgan. Ya'ni kuz tasviri shoir she'riyatida, avvalo, lirik qahramon ruhiyatini yoritgan, qolaversa, ijtimoiy hayot manzaralarini ham ramziy ifodalashga xizmat qilgan. Binobarin, "Kuz" she'rida shoir yozadi:

*Ko'm-ko'k ekan, sarg'aydilar yaproqlar,
Og'riq, mag'lub, tutqun Sharqning yuzidek.
Bo'ronlarning ko'zlarikim, o'ynoqlar
G'olib G'arbning qonga to'lgan ko'zidek* [9;86].

Sh.Hojiyeva Cho'lponning shu mavzudagi she'rlari asosida ilmiy mulohazalarini bayon etib, "Ko'm-ko'k yaproqlar sarg'ayishi holatining "og'riq, mag'lub, tutqun Sharqning yuzi"ga qiyoslanishi zamirida Cho'lpon qalbidagi buyuk bir dard – mustamlaka girdobida qolib, tanazzulga yuz tutgan ona Turkistonning foje' qismati qalamga olingan" [2;38] deydi. Bunda kuz ranglari va o'sha davrdagi mazlum Turkiston o'rtasidagi uyg'un holatlar poetik ifoda etilgan. Bu orqali Cho'lpon she'riyatida kuz tasviri shunchaki mavsumiy manzara bo'lib qolmay, balki Sharqning og'riqli taqdirini ramziy allegorik tarzda aks ettirishga xizmat qilgan. Shoirning mahorati tabiatdagi obyektiv holatlarni lirik subyektiv kechinmalar hamda ijtimoiy-siyosiy ziddiyatlar bilan uzviy bog'lashda yaqqol namoyon bo'ladi. Shuningdek, she'rda ijtimoiy-siyosiy ziddiyatlar quyidagi ramzlar orqali aks ettiriladi:

*Qora bulut to'dasikim, ko'klarni
Sharqni yopgan parda yanglig' yopmishdir.
Kuz qo'shini og'u to'lug' o'qlarni,
Yoz bag'riga hech sanoqsiz otmishdir.*

Qora bulut to'dasi ramziy ma'noda erk va ozodlik dushmanini, ya'ni mustamlakachilik zulmini ifoda etmoqda. Bunda u ozodlik sari oshiqayotgan Sharq "osmon"ini, undagi nurni parda kabi to'sib turibdi. "Kuz qo'shini" shoirning betakror istiorasi bo'lib, kuzdagi sarig' barglarni ifodalaydi. "Og'u to'lug' o'qlar" obrazi ham yozdagi yashillikni za'faron tusdagi yaproqlarga aylantirgan qora kuch sifatida ijtimoiy mazmunga ega.

O'zbek adabiyotining xassos shoiri Rauf Parfi she'riyatida inson yuragining tub-tublarigacha yetib boruvchi mazmun va ohang mujassam. Shoir asarlaridagi poetik tafakkur yangilanishlari shunday ma'naviy maydon yaratadiki, go'yo bu yerda yuksak tafakkurli, yangi davr adabiyoti bilan qadamma-qadam yo'lga chiqqan kitobxon bilan ijodkor o'rtasida samimiy suhbat boshlanadi. Rauf Parfi o'z o'quvchisi bilan avvaldan tanish kabi mayda tafsilotlar orqali emas, murakkab ramzlar vositasida ko'ngillashadi. Bu yangicha ijodiy yondashuv uning lirik olamida sarhadsiz tabiatni – uning poyonsizligi va zavol bilmasligini – shoirning ruhiy va ijtimoiy manzaralariga moslashishini ta'minlaydi. Bu uslub Rauf Parfi peyzajining o'ziga xosligini belgilaydi: tabiat tasvirlari shunchaki badiiy fon bo'lmay, balki lirik qahramonning ruhiyati va ijtimoiy-falsafiy fikrlarini aks ettiruvchi keng va tizginsiz ramziy makonga aylanadi. Bu chuqur ma'nolarni anglash uchun kitobxonning qalbi ham shoir darajasida olovqalb bo'lishi lozim.

*Chirmab borar olovli to'lqin,
To'lqinlarda bo'larman abas* [6;82].

Shu ikki misraning o'zida shoir olov va to'lqin obrazlari vositasida inson ruhoniyyatidagi qarama-qarshiliklar izdihomini ko'rsatib bera oladi. So'z bilan rassom kabi ko'rsatish qobiliyati har qanday shoirda ham mavjud bo'lavermaydi. Shoir – eng og'ir anglovchidir. Bu anglanishdan ma'no topganida olovday bir she'r tug'ilsa, mohiyat hayot voqeliklariga qo'shilib "abas" (befoyda/izsiz)ga aylangan chog'da shoir hissiyotlarining mavji, tafti (qaynovi) ham dengiz sathida bir paydo bo'lgach, nom-nishonsiz ketuvchi to'lqinlarga o'xshaydi. Har ikkala obrazda ham qanchalar "borlik" mavjud bo'lsa, shunchalar "yo'qlik" ham mujassam. Yangicha lirik tafakkurning mohiyati ham aslida shu borlik va yo'qlik o'rtasida hayotni anglashdir. Unda anglash mushkul, ammo harakatlarga boy hayotimiz anglanishi qiyin bo'lgani uchun ma'nosizlik (absurd) holiga keladi. Yoki aksincha, chuqur anglab turganimiz hodisalar bizni bevosita voqelikdan yiroqlarga – lirik qahramonning ruhiy olamiga uloqtiradi. Bu anglovchining o'ziga bir muddatlik sarsonlikday tuyulsa-da, aslida ana shu "uloqish"ning o'zi mohiyatdir. Rauf Parfi peyzaj vositasida ana shunday ismsiz tuyg'ularni ham ifodalab bergan:

MANA, CHAQMOQ CHAQDI NOGAHON,

*Zimiston tun choki so'kilar.
Shunday yaqin ko'rinar osmon,
Yashinlar yog'dusi to'kilar.
O't ichida poyonsiz jahon,
Ne izlarman otashlar ora?!*

Chaqmoq chaqib yupatar osmon:

— *Bunda sen-u va men bechora* [6;129].

Fikr keladi hamda miyaga bir ongina chaqmoqday uriladi. Butun zimiston hayotga yorug'lik oralaydi: insonda umid uchquni paydo bo'ladi. Ayni shu uchqun bu o'tli jahonning bir bo'lagi. Ammo atrofga boqqan lirik qahramon yana "qaytish" qiladi: "*chaqmoq chaqib yupatgan osmon*" ichra ovora ekanligimizni his etadi. Qayerga ketayotganligi haqida yana bir bor o'ylashga chog'lanadi. Bu hodisa yashash davomida har qanday insonda qaytalanaveradi. Bu inson umri davomida million marta takrorlanadigan, umidning uchqunlanishi va so'nishi kabi ruhiy ziddiyatni ifodalaydi.

Rauf Parfi she'riyatida chuqur ma'no anglatuvchi har bir ramziy obraz tabiat, borliqdan olingan bo'lib, shoir ularni lirik qahramonning ruhiy kechinmalari va ijtimoiy-falsafiy mushohadalarini ifodalashga xizmat qildirgan. Yoshlikni – zangor fasl, umidni – chaqmoq, yolg'izlikni – tashlab ketilgan uy, xoinlikni – quzg'un, ilojsizlikni – kesilgan og'och, yolg'onni – gullarga to'lgan dunyo va tikonlarga, nafs kishilari, hukmron Vatanni – quzg'unzorga o'xshatadi. Eng achchiq haqiqatlarni ham shu ramzlar vositasida ro'y-u rost aytdi:

BIR YONI BALAND TOG', MUDRAYDI BESAS,

Bir yoni so'ngsiz qir – uxlaydi uyqu.

O'rtada bir qabr – ko'zga tashlanmas,

Hayqirib uyg'otar dunyolarni u [6;139].

Bu "mudrayotgan tog'lar" Cho'lponning "tog' egasi sor-burgutlari" edi. uxlayotgan uyqu esa shoir tilidan tushmagan "zahmatlarda chirpingan bechora xalq". O'rtada esa uyg'onishni istamagan xalq va uyg'otishni ta'qiqlaganlar orasida ular barpo etgan ERK qabri turadi. Tog' va qir bag'ridagi yagona qabr ayni damda erkning yakkaligini ham ifodalaydi. Uning atrofiga birlashish uchun ancha zahmatlar va anglashlar kerakligini shoir bilardi. Ammo u kundan-kunga "maxsus kimsalar"ning istibdodi bilan qabrga aylanishga va sukunatga mahkum qilingan. "Maxsus kimsalar" deganda, bevosita istilochi davlatlar hamda ularning g'oyalarini o'ratgan va tatbiq etgan tuzum ma'murlari, siyosiy istibdod egalari nazarda tutilgan. Bu shaxslar va kuchlar uyg'onish g'oyasini bo'g'ib, millatning ERK qabrini barpo etgan asosiy dushmanlardir. Erk isyonini Rauf Parfi "Vetnam haqida qo'shiq" she'rida "Baqirgan sukunat" deb ataydi. 1966-yilda yozilgan shu to'rtlikda hech qanday izoh, tavsif vazifasini bajaruvchi kengaygan satrlar mavjud emas. Ammo shoir ayni shu zichlikda ramziy ma'noda zich va bo'g'ilgan havoga to'la Vatan tasvirini yaratgan. "Tegamda zich havo – Turkiston" ramzida ham shu holatni qiyofalashtirgan edi shoir. Bu davrning hamma insonlari zamon izmiga bo'ysunib yashayotgan bir pallani shoir ko'proq shamol obrazi bilan beradi:

DOLG'ALARNING SHOSHQIN ODIMI,

Shiddat ila yuzmoqda kemam,

U tomonda baxtim qoldimi,

Baxtsizligim qoldimi, bilman?

Yo'lni darg'a shamollar oldi,

Mana, sudrab borar kemamni.

U tomonda nimalar qoldi,

Bu tomonda ne kutar mani?.. [6;159]

Shoshqin dolg'alar tasviri davrni, jamiyatni ixtiyorsiz, bo'shliq tomon yetaklayotgan siyosiy oqim, zamonaning haybarakallachi kayfiyati ekanligi shoirga ayon edi. Bu satrlar shunchaki bir insonning shaxsiy baxti yoki baxtsizligi haqidagi o'ylar emas, balki butun millatning hayot yo'lini belgilash, maqsadini tushunish singari falsafiy muammolarni o'z ichiga oladi. "Shamol va to'lqinlar birlashgan" bu mustamlakachilik zamonasida esa, kemada (millat taqdirida) erkin ixtiyor va mustaqil yo'l belgilashga imkon qolmaganligi she'r mazmuniga chuqur singdirilgan.

Rauf Parfining peyzajida bulut obrazining alohida o'rni bor. Uning "Aleksandr Blok" (*Qora bulutlarni o'ynar osmon. / Olis yulduzlarning sirli shu'lasini*), "Pablo Neruda o'limiga" (*Dildirab lopillab turgan bulutlarning / Tobutida yotar jonsiz tafakkur*), "Tavfiq Fikrat kitobiga yozuv" (*Tushlarimda men yig'layman, / Bulutni uyg'otaman*), "Abdurauf Fitrat" (*Aytadir oy dardin bulut qo'ynida, / Bulutlar hurpaygan, na-da qoradir. / Dorlari muhaqqaq azlom bo'ynida, / Unutilgan, xo'rlangan xalq boradir*) "*Adashgan ruh*" (*Bulutlar – falakning ohlari*) [10] kabi qator she'rlarida bu obrazning istibdodga qarshi isyon mazmunida

ramziylik kasb etganini ko'rish mumkin. Bu yurtda falakda baxtli kezgan bulutlarni ham shoir "yiqilgan bulut" shaklida yoki "kulrang" [7;55] tusda tasvirlaydi. Xalq ustida yuk bo'lib turgan bu osmonning bag'riga uloqtirilgan haqiqatlar bir kuni yomg'ir bo'lib yog'ishi uchun bu osmon qayta-qayta qorayaveradi, bo'zaraveradi, bulutlar qovoq osaveradi: Bir yog'ish bor oldinda. Xalq ana shu "yog'ish"ni amalga oshirishi lozim edi.

Xulosa. O'zbek she'riyatida peyzaj lirikasi shunchaki tabiat manzarasini estetik zavq bilan tasvirlash vositasi emas, balki jamiyatdagi ijtimoiy-siyosiy o'zgarishlar, istibdodga isyon, milliy ozodlik orzulari va inson ruhiyatidagi murakkab ziddiyatlarni ifodalovchi ramziy tizimdir. Tadqiqot davomida Abdulhamid Cho'lpon va Rauf Parfi ijodi misolida peyzajning quyidagi muhim xususiyatlari aniqlandi:

1. Cho'lpon she'riyatida tabiat fasllari, xususan, kuz va xazon obrazlari mustamlaka asoratidagi millatning mahzun taqdiriga, "mag'lub va tutqun Sharq"ning fojeaviy qismatiga allegorik ishora sifatida namoyon bo'ladi. Shoir tabiatdagi obyektiv holatlarni davrning murakkab ijtimoiy-siyosiy hodisalari bilan uyg'unlashtira olgan.

2. Rauf Parfi ijodida tabiat obrazlari kuchli ijtimoiy metaforalardir. Shoir uchun tabiat tasviri hurlik va istibdod o'rtasidagi kurash maydonidir.

3. Davrlar vorisligi va badiiy tafakkur evolyutsiyasi: maqolada tahlil qilinganidek, Cho'lpon boshlab bergan jadidona peyzaj an'analari Rauf Parfi she'riyatida yanada murakkabroq falsafiy-psixologik qiyofa kasb etdi. Har ikki shoir ham tabiat tasvirini jamiyatning ma'naviy ahvolini ko'rsatuvchi "badiiy ko'zgu"ga aylantira oldi.

Muxtasar aytganda, Cho'lpon va Rauf Parfi she'riyatida peyzaj obrazlari – bu shunchaki tashqi dunyo tasviri emas, balki millatning uyg'onish, o'zlikni anglash va erk sari intilish yo'lidagi ichki va tashqi iztiroblarining badiiy-falsafiy in'ikosidir.

ADABIYOTLAR:

1. Фитрат. Танланган асарлар. I жилд. Шеърлар, насрий асарлар, драмалар. – Т.: Маънавият, 2000. – 256 б.
2. Ҳожиева Ш. Чўлпон ва миллий шеърятнинг янгилалиши. – Т.: Муҳаррир, 2018. – 152 б.
3. Қосимов Б., Юсупов Ш. ва б. Миллий уйғониш даври ўзбек адабиёти. – Т.: Маънавият, 2004. – 464 б.
4. Quronov D. Adabiyot nazariyasi asoslari: darslik. – Toshkent: Noshir, 2019. – 336 b.
5. Ражабова М. Чўлпон шеърятинда йил фасллариининг бадий талқинлари / Чўлпон ижоди ва замонавий адабий жараён. Конференция материаллари. – Т.: Mashhur-press, 2018. – Б. 110-115.
6. Рауф Парфи. Сакина. – Т.: Муҳаррир, 2013. – 376 б.
7. Рауф Парфи. Туркистон руҳи. Сайланма: шеърлар, таржималар. – Т.: Шарқ, 2013. – Б. 55.
8. Холид Расул. Зокиржон Фурқат ижоди. Ҳоди Зариф таҳрири остида. – Т., 1954. www.ziyouz.com кутубхонаси.
9. Чўлпон. Асарлар. I жилд. – Т.: Akademnashr, 2013. – 372 б.
10. <https://n.ziyouz.com/portal-haqida/xarita/uzbek-she'riyati/zamonaviy-o-zbek-she-riyati/rauf-parfi-1943-2005>



Navoiy gulshani

TIYRA KULBAMG'A KIRIB, JONO, O'LUMDIN BER NAJOT

Jumayeva Nozima Nurxon qizi,

Buxoro davlat universiteti

Adabiyotshunoslik yo'nalishi 2-bosqich magistranti

Alisher Navoiy – buyuk mutaffakir shoir. U o'zining mukammal ijodi va tasaffuviy qarashlari bilan mumtoz adabiyotda yuksak o'ringa ega. Ijodkorning nasriy va nazmiy asarlarida tarannum etilgan g'oyalar insoniyat ma'naviy olami rivoji uchun beminnat xizmat qiladi. Ayni mulohazani shoir g'azallariga nisbatan ham aytish mumkin. “G'azal klassik she'riyatning yetakchi janrlaridan biri bo'lib, u o'zbek klassik adabiyoti taraqqiyotining ko'p masala va xususiyatlarini ifodalaydi, lirik janrlarning mushtarak xususiyatlarini o'rganishda muhim manba bo'lib xizmat qiladi” [3, 8].

Ma'lumki, Navoiy lirik merosida ham g'azal salmoqli o'rin egallaydi. Navoiyning g'azaliyotga alohida e'tibor berishi va u haqida o'z qarashlarini bayon qilishi tabiiy bir hol edi. Alisher Navoiy, avvalo, g'azaliyotning g'oyaviy-tematik tomonlariga ko'proq e'tibor beradi. Shoir fikricha, g'azaliyotning asosiy yetakchi mavzusi «dard va so'z» (ishq va ishq otashi)dir [3,12]. Ayni mulohazani shoirning quyidagi baytida ko'rish mumkin:

Ey Navoiy, senu Xusrav bila Jomiy tavi,

San'atu rangni qo'y, so'zda kerak dard ila so'z [2, 162]

Shoir g'azallari mavzu jihatdan ham turfa xilda ekanligini ham ta'kidlash lozim. Jumladan, axloqiy, tarbiyaviy masalalar, diniy -tasavvufiy qarashlar ifodasiga ham alohida ahamiyat qaratilgan. Qolaversa, majoziy va ilohiy ishq g'oyasi keng planda yoritilgan. Masalan, “Badoye ul-bidoya” devonining 84-tartib raqamida berilgan g'azal mavzu jihatdan oshiqona bo'lib, yetti baytdan iborat:

Tiyra kulbamg'a kirib , jono, o'lumdin ber najot,

Zulmat ichra Xizrg'a ul na'vkim obi hayot.

G'azal matla'sidagi tiyra so'zi – qorong'u, qora, g'am – g'ussali kabi ma'nolarni bildiradi. Baytda lirik qahramon zulmat ichra (qorong'ulikdan) Xizrga obi hayot (tiriklik suvi) najot bergani kabi, tiyra (qorong'u, g'am-g'ussaga to'lgan) kulbanga jono kelib, menga o'limdan najot ato qil, deya ma'shuqaga iltijo qiladi. Shoir baytda nido (jono) orqali murojaat ruhini kuchaytirgan. Shuningdek, baytda bevosita Xizr payg'ambar hayoti, uning tiriklik suvini ichib abadiy yashashi kabi afsonaviy rivoyatga ishora qilingan, ya'ni talmeh vositasida fikr ta'sirchanligiga erishgan. Qolaversa, baytdagi tanosib so'zlar (tiyra, zulmat) shoir badiiy mulohazalarining chiroyli ifodasi uchun xizmat qilgan. Keying baytda yor go'zalligi va oshiq ko'nglining ta'rifi haqida so'z boradi:

Soda ko'nglum ichra la'lingning xayoli tushgali

Shishaedurkim, aning ichiga solmishlar nabot.

Baytdagi ayrim so'zlarning izohiga e'tibor qaratsak: Soda – 1) sodda, tiniq, toza, silliq; 2) Bezaksiz, naqshsiz, xolis; 3) Oddiy, jo'n, go'l , to'g'ri; Nabot – 1) o'simlik; 2) novvot; La'l – qizil rangli tosh; 2) qip-qizil lab, sevgilining qizil labi.

Shoir ma'shuqa ta'rifini har bir baytda bir go'zallik uzvining madhini keltirish orqali ifodalashga harakat qilgan. Yuqorida keltirilgan baytda oshiqning soda (sodda, toza) qalbiga yorning la'l kabi labining xayoli tushganligi bilan bog'liq fikrlar berilgan. Shuningdek, bu xuddi shisha ichiga novvot solingan tarzida ifodalangan. Baytda oshiqning qalbi shishaga, ma'shuqaning labi la'l va novvotga qiyoslangan. Muallif istiora san'atidan (ma'shuqaning labini la'l (qizil rangli tosh) o'rinni foydalanib o'ziga xos tasvir yaratgan. Mazkur g'azalning har bir baytida ma'shuqa go'zallik uzvlaridan biri tasvirlangan:

Orazing mehrida og'zingdur gadolig' qilg'onim,

Haq seni xurshid qilmish, zarrae bergil zakot.

Ushbu baytda yor orazi (yuzi)dagi eng chiroyli, maftunkor a'zo – bu uning labi ekanligi madh etiladi. Shoir juda go'zal, o'ziga xos tasvir yaratadi, ya'ni Haq taolo yorni “xurshid” – quyosh qidi, oshiq shu “quyosh”dan birgina zarrani “zakot” sifatida berishidan umidvor. Aytish lozimki, yorning go'zalligi oshiqni

gado qilgan. Oshiq mana shu “gadolik” maqomi imkoniyatidan foydalanib, yoridan zarracha bo’lsa-da, zakot berishini o’tinib so’raydi. Shoir mazkur baytda mutanosub so’zlar guruhi orqali (xurshid, zarra; oraz, og’iz) fikr ta’sirchanligiga erishgan. Qolaversa, istiora (xurshid) ham o’rinli ishlatilganki, bu holat, ya’ni istiora orqali badiiy mulohaza bayonini keyingi baytda ham ko’ramiz:

To ko’nguldin bosh chiqarmish har taraf paykonlaring,

Qush bolasidek bo’lubturkim, bo’lur temurqanot.

Ushbu baytda ma’shuqa paykonlari ta’rifi keltirilgan. Paykon so’zining quyidagi ma’nolari mavjud:

1) kamon o’qining uchi, o’q uchidagi metall bashoq;

2) tikon;

3) kiprik.

Bu baytda kiprik ma’nosida qo’llanilgan bo’lib, yorning mijgoni shu darajada maftunkor va uzunki, oshiq ko’ngligiga qadalgan. Shoir oshiq ko’ngliga qadalgan ma’shuqa kiprigini qush bolasiga tashbeh etyapdi. Sababi qush bolasining ham tuklari siyrak va paykon kabi tik bo’ladi. Ana shu o’xshashlik asosida shoir yor mijgonini qush bolasiga o’xshatgan. Shoir mahorati yana shunda namoyon bo’ladiki, istiora (paykon) orqali kiprik nazarda tutilsa-da, uning uchli, o’tkir ekanligi ham nazarda tutilgan. G’azal davomida fikr ta’sirchanligi oshib boradi. Keyingi baytda shoir ma’shuqani ko’rmak –oshiq uchun tiriklik ekanligiga urg’u bergan:

Vasl umidig’a tilarmen umr, lekin voykim,

Sensizin ko’rsam tirikmen, o’lturur meni uyot.

Baytdan vasl umidiga umrimni bag’ishlayman, lekin, vohkim, tirikligimdan o’zimni sensiz ko’rsam, men uyatdan o’laman, degan ma’no anglashiladi. Ushbu bayt orqali ham majoziy ishq, ham ilohiy muhabbat talqinini ko’rish mumkin. Ya’ni oshiq o’zining Haqqa bo’lgan ilohiy ishqini, u doim Alloh vasliga erishish ishtiyoqida ekanligi, tirik ekan ma’shuqaga bo’lgan muhabbati qalbidan ketsa o’lib qolishi mumkinligini tasvirlagan. Oshiq uchun yor ishq va unga erishish ishtiyoqi tiriklikning garovidir. Baytda tiriklik va o’lim so’zlari orqali tazod san’ati imkoniyatidan keng foydalanilgan. Navbatdagi baytda shoir ko’ngilga murojaat qiladi:

Istasangkim, ul quyosh chiqqach sanga qilg’ay tulu’

Ey ko’ngul, g’am seli yetgach, tog’dek tutqil sabot.

Ey ko’ngul, g’am seli kelganda, qaddingni tog’dek bardam tut, agar sen istasang, quyosh chiqqanda, albatta, senga tulu’ (ko’rinish) beradi. Ushbu baytda shoir ko’ngil qanchalik nozik bo’lsa ham, hamisha tog’dek mustahkam bo’lishi kerakligini, agar inson o’zi xohlasa, hatto, quyoshning ham unga tikka ko’rinishi (inson har qanday ishni o’zi xohlasa qila olishi nazarda tutilgan) mumkinini tasvirlagan. Baytdagi go’zal ifoda istiora, tazod, mubolag’a kabi badiiy tasviriy vositalar orqali ta’minlangan. G’azal maqtasida fikrlar xulosalangan:

Ishqing o’tin gar Navoiy desakim aylay raqam,


So’zidin kuyar qalam, qarur qaro, erir davot [1, 92].

G’azalning xotimasini quyidagicha izohlash mumkin. Agar Navoiy yorning ishq o’tini va u bilan bog’liq tafsilotlarni yozay desa, uning so’zidan qalam kuyadi, siyoh tugaydi, siyohdon erib ketadi. Chunki oshiqning ma’shuqaga bo’lgan ishq shunchalik baland va o’ta ta’sirliki qalamni kuydirib, davotni eritadi. Ushbu baytda shoir qalam, siyoh, raqam (yozuv), qaro, davot (siyohdon) kabi uyadosh so’zlarni qo’llash orqali tanosub san’atidan, yorning ishq o’tini tasvirlashda esa mubolag’a san’atidan unumli foydalangan.

Xulosa qilib aytganda, o’zbek mumtoz adabiyotida yuksak maqom egallagan g’azal janri Alisher Navoiy ijodida taraqqiyot bosqichiga ko’tarilgan. Shoir ijodida g’azal nafaqat son jihatdan, balki sifat va yangilanish jihatidan ham yuksaldi. Chunki uning g’azallaridagi ma’no qatlami, so’z qo’llash mahorati o’ziga xosligi bilan ajralib turadi. Tahlilga tortganimiz g’azalda ishq va oshiqlik darajasi, ma’shuqa husni ta’rifi bilan bog’liq badiiy mulohazalar takrorlanmas va badiiylik libosiga o’ralganligi bilan ajralib turadi.

ADABIYOTLAR:

1. *Навоий Алишер. Мукаммал асарлар тўплами. XX жилдлик. I жилд. Бадоеъ ул-бидоя.* – Тошкент: Фан, 1987. – 92 б.
2. *Навоий Алишер. Мукаммал асарлар тўплами. XX жилдлик. V жилд. Бадоеъ ул-васат.* – Тошкент: Фан, 1990. – 528 б.
3. *Навоий асарлари лугати. Тузувчилар: П.Шамсиев ва С. Иброҳимов.*
4. *Носиров О., Жамолов С., Зиёвиддинов М. Ўзбек классик шеърятини жанрлари.* Тошкент: Ўқитувчи, 1979. – 184 б.
5. *Ҳаққул И. Навоийга қайтиш.* – Тошкент: Фан, 2007. – 224 б.



**"SCIENTIFIC REPORTS
OF BUKHARA STATE
UNIVERSITY"**

The journal was composed
in the Editorial and
Publishing Department of
Bukhara State University.

Editorial address:

Bukhara, 200117
Bukhara State University, main
building, 2nd floor, room 219.
Editorial and Publishing
Department.
[https://buxdu.uz/32-buxoro-
davlat-universiteti-ilmiy-
axboroti/131/131-buxoro-davlat-
universiteti-ilmiy-axboroti/](https://buxdu.uz/32-buxoro-davlat-universiteti-ilmiy-axboroti/131/131-buxoro-davlat-universiteti-ilmiy-axboroti/)
e-mail:
nashriyot_buxdu@buxdu.uz

Printing was permitted
29.12.2025 y. Paper format
60x84,1/8. Printed in express
printing method. Conditional
printing plate – 35,30.
Circulation 70. Order № 30.
Price is negotiable.

Published in the printing house
"BUKHARAHAMD PRINT" LLC
Address: Bukhara, Hofiz tanish
Bukhari street, 190 B-house